




# SALOHIYAT - MEZONI



10

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT  
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI

ILMIY MAQOLALAR

TO'PLAMI

*«SALOHIYAT MEZONI»*

10-SON



NAMANGAN-2016

Mazkur maqolalar to‘plami Namangan Davlat universiteti Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasining 2016 yil 16 noyabrdagi 4-sonli yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

**Mas’ul muharrir: t.f.n. B. Talapov**

Mamatov O. f.f.n., dotsent

Qozoqov T. t.f.n., dotsent

Isaqova Z. f.f.n., dotsent

Po’latov D. s.f.n., dotsent

Karimova F. f.f.n., dotsent

Sidiqov Q. f.f.n., dotsent

Topildiyev O. t.f.n., katta o’qituvchi

Zamlyeva R. katta o’qituvchi

Tillayev B. katta o’qituvchi

Abdullayev A. katta o’qituvchi

Akayeva M. yu.f.n., dotsent

Umarov J. katta o’qituvchi

L.Dadabayeva o’qituvchi

Ilmiy to‘plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2016 yil 26 dekabr kungi 11-sonli yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.



**© Namangan davlat universiteti, 2016 yil**

# O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakatimizda milliy demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy kafolati

*Talapov Bahriiddin,  
t.f.n., dotsent, Milliy g'oya,  
ma'naviyat asoslari va huquq  
ta'limi kafedrasi mudiri*

Bundan 25 yil muqaddam - 1992 yilning 8 dekabri kuni mamlakatimiz parlamentining sessiyasida mustaqillik Konstitutsiyasi, deb nomlangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinib, amalga kiritildi. Bu ulkan voqeaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati yillar o'tgan sayin xalqaro maydonda va mamlakatimiz hayotida yanada ortib bormoqda. Zero, Bosh Qomusimiz tinchligimiz, osoyishtaligimiz, jahon hamjamiyatidagi muloqotlarmiz tanyachi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy demokratik taraqqiyot jarayonlarining huquqiy asosi sifatida hizmat qilmoqda.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I. Karimov Asosiy Qonunning mazmun-mohiyatini ochib berar ekan Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining bir yiligi munosabati bilan so'zlagan nutqida shunday deydi: «Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi, Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir. Shu ma'noda Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. ... Konstitutsiyamiz tom ma'noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir.»<sup>1</sup>

Darhaqiqat, asosiy qonunimiz eng avvalo ko'p asrlik dinimiz, milliy urfatlarimiz qonuniyatları va eng yuksak saviyada, jahon andozalariga mos holda hamda dunyoviy huquq normalari talablari asosida yaratilganligi jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda.

Konstitutsiyada davlatimizni konstitutsiyaviy boshqarish tamoyillari, ya'ni hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsiplari, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi, vijdon, so'z, fikrlash va e'tiqod erkinligi, inson huquqlarining kafolatlari, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinishi mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, asosiy qomusimizda biz qurayotgan demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining qiyofasi, uning o'ziga xos belgi, xususiyatlari va shakli o'z ifodasini topgan. Unda xalqimiz oliy maqsadi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan insonparvar huquqiy davlat hamda adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish ekanligi alohida ta'kidlanagan.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov, «Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan g'oyani o'rtaga tashlab, insonning jamiyatda tutgan o'rni, uning ijtimoiy hayotdagi mavqeい hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi vazifalari to'g'risida to'xtlib: «Shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerak-ki, unda kuchli markaziy hokimiyat o'z sa'yи harakatlarini mudofaa,

<sup>1</sup> Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг хукукий кафолати. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Т.2. Т.2. Узбекистон, 1996, 93-6.

davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib-intizomi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimi shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umummilliy vazifalariga qaratmog'i zarur. Boshqa masalalarni hal etish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga o'tkazilishi lozim»,<sup>2</sup> deb ta'kidlagan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlarga asosan mamlakatimizda milliy demokratik taraqqiyotning to'la ijtimoiy-huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, fuqarolik jamiyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoat birlashmalarini tashkil etish, ularning faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida jamoat birlashmalarining erkin va faol ishtirok etishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari hamda nodavlat, notijorat tashkilotlarining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari bilan tartibga solingan.

Jumladan, Konstitutsiyamizning XIII bobida mamlakatimizda jamoat birlashmalarining erkin va faol harakat qilishlari, ularning fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonidagi ishtirokini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyamizning ushbu bobi normalariga mos holda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquqlari va kafolatlari to'g'risida», «Nodavlat notijorat tashkilot to'g'risida», «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida» hamda «Jamoat fondlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy xarakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, halqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, xarbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qilanganadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ta'qilanganadi.

Demokratik jamiyatning muhim tamoyili-mamlakat hududida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari hamda

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикбалигининг асосий тамойиллари. Ватан саҳдагоҳ каби мукаддасидир. Т. 3. Т.: Ўзбекистон, 1996, 12-6.

nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkil etilishi va faol harakat qilishlari bilan belgilanadi.

Konstitutsiyamizga muvofiq, fuqarolarning o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalaniib, davlatning siyosiy hayotida siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa demokratik institutlar orqali tobora keng ishtirok etishlari mumkin.

Jamoat birlashmalarining o'z ustavlarida nazarda tutilgan asosiy maqsad va vazifalarni bajarish imkonii O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Aynan shunday kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo'lgan huquqlarini ruyobga chiqarish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatni bu - erkin, demokratik huquqiy tsivilizatsiyalashgan jamiyat bo'lib, unda yakka hokimlik rejimiga, sinfiy adovatga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlik qilishga o'rinni yo'q. Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, ahloq, insonparvarlik, adolat ustuvorlik qiladi.

Bu jamiyatda ko'p ukladli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlari muvozanatga keltirilib turiladi.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolarning davlat oldidagi majburiyatlari, asosan, qonunlarga itoat etish va soliqlarni to'lab borishdan iboratdir. Albatta, muayyan vaziyatlarda fuqarolar oldida ularning ijtimoiy, mehnat, tadbirkorlik faoliyati, xizmat, harbiy, oilaviy burchlarini ado etishlari bilan bog'liq mas'uliyatlar ham mavjud bo'ladi. Ammo ushbu tizimda vertikal aloqalar emas, balki, asosan, gorizontal aloqalar ustuvorlik qiladi.

Fuqarolik jamiyatni fuqarolar va ularning erkinliklaridan boshlanadi. «Fuqaro» tushunchasi «Mustaqil», «Teng huquqli», «Qadr-qimmat» kabi tushunchalarning sinonimi sifatida tushuniladi. Tarixda fuqarolik jamiyatni hamma vaqt turli hil sulolaviy munosabatlarda inson huquqlarining poymol etilishiga qarama-qarshi qo'yilagan.

Fuqarolik huquqiy jamiyatda ikkita tamoyil ustuvorlik qiladi. birinchiga ko'ra, har bir odam sud tomonidan aybdor, deb topilmaguncha, erkin va teng huquqli fuqaro bo'lib qolaveradi. Ikkinchidan, har bir erkin fuqaro istagan tarzda qonun doirasida, qonun va ahloqqa zid bo'limgan holda harakat qilishi mumkin. Birinchi tamoyilga ko'ra, xar bir odam aybi qonun jihatidan huquqiy isbotlanmagan bo'lsa, u xamisha halol to'g'ri va aybsiz hisoblanadi. Ikkinchchi tamoyilga binoan erkin fuqaro qonun va ahloqqa zid bo'limgan har qanday hatti-harakatni qilishi mumkin.

Fuqarolik jamiyatni jamoatchilik tizimi bo'lib, unda o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan jamiyat tushuniladi. Mamlakat rivojlanib, davlat idoralarining vakolatlari kengayib borgani sari, davlat boshqaruvining turli hil vazifalarini halqqa berib borishi, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlari vakolatlarini kengaytirib, takomillashtirib borishi lozim. mazkur tizimni shakllantirishning muhim mezoni demokratik jarayonlarni tezlashtirish va boshqaruv tizimiga keng halq ommasini faol jalb qilishni talab qiladi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish fuqarolardan siyosiy, huquqiy, ma'naviy yuksaklikni talab etadi. Chunki, fuqarolik jamiyatida fuqarolar har bir qilayotgan harakatida va faoliyatida o'z manfaatlardan ham umumdavlat, umumhalq manfaatlarni yuqori qo'yib fikrashi va ish yuritishi zarur. Bunday jamiyatda ijtimoiy hayotga katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi inson hayotini saqlash, maqsad. orzu va niyatlarini shu jamiyatdagi demokratik institutlar, uyushmalar va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Fuqarolar ushbu tashkilot va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar hamda inson huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan izchil siyosat fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo'lган o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari hamda jamoat birlashmalarining o'r'in va ahamiyatini tobora oshirmoqda.

## **Talaba – yoshlar ma'naviy – axloqiy tarbiyasining dolzarbligi, uni amalga oshirish vositalari**

**B. Tillayev,**  
*Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi*

Hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasi bo'lGANI uchun yosh avlodni ma'naviy - axloqiy jihatdan tarbiyalash muammosining dolzarbliji va ahamiyati ortib bormoqda. Bugungi globallashuv sharoitida, dunyo tez o'zgarayotgan, turli davlatlarning turlicha manfaatlari o'zaro to'qnash kelayotgan, binobarin, axborotlar xuriji ayj olib, yoshlar ongi va qalbi uchun mislsiz kurash tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda ma'naviy tarbiya bilan doimiy ravishda shug'ullanishimiz, bu borada bo'shlid paydo bo'lismiga aslo yo'l qo'ymasligimiz lozim. Bu masalada o'zlarini namoyon qilib targ'ibot –tashviqot ishlarini olib borayotganlarni O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Biz odamlarning ma'naviy tarbiyasini o'ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko'zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab – quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz"<sup>3</sup>.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biri davlatimiz va jamiyatimiz uchun xizmat qiladigan yetuk, sog'lom, har tomonlama rivojlangan bolalarni tarbiyalashdan iboratdir. Sog'lom avlodni tarbiyalashda bu yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

<sup>3</sup>Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т., Маънавият, 2008. -Б. 79.

Chunki, xalqimizning aqidasiga ko'ra "Insonning kuchi tarbiyadadir". Shu jihatdan qaraganda O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham o'zining boy tarixiy, ma'naviy-madaniy merosi, ming yillar davomida tarkib topgan tarbiya amallari, an'analari, axloq-odob qoidalari xazinasiga egadir. Tarbiya shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsadi va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok ettirishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir. Shuning uchun ham tarbiya yoshlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Tarbiya oldida turgan asosiy maqsad o'sib kelayotgan avlod ongiga keksa avlod dono tajribasini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir.

Ma'naviy – axloqiy jihatdan barkamol shaxs bo'lib shakllanish O'zbekiston ta'llim tizimi doirasida, uning oliv va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'llimi bosqichi uchun, barkamol shaxs modelini joriy etishning barcha yo'nalishlarini o'ziga qamrab olgan tarzda olib borilishini taqozo etadi. Ma'naviy - axloqiy tarbiyaning mazmuni: yaxlit odobli shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Ma'naviy - axloqiy tarbiyalangan shaxsda barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatni shakllanish jarayonida ma'naviy – axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib, asosiy e'tibor fuqarolar o'rtasidagi befarklik kayfiyatini yo'qotishga qaratilishi zarur, chunki fuqarolik jamiyatining mohiyati fuqarolar o'rtasidagi jipslik, birdamlikdan iborat, ya'ni bir fuqaroning ikkinchi bir fuqaroni takdiriga befarq bo'lmasligidan iboratdir. "Barchamizga ayonki, – deb ta'kidlaydi I.A.Karimov, – qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"<sup>4</sup>. Ma'naviy – axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri ham odamlardagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishdan iborat.

Ma'naviy - axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqeasi – hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shuningdek, o'quvchida axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy – axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyuştiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir. Xatti-harakatlar tizimi axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

<sup>4</sup>Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т., Маънавият, 2008, -Б.116.

- ma'naviy – axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi "kompaniya"ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzuksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

- talaba – yoshlarda ma'naviy – axloqiy fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyanuvchilarining o'z nuqtai - nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

- talaba – yoshlarda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarini tarbiyalash;

- ma'naviy - axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyanuvchilarining tajribasi, tarbiyasi qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- talaba – yoshlarda yuksak axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga riosa qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p axloqiy sifatlar – boshqalarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'amtashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to'xtata olish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Yosh avlodni tarbiyalash, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish va kamolga yetkazish muammolari doimo hukumat diqqat markazida turadi. Ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy mukammallikni mujassamlashtirgan, har tomonlama kamol topgan, ijtimoiy jihatdan faol shaxsni shakllantirish borasida sobitqadamlik bilan ish olib borilmoqda. Mustaqil O'bekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir. Talaba - yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos ham bo'ladi. Yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalarini aytish mumkin:

1. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi mumkin:

talabaning muomala madaniyati; talabaning ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar to'g'risida;

talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish — dolzarb vazifa ekanligi to'g'risida;

Vatanimiz qahramonlari va ularning jasoratlari to'g'risida;

yuksak madaniyat va ma'naviyat — jamiyat taraqqiyotining poydevori, tarix — millat ma'naviyatining negizi kabilar to'g'risida uchrashuvlar uyushtirish.

2. Hikoyalari. Bunda turli fanlardan mavzularini o'tishda o'sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

3. Tushuntirish.

4. Ma'ruza va seminar tashkil etish va uyushtirish. Ma'naviyatimizning buyuk timsollari;

jadidchilik harakati namoyondalari; ma'naviy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining roli va o'rni;

mehr va muruvvat — ulug' insoniy qadriyat; axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi; ezzulik va muqaddas kitoblar; ma'naviy-axloqiy tarbiya — kasbiy barkamollik asosidir va shu kabilar to'g'risida bo'lishi mumkin

5. Namuna ko'rsatish. Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiborga olinadi hamda "ibrat-namuna — hayot dorilfununi" ruknida faoliyatni doimo yuritib turish lozim bo'ladi. Ijobiy shaxsiy namuna — talabalar shaxsini shakllantirishda alohida o'ren egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng ob'ektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish jarayonida o'qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. Talabalar o'zlarini yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha, "Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi". Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Umuman, ta'llim-tarbiya jarayonida o'qituvchi odobi, a'lo o'qiydigan talabalarni boshqalarga namuna qilib ko'rsatishi orqali ham talabalarning tarbiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

6. Kishi ijobjiy xislat va fazilatlari insonning oljanobligi ekanligiga ishontirish. Ishontirish tarbiya metodi — talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ishontirish metodida o'qituvchi talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy intellektual va boshqa ijobjiy xislatlarini shakllantiradi, illatlarni kamaytiradi. Salbiy xislatlardan saqlaydi. Ishontirish shakllanayotgan shaxsga umuminsoniy qadriyatlarga, milliy udum va an'analarga, falsafiy dunyoqarashga asoslanib, milliy mafkuraning asl mohiyatini chuqr tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

7. Bahs-munozaralar uyushtirish. Bunda qutlug' sanalarni nishonlash bo'yicha;

allomalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bo'yicha kitob va kitob xosiyati haqida;

kasb va hunar haqida; hamkolik — taraqqiyot omili xususida; "zukkolik va bilimdonlik — aql oynasi" bo'yicha;

giyohvandlik, terrorchilik va ularning barkamol avlod tarbiyasiga ta'sirlari to'g'risida, ma'naviy yetuk va ma'naviy qashshoq insonlarning jamiyatdagi o'rni haqida;

"mustaqillik va ta'lim-tarbiya", "mustaqillik va imkoniyat hamda mas'uliyat" ruknlaridagi jarayonlar;

8. Tarbiyaviy tadbirlar va uchrashashuvlar. Bunda quyidagi holatlarda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq:

Shunday kilib, ma'naviy – axlokiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yollaridan biri.

### **Jamiyatning ma'naviy hayotida milliy g'oyaning ahamiyati**

**B.B.Ibrahimov**

*NamDu milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi*

**H.Qosimov**

*NamDu hayot faoliyati havfsizligi  
4-bosqich talabasi*

Ma'lumki, "ma'naviy hayot" tushunchasi keng qamrovli tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha o'z ichiga ijtimoiy munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat hamda axloq masalalarini o'z ichiga oladi. Mustaqillik yillarida ana shu masalalarga davlatimizda katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz bugungi kunda sharqona o'ziga xos va boshqa xalqlarning ma'naviyatini hurmat qilgan holda xalqimizga xos xususiyatlarni namoyon etuvchi jamiyatimizning ma'naviy soxasini yangilash, yanada boyitish borasida katta o'zgarishlarni amalga oshirmoqda

Bunday jarayon o'z-o'zidan kelajakda biz intilayotgan sharqona,adolatli, huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining qaror topishiga olib keluvchi ma'naviy zaminni yaratadi.

Bunday zaminning yaratilishi o'z-o'zidan jamiyatimiz ma'naviy hayotida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarga bog'liq ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Shu narsani alohida ta'kidalsh kerakki, jamiyatimiz taraqqiyotida uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, 1-Prezident Islom Abdug'anievich Karimov ta'kidlaganidek, "iqtisodiy aloqalardan muhimroq aloqalar ham bor. Bu ma'naviy aloqalardir."<sup>2</sup>

Aynan shu nuqtai nazardan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jamiyatimizning ma'naviy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish davlatimiz taraqqiyot yo'lining muhim yo'nalishlardan biri sifatida baholandi.

"Jamiyatning ma'naviy hayoti" tushunchasi haqiqiy ma'nodagi insoniy hayot, insoniy faoliyat, ma'lum ijtimoiy sohada kishilar kechiradigan hayot mazmunini anglatadi.

<sup>2</sup>. Karimov I.A "O'zbekiston. milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura". -T: "O'zbekiston", 1993 yil. 136-bet.

Bundan tashqari “jamiyatning ma’naviy hayoti tushunchasi kishilar mavjudligining real, jonli jarayoni, har qanday darajadagi mavjudligi ifodasi bo’lib, u kundalik oddiy tushunchalardan tortib, insoniyatning eng qaynoq ijodi, xayollari, ruhiy olami, hissiy kechinmalarigacha bo’lgan xolatlarni o’z ichiga oladi.”<sup>5</sup>.

Jamiyatning ma’naviy hayoti ikki xususiyati bilan tavsiflanadi. Birinchidan, jamiyatning ma’naviy xayoti kishilar hayotiy faoliyatining real jarayoni va uning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, ma’naviy hayot jamiyat hayotining mustaqil sohasidir.

Bu borada shu narsaga e’tibor qaratish kerakki, “jamiyatning ma’naviy hayoti” tushunchasining mazmun va mohiyati “jamiyatning ma’naviy sohasi” tushunchasi orqali yanada aniqlashadi.

Ushbu masalaning yana bir muhim jihat shundan iboratki, jamiyatning ma’naviy sohasi tushunchasiga butun ma’naviy hayot emas, balki uning ayrim qatlamlari yoki maxsus ma’naviy ishlab chiqarish darajasi bilan bog’liq bo’lgan tomonlar kiradi. Masalan, ilm-fan muassasalari, oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlari, litseylar, maktablar, kutubxonalar, adabiyot, san’at, muzeylelar va Shu kabilar.

Jamiyatning ma’naviy hayoti kishilarning ma’naviy jihatdan erkin bo’lishlari bilan bog’liq holda amal qiladi.

Jamiyatning ma’naviy sohasini ma’naviy chiqarish tashkil etadi. Bu jarayonda fikrlar, g’oyalari, qarashlar, tasavvurla ishlab chiqariladi va ularning asosida maskulular yaratiladi.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyoti jarayonida kishilar hayot kechiriShlari uchun zarur bo’lgan moddiy ne’matlarni yaratishlaridan tashqari o’z g’oyalari, fikrlari, tasavvur va tushunchalarini ham vujudga keltiradilar hamda o’z dunyoqarashini boyitadilar.

Yuqorida ta’kidalb o’tganimizdek, istiqlol tufayli jamiyatimizning ma’naviy hayotida juda ko’p tub o’zgariShlar amalga oshirilayotganligi davlatimizning taraqqiyotida muhim omil sifatida ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Bunday o’zgarishlardan biri sobiq SSSR davrida soxtalaShtirilgan xalqimiz va vatanimiz tarixini haqqoniy yoritiSh va uni chuqur o’rganish imkoniyatlarining vujudga keltirilganligidir.

Haqqoniy tarixni tiklash va o’rganish jamiyatimiz hayotida muhim hodisa sifatida baholanmoqda. “Zero tarix xalq ma’naviyatining asosidir”<sup>6</sup>.

Jahon davlatlarining tarixiy taraqqiyoti asosida aytish mumkinki, biron-bir xalq o’z tarixini asl holda o’rganmasdan turib, ko’p asrlar davomida yaratilgan ma’naviy merosga tayanmasdan va uni rivojlantirmasdan turib o’z jamiyatini rivojlantira olmaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda uzoq vaqt davomida buzib ko’rsatilgan va ataylab e’tibordan chetga surilgan xalqimiz va davlatimizga oid tarixiy voqealar, dalillar hamda ma’lumotlarni ilmiylik, tarixiylik va haqqoniylik tamoyillari asosida chuqur o’rganilmoqda.

<sup>5</sup> Umarov E., M.Abdullaev. “Ma’naviyat asoslari”-T: “Sharq”, 2005 yil. 19-bet.

<sup>6</sup> Karimov I.A. “Tarixiy xotirsiz kelajak yo’q”-T: “O’zbekiston”, 1998. 21-bet.

Bundan tashqari mustaqillik yillarda xalqimizning boy ma'naviy merosini va ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklash va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bunday holat, albatta, jamiyatimizning ma'naviy xayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqlol yillarda milliy madaniyatimizga, xalqiimizning ma'naviyati ravnaqigada jahon tsivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan ajododlarimizning ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi. Ularning yubileyлari mamlakatimizda va YuNESKO bilan hammkorlikda jahon miqyosida nishonlanmoqda.

Jamiyatimizning ma'naviy sohasidagi eng muhim voqeliklardan biri-bu milliy g'oya va milliy mafkuraning shakllanishi hisoblanadi.

Ma'naviyat bilan milliy g'oya va mafkurasi o'zaro uzviy bog'liqidir. Ularning bog'liqligi shundan iboratki milliy g'oya jamiyatimizning siyosiy hayotini aks ettiradi, lekin u doimiy ravishda ma'naviyatga asoslanadi. Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy mafkura ham xalqimizning boy ma'naviyatiga asoslanadi. O'z navbatida milliy g'oya va mafkurasi jamiyatimiz ma'naviyatini yanada rivojlantirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini ma'naviyatsiz tasavvur etish mumkin emas. Shu ma'noda mafkura ma'naviy faoliyat mahsuli, jamiyat ma'naviy hayoti maxsuli va ayni paytda, ma'naviy xayotga o'z ta'sirini o'tkazadigan va o'tkazib turadigan g'oyaviy omildir.

Ma'lumki, O'zbekistonda shakllantirilayotgan milliy g'oya va milliy mafkura xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qiladigan ezgu fikrlar va g'oyalar tizimidan iborat ekanligi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga bu g'oya va mafkura jamiyatimizning ma'naviy xayotida muhim ahamiyatga ega bo'liShi aniq. Bu holat o'z-o'zidan milliy g'oya va mafkurasi bilan jamiyatimiz ma'naviyatining uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Yana shu narsaga e'tibor qaratishimiz kerakki, aslida "milliy mafkura o'zining tub mohiyatiga ko'ra Vatanimiz ozodligi va mustaqilligini mustahkamlashni, Vatan ravnaqi, el-yurt tinehligi, xalq farovonligini ta'minlashni ko'zda tutadi."<sup>7</sup>.

Milliy mafkura uchun muhim bo'lgan xususiyatlardan biri shundan iboratki, u jamiyatimizning ma'naviy hayotida ilg'or g'oyalar ustivorlik qiladigan sog'lom ma'naviy muhitni yaratishga ko'mak beradi.

Shu narsa ayonki, mafkurasiz ma'naviyat yo'q va bo'lishi mumkin emas. "Mafkura quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- Muayyan g'oyaga ishontirish;
- Uyuşhtirish;
- Safarbar etish;
- Ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish;
- G'oyaviy tarbiyalash;
- G'oyaviy immunitetni shakllantirish."<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar". -T.: "Yangi asr avlodи", 2001y. 145-bet

<sup>8</sup> "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar". -T.: "O'zbekiston", 2000 y. 20-21 belalar

Ana shunday maqsadlarni ko'zda tutgan bilan birga maskura ma'naviy harakat dasturi vazifasini ham bajaradi.

Ma'naviyat va mafkuraning o'zaro bog'liqligi to'g'risida yana shu narsani aytish mumkinki, ma'naviyatning qo'lga kiritgan yutuqlarini maskura nazariy qarashlar, mbilimlar sifatida ifodalagani uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Yangicha fikrلaydigan, jamiyatimizning yanada ravnaq topishi uchun o'zining faol ishtiroki bilan hissa qo'shadigan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash ham milliy mafkuraning asosiy vazifalaridan bir hisoblanadi. Bu vazifaning hal etilishida o'z-o'zidan ma'naviyatning ham ahamiyati katta.

Shu narsani alohida Ta'kidlash kerakki, milliy g'oyaning shakllantirilishi aynan jamiyatimizning musiaqillik yillaridagi ma'naviy hayoti bilan bog'liq.

Milliy g'oya bizning erkin, ozod,adolatli, ma'naviyatl, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etishdan iborat buyuk maqsadlarimizni amalga oshirishga xizmat qiladi va ana shu maqsadlarga erishishimizni ta'minlaydi. Xalqimizning ma'naviyatli jamiyat qurishga intilayotganligi milliy mafkuramizning o'ziga xosligini ifodalaydi.

## **Роль компьютера в современной коммуникативной технологии преподавания иностранных языков**

**Ягъяева Э.  
ФерПИ, ассистент**

В настоящее время внедрение персонального компьютера, технологии мультимедиа и глобальной информационной компьютерной сети Интернет влияет на систему образования, вызывая значительные изменения в содержании и методах обучения иностранным языкам. Перед современным преподавателем встает проблема поиска нового педагогического инструмента. В своей педагогической деятельности я пришла к выводу, что в современных условиях, учитывая большую и серьезную заинтересованность обучающихся информационными технологиями, можно использовать эту возможность в качестве мощного инструмента развития мотивации на уроках английского языка.

Компьютер позволяет качественно изменить контроль за деятельностью обучающихся, обеспечивая при этом гибкость управления учебным процессом. Роль преподавателя здесь не менее важна. Он подбирает компьютерные программы к уроку, дидактический материал и индивидуальные задания, помогает учащимся в процессе работы, оценивает их знание и развитие. Применение компьютерной техники делает и позволяет осуществить обоснованный выбор наилучшего варианта обучения. Применение компьютера как инструмента для работы с информацией очень разнообразно и многообразно. Он может за несколько секунд просмотреть электронную библиотеку и найти требуемую информацию.

Специфика предмета иностранного языка обуславливает активное и уместное применение компьютера на уроках. Ведущим компонентом содержания обучения иностранного языка является обучение различным видам речевой деятельности: говорению, аудированию, чтению, письму. Обучающая компьютерная программа является тренажером, который организует самостоятельную работу обучаемого, управляет ею и создает условия, при которых учащиеся самостоятельно формируют свои знания, что и особо ценно, ибо знания, полученные в готовом виде, очень часто мимо их сознания и не остаются в памяти. Использование компьютеров на уроках английского языка - потребность времени.

В последние годы все чаще поднимается вопрос о применении новых информационных технологий. Это не только современные технические средства, но и новые формы преподавания, новый подход к процессу обучения. Использование мультимедийных средств помогает реализовать личностно-ориентированный подход в обучении, обеспечивает индивидуализацию и дифференциацию с учетом особенностей детей, их уровня обученности, склонностей. Изучение английского языка с помощью компьютерных программ вызывает огромный интерес у обучающихся.

Работа с компьютером не только способствует повышению интереса к учебе, но и дает возможность регулировать предъявление учебных задач по степени трудности, поощрение правильных решений. Кроме того, компьютер позволяет полностью устраниТЬ одну из важнейших причин отрицательного отношения к учебе – неуспех, обусловленный непониманием материала или проблема в знаниях. Именно этот аспект и предусмотрен авторами многих компьютерных обучающих программ. Обучаемому предоставлена возможность использовать различные справочные пособия и словари, которые можно вызвать на экран при помощи одного лишь щелчка по мышке. Работая на компьютере, студент получает возможность довести решение задачи до конца, опираясь на необходимую помощь. Он может создавать оптимальные условия для успешного освоения программного материала: при этом обеспечивается гибкая, достаточная и посильная нагрузка упражнениями всех обучающихся в аудитории. Кроме того трудно переоценить роль компьютера как средства осуществления контроля над деятельностью обучающихся со стороны учителя, а также как средства формирования и совершенствования самоконтроля. В затруднительных случаях компьютер позволяет ученику получать необходимые сведения справочного характера за короткий промежуток времени, предъявлять ему те или иные "ключи" для успешного решения задания.

Важной особенностью компьютера в учебно-воспитательном процессе по иностранному языку является то, что он может быть "собеседником" обучаемого, т. е. работать в коммуникативно-направленном диалоговом режиме и определенным образом, например, с графических средств,

анализатора и синтезатора речи восполнить отсутствие естественного коммуниканта, моделируя и имитируя его неречевое и речевое поведение.

Задачи модернизации образования не могут быть решены без оптимального внедрения информационных технологий во все его сферы.

## **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida hunarmandchilik ishlab chiqarishi tarixidan (Marg'ilon shahri misolida)**

*A.Sharafiddinov,  
 FarDU, tarix fanlari  
 nomzodi,dotsent*

*D.Hasanov,  
 FarDU magistranti*

Farg'ona vodiysining qadimgi shaxarlaridan biri xisoblangan Marg'ilon ko'p asrlar davomida o'lkaning iktisodiy va siyosiy xayotida salmoqli urin egallab kelgan. Shu davrlar davomida bu yerda hunarmandchilikning turli soxalari rivoj topgan. 1813-1814 yillarda Marg'ilonda bo'lган rus elchisi F. Nazarov shaxar va shaxar atrofi aholisi xaqida “ular qog'oz ishlab chiqarish bilan hamda ipak qurti boqish bilan mashg'ul bo'lishganlar. Shahar axolisi orasida xunarmandchilik va turlituman kosibchilik hunarmandchiligi juda xam taraqqiy etgan.”<sup>9</sup>-deb yozgan edi. Ular o'z mahsulotlarini ehtiyojdan xam ortikcha tayyorlashgan, ortiqcha mahsulotlar ko'shni viloyat bozorlariga, xattoki, Rossiya va Cibir bozorlariga chiqarilgan.

Darhaqiqat, tarixning guvohlik berishicha, Marg'ilon shaxar aholisining asosiy qismi hunarmandchilikning turli sohalari temirchilik, kosibchilik, tikuvchilik va boshqa ko'plab turlari bilan shug'ullanishgan. Biroq shahar ijtimoiy hayotida savdo-sotiqni yuqori darajaga ko'tarilishida ipakchilikning salmoqli o'ringa ega ekanligini ko'ramiz. Xattoki Rossiya bosqinidan so'ng hunarmandchilikning ko'plab turlari inqirozga yuz tutish holatiga kelgan bo'lsa-da, ipakchilik va undan tayyorlangan mahsulotlar o'z mavqeini yo'qotmadi, aksincha, shaharni xar tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.<sup>10</sup>

Ma'lumki, ipakchilik Marg'ilon shahrida qadimdan rivojlangan. Buto'g'rida noma'lum tarixchi shunday deb yozib qoldirgan: “X asrda Marg'ilonda to'qilgan bir darparda uchun Buxoroning butun yer xirojini bersa arziydi”.<sup>11</sup>

Marg'ilonlik ipakchilar o'z mahsulotilarini nafaqat O'rta Osiyoda, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarda namoyish etdilar va shuxrat

<sup>9</sup> Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней Азии. М.: 1968 ,18.

<sup>10</sup> Хонкелдиев Ю. Маргилон.- Ташкент, 1968 -Б.10.

<sup>11</sup> Юсупов А. 'Из истории кустарно-ремесленного занятия населения 2.Маргилана в конце XIX -начале XX в. - Ташкент, 1994 - Б.80.

qozondilar. 1886 yil Turkiston sanoat va kishloq xo'jaligi ko'rgazmasi Toshkentda ochildi. Unda ishtirok etgan Marg'ilonlik ipakchilar o'zlarining nafis va jozibador mehnat maxsulotlari bilan kurgazmaning medal va maqtov yorliqlariga sazovor bo'lishdi. Nafis matolar ustasi Marg'ilonlik Muhammad Sodiq Axmedov kichik kumush medal bilan, Mulla bobo Mullacha, Qutlug' Niyozi Xoji o'zi yetishtirgan yangi navli pilla va ipak mahsulotlari uchun ko'rgazmaning bronza medali bilan taqdirlandi.<sup>12</sup>

Marg'ilonda ipakchilik bilan bir qatorda hunarmandchilikning boshqa sohalari xam XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida rivoj topgan. Shunday sohalardan biri zargarlik bo'lib, bu qadimgi san'at turi hunarmanddan alohida mohirlik va san'atkorlikni talab qilgan. Zargarlik asosan qimmat baho metallardan ayollar uchun zeb-ziynat buyumlari: tillaqosh, uzuklar, bilak uzuklar, sirg'alar, bo'yinda taqadigan turli hajmdagi munchoqlar va boshqalarni ishlab chiqqanlar. Marg'ilonlik zargarlar tayyorlagan zeb-ziynat buyumlari o'zining nafisligi, jozibadorligi bilan ajralib turgan.

1890 yilgi Turkiston sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida Marg'ilonlik zargar Asqarali Mamadaliev ajoyib zargarlik ishi uchun ko'rgazmaning bronza medali bilan taqdirlangan.<sup>13</sup>

Marg'ilonda hunarmandchilikning turlaridan yana biri qadimiy kashtachilik san'ati rivojlangan. Hozirgi kunimizgacha saqlanib kelayotgan urf-odatga ko'ra kelin sarpolarini o'zi to'kigan nafis va jilodor kashtachilik na'munalari bilan boyitgan. Marg'ilonda hunarmandchilikning rivojlanishi hakida gapirganda yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya bosqinidan ko'plab Marg'ilonlik hunarmandlar va kosiblar soliqlar natijasida xonavayron bo'la boshladilar. Shuningdek, Rossiya zavod va fabrikalarida ishlab chikarilgan arzon turli xildagi mahsulotlarni O'rta Osiyo bozorlariga

kirib kelishi Turkiston hunarmandlari katori Marg'ilonlik hunarmandlarning ahvolini xam og'irlashtirdi. Birok o'lkada paxtachilikning rivojlanishi natijasida hunarmandlarga bo'lgan extiyoj yanada orta boshladi. Chunki hunarmand dehqonlar uchun mehnat qurollar va boshka mahsulotlarni yetkazib bergen. Shu boisdan Marg'ilonda xam temirchilik, etikdo'zlik, tikuvchilikka bu hunarmandchilik turlariga alohida e'tibor berildi. Ikkinchidan esa Rossiyadan keltirilayotgan turli xil sanoat mahsulotlari xalq extiyojini to'la qondira olmas edi. Kolaversa, shahar hayotida vujudga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar: shaharning kengayib borishi, aholining ortib borishi va hakovzolar hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talabni ortishiga olib keldi.<sup>14</sup>

<sup>12</sup> Файзиева З. Туркистонда хунармандларнинг XIX аср бошларида бутун Россия ва дуне кўргазмаларидаги маҳсулотлари. Ўзбекистон да ижтимоий фанлари, 1978, 3-сон.Б.42.

<sup>13</sup> Шу жойда, Б.43.

<sup>14</sup> Обзор Ферганской области за 1887 год. – 2. Новй Маргилон, 1889, С.71.

Ma'lumki, Marg'ilon hunarmandlari ham O'rta Osiyoning boshqa hunarmandlari singari yakka tartibda ish olib borgan. XIX asr oxiriga kelib kundalik ehtiyojlarning ortishi, hunarmandchilik korxonalarining kengayishi tufayli Marg'ilonda ham dastlabki markazlashgan hunarmandchilik manufakturalari vujudga keladi. Marg'ilonda asosan ipakchilik tarmog'i rivoj topgan bois dastlabki manufakturalar shu sohada tashkil topdi. Masalan: pillani chuvatish bilan maxsus hunarmand naychevar shug'ullanib, pilla ipini katta g'altakka o'ragan, uchinchisi esa, charxtob ipni kalavalab ishqorda piwirgan, keyingi hunarmand gazlama to'kigan, yana biri bo'yoyq bergan va hakazo.


Shuningdek, Turkiston o'lkasidagi, jumladan Farg'ona viloyat shaharlarida vujudga kelgan ijtimoiy-iktisodiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar shahardagi hunarmandchilik sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. XX asr boshlariga kelib hunarmandchilikning yangi turlari: soatsozlik, fotografiya, tipo-litografiya, muqova ustaxonalari paydo bo'ldi. Lekin hunarmandchilikning bu yangi sohalari bilan dastlab boshqa millat vakillari faoliyat ko'rsatishgan.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, Farg'ona vodisida ipakchilikning rivojlanishi kustar sanoatning rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Marg'ilon shahri va uezdida ipakchilik bilan bog'liq kustar sanoatning holatini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.<sup>15</sup>

Vil lar	Shoyi to'qish korxonalari			Bo'yoxchilik va to'qimachilik korxonalari		
	Uetav nalar soni	Ishchilar soni	Villik ishlab chiqarish so'm.	Ueta vona lar soni	Ishchilar soni	Villik ishlab chiqarish so'm.
1892	-	-	-	434	868	90800
1897	-	-	-	434	875	11080
1904	600	805	32000	101	106	3940
1905	342	1338	247350	1479	2726	106776
1906	330	995	367155	1564	2826	51640
1907	314	864	331132	62	85	11966

Marg'ilon uezdi kustar sanoatning rivojlanishi bo'yicha Farg'ona viloyati uezdlari orasida birinchi o'rinda turgan. Marg'ilon uchun xarakterli tomoni shundaki, bu yerda shoyi to'qish hunarmandchiligi juda tez sur'atlar bilan rivojlangan va oqibatda ishlab chiqargan mahsulotlari hajmi ham ortib borgan. Chunonchi, 1904 yilda ularning soni 600 tani tashkil etib, yillik ishlab chiqarish hajmi 32000 so'mni. 1905 yilda ularning soni 1479 tani, 1906 yilda – 1564 tani tashkil etgan. Shunga muvofiq ravishda ishlab chiqarish hajmi – 106776 so'm.

<sup>15</sup> Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. 2. 1, СПБ, 1911.



51640 so'mni tashkil etgan.

Shunday kilib, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Marg'ilonda hunarmandchilik oldingi davrlarga nisbatan rivoj topganligini ko'ramiz. Yangi tipdagi zavod-fabrikalarning tashkil topishiga karamasdan, Marg'ilonda hunarmandchilik o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Chunki zavod va fabrikalar mustamlaka harakterida bo'lib, mahalliy aholini kundalik xo'jalik uchun zarur bo'lgan mahsulotlar bilan ta'minlay olmas edi. Shu sababdan ham, hunarmandchilik korxonalari mahalliy aholi xo'jaligini ajralmas qismi va ularga zarur mahsulotlar yetishtirib beruvchi muhim bir tarmoq bo'lib kolaverdi.

## O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Abdurauf Xoliqov - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Fuqarolik jamiyati yangi davrning muhim nishonasi, jahon taraqqiyotining umumiyligi tendensiyasi, rivojlanish konsepsiysi, insoniyat olamini yangicha izohlash, uning fikrlash va hayot tarzi, taraqqiyot ideali, maqsad va orzusi sifatida tarix taqozosi bilan yana kun tartibiga qo'yildi. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning erkin uyushmasi sifatida individlarning shaxsiy manfaatlari va uyushma ehtiyojlarini amalga oshiradi. Fuqarolik jamiyati o'z qonuni, normativ hujjatlari, axloq va odob me'yorlariga ega bo'lgan mavjudlikdir. Fuqarolik jamiyati o'zining barcha xususiyatlari bilan bevosita davlat tasarrufida bo'lmaydi. Jamiyatni boshqarish vazifalarining aksariyati davlatdan fuqarolik va ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish organlari qo'lliga o'tishini anglatadi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining qaror topishi «o'zbek modeli»ning tamoyillariga ko'ra, bochqichma-bosqich amalga oshiriladi. U real milliy an'analar, turmush tarzi, yangicha falsafiy va siyosiy tafakkur xususiyatlaridan kelib chiqadi. O'zbekistonda qaror topayotgan fuqarolik jamiyati xalqimizning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, milliy an'analar, fikrlash tarzi va ma'nnaviy salohiyatiga, tinchlik va millatlararo totuvlikka asoslanadi. O'tish davrida «milliy manfaatlari va ehtiyojlar bundan buyon fuqarolik jamiyati...manfaati bilan yaqinlasha boradi». O'tish davri sharoitida O'zbekistonda ko'plab siyoiy partiyalar, ijtimoiy harakat, jamoat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar vujudga kelyapti. Bu - qonuniy jarayondir. «Fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlарini ifoda etish lozim bo'lgan keng tarmoqli, ko'ppartiyali tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqsa». O'tish davrida davlat bosh islohotchi sifatida «shakllantirilayotgan demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati elementlari imkoniyatlarini oshirishga har jihatdan ko'mak bermoqda». Fuqarolik jamiyati asoslari «umuminsoniy tamoyillar va me'yorlari, butun jahon demokratik qadriyatlari negizida shakllanadi». O'zbekistonda fuqarolik jamiyati

va fuqarolarnnnt o‘z-o‘zini boshqarish institutlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilyapti. Jahon sivilizatsiyasi xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz, ko‘p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aql-zakovat imkoniyatlarmiz, xalqimizning yuksak ma‘naviyati va axloqiy qadriyatlari, zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, sahovatliligi, bag‘rikengligi va jahon hamjamiatida o‘ziga munosib o‘rinni egallashga bo‘lgan istagi buning garovidir. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida o‘rtal mulkdorlar sinfi shakllanmoqda, ular esa o‘z navbatida shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir. Fuqarolik jamiyatiga xos nodavlat uyushmalar mamlakat hayatida salmoqli o‘rin egallamoqda. Hozirgi vaqtida xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi umumiyligi miqdorining va hosil qilingan milliy daromadning 70 foizi. sanoat mahsulotining 53.5 foizi, qishloq xo‘jalik mahsulotining 97.7 foizi davlatga qarashli bo‘lmagan sektor hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Respublikamizning birinchi Prezidenti I. A. Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida» asarida fuqarolik jamiyat qurilishida siyosiy boshqaruv organlarining o‘rni va roli bataysil tahlil qilindi. Davlat hokimiysi va boshqaruv organlari o‘z faoliyatida hokimiyatlarni taqsimlash tamoyillariga amal qilib, islohotlarni amalga oshirishda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Mustaqillik yillarda davlat hokimiysi, mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarining vakolatlari kengaytirildi. Turli siyosiy va ijtimoiy harakatlar, nodavlat tuzilmalarning faol, eng muhimi, amaliy faoliyati uchun keng huquqiy makon vujudga keltirildi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining barpo etilishi jarayonida jamiyatning ijtimoiy strukturasida tub sifatiy o‘zgarishlar vujudga keladi, hozirgacha amal qilib kelgan ijtimoiy institutlar faoliyatida sifatiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Davr talablariga javob beradigan yangi ijtimoiy institutlar paydo bo‘ladi. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lgan tushunchalardir. Fuqarolik jamiyatni uzil-kesil shakllangandan keyin ham demokratik va huquqiy davlat u bilan bab-barobar yashashda davom etadi.

Xulosa qilib, Fuqarolik jamiyatida davlatning yumushlari ancha kamayadi, uning qator funksiyalari fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish institutlari ixtiyoriga o‘tadi. Lekin shunga qaramay, demokratik davlatning fuqarolik jamiyatidagi ahamiyati yo‘qolmaydi: davlat o‘z siyosiy maqomi, huquqi, siyosiy tartiblari va o‘ziga xos boshqarish apparatlariga ega bo‘ladi, o‘z faoliyatida ko‘proq umumxalq, butun jamiyat manfaatlarini ifoda etadi. Davlat butun jamiyatning irodasi sifatida namoyon bo‘ladi, shuning uchun ham jamiyat a‘zolari davlat irodasiga ongli ravishda bo‘ysunadilar. Fuqaro, jamiyat va davlat o‘rtasida o‘zaro munosabatlar inson huquqi va qonun ustivorligi asosida amal qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov, I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. Toshkent-«O‘zbekiston», 1998.23- bet.

2. Karimov. I. A. O'zbekiston XXI Asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. «O'zbekiston», 1997. 75-bet.

## O'qish darslarida konstitutsiya saboqlqrini o'rgatish yo'llari

G'oyibnazarov Nargiza,

Namangan VXTXQTM**OI**

maktabgacha, boshlang'ich va

maxsus ta'lif kafedrasi katta

*o'qituvchisi*

Ma'lumki, yoshlar huquqiy ma'naviyatini shakllanishida Konstitutsiyamiz muhim ahamiyatga ega, chunki mamlakatimizda qabul qilinayotgan barcha Qonunlar, me'yoriy hujjatlar hamda amaldagi huquqiy tizimlar faoliyati bosh qomusimiz Konstitutsiyaga asoslanadi.

Konstitutsiya yoshlar uchun tunganmas bilimlar xazinasidir. Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan me'yoriy hujjat bo'lib, uning mazmuniga insonparvarlik g'oyasi singdirilgan. Insonning, har bir fuqaroning haq-huquqlarini qonuniy ehtiyojlarini himoya qilish bosh qomusimizning oliy maqsadidir. Zero, prezidentimiz aytganlaridek, **“Bugun esa inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa huquq hamda erkinliklari muqaddas bo'lib, davlat himoyasidadir”**.<sup>16</sup>

Ta'kidlash joizki, Konstitutsyaning barcha moddalarida inson va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, hayotini yaxshilash, xavfsizligini ta'minlash ko'zda tutilgan. Uni o'quvchi-yoshlar o'qib, mazmun-mohiyatini tushunishi va qalbiga jo qilishi muqaddas burchdir. Shunday ekan, Konstitutsyaning har bir muddasiga e'tiqod bilan yondashish, ularni hurmat qilsih, qo'yilgan talablar o'quvchi-yoshlar tomonidan bajarilishi hayotiy e'tiqodga aylanmog'i zarur.

Biz bilamizki, inson tafakkuri bolalikdan shakllanadi. Shuning uchun maktabgacha, muktab va muktabdan tashqari ta'lif tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini kontseptual asosda, yagona tizim va aniq chora-tadbirlar ko'lamida, barcha bosqichlarda va hududlarda muntazam, uzlksiz olib borish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda yurtboshimizning: **“Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lif-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir”**<sup>17</sup>, - degan fikrlarini ta'kidlamoqchiman. Chunki ota-bobolarimiz qadimdan bebafo boylik bo'lmissa ilm-u ma'rifat, ta'lif-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilgan.

Albatta, ta'lif-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan, boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lif-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Sababi – kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda,

<sup>16</sup> Karimov I., Bizdan ozod va obod vatan qolsin, 2-kitob, T., "O'zbekiston", 1996, 95-bet.

<sup>17</sup> Karimov I., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, 60-bet.

xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek. "**Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi**".

O'quvchining ongi bir daftар misol – uni nima bilan to'ldirsak, shu bilan boyib boraveradi. Demak, shuni ta'kidlash joizki, bola ichki dunyosini, aqlini uning yoshiga mos fikrlar, g'oyalar bilan to'ldirishimiz darkor.

Muhimi o'quvchilarimiz qalbini ilm, ma'rifat nuri bilan qondirib sug'orish, ularda qat'iy ishonch, doimiy uyg'oq ruhni shakkantirish kerak. O'quvchi qalbiga yo'l topish o'qituvchi va murabbiylarimiz uchun bugun har qachongidan ham muhim. Chunki barkamol avlod, yangi tafakkur sohiblarini biz axborot xurujlari kuchaygan, yot g'oyalar, xalqimiz mentalitetiga mos kelmaydigan turmush tarzi ko'rinishlari bulutday bostirib kelayotgan bir davrda amalga oshirishimiz kerak. Shu ma'noda, o'rganish va yangilik qilishdan to'xtamaslik, ishni tizimli ravishda tashkil etish, sog'lom kuchlarga tayanish, mas'uliyatni unutmaslik lozim. Aynan shu muhit o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalaydi. Ularni mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, istiqlolning dastlabki kunlarida xalqimiz belgilab olgan barcha yuksak maqsad va vazifalarning markazida farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi.

O'sib kelayotgan avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yaratilgan zamonaliviy moddiy-texnikasidan oqilona foydalanishni ta'minlash, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish; ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish uchun sharoitlar yaratish; yoshlar o'tasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, tashqaridan kirib kelayotgan tuban "**ommaviy madaniyat**" ning turli illatlari xavfi va zararli ta'sirlaridan himoya qilish kabi kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi faoliyatimizni, belgilagan rejalarimizni og'ishmay amalga oshirishni talab etadi.

Milliy mafkuramizning bosh "**Obod va ozod vatan, erkin, farovon hayot barpo etish**" g'oyasi asosida barkamol avlod tarbiyasi bizning hayotimiz mazmuniga aylanadi va ishonch bilan maqsadga erishamiz deb ayta olamiz. Buning uchun o'qitish jarayoniga javobgar bo'lgan kishilar millatning, mamlakatning taqdiri juda ko'p jihatdan boshlang'ich ta'lim zimmasida ekanligini unutmasliklari kerak. Boshlang'ich inf o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarini oshirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ana shunda biz mustaqil fikrlaydigan, erkin va barkamol avlodni voyaga yetkaza olamiz. Chunki darsliklarda berilgan mavzular zamiriga singdirilgan mazmun-mohiyatni anglab yetgan pedagoggina o'quvchi ongiga yenkaza oladi. Masalan, 1-4-sinflar o'quv rejalarini va dasturi asosida o'qish darsliklariga kiritilgan mavzular orqali

Konstitutsiyamizning moddalarini tushuntirib berish qomusimizni anglab yetishga asos bo'лади.

Hozirgi kunda ta'lrim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'naviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topish, mustail o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda "**Aqliy hujum**", "**Fikrlar hujumi**", "**Tarmoqlar**" metodi, "**Sinkveyn**", "**BBB**", "**Beshinchisi ortiqcha**", "**6x6x6**", "**Bahs-munozara**", "**Rolli o'yin**", FSMU kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Quyida o'qish darsliklari (2-4-sinflar)dagagi mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish va ular orqali konstitutsiyanı o'rgatish, ma'naviy tarbiya berish yo'llari bo'yicha fikrlarimizni bayon etamiz.

4-sinf "**O'qish**" kitobidagi "**Ertaklar mamlakatida**" ruknida berilgan "**Ilm afzal**" ertagini o'tishda oqitishning zamonaviy usullarini tatbiq etib, "**Nima uchun ilm afzal?**" degan savolga o'quvchilarning javoblari olinadi. Javoblar umumlashtirilib, hozirgi kun bilan qiyoslanadi va konstitutsiyaning 41-moddasi(Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi<sup>18</sup>)da bilim olish huquqi berilganligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinib tushuntirib beriladi. Shuningdek, maqollar orqali ham konsitutsiyaning mazmun-mohiyatini tushuntirib bersa bo'лади. Masalan, **Ilm – aql chirog'i, Bilim kuchda, Kuch – bilimda maqolları orqali bilim olish; Ona yurting – oltin beshiging, Vatanning qadrini bilmagan Oz qadrini bilmas** kabi maqollar (4-sinf, Oqish kitobi, 83-bet) orqali vatnni himoya qilish burch ekanligi uqdiriladi.

Darslikning "Ajdodlarimiz - faxrimiz" ruknida berilgan mavzular orqali fuqarolarning burchlarini tushuntirib berish mumkin. Masalan, konstitutsiyaning 49-moddasi("Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar"<sup>19</sup>)ning mazmuni tushuntiriladi. Darslikdagi "To'maris"(4-sinf. O'qish kitobi, 191-bet), "Najmiddin Kubro" (o'sha kitob, 193-bet), "Navoiy bobomlar" (o'sha kitob, 199-bet) mavzularini o'tishda milliy ma'naviyatimiz, merosimiz haqida tushunchalar beriladi va ularni asrab-avaylash burch ekanligi uqtiriladi.

Boshlang'i ch sinf darslarida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali huquqiy bilimlar berishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. IX bob, 41-modda, 9-bet.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, XI bob, 49-modda, 10-bet.

olish zarur va o'quv mashg'ulotlarining loyihalarini tuzishda quyidagilardan kelib chiqish lozim:

- didaktikaning barcha prinsiplari va qonun-qoidalariga amal qilish;
- o'quvchilar egallashi shart bo'lgan bilimlarni o'zlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishlariga urg'u berish;
- mashg'ulot uchun samarali usullar va didaktik vositalarni tanlash;
- mashg'ulot yakunida erishiladigan natijalarni oldindan belgilash;
- DTSda belgilangan talablarni singdirish va h.

Biz bilamizki, interfaol metodlarning umumiyligi maqsadi bir, ya'ni o'quvchilarni o'quv jarayonida faollashtirishdir. Bunday usullarni har bir pedagog maqsadga binoan o'zi yaratishi, adabiyotlardan tanlab olishi mumkin. Zero, davlat rahbarimizning: "**Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik**"<sup>20</sup> - degan fikrlariga javoban ta'lif va tarbiya berishning zamonaliviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

### **Dasturiy vositalarini loyihalash bosqichlari**

*Asrayev Muxammadmullo  
TATU Farg'onan filiali  
assistant*

Dastur tuzishning eng asosiy usullaridan bir bu strukturaliy dastur tuzishdir. Bu usulda dastur tuzish uchun uchta qism mavjud:

1. Yuqorida pastga dastur tushish;
2. Modulli dasturlash;
3. Strukturali dasturlash.

Yuqorida pastga dastur tuzishda dasturning yuqori qismidan boshlanadi. Dasturning asosiy qismi tuzilib, quiyi qismidagi modullar esa vaqtinchalik fakt nomlari bilan atalgan protseduralar bilan almashtiriladi. Dasturni asosiy moduli tuzilib, testidan o'tkazilgandan so'ng ketma-ket vaqtincha yozilgan modullarni yozish bilan dastur tuzish davom ettiriladi.

Modul programmalashtirishda dasturni mantiqiy qismlariga bo'linadi. Bu modullar dasturda protseduralar va funktsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Strukturali kodlash deganda har bir modulni gorizontal va vertikal qatorlarda to'g'ri nomlanishiga aytildi. Bu usul yordamida modullardan tuzilgan dasturlar ishlaydigan testidan o'tkazishi qulay modifikatsiya qilish uchun qulay dasturlar yaratish mumkin.

Dastur tuzatishning texnologik jarayoni. Dastur tuzish quyidagi bosqichlardan amalga oshiriladi:

<sup>20</sup> Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: "O'zbekiston", 2009, 15-bet.

-Vazifani qo'yilishi. Bu bosqichda dasturchi buyurtmachi yordamida yechilishi kerak bo'lgan vazifani qo'yadi. Texnik topshiriqtuziladi.

Bunda dasturning asosiy xarakteristikalarini, muddatlar va ma'sul shaxslar aniqlanadi.

-Algoritimni tuzish. Dasturchi vazifani tahlil qilib kerakli bo'lgan algoritmi tanlaydi. Tanlangan algoritm to'liq tahlil qilinadi va uning bloksxemasi chiziladi.

-Dasturlashtirish bosqichi. Dastur yaratish tili tanlanadi.

Dastur qabul qilingan algoritmda tuziladi.

-Dasturni tuzatish bosqichi.

-Dasturni testidan o'tkazish bosqichi.

Odatda dasturni testdan o'tkazishda bosqichlarga bo'lib o'rganiladi. Bunda har bir modulni tekshirishdan tortib, to butun tizimni yakuniy tekshirishlar kabi bosqichlarni oladi. Agar bunda biron bir ishonchli ketma-ketlikka yondashilmasa, ishonchli ta'minlovchi dastur olish juda qiyin. Testlash strategiyasi ikkita usuldan birortasiga asosan bajariladi: odatiy quyidan – yuqoriga qarab testlash, yoki zamonaviy yuqoridan – pastga qarab testlash amalga oshiriladi.

Quyidan – yuqoriga qarab testlash. Bu usul keng tarkalgan usul bo'lib, unda eng kuyi pog'onadagi boshlang'ich yozilgan modullar tekshiriladi. So'ngra yuqori qatlardagi elementlar dasturlanadi va testlanadi. Bu jarayon to yozilgan dastur butunlay yakunlanmagunicha davom etadi. Quyidan-yuqoriga qarab testlash usuli hozirgi vaqtida yuqoridan-pastga qarab testlovchi va dasturchilar tomonidan qo'llanilmayapti. Ularni fikricha bu usulda interfeys va algoritmdagi ko'pgina xatolar aniqlanmay qolib ketmokda. Bu esa dasturni qayta-qayta o'zgartirishdan so'ng buzishga olib keladi.

Ikkinci kamchiligi esa: har xil pog'onadagi elementlarni testdan o'tkazishda yangidan yangi testlovchi moslamalarni, drayverlarni va testlovchi ma'lumotlarni talab qilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan dasturlashda katta hajmda mehnat talab qiladi.

## Понятия иноязычной компетенции будущего инженера

**Иномов Инъомиддин**

**Абдулхамидович,**

**Старший преподаватель**

**Ферганского политехнического  
института,**

**Азимжонов Улугбек**

**Абдумаликович**

**студент 2-курса ТАТУ ф.ф.**

Чтобы дать ответ на вопрос, почему иноязычную профессионально-коммуникативную компетенность инженера следует рассматривать и формировать как результат интеграции его профессиональных (ПК),

общекультурных (ОК) и иноязычной коммуникативной компетенций, следует проанализировать общие тенденции в современной лингвистике, предписывающие изучать языковые единицы не изолированно, а в совокупности с контекстом их употребления и мыслительной деятельностью участников коммуникации. Речь идет, прежде всего, о таких направлениях, как когнитивная лингвистика, прагматика и дискурс-анализ.

Согласно Т.Г.Скребцовой, обобщившей опыт отечественных и зарубежных исследователей-когнитивистов, предметом изучения когнитивной лингвистики является языковое значение, которое следует рассматривать как связующее звено между языком и пониманием окружающего мира. В работе также подчеркивается важность контекста и общих знаний, учет которых происходит в мозгу человека параллельно с анализом языковой формы высказывания [2].

Исходя из этого, логично предположить, что учет взаимосвязи между языковыми формами и их профессиональным содержанием должен стать неотъемлемым условием эффективного обучения языку специальности. В этом случае коммуникация на иностранном языке станет средством формирования инженерного мышления и обогащения профессионально значимых знаний.

В процессе инженерной подготовки содержание профильных дисциплин может рассматриваться как профессиональная концептосфера инженера, а отдельные понятия и явления как концепты. При обучении иностранному языку для специальных целей необходимо сформировать у учащихся способность актуализировать профессиональную концептосферу в ситуациях профессиональной коммуникации.

Для этого необходимо обеспечить адекватное соотнесение иноязычных языковых форм с уже сформированными на специальных дисциплинах концептами, которые ранее существовали в памяти учащихся только на родном языке. Кроме того, иноязычные и источники информации, и сам процесс иноязычной коммуникации позволяют специалистам обогащать профессиональную концептосферу, получать новые знания об имеющихся концептах и формировать новые концепты. Чрезвычайно важно научить студентов использовать эту функцию языка в процессе коммуникативной, познавательной и научной деятельности.

Близким к концепту понятием когнитивной лингвистики является понятие фрейма, который представляет собой единицу знаний, некую структуру или каркас, посредством которой в памяти кодируются представления о предметах и явлениях.

В работе [1] выделены в структуре фрейма вершина или макропропозиция и так называемые слоты или терминалы, которые могут быть заполнены новой информацией. Основные идеи теории фреймов еще раз заставляют обратить пристальное внимание на тесную взаимосвязь между отдельными компетенциями учащихся и необходимость их интегративного развития.

Говоря об обучении будущих инженеров языку для специальных целей, можно утверждать, что сформированные в сознании учащихся фреймы уже содержат профессионально значимую информацию. Профессиональная компетенция помогает извлекать таковую из фреймов и использовать в соответствии с конкретно поставленной целью. Если эта цель так или иначе связана с иноязычной коммуникацией, то студент неизбежно привлекает к решению поставленной задачи и иноязычную коммуникативную компетенцию. С другой стороны, иноязычная коммуникативная компетенция часто является средством получения новых знаний и заполнения «слотов» новой, профессионально значимой информации.

Еще одним ключевым понятием в когнитивной лингвистике и лингвопрагматике является общность знаний, убеждений, предположений, которая обеспечивает понимание участниками коммуникации друг друга и постоянно обновляется в процессе общения.

В англоязычной научной литературе данное понятие обозначается термином «common ground». Эта общая информация постоянно обогащается – при условии, что его участники понимают друг друга. Для обозначения данного процесса Г.Кларк ввел термин «grounding» [3]. Со своей стороны, И.Кечкеш предлагает выделять в составе common ground три компонента:

- информацию, которая является общей для участников общения;
- понимание контекста ситуации;
- взаимоотношения между участниками коммуникации.

Исследователь выделяет два типа «common ground». Первый тип (core common ground) обозначает статичные знания или убеждения, которые являются общими для участников какой-либо группы. Они – следствие накопленного опыта или имевших место ранее коммуникативных актов. Существуют три категории таких знаний: общие знания о мире (common sense), знание культурных норм и убеждений определенного народа или сообщества (culture sense) и знания о языковой системе, используемой для общения (formal sense). Существует и другой тип common ground – динамичные знания, которые приобретаются в процессе коммуникации и во многом обусловлены контекстом ситуации общения – emergent common ground [4].

Проецируя эту классификацию на процесс профессионального иноязычного общения инженеров, можно утверждать, что:

- common sense соответствует профессиональной компетенции участников коммуникации;
- culture sense – их социокультурной компетенции;
- formal sense – иноязычной коммуникативной (в большей степени лингвистической) компетенции.

Что же касается emergent common ground, то в его создании участвуют все три компетенции одновременно. Таким образом, в процессе коммуникации одновременно задействуются все три компетенции, что подтверждает необходимость их взаимосвязанного развития в учебном процессе.

### O'zbekiston - ko'p millatli davlat

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Qudratjon Abdumajitov - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Etnik va millatlararo ziddiyatlar siyosiy hususiyatga ega. Dunyoda yashayotgan etnoslarning ko'pchiligi o'z milliy davlatchiligiga ega emasligi hisobga olinsa, etnik o'zligini anglashning o'sishi yana uzoq vaqt davomida hozirgi dunyo siyosiy taraqqiyotining dinamikasini belgilab turadi. "Shu sababli, - deb yozadi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov, - ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik millatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda

Ko'p elatilik omili demokratik o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va fuqarolik jamiyatni qurilishining tezlashtiruvchi ta'sirchan vosita bo'lib qolmog'i darkor. Shu munosabat bilan "bir millat o'z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining huddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro'yobga chiqarmasligi lozim. Ba'zi millat, etnoslar vakillarining boshqalarga takabburlik bilan mensimay munosabatda bo'lishi kabi holatlar yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday sharoitga barham berish lozim". Millatchilikni ham, din bilan bo'lganidek, siyosatlashtirishdan qochish lozim. Diniy va milliy belgilarga ko'ra siyosiy partiyalar tuzish konstitutsiya bilan taqiqlab qo'yilganligi shunday yondoshuvning namoyon bo'lishidir. Jamiyatda millatlararo totuvlikni ta'minlashda milliy istiqlol mafkurasi muhim ahamiyatga ega. «Milliy mafkura vositasida elu-yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi». Mafkura ga bunday yondoshuv amalda ham o'z ifodasini topmoqda. Aynan shu nuqtai nazar jamiyatdagi turli xil asosdagi yaniy milliy, mahalliy, diniy tartibszizliklarning, noxaq qon to'kishlarning oldini olib qolmoqda. U ham bo'lsa, davlat, prezident, hukumat olib borayotgan dono siyosatning natijasidir. Jamiyat mafkurasi, O'zbekistonning milliy mafkurasi, jamiyatning barcha a'zolari, barcha millatlari, barcha tabaqalari, barcha ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ko'zlaydi. Bu mafkura biror millatning, biror toifa yoki guruhning manfaatini boshqasidan ustun qo'ymaydi. Bu mafkura nafaqat qog'ozda, balki amalda ham o'zini ko'rsatmoqda. «Bizning jamiyatimiz etnik guruhlar va millatlar o'rtasidagi shu hududda yashaydigan har qanday odamga

o‘zini erkin va teng huquqli, deb his qilish imkonini beradigan o‘zaro munosabatlar o‘rnatalishiga intilmoqda».

Mustaqillikka erishilgach milliy o‘zlikni anglash jarayoni faqat o‘zbeklar orasida emas, balki O‘zbekistonda yashaydigan boshqa millatlar orasida ham sodir bo‘lmoqda. Shuning uchun ham Respublikamiz hukumati bunga katta e’tiborni qaratgan. 1989-yildayoq milliy madaniy markazlar tuzila boshlangan. Mamlakatimizda biror bir millat, biror-bir etnik guruh biror fuqaro o‘z huquqi kamsitilgan deya olmaydi. Milliy mafkura butun O‘zbekistonda yashayotgan millatlarning manfaatlarini nazarda tutar ekan, «odamlar ongida, milliy iftixor tuyg‘usi bilan boshqa millatlar tarixini, madaniyati va qadr-qimmatini hurmat qilishning dialektik uyg‘unligini ta‘minlash zarur». Ko‘p millatli O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan beri milliy masalaga, O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi millatlar o‘rtasidagi tinch totuvlikka juda ham nozik bo‘lgan milliy his tuyg‘ularga, milliy, madaniy, ma’naviy ehtiyojlarni har tomonlama qondirishga nozik did, o‘tkir farosat bilan yondoshmoqda. Buning sababi milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va o‘ziga xosligi, ularning bir-birini boyitishi kabi masalalarga jiddiy yondoshilganligidir.

Hulosa qilib, ko‘p millatli davlatda milliy xususiyatlarga to‘g‘ri yondoshilsa, bu davlatlarning ma’naviy, madaniy taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. I. Karimovdag‘i ko‘p millatlilikka yondoshuv boshqa davlat rahbarlariga nisbatan tubdan farq qiladi, ayrimlar ko‘p millatlilik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi, degan fikrni ilgari sursa, u ko‘p millatlilik «... o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi va milliy ma’naviy qayta tiklanishning o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo‘r kuch» ekanligini e’tirof etadi.

## **Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati**

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o‘qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Dilshod Turg‘unboyev - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

O‘zbek xalqining asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatları ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Junladan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga ehtirom, o‘z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o‘tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko‘rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e’tibor berish singari ko‘plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz. Misol uchun,

tilimizdag'i mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan iboralarni olaylik. ...Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sisatida vujudga kelgan, ongu-shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir".

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlaboq ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchilagini muhim manbayi hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'lab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas.

Bizning xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini - oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Qadimdan urf bo'lib kelgan azaliy an'ana va qadriyatlarmizni, milliy marosim qo'shiqlarimizni to'y marosimlarida o'rni bilan ijro qilish ularning boqiyligini, abadiyligini ta'minlaydi, yosh avlod qalbida ularga nisbatan mehr va qiziqish hissini uyg'otadi. Ammo bugungi kunda ko'plab milliy urf-odatlarimiz unutilib borilayapti, ularga nisbatan bepisandlik bilan qaralyapti. Albatta, bunday beparvolikning xosiyati yaxshi emas. Chunki har bir qadriyatimiz zamirida o'ziga xos ma'no-mazmun bor. Milliy ma'naviyatimiz shakllanishida, ma'naviy ongimiz yuksalishida milliy odat va an'analarimizning o'rni beqiyos. Shunday ekan, ularni o'rganish va amalda qo'llash orqali ham ma'naviyatimizni yuksaltirishimiz va milliy qadriyatlarmiz umrboqiyligiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarmizdan foydalanish, ularga namuna ko'rsatish, ibratli filmlardan namoyish etish, yozma manbalardan foydalanish, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish jarayonida milliy qadriyatlarmizga ko'proq murojaat etish, xalq og'zaki ijodiga oid janrlar orqali kechalar, tadbirlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmiy tahlil qilish bilan bir qatorda bolaga milliy urf-odatlar va an'analarimizning qay daraja beqiyos ma'naviy meros ekanligini ongiga singdirishimiz zarur. Bola o'sib va rivojlanib borgani sari tarbiya vazifalari-murakkablashib, chuqurlashib, tabaqlashib boradi. Va uni tashil etish

jarayoniga ham turlicha metodik shartlar qo'yiladi. O'quvchi yoshlarning yosh xususiyati, mustaqil fikrlashi, qabul qilishi va idrok etishlari ham hisobga olinadi. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, o'quvchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borilishini tahminlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalariga amal qilishni talab etadi. Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsnинг ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi.

Hulosa qilib, O'zbek xalqi azaldan milliy an'ana va qadriyatlarga, urf-odatlarga boy bo'lgan qadimiy xalq. Bu xalqning nafaqat biror-bir marosimi, balki butun umri, har bir kuni ma'lum qadriyatlar, milliylik nafasi usfurib turuvchi harakatlar asnosida kechadi. Xalq har bir qadriyat va an'analarini ulug'lovchi buyuk xalqdir. Aslida uning buyukligi ham mana shundan bo'lsa kerak. Har bir millat milliy qadriyatlarini, milliyligini va o'ziga xosligini ko'z-ko'z qilish orqali o'zligini, milliy g'ururini namoyon qiladi. O'zlikni anglash milliylikdan boshlanadi. Milliy urf-odatlarga sodiqlik va ularga amal qilish har bir insonning milliy g'ururidan darak beradi. Xalqimizning milliy qadriyatlarini doimo e'zozlab, qadrab, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish har birimizning burchimizdir. Zero, milliy qadriyat va an'analar millat iftixori, g'ururi hisoblanadi.

### **Mustaqillik - ma'naviyatning poydevoridir**

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Ma'ruf Habibullayev - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Necha ming yillik tarix davomida ne-ne xoqonlari xonlar, amirlaru shohlar o'tdi. Ularning birlari millat dovrug'ini dunyoga tarqatgan bo'lsalar, boshqalari yurtni abgor qilganligi ham sir emas. Oxirgi yuz yil davomida yurtimizning yetakchi o'g'lonlari foje taqdirga ro'baro' keldilar. Amir Olimxonning siyosatidan norizo bo'lgan Fayzullaxo'ja xalqim deya qon yutdi, ammo orzusi ushalmadi. Usmon Yusupov umrini O'zbekiston xalqi uchun tikdi, ammo xalq asoratda qolaverdi. Sharof Rashidov xalq og'irini yengil qilaman deb ko'p urindi, ammo oxiri borib xalqni ham, uning o'zini ham yomonotliq qilish boshlandi. Qaramlik kasofatidan edi bu fojialar. Yangi davrda o'zbek xalqining baxti Islom Karimov nomi bilan bog'landi.

Biz O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining mustaqil milliy siyosat, Ota yurt mavqyeini olam uzra yuksaklarga ko'tarish, mamlakatda barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash, demokratik huquqiy davlat

tizimini shakllantirish, ijtimoiy kafolatlarni mukammallashtirish yo'lidagi va boshqa qator xizmatlariga alohida o'rinn tutadi. Sobiq SSSRning xomashyo bazasi bo'lmish markaz manfaatlariga qat'iy bo'y sunuvchi yagona tizim zanjiriga qo'l-oyog'i, har bir hujayrasi bilan chambarchas bog'lab tashlangan Respublikaning asli nochor iqtisodiy-ishlab chiqarish binosi, Sobiq ittifoq parchalangach, butkul xarobaga aylangan edi. Islom Karimov bozor iqtisodiga o'tish yo'lidagi islohotlarni shunday murakkab sharoitda, shunday nosoz poydevorga tayanib amalga oshira boshladi. Bugungi kunda O'zbekistonning ahvoli Mustaqil davlatlar hamdo'stligida barqarorligi va ijobjiy siljishlari bilan ajralib turipti. Ammo biz iqtisodiy masalalarga ham batatsil to'xtalmoqchi emasiz.

Bugungi kunda aytish mumkinki, O'zbekiston jahon miqyosida o'ziga xos barqaror siyosiy mavqiy kasb etib turipdi. Jahonning eng ilg'or davlatchilik an'analarini o'zbekning milliy tabiatini bilan, o'z qadim udumlari bilan uyg'unlashtira olgan Konstitutsiyamiz – mustaqil mamlakatning asosiy qonuni - har bir sohada batatsil ishlab chiqilayotgan qonun va kodekslar bilan amalda qo'llanib, mustahkamlanib bormoqda. Bozor iqtisodiga o'tish, mamlakatning ichki iqtisodiy tizimini uyg'unlashtirish, ilg'or texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish borasida o'tgan yillar ichida ulug' ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ijtimoiy uyg'unlik, barqaror osoyishtalik, xalq birdamligi fikrlar, qarashlar xilma-xilligi bilan bahamjihat rivojlanmoqda. Turli siyosiy partiyalar o'z mustaqil yo'nalishlarini shakllantirib, siyosiy muhorabaning madaniyatli usullarini, demokratik tamoyillarni o'zlashtirib bormoqdalar. "Vatan manfaati, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi bor, g'ayratli, kuyunchak", ayniqsa, bugungi kun millat ehtiyoji va jahon talablariga javob bera oladigan yosh va talantli avlod asta-sekin maydonga kirmoqda.

Eng muhimi, xalq, millat o'zligini anglab bormoqda. Iqtisodiy va siyosiy islohotlar xalq ongiga teran yetib borishi, amalda jadal o'zgarishlar hosil qilishi uchun insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Biz totalitar davlat mulkiga asoslangan iqtisodni rad etib, mulkchilik shakllarining turli-tumanligiga asoslangan erkin bozor iqtisodiga o'tmoqdamiz. Siyosatda yakka partiya, yagona maskura zo'ravonligiga barham berib, ko'p partiyaviylik, fikr va qarashlar xilma-xilligiga yo'l ochmoqdamiz. Lekin insonlar tafakkurini eski andazalar, tor qoliqlar tugal tark etishi qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Tafakkurimiz, qarashlarimizdagi yangi tamoyillar hanuz ancha yuzada, ongimizning sirtqi qatlamlarida qolib ketmoqda, ba'zan yangi qadriyatlarni ham eski o'chovlar bilan baholashga urinmoqdamiz. Insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz bermas ekan, O'zbekistonning buyuk kelajagini qurish orzusi shirin xayolligicha qolaveradi. Ma'naviyat va maskuraga alohida e'tibor qaratilishining bosh sababi ham mana shunda.

Inson agar Haq yo'lida astoydil urinsa, ko'p ish qo'lidan keladi. Ammo insonlarda faqat fazilatlar emas, qusurlar ham bor. Masalan, g'aflat, shahvatparastlik, takabburlik. Insoniy illatlar ichida eng qattoli – xudbinlik balosi, nafs balosidir. Bu kasallik jami ahli basharga begona emas. Shunga

qaramay, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida jamiyat bu illatni qandaydir hududlarda jilovlashga erishgan. Har bir inson o‘z huquqi va mas’uliyati me’yorlarini muayyan o‘lchovlarda saqlab borishga odat hosil qilgan.

XX asrning 70-yillariga kelib, aytish mumkinki, «Sovet Ittifoqi» atalmish ulkan bir hududda voqyean «manqurtlar sultanati» shakllandi. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi yig‘ilishida Prezident I.A. Karimov bu haqda shunday fikr bildiradi: “Bu tuzum o‘z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o‘z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi”. Ular yo‘q emas edi, hayotimizda mavjud edi. Xalq ongini, uning barcha faoliyatini markaz izmiga bo‘ysundirish asosan o‘shalarga ishonib topshirilgan edi.

Allohga beedad shukrlar bo‘lsinki, bizning xalqimiz aksariyati ushbu makr domiga to‘liq tushib qolmadı. Chunki, tuzum olg‘a surgan marksistik mafkura bizning necha ming yillik ma’nnaviy merosimiz, milliy an’analalarimiz, xalqimiz ruhi uchun mutlaqo begona bo‘lib, faqat siyosiy va iqtisodiy qaramlik sharoitida chetdan zo‘ravonlik yo‘li bilan kiritilgan va shafqatsiz usullar bilan ongimizga singdirishga urinilgan edi. Ammo, taassuf bilan qayd etish lozimki, totalitar tuzumining urinishlari baribir muayyan “natija”larga erishdi. Chingiz og‘a Aytmatov juda yorqin gavdalantirib bergan “manqurtlik kasali” odamlarimiz ongida ancha-muncha tomir otib ulgurdi. 70 yillik istibdod mobaynida bolshevistik mafkuraning yakka hukmronligi, ayniqsa, 1937-1938 yil qatag‘onlaridan keyingi avlodni o‘z milliy qadriyatlaridan, ma’nnaviy merosidan jiddiy begonalashuviga sabab bo‘ldi. Ana shu majburiy yuqtirilgan illat ba’zi insonlar ruhiyatida hanuz qaramlik asorati sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Hulosa qilib, Bugungi kunda ham ushbu ma’nnaviy poklanish jarayoni davom etmoqda. Yangicha, mustaqil tafakkur zarurati hanuz dolzarb, milliy mafkurani shakllantirish, xalq ma’nnaviyatini yuksaltirish bugunning ham eng muhim vazifasidir. Mustaqillik mas’uliyati ayni shu vazifalarni mukammal hal etishni taqozo qilib turibdi.

### **Farzand tarbiyasida ota-onas mas’uliyati**

*Abrorjon Mamadaliyev*

*NamDU qoshidagi I-Akademik  
litsey Milliy g’oya, ma’nnaviyat  
asoslari va huquq ta’limi fanlari  
o’qituvchisi*

Ma’nnaviyat insonni o‘zini va milliy o‘zligini anglashi, millat tarixi ahloqiy va diniy qadriyatлarni, urf- odat va an’analarni qolaversa insonparvarlik, vatanparvarlik, tinchliksevarlik kabi omillarni va bunyodkor g’oyalarni mujassam etuvchi inson shaxsidagi botiniy va zohiriyxususiyatlarni belgilashda asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Insonlar onggi, shaxs ma'naviyati qanchalik yuksak bo'lsa unda uning ongida yod va buzg'unchi bo'lgan buzg'unchi g'oya va kuchlarga qarshi turuvchi va kurashuvchi bonyodkor g'oyalar va sog'lom immunitet xosil bo'ladi.

Aynan shu maqsadda bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lif olishi va mustaxkam tarbiya bilan kamol topishiga katta e'tibor qaratiloqda.

Chunki o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyasiga biz yaxshilab e'tibor bermasak kelajakda u yuksak bilim egasi bo'lishi mumkin ammo u, inson sifatida, jamiyatga kerakli bo'la olmaydi. Chunki uni tarbiyasida yo'l qo'yilgan xato bir kun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarni tarbiyasi va ta'lif olishiga jamiyatimiz, va ota – onalarimiz tomonidan katta mas'uliyat bilan yondashilmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyani dastlan tarbiya o'chog'i bo'l mish oiladan oladi. So'ngra u bir necha maskanlar bilan bog'laiq holda olib boriladi. Masalan, Ola, mahalla va ta'lif muassasalarini misol keltirish mumkin. Bu maskanlar bolani milliy qadriyatlar ruhida kamol topishiga vatanga, oilaga, aka-uka va yaqinlariga mehr oqibatli bo'lisch kerakligini o'rgatuvchi zaruriy maskan bo'lib hisoblanadi.

Farzand oilada ota-onadan ko'plab ijobiy fazilatlarni o'rganadi va aynan shu yerda u etik va estetik jihatdan tarbiyalanadi. Milliy qadriyatlar ruhida kamol topib umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, sadoqat tuyg'ulari shakllanadi. Aynan shuning uchun yosh avlodni tarbiyasiga e'tiborli bo'lisch barobarida ta'lifni o'zini emas balki tarbiyani ham yutuqlarini ko'rish mumkinligini his etmoq kerak bo'ladi.

Tarbiyadagi yutuqlarni ijobiy yoki salbiy bo'lishi esa eng avval oiladagi oila kattalari bilan bog'liqidir. Olimlarni tadqiqotlaridan shu ayon bo'ldiki bola o'z ota – onasining xatti-harakatlarini butun hayoti davomida kuzatib boradi. Shu tufayli hayotida turli voqealarga ta'sir qilishga qodir bo'lganda obyekt sifatida o'z-o'zini anglashni dastlabki debochasi shu maskandan boshlanadi.

Oila bola uchun o'ziga xos "oyna" ya'ni tarbiya o'chog'i hisoblanadi. O'zini ko'rish uchun ota-onani va shaxsiy namunasi ham bolani mukammal tarbiyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bis ham ota-ona farzand uchun namuna bo'l mog'i lozim.

Oilaning eng muhim vazifasi – farzandlarimizni davrimizga munosib kishilar qilib tarbiyalashdir. Ota-onalar farzandlarining tarbiyasi uchun jamiyat, davlat oldida javobgar ekanliklarini yaxshi tushunib olishlari lozim. Bolaning xulq-atvori, iroda va xarakteri tuyg'u va fikrlari, yaxshi odat, malaka va ko'nikmalari avvalo oilada tarkib topa boshlaydi. Kasb-xunar ta'limi jarayonida esa bolaning shaxsi bilan aloqador bo'lgan yuqoridagi hamma xususiyatlar

ma'lum tizim vositasida yanada takomillashib boradi. O'quv tarbiya sohasidagi barcha ishlarning muvaffaqiyati, oila pedagogikasining murakkab masalalarining to'g'ri hal etilishi ota-onalar bilan kollejning mustahkam aloqasiga bog'liq. Bu aloqa qanchalik mustahkam. ta'sirchan bo'lsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etish shunchalik engil bo'ladi. Ota-onalarning o'zlari ahloq-odob qoidalariga, insonni ma'naviy jihatdan go'zal qilayotgan odamiylik va mehnatsevarlik kabi sifatlarga ega bo'lsalargina. ular tom ma'noda o'z bolalari uchun ijobjiy namuna bo'la oladilar va bunday oilada go'zal inson voyaga etadi.

Ota-onalarning bolalar tarbiyasiga doir bilimlarini doimo oshirib borish. bolalar tarbiyasida talabchanlik, ota-onsa va katta yoshdagi kishilarning bir-birlariga hurmat, izzatlarini, kichiklarga shavqat, g'amxo'rlik oilaviy tarbiyaning asosini tashkil qiladi.

Ko'pchilik ota-onalar oilada bolalar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishda pedagogika sohasida orttigan boy va ilg'or tajribalariga tayanib ish ko'rmoqdalar. Jamiyatimizda bolalarning mukammal o'sib, kamol topishlari uchun hamma sharoitlar yaratilib berilgan, lekin bola uchun oilanening, undagi ilik va jiddiy tartibning ota-onsa mehriga asoslangan har kungi har soat va daqiqadagi sabr-toqat, qunt hamda aql bilan olib borilgan tarbiyaning o'rnini xech narsa bosa olmaydi. Tarbiya ishida maqsadning aniq bo'lishi alohida o'rin tutadi. Tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga oilada bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, tarbiyaning xilma-xil usullari va vositalaridan o'rinni foydalanish yo'li bilan erishiladi. Tarbiyada birlik, ota-onsa obro'si, mehnat burchini anglash, ota-onaning bola tarbiyasini ta'lif muassasalari bilan hamkorlikda olib borishi, bolalarning hammasini teng ko'rish. ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, tarbiyada bolaning o'sish va kamol topish xususiyatlarini hisobga olish, bola shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchan bo'lish, ishontirish, yaxshi fazilatlarga o'rgatish, rag'batlantirish va o'rinni koyish kabilar tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tarbiya – g'oyat nozik, ko'zga darrov ko'rina qolmaydigan ish. Uning natijasi birdaniga yuzaga chiqavermaydi. Tarbiya uzoq muddatga cho'ziladigan, ota-onsa va kattalardan bilimdonlik, qunt, sabr-chidam, talab qiladigan jarayondir.

Oilaviy tarbiyadagi muvaffaqiyat katta yoshli kishilarning tarbiyaviy talablarda bir yoqadan bosh chiqarib ish ko'rishlariga bog'liq. Oilada ahillik, hamjixatlik bo'limasa, bolalarni tarbiyalashda katta qiyinchiliklar tug'iladi. Ota-onsa doimo bolaga ko'z-qulolq bo'lib turishi kerak. Vaqtida tiyib, yo'l-yo'rissa solishi lozim. Tarbiya ishi ota-onadan g'oyat ziyraklikni bola qalbiga qandaydir iliqlik bilan kirib borishni talab etadi.

Ota-onalar hamma jihatdan bolalarga ibrat bo'lishlari oilada bolalar bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ularning bir-birini hurmat qilishlari va bir-birlariga ishonishlariga asoslanadi. Ota-onalar bolalarga nisbatan yuksak tulabchan bo'lishlari, ayni vaqtida ularni qadrlab, hurmatlashlari lozim. Kattalarni bolalarga nisbatan oqilonqa talabchanlik bolani yaxshi ta'sirli bo'lishga ruhan majbur etadi.

Oilada bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik bilimlar bilan qurollanishi, aholi o'rtaida pedagogik bilimlar targ'iboti katta ahamiyatiga ega.

Ota-onalar ta'lim muassasasi va va o'qituvchining obro'-e'tiborini har tomonlama ko'tarishlari, bolalarni mehnatini sevish va hurmat qilish ruvida tarbiyalashlari, tartib-intizomga, jamiyatimiz turmushining shartlariga rioya etishlariga o'rgatishlari, ularning jismoniy kamol topishi va sog'lig'ini mustahkamlash haqida g'amxo'rlik qilishlari, ularning o'z vaqtida o'rta va xunar ta'limi olishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berishlari, o'zlarining mehnatga va ijtimoiy ishlarga munosabatlari bilan hamma ishda bolalarga namuna bo'lishlari lozim.

Ota-onalarning pedagogik madaniyati darajasi ularning ma'lumotlariga, individual xususiyatlariga, hayot tajribalariga bevosita bog'liqdir. Ota-onalar va oiladagi boshqa katta kishilarning pedagogik tarbiyalari, e'tiqod va qarashlari esa bolaning ma'naviy qiyofasida xarakterini to'g'ri shakllanishida zarur omil hisoblanadi.

Ota-onalar bola oldida xech vaqt nolimasliklari va zorlanmasliklari lozim. tetik va xushchaqchaq bo'lishlari va ahvollarini yaxshilanib ketishlariga umid qilishlari, yaxshi turmush kechirish uchun oila xo'jaliklarini yaxhilashga intilishlari lozim.

Umuman olganda ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash bilan jamiyatimiz taraqqiyotiga muhim xissa qo'shadilar.

### **Millatlararo totuvlik umuminsoniy qadriyat sifatida**

*Dilrabo Abdurahmonova,*

*Nemis va fransuz tillari kafedrasи o'qituvchisi*

**Millatlararo totuvlik g'oyasi** - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yer yuzida 7 milliarddan ziyod axoli mavjud. O'zbekiston xududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda.

Millatlararo totuvlik tushunchasini to'laroq, kengroq izohlashdan avval "millat" so'zini tushunib olishimiz darkor.

Millat (lotin. *natio* — millat) til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruxiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan

xududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan, shuningdek, odatda o'z davlatiga ega bo'lgan hamda mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi.

Millat ma'lum xududda turgun yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma'naviy-ruxiy salohiyati yagonaligi asosida shakllanadi. U faqtgina «kapitalistik jamiyatning muqarrar maxsuli» emas, balki insoniyat dunyoga kelishi va taraqqiyotining maxsulidir.

Millatning shakllanishi va rivojlanishida moddiy omillar muxim ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo ular millat abadiyligini ta'minlashning so'nggi imkoniyati emas. Ular millat taraqqiyoti uchun zarur shart xisoblanadi. Millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili — uning ichki ma'naviy-ruxiy saloxiyatidir.

Millat insoniyat mavjudligi sharoitida hech qachon o'lmaydi, o'zga millatlar bilan o'zaro qo'shilib ham ketmaydi. Balki takomillashib, rivojlanib borish asosida o'zining ichki ruxiy saloxiyatida mayjud bo'lgan yangi qirralarni namoyon qilib boradi. Milliy taraqqiyot zaminida uning jahondagi ko'plab millatlar uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan turli soxalardagi o'ziga xoslik asosida umumimilli va umuminsoniy saloxiyat shakllanib, rivojlanib boradi.

Millatlarning ichki ruxiy salohiyati, yaratuvchilik qobiliyati, matonati, tinimsiz mexnati, tadbirkorligi va o'ziga nosligini rivojlantirish asosida zamonaliv sivilizatsiya yuzaga kelgan. Mutaxassislarining hisoblashlaricha, Yer yuzida uch mingga yaqin millat mavjud. Ular insoniyatning o'rta hisobda 96 foizini birlashtiradi, qolgan to'rt foizni elat va qabilalar tashkil qiladi. Har bir millatning tarkibiga kiruvchilarning soni bir necha o'n mingdan bir necha milliongacha borib yetadi. Millatlarni faqat son jixatdan guruhlarga ajratish mumkin. Ammo ularning xususiyatlari, jahonda tutgan o'rirlari jihatidan «buyuk» yoki «kichik» guruxlarga ajratib bo'lmaydi. Chunki son jixatdan eng kichik millatdan jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga ulkan xissa qo'shadigan insonlar chiqib, ular o'z millatini yuksaklik darajasiga olib chiqishi mumkin. Son jixatidan kichik bo'lgan millatning o'z xududlari butunligini, huquqini ta'minlashga yoki ma'naviy boyliklarini ximoya qilishga qaratilgan harakatlari butun jahonni larzaga solishi mumkin. Milliy rivojlanishda, tarixiy tajribaning ko'rsatishicha, jahonda va ko'p millatli mamlakatda sodir bo'layotgan juda ko'plab mojarolar, ular oqibatida yuzaga kelayotgan beqarorlik, iqtisodiy va ma'naviy tanazzullar, aynan millatlararo munosabatlarga borib taqalmoqda. Ya'ni qayerda u yoki bu millat huquqlari poymol etilar ekan, albatta, bu mamlakat taraqqiyotini izdan chiqarishi muqarrar. Sobiq Ittifoqning ich-ichidan yemirilishi va oxir-oqibatda yo'q bo'lib ketishini tezlashtirgan eng qudratli omillardan biri ham «mayda» millatlarga nisbatan amalga oshirilgan buyuk millatchilik shovinizmi siyosati edi.

Jahonda va ko'p millatlar yashayotgan mamlakatlarda barqarorlikni ta'minlashni va taraqqiyotga erishishning muhim shartlariga, birinchidan, millatlarning teng huquqligini amaliy jixatdan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, u yoki bu millat u hatto son jixatdan juda kichik bo'lmasin, ularga «katta»

millatlar tomonidan kam sonli millatning urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarining xurmat qilish kabilar kiradi.

## Этическое учение Эпикура

к.ф.н. Ташбаева Д.Х.

Философия Эпикура носит ярко выраженный практический характер. Три ее части: каноника (теория познания), физика и этика подчинены единой цели – научить человека, как достичь счастливой, блаженной жизни, свободной от страданий тела и смятения души. Каноника – учение о критериях истины и правилах ее познания, без которых невозможна разумная жизнь и разумная деятельность. По Эпикуру, источником человеческих знаний являются чувственные восприятия. С поверхности всех материальных предметов исходят истечения особо тонких частиц, которые, проникая в органы чувств, производят ощущения. Из множества сходных повторяющихся впечатлений в душе формируются общие представления или предвосхищения, позволяющие человеку узнавать предметы и обозначать их словами. Ощущения и предвосхищения обладают несомненной очевидностью и являются критериями истинности знания. Все заблуждения возникают вследствие ошибочных суждений разума, в которых мы домысливаем к тому, что содержится в представлениях нечто такое, что не находит подтверждения или опровергается в чувственном восприятии.

Физика Эпикура опирается на натурфилософию досократиков, в особенности, на атомизм Демокрита. Она призвана дать такое объяснение мира, которое позволит человеку преодолеть фундаментальные препятствия на пути к достижению блаженства – страх перед богами и страх смерти.

Согласно Эпикуру, Вселенная не создана богами; она вечна, поскольку бытие не может возникнуть из небытия, как и небытие – из бытия. Вселенная содержит в себе тела, движущиеся в пространстве, или пустоте. Существование пустоты между телами следует из того, что иначе не было бы возможно движение.

Avlod-ajdodlarimiz bejizga shu masalaga oid xikmatli so'zlarni qoldirmaganlar. Oilada er-xotin munosabati muhim ahamiyatga ega. Er oilaning qo'rgoni bo'lsa, xotin shu qo'rg'lonni yoritguvchi nurdir. Ular o'rtasidagi na'muna bo'la oladigan munosabatlar, shu oilada sog'lom iqlimni yuzaga keltiradi. Oilada voyaga yetayotgan farzandlar oilada o'z aksini ko'zguda ko'rgandek bo'ladi. Shuning uchun xam ota-onha ma'rifatli, bilmlı , farzandlarini tushuna oladigan, to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan jixatlarga ega bo'lmog'i lozim. Chunki qizlar onalariga taqlid qilganiday, o'g'illar otalariga taqlid qiladilar. Ba'zida ota-onalarning ayrim qusurli tomonlari xam farzandlar nigoxida to'g'ridek bo'lib ko'rindi. Onaxonlarimiz, otaxonlarimiz uchun bizning

tinchligimiz, baxtimizdan ortiqroq ne'mat yo'q. Bejizga bo'lmasa kerak. qizining xulq-atvorini go'zal qilib tarbiyalagan ayol jannatidir deyilgan.

Nasihatlarga amal qilgan yoshlardan albatta oilada xurmatga ega bo'ladi. Otaxonlarimiz qiz uzatish paytida: "Ona qizim sen tug'ilgan uyingdan uchirma bo'lib, haqiqiy uyingga ketyapsan binobarin, boradigan uying seniki, sening ostonang, o'sha ostonani muqaddas bil xuddi ota – onangni muqaddas deb bilganingdek. o'sha uyda tosh bo'lib qotishing, chinor daraxti bo'lib unishing, o'sha uyni sadoqatli va kuchli muxofazakori bo'lishing shart"<sup>33</sup>. Bunday nasixatlarni har bir ayol eshitgan. Lekin shularga amal qilganlar ham qilmaganlar xam bor. Yani muxitning qonunlariga amal qilmay, xurmat qilmay, o'zaro munosabatlarda terslik qilib, jaxl otini minganlar oilasini saqlab qololmaydi. Yangi kelin tushgan joyda saramjom sarishtalik, yelib yugurib xizmat qilish barcha oila-a'zolarini, qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilariga xushro'y munosabati kelinga mexrn oshiradi. Bunday qiz ota-onasiga raxmatlar olib keladi. Kamtarlik samimiylilik, xushfe'llilik uning libosi bo'ladi. Kaynona esa kelinning yaxshi tomonlarini tag'dirlab, bazi o'quvsizliklarini sabr-toqat bilan uning nafsoniyatiga tegmay o'z farzandidek mexr bilan tarbiyalab borishi lozim.

Demak qaynonalar ham qaynonalik ilmidan xabardor bo'lishi, toki oila mustaxkamlanganicha yosh kelin-kuyovlarga to'g'ri maslaxatlarni berishi, o'rtada yuzaga keladigan kamchiliklarni xolis. adolatli hal etmog'i lozim. Kelinni, qaynonajonlar ichingizda, uni o'z qizingiz qatori ko'ring. qizingiz birovning xasmi yaxshi yomon kuningizda kelin yoningizda bo'ladi. Bu shuning uchun-ki, "Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi"<sup>34</sup> degan gapdir. Oilaviy munosabatlarda yoshlarga o'rnak bo'lmoq uchun o'zingizni nazorat qilib turishingiz kerak bo'ladi. Chunki to'ylarda doimo qilingan duoda "Kuyov emas o'g'il, kelin emas qiz bo'lsin" deyishlari bejizga emas.

Baxtli, barqaror, mustahkam oilalar nafaqat shu oila egalarini, balki jamiyatning ham barqarorligidir. Davlatimiz, hukumatimiz farzand tarbiyasi, mustaxkam, oila uchun qatorlar qabul qilmoqda. Bizlar ham shu talablarga munosib, yurti. oilasi. jamiyatishani uchun qaygurgan buniyodkor insonlarni, shu insonlarni tarbiyalayotgan mukammal oilalarni yaratmog'imiz lozim.

### Ma'nayiyat milliylik me'zonlari

*Yuldasheva Mahliyoxon Rahimovna  
Farg'ona birinchi tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Ma'nayiyat masalalari har doim millat muammolari, uning tarixi, buguni va kelajagi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Zero, ma'nayiyat - inson ijodiy faoliyatining usullari, shakllari va yo'llari majmui bo'lib, u avloddan avlodga vorislik asosida uzatiladigan moddiy va ma'nayiy boyliklarda jamlanadi, gavdalananadi.

<sup>33</sup> Самад А. "Қайнона масъулияти ва келин бурчи". Т.: Фан. Нашр- 9 бет

<sup>34</sup> Самад А. "Қайнона масъулияти ва келин бурчи". Т.: Фан. Нашр- 9 бет

Istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Milliy iftixordek ulug'vor va teran tuyg'uning paydo bo'lishi esa, ajdodlarimizdan meros qolgan bebaho madaniyatni bilish, qadrlash va yanada boyitish bilan bog'liqidir. Mana shunday ezgu tuyg'u va bunyodkor g'oyalar ongimiz va qalbimizdan joy olishi uchun halqimiz yaratgan betakror madaniyat va ma'naviyatni egallashimiz juda muhimdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bu borada o'zining fikr mulohazalarini bildirib o'tdi. Chunonchi, bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon e'tirof etadi. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan<sup>35</sup>.

Vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodning ma'naviy olamini boy, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun butun insoniyat necha ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat xazinalaridan bahramand etish, unda barcha xalqlarga hurmat, milliy iftixor, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otish va shakllantirishdan iborat. Prezidentimiz ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rniiga baho berib shunday degan edi: "...Ma'naviy va axloqiy-ruhiy ko'tarilish bo'lgan vaziyatdagina olg'a tomon siljish mumkin"<sup>36</sup>.

Tadqiqotda asosan ma'naviy hayotning tuzilishi bilan bog'liq masalalarni yoritib berishga harakat qildi. Avvalo ma'nан yetuk shaxsgina barkamol hisoblanadi. Buyuk kelajak, Ozod va Obod Vatanni esa faqatgina barkamol avlodlar qura oladilar. Demak, Vatan ravnaqi, oly maqsadlarga erishishimiz uchun, birinchi galda ma'naviy meros masalasiga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Umuman olganda ma'naviy yuksak jamiyatgina hayotning boshqa jabhalarida ham yutuqlarga erisha olishi mumkin. Bu borada mamlakatimizda o'tgan davrlar mobaynida ko'plab ishlar amalga oshirildi, va oshirilmoqda.

Ma'naviy xayot juda keng va ko'p qirrali jarayon, u kishilarning tafakkuri, xulq-atvori, yurish-turishi, orzu-umidlarini ham o'z chiga qamrab oladi. Shuning uchun mustaqillik natijasida milliy ma'naviyatga e'tibor kuchaydi. U xayotning o'zi kabi murakkab jarayon. Buning mohiyati shundaki ma'naviyat inson faoliyatining: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, axloqiy soxalarning barchasida ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ma'naviyatni inson xayotining universal soxasi deb aystsak bo'ladi. Shu nuqtai nazardan inson xayotini ma'naviy xayot deb aystsak bo'ladi.

Milliy o'zlikni anglash millatning til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, yagonaligi, ma'naviyatdagi o'ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustaqil belgisi xisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash millatning mustahkam belgisi ekanligi — milliy manfaatlar, extiyojlar umumiyligini ximoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish va uning jahon taraqqiyotidagi o'rnnini mustaxkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

<sup>35</sup> Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q-Toshkent: Sharq, 1998.- B.3.

<sup>36</sup> Karimov I. A. O'zbekiston mustaqilka erishish ostonasida.-Toshkent: O'zbekiston, 2011.-B.270

Milliy o'zlikni anglash omilining quydagi sharoitlarda ko'proq namoyon bo'ladi:

**Birinchidan**, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, yuqorida qayd etganimizdek, millatning manfaatlariiga, ayniqsa, qadr qimmati, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan xarakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, xatto millatning ichida o'zaro muxolifatda bo'lgan tomonlar ham millatning sha'ni, g'ururi, obro'-e'tiborini ximoya qilish manfaati yo'lida birlashadilar.

**Ikkinchidan**, milliy o'zlikni anglash ruxiy, his-xayajon, extiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Millatning xatti-xarakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlaridagi saloxiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi.

Ruxiy xis-xayajon va extiroslarning «portlashi» millatning harakteri, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziylolilarning saloxiyatiga bog'liq.

**Uchinchidan**, milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni ximoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va xarakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi.

### **Некоторые приемы работы при обучении говорению**

*Абдукодиров Умиджон Назирович,*

*преподаватель Ферганского политехнического института*

Изменения образовательной системы в области обучения иностранным языкам, в частности английскому, выдвигает сегодня повышенные требования к качеству подготовки выпускников общеобразовательных школ. Поэтому все большее внимание предается умению говорению как средству общения.

Обучение говорению обеспечивает решение учебно-познавательных и коммуникативных задач формирования у учащихся знаний, ценностных ориентаций, организации их совместной деятельности. Говорение — продуктивный вид речевой деятельности, имеющий несколько уровней:

1) начальный (ответы на вопросы при отсутствии или наличии опор с обязательным участием учителя);

2) средний (опора на текст, средства наглядности);

3) самостоятельный (отсутствие опор, кроме знаний по предмету высказывания; использование в речи сложных предметно-смысловых конструкций).

Различают следующие виды устной речи: диалогическую и монологическую. Наиболее простой разновидностью устной речи является диалог, т.е. разговор, поддерживаемый собеседниками, совместно обсуждающими и разрешающими какие-либо вопросы. Для разговорной речи характерны реплики, которыми обмениваются говорящие, повторения фраз и отдельных слов за собеседником, вопросы, дополнения,

пояснения, употребление намеков, понятных только говорящим, разнообразных вспомогательных слов и междометий. Особенности этой речи в значительной мере зависят от степени взаимопонимания собеседников, их взаимоотношений. Большое значение имеет степень эмоционального возбуждения при разговоре.

Вторая разновидность устной речи — монолог, который произносит один человек, обращаясь к другому или многим лицам, слушающим его: это рассказ учителя, развернутый ответ студента, доклад и т.п. Монологическая речь имеет большую композиционную сложность, требует завершенности мысли, более строгого соблюдения грамматических правил, строгой логики и последовательности при изложении того, что хочет сказать произносящий монолог. Монологическая речь представляет большие трудности по сравнению с диалогической речью, ее формирование у учащихся, особенно на уроках английского языка, представляет специальную задачу, которую педагогам приходится решать на протяжении всех лет.

Общеизвестно, что коммуникативный характер речи определяется мотивацией, ситуативностью, личностной ориентацией. В реальной жизни человек высказывается, когда у него появляется такая потребность. Именно желание высказаться является первым условием общения на иностранном языке. Второе условие – создание различных ситуаций.

Ситуации могут быть конкретными, условными, воображаемыми, проблемными.

Студент выступает в той или иной роли, ситуация становится личностно-значимой для него. Поэтому задания на представления себя в той или иной ситуации (Imagine you are...) очень продуктивны. Во-первых, они заставляют ребят думать, выражать свои мысли; во-вторых, вспоминать изученный материал, в-третьих, высказываться. Например, представьте, что Вы на конференции по проблемам окружающей среды. Выскажитесь по проблеме, которая волнует Вас больше всего. Позитивно сказываются задания на выбор той или иной позиции, когда нужно не только согласиться с тем или иным мнением, но и защитить, отстоять его, объяснить, почему ты так думаешь. Например, Вы собираетесь к другу на день рождения. Какой подарок Вы выберите: сделанный своими руками или купленный в магазине? Почему?

Работая в старших курсах, заметил, что студенты могут начать свое высказывание, выразить свое мнение, дать совет, но им значительно труднее аргументировать свою точку зрения, подобрать лексику согласно ситуации. Чтобы преодолеть эти трудности стараюсь использовать все возможные моменты работы над устной речью. Для этого часто начинаю урок с обсуждения какой-нибудь проблемы. (Warming up) Это могут быть домашние или международные новости. Например, обсуждения футбольного матча или написание накануне контрольной работы. Это помогает учащимся преодолеть барьер перехода к иноязычной речи. Понятно, что уровень подготовки у всех разный, и каждый высказывается

в меру своих способностей, но все должны сказать хотя бы по одному предложению. Хорошим стимулом для активизации мыслительной деятельности и поддержания интереса к теме считаю задание на ассоциации (Word Net). Студенты при этом вспоминают, систематизируют информацию. А учитель направляет и побуждает к действию.

Опыт работы показывает, что хорошую помощь для развития и совершенствования умения говорения оказывает работа на базе текста, который является а) стимулом для общения, б) базой для создания ситуаций, в) речевым образцом. Работая с текстом, обязательно обсуждаем его. Содержание текстов различных стилей служит стимулом для общения. Важно научить ребят пользоваться текстом как образцом для высказывания, применяя к себе то, что необходимо, преобразовывая текст, соответственно мыслям и желаниям студента. Начинаем работать с текстом прежде всего с вопросов к прочитанному. Затем можно предложить составить план, сократить текст, представить себя на месте героев, придумать другую концовку. Наконец, нахождение проблемы, ее обсуждение, краткий пересказ.

Планируя свои уроки, я думаю не только о том, чтобы студенты запомнили новые слова, новую структуру, но и стараюсь создать возможности для развития индивидуальности каждого ребенка. Чтобы поддержать интерес учащихся к своему предмету, стараюсь понять, какие приемы работы могут увлечь ребят. Постоянно нахожусь в поиске резервов повышения качества и эффективности обучения английскому языку.

### **Milliy g'oyani milliy bayramlarda aks ettirish**

*S.Xoldarova  
Pedagogika fakulteti BT va STI yo'naliishi  
IV bosqich talabasi*

“Mening eng katta umidim va ishonchim – mana shu muhtasham maydonga chiroy berib o’tirgan siz aziz farzandlarimda, sizning timsolingizda bugun quvvatga to’lib, hech kimdan kam bo’lmayman, deb zamonaviy bilim va tajribalarni egallashga bel bog’lagan, tobora hal qiluvchi kuch bo’lib hayotga kirib kelayotgan yosh avlodda, desam, hech qanday xato bo’lmaydi. Bunday avlodni hech qachon yengib bo’lmaydi.”<sup>37</sup>”

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni, ayniqsa, kelajagi uchun g’oyat muhim bo’lgan sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini o’z oldimizga qshyar ekanmiz, avvalombor, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan, aynan shu qadriyatlar ustuvor

<sup>37</sup> Karimov I.A. “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 23 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimida tabrik so’zi” “O’zbekiston ovozi”, 2014-yil, 1-sentabr, 105-son., 1-bet

ahamiyat kash etadigan asr degan hayotiy haqiqatdan kelib chiqishimiz lozim bo'ladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti kelajagimiz bo'l mish yoshlarga katta umid bilan qaradi, keljakda O'zbekiston dovrug'ini yanada oshirishlariga ishonardi.

Milliy ma'naviyatimiz qadriyatimiz nihoyatda buyuk kuchga ega ekanligiga shak shubha yo'q, albatta. Bu esa bizning milliy mafkuramizni yaratishga barcha O'zbekiston xalqidan faqat ma'naviy tiklanish va chinakam poklanishni talab etadi.

O'zbekistonning chinakam mustaqillika erishishida va uni yanada rivojlanishida I.A.Karimov ta'kidlaganidek, avvalo, aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, oilaviy sharoitidan, xalq an'analarini va urf-odatlaridan kelib chiqish lozim. Shu bois o'zbek xalqining kattalarni hurmat qilish oila va farzanlariga g'amxo'rlik qilish ochiq ko'ngilli millatidan qat'iy nazar odamlarga g'amxo'rlik, xayrixohlik munosabatida bo'lishi kabi qadriyatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zbek xalqining o'z diyoriga ishtiyoqining bisyorligi, mehnatsevarligi, bilimga, ustozlarga, ma'rifatlarga nisbatan alohida hurmat ehtirom ko'rsatishi, shuningdek milliy qadriyatlarini hurmat qilishi sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqiga xos xususiyatdir.

Ayniqsa, bugungi kun farzandlarda milliy tuyg'u, o'z xalqiga, uning an'analariga, milliy bayramlariga, til va madaniyatga muhabbat va hurmatni milliy umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, jamiyat ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan farzandlar qilib tarbiyalash kerak. Zero, bunday ma'naviy-axloqiy sifatlar dastlab oilada, ota-onasi ko'magida shakllanishi hech kimga sir emas. Demak, bugungi kunda oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasiga e'tiborni qaratish bu davr va bugungi kun turmush tarzi taqozosidir. Shuning uchun ham oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosi dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof e'tilmoqda.

Xo'sh milliy qadriyatlar o'zi nima? Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunamiz? Avvalo, ushbu savollarga javob izlab ko'raylik. O'zbek xalqi qadimdan ardoqlab kelgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlar juda ko'p. Masalan:

Urf-odatlar, Milliy bayramlar. Oila madaniyati, Tibbiy qadriyat, Ma'naviy qadriyat, Muomala madaniyati, Kiyinish madaniyati va boshqalar.

Bundan tashqari, o'tganlarni xotirlash, g'arib, beva-bechora va yakka-yolg'iz yashayotgan qariyalar holidan xabar olish, kasal yotgan qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilarining holidan xabar olish, to'y qilayotgan, uy qurayotgan yaqinlarimizga yordam qilish, xashar yo'li bilan uylar, guzarlar, bog'-rog'lar barpo qilish, shanbaliklar uyushtirish va unda faol ishtirok etish kabi bir qancha muqaddas qadriyatlarimiz avloddan avlodga o'tib saqlanib kelmoqda.

O'zbek xalqining uzoq tarixga ega bo'lgan juda ham ajoyib va xilma xil urf-odatlari mavjud. Kundalik hayotimizga aylanib qolgan, odat tusiga kirib qolgan va barcha unga amal qilishga ko'nikiq qolgan marosimlar urf-odatlar hisoblanadi. Masalan, xonadonda farzand tug'ildi deylik. Shundan keyin

o'tkazitadigan quyidagi urf-odatlarni birma-bir sanab o'tamiz. Farzandga ism qo'yish, ism qo'yishni o'zi ham bir urf-odat. Katta qozonda osh damlab, yurtga osh berib, "Aqiba" to'ylarini o'tkazish. Chaqaloq uchun "Besh kecha" "Ko'rmana", "Yo'qlov", "Soch olish", yura boshlaganda oyog'ining orasiga qadoqlangan quruq "Choy otish", o'g'il farzand uchun "Xatna" to'yi qilish va qo'lini halollash" deb nomlangan marosimlar o'tkazish ham urf-odatlarimizga aylanib qolgan. O'g'il farzandni uylash, uyli-joyli qilish, ro'zg'orini ajratib berish, qiz farzandni esa munosib kuyovga uzatish kabi marosimlarimizning har birining o'zida ko'plab bir-biridan qiziq va o'zig xos urf-odatlarimiz mavjuddir.

Tug'ilish borki, o'lim bor. Shu sababli har bir xonadonda o'lim bilan bog'liq sovuq marosimlar ham xalqimiz tomonidan zo'r uyushqoqlik bilan o'tkazilib kelinmoqda. Xatto birov vafot etsa, vafot etgan marhumni tanimagan odamlar ham tasodifan ta'ziya ustidan chiqib qolishsa, odamlar orasiga qo'shilib, janoza nomozlarini o'qishadi va agar vaqtлari bo'lsa, marhumni qabrgacha kuzatib kelishadi. Bu, albatta, insoniylik, oxiratni o'ylashlik, marhumni so'nggi yo'lga kuzatib qo'yishlik kabi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan eng buyuk qadriyatlarimiz ekanligidan dalolat beradi.

Milliy bayramlarimizga to'xtaladigan bo'lsak, "Navro'z", "Ramazon" va "Qurban" hayitlari, "Qovun sayli", "Hosil bayrami", "Gullar bayrami" kabi bayram hamda sayllarimiz qadim-qadimdan milliy bayramlar sifatida nishonlanib kelingan. Ushbu milliy bayramlarimizda xalqimiz uyushqoqlik bilan qatnashib, uni zo'r kayfiyat bilan ko'tarinki ruhda o'tkazib kelishgan va o'tkazib kelishmoqda. Ayniqsa, xalq sayllarida uloq, dorbozlik, milliy sport o'yinlarini tashkil qilinishi, ustoz va yosh san'atkorlar tomonidan kuy va qo'shiqlarning ijro etilishi o'tkazilayotgan marosimlarga o'ziga xos fayz qo'shib kelayotgani hammamizga ma'lum.

«Navro'z» bayramini xalqimiz hamisha sog'inib yashagan. Har yili «Navro'z» 21 – martda nishonlanadi, ammo ko'pincha fevral oyidan ko'plab mahallalarda bahorning, «Navro'z»ning sevimli taomi hisoblangan sumalak pishirish boshlanib ketadi.

Sumalak pishirilayotgan xonodon to'yxonaga o'xshab ketadi. Sumalak pishirishga mahalladagi har bir xonadan o'z hissasini qo'shadi. Kimdir Paxta yog'i, kimdir un va yana kimdir mehmonlar uchun mazali taomlar pishirib chiqadi. Tadbirda hech bir odam chetda qolmaydi, ayniqsa, sumalak pishayotgan qozonni hamma bir-bir kavlab chiqadi. Ertasiga ertalab pishib tayyor bo'lgan sumalak butun mahallaga tarqatilib chiqiladi.

Navro'z bayrami qariyib bir oy davomida nishonlanadi. Ushbu bayram har bir mahallada, har bir mehnat jamoasida zo'r tantana bilan nishonlanadi. Dasturxonga bahoriy taomlar tortiladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ushbu bayramda keksa, yakka-yolg'iz yashayotgan qariyalarimiz holidan xabar olish, kam ta'minlangan birodarlarimiz, qo'ni-qo'shni, yaqinlarimizga moddiy va ma'naviy yordam berish, yoki ularning yosh o'g'llarini hatna to'ylarini o'tkazib berish kabi savobli ishlarni qilish an'anaga aylanib qolgan.

Ramazon hayiti qadim-qadimdan xalqimizning eng ulug' bayramlaridan sanalib kelingan. Bayramdan oldin Ramazon oyida 30 kun davomida ro'za tutiladi. Shu ro'za tutiladigan 30 kunlik ramazon oyini ham xalqimiz intizorlik bilan kutib olishgan. Chunki 30 kun davomida xonadonda bayramona kayfiyat hukm suradi. Har kuni iftorlik uchun solinadigan dasturxon bayramona bezatiladi. Dasturxonga eng mazali va sevimli taomlar tortiladi. Ramazon oyining eng sevimli taomi hisoblangan nisholda har kungi yoziladigan dasturxonning to'ridan joy egallaydi.

Ramazon oyining ajoyib xususiyatlardan biri shundaki, u odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, bir-biriga bo'lган mehr-muhabbatini oshiradi. Xatto Ramazon oyida bir-biri bilan urushgan odamlar yarashadi. Eski gina-qudratlar, arazlar unutiladi. Urushganlar bir-birlarinikiga iftorlik qilish uchun boradilar.

Bayramni tanholikda o'tkazish yaramaydi. Iftorlik qilib, tutgan ro'zamizni ochishda iftorlik maqsadida tayyorlagan taomlarimizni yakka o'zimiz emas, balki kim bilandir baham ko'rishni xohlaymiz. Shu sababli har kuni iftorlikka yaqin ko'chada to'rtta non, bir kosa qatiq yoki nisholda ko'tarib olib, mehmonorchilikka ketayotgan odamlarni ko'rib quvonib ketasiz.

Bir rivoyat yodimga tushib ketdi:

*Bir musulmon kishi ramazon oyida ro'za tutibdi. Yakka-yolg'iz yashaganligi uchun biron bir kishi bilan ro'zamni ochaman. Biror bir kishi bilan iftorlik qilish savob bo'ladi, degan fikrda ko'chaga chiqibdi-da, duch kelgan birinchi odamni uyiga taklif qilibdi. Mehmon g'ayri din ya'ni yahudiy bo'lib, ro'za tutmas ekan. Bundan xabar topgan mezbon: "Men iftorlikni kofir bilan qilamanmi", -deb mehmonni ko'chaga haydab yuboribdi. Shunda xudodan shunday vahiy kelibdi: "Ey banda, men yahudiya sening dasturxoningdan rizq ato etgan edim. Sen menga qarshi chiqib, menga shirk keltirding. Sen hozirgacha qilgan toat-ibodatingdan, o'qigan namozlaringdan va tutgan ro'zalaring savobidan mahrum bo'lding." Bundan qo'rqib ketgan va vahimaga tushgan odam xudodan so'rabdi.*

- "Ey olloh, men ushbu gunohimni yuvish uchun nima qilishim kerak," - debdi. Ollohdan yana vahiy kelibdi: "Agar sen o'sha yahudiyni uyingga qaytarib olib kelib, birga iftor qilsang gunohingdan kechaman."

Yahudiyning orqasidan yugurib yetib olgach, bo'lган voqeani unga aytib beribdi-da, orqaga qaytishni, birga iftor qilishni yalinib so'rabdi. Yahudiy ko'nmabdi. Rosa qistovga olingan yahudiy bir shart bilan rozi bo'lismi aytibdi. Shart shuki, agar musulmon yahudiyni tuyasi bilan uyigacha ko'tarib olib borsa, albatta, birga iftor qilishini aytibdi. Og'ir gunohga botgan musulmon yahudiyni tuyasi bilan uyigacha zo'rg'a ko'tarib olib boribdi va birga iftor qilibdi.

Qissadan hissa shuki, mehmon kim bo'lismidan, qaysi millat vakili bo'lismidan, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar hurmat qilinishi, izzatikrom ko'rsatilishi shart.

Xulosa o'rnila shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, yuqorida ta'kidlab o'tgan fikrlarimiz shundan dalolat beradiki, milliy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, milliy bayramlarimiz biz uchun buyuk ma'naviyat manbaidir. Yoshlarda milliy g'oyani shakllantirish, o'zligini anglash, o'z avlod-ajdodlariga,

ular qoldirgan boy madaniy metrosga bo'lgan hurmat va ehtiromni shakllantirish, milliy iftihor, milliy g'urur tushunchalarini qalblariga jo qilishda miliy qadriyatlarimizning, ayniqsa, milliy bayramlarimizning o'rni beqiyos. Biz o'qituvchi-murabbiylar yoshlarga ta'lim-tarbiya berar ekanmiz. ularni shu jannatmakon, tinch, ozod va obod O'zbekiston diyorida yashayotganidan, O'zbekiston davlatining fuqarosi ekanligidan g'ururlanib yashashlariga erishmog'imiz lozim.

## Siyosiy madaniyat tushunchasi va ahamiyati

*B.B.Ibrahimov*

*NAMDU o'qituvchisi*

Siyosiy madaniyat deganda, insonning siyosiy savodxonligi, siyosiy jarayonlarni idrok etish baholash mahorati, siyosiy hayotda ishtiroki kabilalar tushuniladi. Siyosiy madaniyat turli davr allomalari, jumladan Platon, Aristotel, Konfutsiy, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, N.Makaivelli, Sh.L.Monteskeb A.Tokvils, M.Veber, N.Ya.Danilevskiy, N.A.Beryaev asarlariда o'z aksini topgan. Ammo, "siyosiy madaniyat" termini ancha keyin, ya'ni 18 asrda paydo bo'lgan. Uni nemis olimi I.Gerder (1744-1803) ilmiy muomalaga kiritgan. Siyosiy madaniyat umumiyligi madaniyatning tarkibi qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki, komil inson deganda boshqa sohalar kabi siyosiy madaniyatga ega bo'lish xam tushuniladi. Qolaversa, siyosiy madaniyatni o'zlashtirish insoniyat uchun ijtimoiy voqe'lik talabi hisoblanadi. Jamiyat a'zolurining siyosiy madaniyatni past bo'lishi ijtimoiy hayotda turli muammo va salbiy jarayonlarning paydo bo'lishi va tomir otishiga olib kelishi mumkin. "Siyosiy madaniyat-siyosiyong va siyosiy faoliyat birligini ifodalaydi va shaxs ijtimoiy guruh yoki butun jamiyatning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiradi. Siyosiy madaniyat: 1 bilish; 2 baholash; 3 xulq – atvor va faoliyatda namoyon bo'lisch kabi uch jihaddan iborat"<sup>38</sup>. Siyosiy madaniyat siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat yuritish madaniyatidir. Ya'ni, tafakkur ham, faoliyat ham madaniyatga qurulishi va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq kelishi lozim.

Siyosiy madaniyat ko'plab vazifalarni bajaradi. Jumladan, bu jamiyatning turli qatlamlari, tabaqalari hamda guruhlarini yagona maqsad, g'oya, mafkura, tasavvur va qadriyatlar ostida birlashtiradi, shu orqali jamiyat va davlatning mushtarakligining birligini siyosiy tizim va uning institutlariga nisbatan xayrihohlik, munosabatlarining ijobjiy shakllanish ta'minlaydi. Uning yana bir vazifasi shaxsda muayyan jamiyatga, davlatga, ijtimoiy guruhga mansublik hissini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Shu orqoli faol ijtimoiy pozitsiya hamda vatanparvarlik hissini tarbiyalaydi.

O'zbekiston xalqining siyosiy madaniyati sharqona siyosiy madaniyat modeliga kiradi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, asosiy e'tibor axloq

<sup>38</sup> Falsafa : qomusiy lug'at ( Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). T. "Sharq", 2004.365-b

masalalariga qaratiladi, yurtboshimiz Islom Karimov ta'limotidagiadolat va insof masalasi markaziy o'r'in tutadi. Insonda siyosiy tus-to' polonlarga nisbatan murosasizlik, siyosiy muvozanatlari saqlash, tinchlik va osoyishtaylikka kuchli moyillik, siyosiy hulq-atvorda kuchli andishalilikni namoyon qilish, rabbarga chuqur hurmat ehtirom kursatish, siyosiy erkinliklarni axloq me'yorlari doirasida qabul qilish va bag'rikenglik chuqur o'rnashgan bo'ladi. Xalqimiz siyosiy madaniyatni faol fuqarolik madaniyati o'sib borayotgan, o'tish davriga xos madaniyat deb atasak bo'ladi. Siyosiy madaniyat turlari (patriarxat, tobelik, faol)dan kelib chiqanda esa uni aralash tipga kiritish mumkin.

XVI-XVII asrlarda boshlab mintaqamizda boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz fuqarolarning hokimiyatdan ajralib qolishiga, o'zini o'zi boshqarish mexanizmining izdan chiqishiga, siyosiy madaniyatning yo'q bo'lib borishiga olib keldi.

Sobiq sovet tuzimi davrida esa aholimizning ommaviy ravishda siyosatdan uzoqlashtirilishi, siyosiy savodxonlikning juda past darajada saqlab turilishi kuzatildi. Umuman madaniyat bir tomonlama rivojlandi.

Siyosiy madaniyat yana shuning uchun kerakki, qat'iy qayd qiladi Yo'lboshchimiz: "toki odamlarimiz ijtimoiy-siyosiy hayotda, buniyodkorlik ishlarida, fuqarolik jamiyatini qurishda, turmushimizning mazmkn-mohiyatini belgilovchi qadriyatlarni shakllantirishda ko'proq va faolroq qatnashsinlar. Demokratik institutlarni rivojlantirishda bosh maqsad-kupchilikni mumkin qadar jamayat qurilishiga jalb etish, ularni o'z taqdiri, o'z kelajaklarining to'laqonli egalariaga aylantirishdan iboratdir"<sup>39</sup>. Demak, "siyosiy madaniyat jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlash, mustahkamlash hamda uni demokratlashtirishda muhim vosita yuo'lib xizmat qiladi"<sup>40</sup>.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarda turli tashqi tahdid va tajovuzlar, diniy aqidaparastlik, ekstramizm va terrorizm, missionerlik va prozelitizm xatti-harakalari mamlakat aholisining yagona maqsad va g'oya atrofida birlashishi, mavjud siyosiy barqarorlikni saqlab qolishga intilish madaniyatini shakllantiradi.

Odatda, demokratik tartiblarni jorish etishga jazm qilgan har qanday mamlakat o'z fuqarolarining siyosiy bilimi va madaniyatini oshirishi lozimligi tabiiy zaruratga aylanadi. Chunki, aholining siyosiy madaniyatjisiz demokratik qadriyatlar rivojlanmaydi.

Hozirgi paytda jamiyat hayotining har tomonlama erkinlashuvi, demokratik tamoyillarning chuqurlashuvi, eski siyosiy tizimning yangisi bilan almashgani, siyosiy partiya va harakatlar, fuqarolik jamiyatlari institutlari, o'zinin-o'zi boshqarish, nodavlat tashkilotlar soni ortayotgani siyosiy madaniyat yuqori bo'layotgani bilan izohlanadi.

Mamlakatimiz fuqarolarida qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyat shakllanishi lozim. Chunki, hozirgi murakkab va tahlikali sharoitda aholi, ayniqsa yoshlar siyosiy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, uni o'z manfaati

<sup>39</sup> O'sha joyda. 102-b

<sup>40</sup> Odilqoriev X.T., Razzoqov D.N. Siyosatshunoslik. T., "O'qituvchi". 2008.324-b

yo'lida shakllantirishga intiluvchi tashqi kuchlar mavjudligini qayd etamiz. Shu bois ham aholida o'z qadriyatlarimizga asoslangan siyosiy madaniyatni yuksaltirish zarur. Bu e'zozli va xayrli ishni amalga oshirishda siyosatshunoslik fani o'rinni tutadi. Chunki siyosatshunoslik fanining eng asosiy vazifalaridan biri aholining siyosiy madaniyatni shakllantirishdir.<sup>41</sup>

Shunday qilib, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda faqat yuksak siyosiy madaniyatni o'zlashtirgan shaxs voqeа – xodisalarни to'g'ri baholaydi, istiqbolli taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Ana shunday bir sharoitda siyosiy madaniyat "kasbi va mansabidan qat'i nazar, har bir odamga zarur"<sup>42</sup> dir.

## Madaniyat va ijtimoiylashuv institutlari

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Iqboloy Abduraxmatova - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

O'zbekiston mustaqilligining 25 yilligida jamiyat hayotining barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. U dunyo hamjamiyatiga dadil qadamlar bilan kirib bordi. Siyosiy jihatdan dunyoning rivojlangan mamlakatlari orasida o'zining obro'si va nufuziga ega bo'ldi. Iqtisodiy jihatdan allaqachon avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlari qatoriga qo'shilib oldi, o'zining samolyotsozlik korxonasiga ega bo'lgan, qishloq xo'jalik mashinalari va texnikalarini ishlab chiqaradigan nufuzli davlatlar qatoridan o'rinni oldi. Hozirgi kunda O'zbekiston dunyo axborot makonining faol sub'ektlaridan biridir. Mustaqillik, jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirishni, islohotlarni amalga oshirishni talab etardi. "Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega".<sup>43</sup> Iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohotlarni amalga oshirish nisbatan tez sodir bo'ladi. Ikin odamlarning ongi, dunyoqarashi, madaniyatini o'zgartirish, yangi hayotga, yangi ijtimoiy muhitga moslashishi nisbatan qiyin kechadi.

Hayot sur'atlarining shiddat bilan o'sib borishi ma'naviyatga va madaniyatga ta'sir etmay qolmaydi. Bu o'z navbatida ijtimoiylashuv institutlari oldiga o'ta mas'uliyatlari va dolzarb vazifani yuklaydi. Davlatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq ijtimoiylashuv institutlari va madaniyat sohasiga juda katta e'tibor qaratib kelmoqda. Zero, yangicha ijtimoiy munosabatlар odamlarning qayta ijtimoiylashuviga zamin yaratadi va bu sharoitda qayta ijtimoiylashuv qonuniyatli, zaruriy jarayondir. Ijtimoiylashuv shaxs, jamiyat va davlatning hayotiga, taraqqiyot yo'nalishiga belgilovchi ta'sir o'tkazuvchi omillardan biridir. "Buning uchun avvalambor, taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi- jamiyatimizdagи siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada

<sup>41</sup> O'sha joyda. 25- b.

<sup>42</sup> O'sha joyda. 335 - b

<sup>43</sup> Каримов И.А. Юксак маннанит-енгилмас куч-Т.: "Ўзбекистон," 2008-б. 76

takomillashtirish zarur".<sup>44</sup> Masalaning bunday qo'yilishi ijtimoiylashuv va madaniyatning naqadar dolzarb muammolaridan biri ekanligini ifodalaydi. 1998 yil mamlakatimizda – "Oila yili", 1999 yil – "Ayollar yili", 2001 yil – "Onalar va bolalar yili", 2002 yil – "Qariyalarni qadrlash yili", 2003 yil – "Obod mahalla yili", 2007 yil – "Ijtimoiy himoya yili", 2008 yil – "Yoshlar yili" deb nishonlanishidan ham ko'rinib turibdiki. ijtimoiylashuv instituti va ijtimoiylashuv jarayonlari jamiyat va davlat hayotida doimo bir xilda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatimiz hayotining asosini, davlatimiz siyosatining samaradorligini, madaniyatimiz ravnaqining asosini ham ijtimoiylashuv instituti tashkil etadi. Yuqorida mulohazalardan kelib chiqib maqolani "Madaniyat va ijtimoiylashuv instituti" deb nomladik. Ma'lumki, inson-ijtimoiy xarakterga ega, ya'ni u o'zining insoniyligini boshqa kishilar bilan munosabatda anglaydi, shuningdek, ma'lum bir muhitga ko'nikib boradi. Biz, madaniyat deganda, insonning muhit sharoitlarini o'zlashtirish va insoniylashib borish jarayonini nazarda tutdikki. insonning insoniylashib borishi va madaniylashib borishi jarayonlari muayyan hodisaning ikki tomonini ko'rsatadi, xolos. Ushbu hodisaning uchinchisi tomonini ijtimoiylashuv jarayoni tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki. ijtimoiylashuv, madaniylashuv va insoniylashuv jarayonlarining markazida inson muammosi turibdi. Bu maqolamizning o'ziga xos jihat shundaki, birinchidan, madaniyatga berilgan ta'riflarning ko'pligi va xilma-xilligiga qaramasdan, uning eng umumi jihatlariga e'tibor qaratdik. Ya'ni madaniyatning ijtimoiylashuv instituti bilan bog'liq jihatlarini yoritishga harakat qildik. O'z-o'zidan kelib chiqadi-ki, masalaning bunday qo'yilishi, muammoni yechishda, sotsiologik va falsafiy yondashuvlarni talab etadi. Maqola mavzusini yoritishda ko'proq birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlariga e'tibor qaratildi. Chunki ijtimoiylashuv instituti va ularni rivojlantirish masalalari O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kuniaridan boshlab davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ijtimoiylashuv jarayonlari va ijtimoiylashuv instituti jamiyat hayotida shu qadar muhim ahamiyatga egaki, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Masalan, Konstitutsiyaning XIV bobi to'laligicha Oilaga va XV bobi Oilaviy axborot vositalariga bag'ishlangan. XXI bobning 105- moddasi esa Mahallalarga bag'ishlanadi. Ijtimoiylashuv jarayonlari o'zida ikki xil ijobiy va salbiy jihatlarini ifodalashi mumkin. Masalan, muhit sharoitlari yomon bo'lsa, ijtimoiylashuv ham salbiy tomonga borishi mumkin. Misol uchun 1930 yillarda fashizmi sharoitida natsizmning kelib chiqishi, kontslagerlardagi maxbuslarning qayta ijtimoiylashuvi natijasida vaxshiyashib borishi va shunga o'xshash ko'plab misollarni keltirish mumkin. Lekin, bu maqolani yozish jarayonida ijtimoiylashuvning ijobiy jihatlariga, uning madaniy taraqqiyot bilan bog'liq jihatlariga asosiy e'tiborni qaratdik. Kundalik muomalada, madaniylashuv deyilganda, ko'proq madaniyat masalalarining taraqqiyoti nazarda tutiladi. Aslini olganda esa bu madaniylashuvning in'ikosi xolos. Haqiqiy madaniylashuv yuksak insoniy xususiyatlarning shakllanishi, sahnadagi emas,

<sup>44</sup> <sup>44</sup> Каримов И.А. Юқсак маънавият-енгизилмас куч-Т. "Ўзбекистон," 2008-Б.125

huqiqiy real hayotdagi, sof insoniy tuyg'ularning shakllanishidir. Shuning uchun hum maqolada real hayot sharoitlari va ijtimoiylashuv jarayonlarini yuzaga keltiradigan institutlar mahalla, oila, ommaviy axborot vositalari, mакtab va hokazolar haqidagi fikrlar o'z ifodasini topdi.

Xulosa qilib, Madaniyat - insonning tobora insoniylashib borishidir. Shuning uchun ham madaniylashuv va ijtimoiylashuv jarayonlari turli xalq va millatlarda o'ziga xos tarzda kechadi. Maqolani yozishda mahalla va oila kabi ijtimoiylashuv institutlarining madaniyat taraqqiyotidagi o'rnnini yoritishda bevosita o'zbek masalalari va mahallalarining o'ziga xos jihatlarini yoritishga harakat qildik.

### Inson - ijtimoiy munosabatlar maxsuli

*Xurshid Mirzaxmedov – katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*G'ulomjon Yoqubov – talaba,*

*Namangan davlat universiteti.*

Inson muommosi azaldan falsafaning bosh mavzularidan biri bo'lib kelgan. Juda ko'p mutafakkirlar va olimlar uning mohiyati, tabiatи dunyodagi o'rni va vazifasini anglab yetishga xarakat qilganlar. Bu masalalar turlicha talqin etilgan. Dunyoda xar bir inson betakror, mumtoz bir asaridir. Xatto, barmoq izlari bir-biriga to'liq mos keladigon ikki odamni uchratish qiyin. "Ijtimoiy munosabatlar" tushunchasi kishilarning birgalikdagi moddiy va ma'naviy faoliyati natijasida koror topudigan, odamlar o'rtasidagi muttasil tarzda ro'y berib turadigan turli alogalarni ifodaloydi. Ijtimoiy munosabatlar moddiy va ma'naviy munosabatlarga bo'linadi. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jamiyatning yashashi va rivojlantishining usosini tashkil etadi. Shu sababli ijtimoiy munosabatlardan eng muhim iqtisadiy munosabatlar bo'lib xisoblanadi. Ular hamma boshqa ijtimoly xohulurning siyosiy, xukuqi, axloqiy, diniy va h.k. munosabatlarning xarakterini belgilaydi. Bareha ijtimoiy munosabatlarning ikkibolliy munosabatlarga bog'liq ekanligini tushunish jamiyat tarixiy tarakkilyotining siyosiy, madaniy va boshqa konuniyatlarini e'tirof etmaslikni anglatmaydi. Insonning ijtimoly muxlit va munosabatlar maxsuli, ularning yaratuvchisi (tashidagi) mohiyatini ko'rsatish uchun uni olamda mavjud bo'lgan boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarni unglashish zarur. Bu borada odam zotining yaratuvchanlik qobiliyati nioxoyatda katta xumlyatga ega.

Ijtimoly muxlit va munosabatlar maxsuli, ularning yaratuvchisi bo'lgan inson murakkab va ko'p qirrali mavjudotdir. Uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir-biridan tubdan farklanadi. Ta'kidlash zarurki, eng avvalo inson boshqa mavjudotlardan o'zining tafakkuri, xotirasi, tili borligi va eng asosiysi ongi bilan ajralib turadigan jonzotdir.

Ayniqsa, til uning ajdodlari va avlodlari orasidagi vorisiylik, aloqadorlik vazifasini bajaradi. Inson nasliga xos barcha genetik xususiyatlar, axlokiy normalar, uning faoliyatini boshkaruvchi dasturlar xuddi shu til orkali ajdoddlardan avlodlarga uzatiladi. Boshqa tirk mavjudotlardan insonning tub sifatiy farqini ifodalovchi xususiyatlardan yana biri uning o'z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir, Bu holat insonning insoniyligini belgilovchi eng muhim xususiyat, madaniyat ekanligini ifodalaydi. Shuningdek, insonning o'z turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'nnaviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga egaligi xam ana shunday xususiyatlardai biri xisoblanadi. Inson xayotida mehnat asosiy rol o'yinaydi.

Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'nnaviy boyliklar yaratadi. o'z-o'zini o'zgartiradi. Inson organizmining sof fiziologik funksiyalari, ko'l va oyoklarning, bosh va barmoqlarning, tog'aylar, paylar, suyak va muskullarning taraqqiy etishi ham bevosita mehnat bilan bog'liqidir. Bundan tashkari, mehnat insonning nafaqat jismoniy, balki ma'nnaviy, madaniy taraqqiyoti uchun ham asosiy shart-sharoit vazifasini bajardi. Mehnat tufayli inson tabiatga ta'sir etadi. Buning uchun esa mehnat qurollari yasab, ushbu kurollarni uzlusiz takomillashtirib bordi. Qadim axloqiy normalar, turgan gapki, hali takomillashmagan, o'ta oddiy edi. Shunga qaramasdan, bunday normalar insoniylikning eng oddiy ko'rinishlari paydo bo'layotganidan dalolat berardi. Ular asta-sekin rivojlanib, umuminsoniy qadriyatlarning vujudga kelishi uchun zamin

Hulosa qilib, Inson moxiyatini falsafiy bilish ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Inson falsafasi har bir yangi tarixiy davrda insonning mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rnni, faoliyatini va ahamiyatini chukurroq anglashga yordam beradi. Insonga xos xususiyat va fazilatlarni bilish orqali har bir shaxs o'zida shunday sifatlarni shakllantirishga intiladi. Mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni chukurlashtirish fuqarolik jamiyatini asoslarini barpo etishni inson omilisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, hozirgi sharoitda inson omili va mezoni barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradi.

### Sadpiri komil necha yoshda?

*Nuriddinov Abdulvohid,  
Nam DU katta o'qituvchisi*

Kosonsoy – Olabuqa shoh yo'lining shundoqqina shahardan chiqaverishida, yo'lning o'ng tomonida ko'hna Kushon qal'asi xarobalari etaklarigacha yastanib yotgan qabriston mavjud. Bu qabristonda necha yuzlab yillardan buyon azizu avliyolar, buyuk kishilar qatori qadim Kosonning oddiy fukarolari ham so'nggi manzillarini topishgan. Ushbu qabriston el o'rtasida ooSadpiri komil - Yuz piri komil" nomi bilan mashhur.

Xo'sh, bu qabriston necha yoshda? Ushbu savol ko'pchilik yurtdoshlarimizni qiziqtirishi tabiiy. Darxaqiqat, Kosonsoy shahri markazida

**Juylashgan**, ayni paytda 25-30 gektarga yaqin yermi egallagan ushibu qabriston ne sububdan Islom olamining muqaddas dargohi Makkai mukarrumu va Madinai munuvvurada hurmat bilan tilga olinadi? Shu to'g'rida halq orasida uzuq-yuluq rivoyatlar va naqlar mavjud. Lekin ularda tarixiy haqiqat to'liq keltirilmagan. Shuning uchun ham yuqoridaq savollarga to'laqonli javob topish maqsadida ko'plab tarixiy manbalarni qidirib topish va ulardan o'zimizni qiziqtirayotgan ma'lumotlarni olishga harakat qildik.

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, "Sadpiri komil" qabristonining paydo bo'lishi Arab xalifaligining ilk davriga to'g'ri keladi. Islomdag'i uchinchi xalifa Usmon Ibn Affon (644-656 yillar) davrida bul zotning nabirasi Muhammad Abdulloh ibn Jarir ko'plab sahoba va tobeinlar bilan Farg'onaga kelishadi.

Tashrifdan asosiy maqsad Farg'onani islom diniga kiritishdan iborat bo'lgan. Bu xaqda sharqshunos va tarixchi olim, akademik V. V. Bartol'dning "Tarixiy geografiyaga oid ocherklar" nomli asarida shunday satrlar bor: "Keyingi davrlarda o'rta asr tarixchisi Jamol Qarshiy tomonidan berilgan rivoyatga qaraganda, hanuz xalifa Usmon davrida Farg'onaning Safid Bulon qishlog'i yonida (Koson shahri atrofida) Muhammad bin Jarir 2700 nafar payg'ambar izdoshlari (sahoba va tobeinlar) dinsizlarga qarshi kurashda halok bo'lishadi. Bu voqeа xususida O'rta Osiyoda keng tarqalgan, dastlab arab tilida yozilgan, keyinchalik fors-tojik tiliga va bu tildan turk tiliga tarjima qilingan xalk dostonida batafsil hikoya qilinadi"<sup>45</sup>.

Yuqorida V. V. Bartol'd zikr etgan xalq dostoni Shoh Hakim Xolis tomonidan fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan "Safed Bulon qissasi" dostoni bo'lishi mumkin. Xuddi shu dostonda Muhammad Abdulloh ibn Jarirning Farg'onaga kelishi va bo'lib o'tgan kurashlar batafsil yoritilgan.

Bu to'g'rida o'rta asrlar arab tarixchisi Muhammad Ya'qubiy "Tarix" (465-bet) asarida hamda N. Bryanov "Izlar haqida" ("O sledax drevnego goroda Kasana v Ferganskoy oblasti\Protokol Turkestanskogo krujka lyubiteley arxeologii".-Tashkent,1898-1899gg.str.146.) asarlarida ham ma'lumot berishgan.<sup>46</sup>

Taniqli yurtdoshimiz, ma'rifatparvar va tarixchi olim Ishoqxon Junaydullafo'ja o'g'li Ibrat "Farg'ona tarixi" asarida arablarning o'lkaga dastlabki yurishlari haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Chunonchi, mana. Kosonda Mug'iy qo'rg'oni va o'rdasi deb mashhurdur, qalin devor va katta xishtlar ilan bino qilgan, ikki ming yillar o'tub holo ham muoyanadur. Ani tarixlar ko'rgan kishilar bo'lsa Ixshid deb zikr qiladurg'on Sug'd podsholari ham bul yerda xukmronlik qilgan. Afrosiyobdin so'ng Ixshidlar zamonida arablар kelib, Kosonda muhoraba bo'lg'on edi"<sup>47</sup>. ("Farg'ona tarixi" 277-bet.) Yana shu muallif yozadi: - "So'ngra Hazrati Usmon zamonlarida Jarir bin

<sup>45</sup> Бартольд В.В Работы по исторической географии.М.,Наука,1965.,стр.265.

<sup>46</sup> Бринов Н.О следах древнего города Касана в Ферганской области.Протокол Туркестанского кружка любителей археологии.-Ташкент,1898-1899 гг.стр.146.

<sup>47</sup> Ишоқхон Жунайдуллахўжа ўғли Ибраҳим Фархади "Мерос"туркумидан Тошкент."Камалак",1991,277-бет.

Abdulloh) to'g'ri yozilishi: Muhammad Abdulloh ibn Jarir, A. N.) voqealari bul ekanki, Turkiston shaharlari aksar islomobod bo'lub, qalmoq qo'lidan davlat arablarga o'tganda poytaxt yiroq uchun har doim qalmoqlar muslimonlarni tolon va toroj qilib, besaranjom qilib turar ekan. Ul vaqtarda bu shahardin ikki kishi Arabistonga arzga borgan ekanki, biz axli islomni xalos qilsalar ekan deb. Anda Hazrati Usmon roziyallohu anhu taraflaridin Jarir ibn Abdulloh nomli zot, Hazratning nabiralaridan amiri lashkar qilib yuborgan ekanlar. Ikki ming sakkiz yuz sahoba ilan Farg'ona taraflariga kelib, Quboda bo'l mish Xushdod degan mug'ul podshohiga noma kirguzg'onlarida tobe bo'l may muhoraba kilmokchi bo'lg'on ekan. So'ngra muhoraba qilib, Xushdod podshohni arablar qatl qilishib, Kubo shahriga bir qozi va bir voliy nasb qilishib, andin qaytub, Axsida bo'l mish Hurmuz podshohga kelgan ekanlar. Noma kirguzg'onlarida ul hani tobe bo'l may, tolibi muhoraba bo'lub, Aksi biyobonida ikki kun muhoraba bo'lib, uchunchi kuni oni ham olib, bir voliy va bir qozi qo'yub, o'zлari Kosonda bo'l mish Ixshid podshoxi ilan muhoraba uchun borg'on ekanlar. Arab askarlari Chandovul degan yerga tushub, ikki sahoba ilan noma kirguzg'on ekanlar.

Anda Ixshid elchilarini imtihon qilib, so'ngra uch kun fursat so'rag'on ekan. Bular fursat berganda arablar ilan urush kilmogqa qodir bo'l may. O'ng'or hokimi Korvonbas deganga qochib borub, maslahat so'rag'on ekan. Korvonbas maslahat beribdurkim, Zarxanddag'i bog'inga borub, yoshirinib yotg'il, arablarning ishini o'zum saranjom qilurman deb. Ul qochub yotub arablarga Kosonni muslimon qilib, so'ngra O'ng'orga borub, Korvonbasga noma kirguzg'onlarida ul yalg'ondan imyon kelturub, muslimon bo'lib, istiqbollariga chiqib, o'r dasiga taklif qilib, necha kunlar ziyofat qilib, bir soxibjamol qizni hadya qilib berub, necha vaqtadan so'ngra mahfiy muhoraba asboblarini tayyorlab, o'ttiz ming qalmoqlar ilan Safid Bulon mazorida namozi jum'ada turg'onlarida, arablarni, qirib, ko'b sahoba va tobeinlarni shahid qilib, qochurgan ekan. Andagi muhorabada shahid bo'lganlar bunga shohid, ul yerlarda shuhadolar mozorlarida toshlarga yozilgan tarixi vafotlar va manqabalari bordur".<sup>48</sup>

Yuqorida keltirilgan parchada ba'zi juz'iy kamchiliklarni e'tiborga olmaganda tarixiy voqealar va sanalar to'g'ri keltirilgan. Muhammad Abdulloh ibn Jarir Kosonda Ixshid ko'shini bilan to'qnashgani va bunda yuzdan ortiq arab askarlari halok bo'l shingani aniq tarixiy voqeadir. Zero, "Sadpiri komil" masjidining qibla tomonidagi eski qabrarda asosan ana shu yuz nafar "pirlar" (mahalliy aholi sahoba va tobeinlarni ana shunday atashgan) dafn qilingani qabr boshiga qo'yilgan arabcha yozuvli qabr toshlardan ham ma'lum. Qabr toshiga marhumning ismi sharifi to'liq holda o'tkir pichoq yoki qilich tig'i bilan o'yib yozilgan. Ana shunday qabr toshining birida quyidagilar bitilgan: - "Hozo qabrush-shayxil Imom al-Kabiril faqeh az-zohidil vad-din Muhammad ibn Ayyub Bakr ibn Umar Sulaymon g'afarallohu lahu vali validayihi vali jamiil mo'minina val mo'minot". Tarjimasni, "Bu qabr Shayx, buyuk Imom, faqih (Islam qonunshunosi) va zohid (taqvodor parhezgor), Muhammad ibn Ayyub

<sup>48</sup> Исконҳон Жунайдуллахўжа ўғли Ибрат Фарғона тарихи. Мерос туркумидан. Тошкент: Камалак, 1991.-281-282 бетлар.

Bukr Ibn Umar Sulaymonnikidir. Olloh uning, uning ota-onasi va jami mo'minlur va mo'minalarning gunohlarini kechirgan bo'lsin". Ayrim hamyurtlarimiz ixlos yuzasidanmi yoki boshqa sababdanmi yuqoridagi kabi qabrtoshlarini o'midan olishib o'z yaqinlari qabrlariga o'matib qo'yishgan. Ushbu qabrtoshlaridan biri ayni paytda tuman o'lkani o'rganish muzeyida ug'lanmaka.

**Yugorlida** ayttilganidek, qabrtoshlarda halok bo'lgan kishining to'liq ismi sherif, vafsiy, unvonlari yozilgan. Afsuski, qabrtoshlarda marhumning tug'ilgan yili va vafsiy tarixi ko'rsatilmagan. Shunday bo'lsada qabrtoshlardagi fani sheriflar haqiqiyatda ham urabistonlik kishilarga taalluqliligi hamda ular **Muhammad Abdulloh ibn Jarir naqdoshlari ekanliklaridan dalolat beradi.**

**Aylishlarleha, Kuronnoydag'i "Sadpirl komil"** qabristoni va bu yerda dafn ettilgan shaxsha va lobehinlar haqida Shundyla Arabistonidagi ko'plab ulamolar va tarixchi olimmlarda ham ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular ushbu qabristonning nominihiz hurmat bilan tilga olisharkan.

Xulosa qilib aytish mumkinli, "Sadpirl komil" qabristoni deyarli 14 asrga teng ko'hna turixly maskan bo'lib, qadimiy turiximizning bezavol va muhtasham guvohi sifatida e'zozlushga, qadrlashga, avaylab asrashga arzirli muqaddas dargoh hisoblanadi. Zero, bu makonda nasaqat o'tmishimiz, balki xalkimizning shu kunlarga echa davom etib kelayotgan yaqin va aziz kishilarini xotirasni ham abadiyatga muhrlangandir.

O’zbekistonda siyosiy qatag’onlik 1937-yilning yozida ayniqsa avjiga chiqdi. O’zbekiston XKS raisi Fayzulla Xo’jayev, uning keyingi vorislari Abdulla Karimov, Sulton Segizboyev, O’zbekiston Kompartiyasi MK I- kotibi Akmal Ikromov, moliya xalq komissari (narkomfin) Akbar Islomov va boshqalar hibsga olindi. Davlat va jamoat arboblari, xo’jalik rahbarlari bilan bir qatorda milliy ziyolilar ommaviy ravishda qatag’on qilindi. XX asr o’zbek madaniyatining bebaho yulduzları Fitrat, Cho’lpon va Abdulla Qodiriy bir kunda - 1938-yil 4-oktabrda Toshkent shahri atrofida otib taslilandi. 4-oktabrda qamoqqa olingen ko’plab yurtdoshlarimiz ommaviy ravishda qatl qilingan. 1937—1939-yillarda O’zbekistonda to’qib chiqarilgan soxta ayblovlar bo'yicha 41 mingdan ortiq kishi hibsga olinib, ulardan 37 mingdan ortig'i jazolandi, 6920 kishi esa otib o'ldirishga hukm qilindi. Umuman olganda, 1937—1953-yillarda O’zbekiston ichki ishlar xalq komissarligi — NKVD troykasi (uchligi) tomonidan 100 mingdan ortiq kishi qatag’on qilindi, ulardan 13 ming nafari otib tashlandi. 1936—1940-yillarda faqat davlat va jamoat arboblari, yozuvchilar, shoirlar va olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, ulardan 4811 kishi otib o'ldirishga hukm qilingan edi. Bu ma’lumotlar qizil terrorqanchalik keng miqyosda shafqatsiz ravishda amalga oshirilganligining yaqqol isboti hisoblanadi.

Farg'ona jadidlarining yirik vakillaridan biri Abdulhamid Sulaymonqul o'g'li Yunusov( Cho'lpon)dir. U 1897 yil Andijonda dunyoga keldi. Cho'lpon Farg'ona jadidlarining yangi avlodiga mansub bo'lib, ijtimoiy-siyosiy faoliyati 1914-1915 yillardan boshlanadi. Uning dastlabki maqolasi 1914 yil «Sadoyi Farg'ona» va «Sadoyi Turkiston» gazetalarida bosilib chiqadi. Abdulhamid yozuvchi, shoir bo'lish bilan birga o'tkir publisist, hozirjavob qalamkash ham edi. Cho'lpon Turkiston Muxtoriyatini shodu-hurramlik bilan kutib oldi. Muxtoriyat tugatilgach, sovet idoralarida ishladi. Ko'plab taraqqiyparvarlar qatori u ham 1938 yil 4 oktyabrda Stalin istibdodining qurban ni bo'ldi. Farg'onalik yana bir otashqalb taraqqiyparvar Ashurali Zohiriyy-Muhammadzohirovdir (1885-1937). U 1885 yilda Qo'qon shahar atrofidagi Oyim qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qondagi Madalixon madrasasida boshlang'ich ta'limni olib, 1907 yilning mart oyidan Qo'qon rus-tuzem maktabida o'zbek tili va adabiyotidan dars bera boshlaydi<sup>53</sup>.

Zohiriyy 1910 yildan boshlab gazetalarda o'z asarlari, zamon ruhiga mos maqolalari bilan qatnasha boshladi. Uning bu maqola va asarlari o'zbek tili masalalari, maktab hayoti, o'quv-tarbiyaviy ishlarga bag'ishlanib, tub mohiyati bilan xalqqa maorif tarqatish ruhida yozilgan. Zohiriyyning bu asarlari «Sadoyi Farg'ona», «Sadoyi Turkiston» va «Turkiston viloyatining gazeti»da chiqib turdi. Mazkur maqolalarning ruhiyatida kishilarda milliy va diniy imyon-e'tiqod, vatanparvarlik xislatlarini tarbiyalash g'oyasi yotar edi.

Zohiriyy sovet tashkilotlarida faoliyat ko'rsatgan chog'larida ham milliy mustaqillik g'oyasidan voz kechmadi. O'z taqdirini millat taqdiri bilan uzviy bog'liqlikda ko'rди. Tarixchi olim Qahramon Rajabovning bergen ma'lumotlarga qaraganda, Zohiriyy Munavvar qori, Miyon Buzruk Solihovlar bilan birga Farg'ona qo'rbosehilarining qurultoyida qatnashganlar<sup>54</sup>.

Zohiriyy sovet davrida ham o'zbek milliy pedagogikasini rivojlantiruvchi namoyandalardan biri sifatida faoliyat ko'rsatdi. Atoqli ma'rifatparvar 1917 yil Qo'qonda «Dorilmuallimin» maktabini tashkil etdi. Bu maktab 1922 yilgacha o'z faoliyatini davom ettirdi. 1922 yil Farg'ona shahrida ikkinchi bosqich yangi usul maktabi tashkil etilgach, «Dorilmuallimin» bunga birlashtirilib, Pedagogika texnikumi tashkil topdi. U texnikumda o'zbek tilidan dars berdi. U 1923 yilda «Mehnat qahramoni» deb e'lon qilindi<sup>55</sup>. 1930 yilgacha Pedagogika va neftъ texnikumlarida va «Yangi Farg'ona» gazetalarida ishladi. Zohiriyy bu davrda ham xoh yashirin, xoh oshkora bo'lsin Vatan va millat istiqlolgi yo'lida kurash olib bordi. 1929 yil o'z qishlog'ida «Gap» deb nomlanuvchi tashkilot tuzadi va uning faoliyatini boshqaradi. Ushbu tashkilot a'zolarini sovet hukumati siyosatidan norozi bo'lgan milliy ziyorolar guruhi tashkil etar edi. «Gap» keyinchalik respublika miqyosidagi «Botir gapchilar» yashirin tashkilotiga ko'plab a'zolar yetkazib berdi<sup>56</sup>.

<sup>53</sup> Мадаминов А., Тожибоев Р., Валихонов М. Маърифат чароғбони //Адабий мерос.-1985.-Б.28.

<sup>54</sup> Ражабов К. Жадидлар-истиклолчилик харакатининг гоявий раҳнамолари. Ўзбекистон тарихи: янги нигто. Жадидлар харакатидан миллий мустақилликка қадар.-Т.: Эльдинур, 1998.-Б. 15.

<sup>55</sup> Мадаминов А., Тожибоев Р., Валихонов М. Кўрсатилган манба. Б.80.

<sup>56</sup> Узоков X. Эр киши битта гаптиради.-Тошкент: Чўлонп. -1996.-Б.32.

1930 yil 30 yanvarda Ashurali Zohiriy siyosiy ayblar bilan tergovga tortildi va 10 yil muddatga qamoqqa qamoqqa hukm qilindi. Muddatidan ilgari qamoqdan qaytgan isyonkor ma'rifatparvarni ko'p o'tmay 1937 yil yana qamoqqa oldilar. «Uchlik» komissiyasining 1937 yil 4 dekabrdagi sud hukmi bilan otildi<sup>57</sup>.

Farg'ona taraqqiyarvarlarining yirik namoyandalaridan biri Qo'qonlik jadid, maorif jonkuyari, qatag'on qurboni Abdulvahhob Ibodiydir. U o'z davrida Farg'onaning mashhur jadid muallimlaridan edi.

Abdulvahhob Ibodiy O'zbekistonda xalq maoritini rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan, ko'plab taniqli ziyyolilarni yetishtirib chiqargan insondir.

Ibodiy 1877 yil Qo'qon shahrining Eski aravabozor mahallasida kosib oilasida dunyoga keladi. Maktab yoshiga yetgach, mahalla maktablarida ta'lim oladi. So'ngra, uni 14 yoshida madrasaga o'qishga berishadi. Keyinchalik Mulla Shoazim (No'g'oy domla) ning yangi usul maktabini tamomilagan Mulla Abdulvahhob 1901 yil o'zi ham So'li Badal Eshon Xonaqohida «Maktabi Vahobiya» nomli yangi usul maktabini ochadi. Ibodiy o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati jarayonida xalqimiz uchun ko'plab ilm-fan, adabiyot namoyandalarini yetkazib berdi.

U faqat maktab-maorif ishlari bilan cheklanmasdan, omma orasida tashviqot va targ'ibot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishga ham alohida ahamiyat qaratgan.

Farg'ona jadidlari tomonidan 1914-1915 yillarda chop etilgan «Sadoyi Farg'ona» gazetasida uning bir necha maqolalari bosilib chiqqan. Abdulvahhob Ibodiy ayni paytda mazkur nashrning tashkilotchilaridan biri bo'lgan<sup>58</sup>.

Ibodiy 1921-1923 yillarda «Qo'shchi» ittifoqida oziq-ovqat tayyorlov idorasida mudir bo'lib ishlaydi. Lekin shu paytda ham u madaniy-ma'rifiy ishlarni davom ettiradi. 1923 yil maorif sho'basi Ibodiyga ikkinchi bosqich o'zbek maktabini tashkil qilish vazifasini topshiradi. Bu ishni u muvaffaqiyat bilan bajaradi<sup>59</sup>.

Ibodiying maktab va maorif sohasidagi 36 yillik xizmatlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti 1936 yil 14 oktyabrdagi qarori bilan uni «Mehnat qahramoni» unvoni bilan taqdirlaydi va shaxsiy nafaqa ta'sis etadi. Bu unvonga u birinchilardan bo'lib sazovor bo'lgan edi. Lekin 30-yillarning mudhish voqealari maorif jonkuyarini ham chetlab o'tmadı. Fidoiy inson «xalq dashmani» tamg'asi bilan 1937 yil 10 sentyabrdan hibsga olindi. Hibsga olinish arafasida u Qo'qondagi 1-bolalar uyi internatining direktori va o'qituvchisi bo'lib ishlar edi.

Hibsga olish uchun unga qo'yilgan ayblar quyidagilar: 1914 yil Istanbul shahriga borib, turk siyosiy arboblari bilan uchrashgan, buning uchun u panturkist sifatida qoralangan. Turkiston Muxtoriyati davrida esa millat taqdiri, manfaatlari haqidagi qarashlardan iborat adabiyotlarni tarqatish uchun «Hayrat» jamiyatini tuzgan, buning uchun u burjua millatchisi deb qoralangan. «Ta'mimi

<sup>57</sup> Узаков Х. Кўрсатилган асар, Б.39.

<sup>58</sup> Муддаомиза мувофиқ //Садойи Фаргона.-1914.-3 апр.

<sup>59</sup> Раймова Г. Маърифат фидойиси //Ўқитувчилар газетаси.-1989.-4 фев.

maorif»(«Sho'roi Islomiya» ning bir bo'lagi) aksilinqilobiy tashkilotining a'zosi bo'lganligi, bolsheviklar ta'rifiqa ko'ra, «eskilik sarqiti» deb yo'q qilinishga kirishilgan madrasa, masjid, diniy ulamolar to'planadigan binolarning tugatilishiga qarshi chiqqanligi, bu harakatlarga keskin norozilik bildirganligi, sovet hokimiyatining siyosati o'zbek xalqining moddiy ahvolini yomonlashishiga olib kelganini e'tirof etganligi, O'zbekistonning sofdir va fidoiy insonlarini qamoqqa olishmoqda, deb haqiqatni oshkora ta'kidlagani tufayli «sovetlarga qarshi tashviqot» yuritishda ayblangan<sup>60</sup>.

1937 yil 27 noyabrda O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining «Uchlik» komissiyasi A. Ibodiyni o'n yil xat olmaslik sharti bilan mehnat tuzatish lageriga jo'natish yuzasidan hukm chiqardi.

Ichki Ishlar Xalq Komissarligining 1947 yil 25 fevraldag'i xabarnomasida Abdulvahhob Ibodiyni 1942 yil 3 iyulda vafot etganligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandankeyin qatag'on qilinganlarning ko'pchiligi huquqiy jihat-dan oqlandi. Ularning porloq nomlari tiklandi. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimovning tasliabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toslikent shahridagi Yunusobod mavzesi-da — Bo'zsuv bo'yida Shahidlar xotirasi yodgorlik maj-mui ochildi. U mustabid sovet rejimi davrida qatag'onqilingan shahidlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilganbo'lib, millat fidoyilarining aksariyati shu yerda otibtaslilangan edi. I.Karimov yodgorlik majmuiningochilish marosimida so'zlagan nutqida kommunistikrejim qatag'onlarining asl mohiyatini quyidagicha ohibbergan edi: «Zulm va zo'ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o'zligini, milliy qadr-qimmati-ni teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak xalqniuyg'otishga, xalqni boshqarishga qodir bo'lgan, ma'rifatva ma'naviyat yo'lida fidoyilik ko'rsatgan barcha aql-zakovat sohiblari jismonan yo'q qilindi... Mana shularqatorida siyosatdan mutlaqo uzoq bo'lgan ming-minglaboddiy dehqonlar, hunarmand-kosiblar, ishchi-xiz-matchilarining begunoh qurban bo'lib ketgani tasa vvurgaham sig'maydigan ayanchli bir holdir».

2001-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida haryili 31-avgust — Mustaqillik e'lon qilingan kun qatag'onqurbanlari xotirasi kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu minnatdor avlodlarning o'z ajdodlari xotirasiga ehtiromidir.

## **O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga oid davlat siyosati**

*Topildiyev Odiljon Raximjonovich  
Namangan davlat universiteti "Ijtimoiy-  
madaniy faoliyat" kafedrasini mudiri, t.f.n.*

Demokratik jamiyat qurish jarayonida mamlakatda tinchlik va xotirjamlikni xukmron bo'lishi jamiyat va davlatni boshqarishda qonun ustuvorligiga erishilganligi, yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb

<sup>60</sup> Усмонов И. Кисмат //Маърифат.-1992.-5 авг.

etmoqda. Bugungi kunda mamlakatda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilarini va qishloq joylaridagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston respublikasining bиринчи prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bizning eng katta tayanch va suyanchimiz. hal qiluvechi kuchimiz yoshlarimizdir"<sup>61</sup>. Darhaqiqat, mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotda haqiqatan ham hal qiluvechi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart.

Bugungi kunda yoshlarni ish bilan ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uni rivojlantiruvchi asosiy soha hisoblanadi. Tadbirkorlikni qo'llab quvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar. xo'jalik sub'ektlari faoliyati qonun bilan himoya qilinadi. Ayniqsa, xususiy mulk shakliga asoslangan kasanachilik, oilaviy biznes va yakka tartibdagi kichik xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati asosiy o'rinda turadi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarining bиринчи bosqichida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik tez rivojlandi. 1991-1995 yillarda ularning soni o'rtacha 140 foizga o'sdi<sup>62</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozor islohotlari talablarini xisobga olgan holda qishloq yoshlarning kasbiy ta'limini qayta yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 1995 yil 29 iyulda 296-tonli qarori chiqarildi. Buning natijasida qishloqda xususiy sektorni rivojlantirish va qishloq yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, zarur kasblar va mutaxassisliklarni egallahsga hamda ularni moddiy rag'batlantirishga e'tibor qaratildi.

Dastlabki bosqichda kichik va o'rta biznes korxonalarining tez rivojlanib borishiga quyidagi omillar ta'sir etdi:

- Kiehik biznesga asoslangan korxonalar va sub'ektlarning erkin faoliyat olib borishga o'tishi;
- Kichik xususiy lashtirish dasturlarining amalga oshirilishi, korxonalarining davlat tasarrufidan chiqarilishi, nodavlat kichik biznes sub'ektlarining tashkil bo'lishi;
- Ularning rivojlanishi uchun uchun erkin iqtisodiy muhitning mavjud bo'lganligi, oilaviy biznesga asoslangan korxonalarining ko'payishiga olib keldi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi bo'lgan 1996-1999 yillarda esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi respublikada bir muncha susaydi. 1996-1999 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

<sup>61</sup> Каримов И.А. Инсон манфаати, хукук ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг яхши орқали юборд бўлишига эришиш – бизнинг бош мақсадимиздир. // Халқ сўзи, 2012, 8 декабрь.

<sup>62</sup> Кодиров А. Кичик ва ўрта бизнес муаммолари. // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2001, № 1, 58

imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligi ayon bo'ldi. Jumladan, hududlar bo'yicha tahlil qilganda Toshkent shahri va viloyati, Farg'ona vodiysi, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarcand, Buxoroda kichik biznes va xususiy tadbirdorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalanildi. Biroq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida kichik biznes va xususiy tadbirdorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmadi. 2001 yil 1 yanvariga kelib, 159719 ta kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sub'ektlaridan 125719 tasi faoliyat ko'rsatdi, qolgan 29 mingtasi faoliyat ko'rsatmadidi<sup>63</sup>.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichi 2000 yildan boshlandi. Bu davrda kichik biznes va tadbirdorlik faoliyati faollasha boshladi. Buning natijasida tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tartibga solish maqsadida bir qator qonunlar va qarorlar chiqarildi. Chunonchi, "Xususiy tadbirdorlik, kichik biznesni rivojlanirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi PF-1987-sonli Farmoni, 2000 yil 25 may "Tadbirkorlik faoliyatini erkinliklarining kafolati to'g'risida"gi Qonun<sup>64</sup>, "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005 yil 14 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbazarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida"gi 2005 yil 24 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga, 2011 yilni O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov tomonidan "Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik yili" deb e'lon qilinishi va Davlat dasturini qabul qilinishi<sup>65</sup> yoshlar orasida tadbirdorlikni rivojlanishida aniq maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga keng yo'l ochib berdi. Buning natijasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda eng muhim va dolzarb vazifa mulkni haqiqiy egalari qo'liga berishni tezlashtirish, tadbirdorlik uchun keng yo'l ochib berish hamda mulkdorlarda egalik hissiyotini tarbiyalashdan iborat bo'ldi.

Agar 1991 yili mamlakatda atigi 9,3 ming kichik korxona bo'lgan bo'lsa, 2003 yilga kelib ularning soni 65 mingdan oshib ketdi. 2008 yilda Respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 1,9 barobar ko'paydi va 400 mingtani tashkil etdi. 2000 yili faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari yalpi ichki mahsulotning 30 % ni ishlab chiqargan bo'lsa, 2002 yilda kichik biznes va tadbirdorlik asosida ish yuritayotgan korxonalarining ulushi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda 14,1 %, qurilish-pudrat ishlarida 36,8 %. chakana savdo oborotida 45,8 %, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda 75,6 %ni tashkil etdi. 2007 yilda esa kichik biznes va tadbirdorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 45,8 %dan 2008 yilda 48,2 %ga

<sup>63</sup> Кодиров А. Кичик ва ўрта бизнес мұаммолосы. // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2001, №3. - Б. 58.

<sup>64</sup> Тадбиркорлик фаолиятини эркинликларининг кафолати тўғрисидаги Конун. 2000 йил 25 май. <http://lex.uz>.

<sup>65</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг "Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили" Давлат Дастури тўғрисидаги 2011 йил 7 февраль карори. // Халқ сўзи, 2011, 10 февраль.

ko'tarildi. 2008 yilda O'zbekistonda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 %dan ko'prog'i va 2014 yilda ish bilan band aholining 76,5 foizdan ortig'ini, 2015 yilda esa ish bilan band aholining 77 foizdan ortig'ini kichik biznes va tadbirkorlik sohasida mehnat qilayotgani shundan 55 %ni yoshlar tashkil etganligi diqqatga sazovor bo'ldi.

Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2016 yil 5 oktyabrda chiqarilgan "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>66</sup> farmon kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlash. xususiy mulkni himoya qilish hamda uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu farmon mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning erkin faoliyati uchun keng imkoniyat yaratish. ularning manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasida yangi sifat bosqichini boshlab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlaydigan keng ko'lamli islohotlarning yangi davri boshlandi. Shu o'rinda, agar 25 yil avval O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli mayjud bo'lмаган bo'lsa, 2017 yilga kelib barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning 90 foizdan ortig'i - bu kichik biznes korxonalarini ekanini ta'kidlash kifoya. Agar 2000 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 31 foizi kichik biznes sohasida yaratilgan bo'lsa, 2015 yilda mazkur ko'rsatkich 56,5 foizni tashkil etdi. Bugungi kunda sanoat mahsulotlarining 40 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelayotir. Shu o'rinda, aholi bandligini ta'minlash va xalqimiz daromadlarining o'sib borishida xususiy tadbirkorlikning tutgan salmog'i naqadar yuqori ekanligini alohida qayd etish joiz. Ayni vaqtida mehnat bilan band aholining qariyb 78 foizi shu sohada mehnat qilmoqda. Natijada, so'nggi besh yil ichida aholi daromadlari ichida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarning ulushi 47,1 foizdan 52 foizgacha o'sgani aholi daromadlarining oshishi<sup>67</sup>, odamlarning turmush darajasi va sifatini yaxshilash borasida muhim ahamiyat kasb etib borayotganidan dalolat beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, yirik biznes iqtisodiyotning tanasi bo'lsa, kichik biznes va tadbirkorlik uning qon tomirlari, demakdir. Mamlakatda bozor

<sup>66</sup> Мирзиёев Ш.М. "Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашта, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя килишга ва ишбilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir кўшимча турд-тадбирлар тўғрисида"ги farmon // Xalk сўзи, 2016 йил 5 октябрь.

<sup>67</sup> Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевининг "Мамлакатимизни 2016 йигига ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иктисолий институтиниң энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган" Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган маъжизасидаги матрузаси // Наманганд ҳақиқати, 2017 йил 18 январь

iqtisodiyoti rivojlangani sayin mehnat bozoridagi raqobat yanada keskinroq tus olmoqda, jamiyatning o'qimishli, yangicha fikrlaydigan yosh tadbirkorlarga bo'lgan ehtiyoji yanada kuchayib bormoqda.

Xulosa qilib qilib shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston yoshlaringning tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishga doir quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq:

birinchidan, yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularda axloqiy va mehnat ta'limini tadbirkorlik bilan bog'lashga o'rgatish zarur;

ikkinchidan, yoshlar tadbirkorligi faoliyati rivojiga to'siq bo'ladigan barcha sun'iy g'ov va rasmiyatchiliklarni batamom bartaraf etish;

uchinchidan, iqtisodiy tarbiya bevosita mehnat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib yoshlarda iqtisodiy bilimlar asosida tadbirkorlik madaniyati yuzaga kelishida ota-onalar, maxalla va ta'lrim muassasalarini mas'uliyatini oshirish lozim.

Demak, aholi tarkibida tadbirkor yoshlarning ko'payishi jamiyat rivojini va iqtisodiy taraqqiyotni nihoyatda kuchaytiradi, iqtisodiy tarbiya kelajakda yoshlarni har tomonlama yuksalishida va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Keeping an appropriate teacher / student relationship in the age of social networking**

*Abduqodirov Umidjon Nazirovich  
Fergana Polytechnic Institute*

That education and social media will share borders and encroach on each other's area of influence shouldn't come as a surprise. On one hand, education as we know it is very much a social engagement in itself, involving teachers and students. On the other hand, social media is both a technological tool for communicating different ideas as well as an enriched environment for collaboration. As such, the benefits that social media can deliver to contemporary education can be very tremendous, indeed. In fact, it is now very easy to imagine a virtual classroom that melds the current platforms of the most innovative online universities with the powerfully engaging and personal experience of social media. How the learning dynamics will be influenced by this theoretical setup is still open to debate but it is a possibility that may now have already taken root in some form or another.

While the exciting, positive advantages of using social media in education is a topic that can rouse a lively discussion, the serious ethical issues that result from their melding inspire a much more heated debate. In July this year, the state of Missouri enacted a law that prohibited students and teachers from being friends or contacts in social networks such as Facebook. However, following a strong clamor from teachers who deemed that their fundamental rights are being assailed by the legislation, the original bill was substantially modified, finally granting individual school districts the freedom to establish their own policies on social networking.

Both sides of the argument have persuasive merits. It is no secret that social networks have become a virtual setting for instigating various crimes ranging from bullying, extortion and sexual assault. That there are people with criminal intent who use social networks to plan and execute their series of capers is clearly undeniable. There are quite a number of disturbing stories about them that we encounter almost every day.

In addition, some psychologists and social scientists believe that taking the conventional student-teacher relationship out of the classroom can lead to dire consequences. When taken to the highly informal environment of most social networks, the traditional authority of teachers can be eroded to the point that classroom engagements will be among peers, not between teachers and students whose roles and expected behavior are clearly defined.

The many possible types of interactions on social networks such as liking a particular hobby, organization or place can also lead to inappropriately close relationships between teachers and students. On top of this, the provision for one-on-one messaging between friends or contacts can even encourage sexual misconduct.

That said, the danger of social media is very real. However, merely focusing on the risks will cause us to miss its true potential as a teaching tool/environment. After all, there's bound to be some criminally-minded people just about anywhere a substantial group of people converge, whether online or not. True, social media lends an anonymity and a cloak of security to criminal elements but there are ways of circumventing, restricting or exposing their schemes without altogether banning the use of social media in education. To do so would unfairly clip the tremendous benefits social media can enrich the learning experience with.

Banning social media in education will prevent schools, teachers and students from reaping its phenomenal benefits. A few decades ago, the Internet created a very similar educational milestone. Many schools in the nineties were hesitant to implement an Internet connection for fear of unleashing unwanted content from the Web to their student population. However, As Karl Meindhart, the developer of the Portland social media program commented, "There was this thing called the Internet starting to show up that was getting a lot of hype, and the school administration was adamantly against allowing access...The big fear was pornography and predators, some of the same stuff that's there today. And yet...can you imagine a school not connected to the Internet now? "

Clearly, social media--like email and the Internet--has already become a staple in people's every day life. At the very least, the right balance between effective use of social media and behavioral boundaries should be maintained as much as possible. One way to do so is by creating formal social network communities or groups that does not require the teacher to "friend" or follow a student. Keeping all communications within the community page will help prevent teachers and students from getting too "personal". In fact, any other means of making communications transparent within a given group will reduce the incidence of inappropriate behavior.

As social media is here to stay, it's just a matter of time before its powerful sharing, collaborative, and instructional tools will be formally appropriated by many forward-thinking educational institutions. After some time, social networks will become just another technology by which teachers can share knowledge with their students. Even then, the bottom line remains that it is the *person* using the technology--not the technology itself--that is responsible for any abuse done through it. This consistent fact (as may be applied to similar communication tools such as hand-written letters, telephones and emails) requires all enterprising teachers of the future to establish a social media strategy that will enable the delivery of its benefits while curtailing its potential risks.

## Axsikent - osori antiqalarga boy makon

*Azamat G'aniyev*

*Namangan viloyati o'lkani o'rghanish  
muzeyining ilmiy xodimi*

Birinchi Prezidentmiz Islom Karimovning 2015 yil 26 noyabrdagi viloyatmiz (Namangan)da bo'lib o'tgan yig'ilishda so'zlagan nutqi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2016 yil 17-fevraldag'i „Topshiriqnomasi”da Axsikent yodgorligini turizm manzilgohiga aylantrish g'oyat dolzarb masala ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan edi. Shunday ekan. Axsikent yodgorligini o'rghanish va mukammal tarixini yaratish, uni nafaqat Respublikamiz ahli, balki xorijiy sayohlarga ham namoyish etish mumkin bo'lgan xo'liga keltrish endi davlat miqyosdagi vazifaga aylandi. desak mubo'lag'a emas.

Axsikent haqida gap borar ekan Prezidentmiz Sh. M. Mirziyoevning bu diyordagi mashhur qadimiya manzilgohlar sanalmish arxeologik yodgorliklar bo'lgan Axsikent. Munchoqtepa, Mug'tepa kabi arxeologik yodgorliklar hamda o'lkadagi hunarmandlar tomonidan turli davrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar ham o'tmishda bu hududda o'ziga xos tsivilizatsiyaga erishilganligidan va boy madaniy taraqqiyotga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi deya ta'kidlaganliklari bejiz emas.

Namangan viloyatida tarxiy yodgorliklar haqida so'z ochilganda avvalo buyuk ipak yo'li yoqasida joylashgan Axsikentni tilga olmasdan ilojmiz yo'q.

Tarxiy manbaalar o'rghanilganda Axsikent nomi Axsikent yoki Axsikat nomi bilan yuritilgani yozib qoldirilgan. Shu bilan birga bu ko'hna va muazzam shahar uzoq davr Farg'ona vodiysning poytaxti bo'lganligi ham sayyoh va geograf, tarixchi olimlarning yozib qoldirgan asarlarida, jumladan, XIII asrda yashagan bag'dodlik olim Yoqut al Xamaviyining "Mu'jam ul - udabo" ("Adiblar lug'ati") va "Mu'jam ul-buldon" ("Mamlakatlar lug'ati") asarlarida o'sha davrlardagi mamlakatlarda, jumladan, Axsikentda tug'ilib voyaga yetgan olim va shoirlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Axsikent shahar sifatida millordan avvalgi III-II asrlarda qad ko'taradi va bu yerning qulay iqlimi, tabiiy boyliklari Axsikent shaharda hunarmandchilik rivojlanishiga zamín hozirladi.

**Eng qadimgi hunarmandchilik turi bo'lgan kulolchlik tarqqiy etdi va arxeologik qazishma davrlarida topilgan ashyolar o'sha davr haqida xulosalar berishga eng ishonchli dalildir.**

Keyingi davrlarda shishasozlik rivojlanganligi va usta hunarmandlar tomonidan turli buyumlar: kosa, xum, ko'za kabilar hamda zargarlik buyumlari, misgarlik, temirchilik kabi hunarmanchlik san'at darajasida rivoj topgan.

Axsikentda shishasozlar shisha buyumlar tayyorlashda ajoyib idishlar tayyorlaganliklarini bu yerdan topilgan shishasozlarning ish qurollari namunalari topilganligi bizni yurtmizga chetdan shisha buyumlari Xitoy, Arabiston, Eron, Turkiya kabi yurtlardan keltirilgan degan fikirlarni inkor etdi.

Axsikent shahrida IX-XII asrlarga oid turli metallardan tayyorlangan uzuklar xam topilgan bo'lib, qazishma davrida bizgacha yer bag'rida o'tmishni ko'priq bo'lib bizga yetkazgan namunalar topildi. Ularni turlarga ajratilsa, oltin, kumush, bronza, mis, temir, hattoki shishadan ham yasalgan uzuklar topilgan, uzuklar ko'zli va ko'zsiz tayyorlangan.

Bu uzuklar ajdodlarimizda egzilik, muhabbat, vafodorlik, timsoli hisoblangan. O'z davirga oid zebi-ziynat buyumlarni yasaydigan zargarlik asbob uskunalar ham Axsikent xarobalaridan topilganligi bu qadimiylar shaharda avvaldanoq zargarlik buyumlarni yasaydigan ustaxonalar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Axsikent kulolchiligini alohida mavzu deyish mumkin. Chunki, arxeologik tadqiqotlar natijasida millordan avvalgi III-II asrlar va eramizning IX-XII asrlarga mansub turli tuman ajdodlarimiz tomonidan tayyorlangan va foydalanan sopol buyumlari, uy-ro'zg'or anjomlari, savdo munosabatlarida ishlatalgan tangalar, paxsa devorlar, sopol quvurlar qoldiqlari topilgan va bular muzey ko'rgazma zallarida necha yillardan buyon o'l kamiz tarixidan so'zlab, kelgan ziyyoratchilarga ma'lumotlar berib turibdi.

Axsikent shahri yodgorligi o'zbek xalqning tarxini o'zida mujassam etuvchi va tarix sahifalarini to'ldiruvchi ko'hna va qadimiylar yodgorlikdir. Topilmalar asosida xalqimizning o'tmish madaniyatini, san'ati nihoyatda boy va rang- barang bo'lganligidan dalolat beradi. Bu san'atning ko'pgina turlari shu jumladan uzuklar, badiiy kashtalar, nafosati gul dor matolar, yog'ochga, metallga ayniqsa, uzuklarga ishlangan bezaklar o'zning go'zalligi bilan kishini o'ziga maftun etgan.

O'tmishimizga oid madaniy qatlamlarni tarixiy o'r ganishmiz uchun Axsikent yodgorligi ham muhim daliliy ashyoviy makon bo'lib xizmat qilmoqda hamda madaniyatimiz tarixni yangi sahifalar bilan bezashga imkon bermoqda.

XX asrning 60-70-yillarida Axsikentdan XV-XVI asrغا oid misdan zarb etilgan chaqa pullar xazinasi topildi. Bundan tashqari Axsikent xarobalaridan g'aribroqda qul dorlik davriga oid antik shahar xarobalari borligi qazishma paytida aniqlandi.

Qadimgi Axsikent shahridan VIII asrning ikkinchi yarmida toki XVII usrning 20-yillariga qadar ko'plab shoirlar va olimlar, tarixchilar, diniy arboblar, mushhur xattotlar yetishib chiqqan.

Bizgacha asarlari va ular haqidagi ma'lumotlar yetib kelganlarni sanab o'tish mumkinki, ular X asrda yashab o'tgan va shu yerdagi madrasada mudarrislik qilgan Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So'fiy Axsikatiy, xattot Muhammad Yusuf ibn Imoduddin Axsikatiy, tarixchi Sayfuddin Axsikatiy va boshqa ulug' zotlar ana shular jumlasidandir.

Sayfuddin Axsikatiyning o'sha davr xaqida mukammal ma'lumotlar beruvchi asari "Jome ut Tovorix" (Tarixlar majmuasi)dir.

Axsikentlik allomalardan ilm va tib ahlidan meros qolgan devonlar, nasriy va tarixiy asarlari bugungi kunda ko'pgina xorjiy davlatlarda jumladan. Pokiston, Eron, Afgh'oniston, Turkiya, qisman arab mamlakatlariда saqlanmoqda. Ana shu manbaalarni yurtimizga qaytarish va ularni ilmiy asosda o'rghanish oldimizda turgan asosiy dolzarb vazifadir.

## **Yoshlar tarbiyasida miniatyura san'atining tutgan o'rni**

*Zokirova N.*

*NamDU 2-bosqich talabasi*

"Ma'naviy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi № 451-sonli qaror milliy qadriyatlarimizning asrab - avaylash. yo'qolib ketayotgan urf-odatlarimizni, san'at tariximizni tiklash, ona yurtga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yoshlar ongiga singdirish vazifasini qo'ydi. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski. Vatanining tarixini bilishni istaydi".

Biz yoshlar O'zbekistonning gullab-yashnashi uchun o'tmisht, tariximizni yaxshi bilishimiz kerak bo'ladi. Zero, tarixni bilmay turib, ota-bobolarimiz qoldirgan bebaho merosni o'r ganmasdan komil insonni tarbiyalash, kelajakni barpo qilishning imkoniy yo'q. Shundan kelib chiqqan holda yoshlar tarbiyasi muxim ahamiyat kasb etadigan, ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan milliy rangtasvir san'atimiz, miniatyura san'atiga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur.

O'zbekiston tasviriy san'atining eng katta, gullagan, serqirra va o'ziga xos taraqqiy etgan davri bu Temuriylar davri san'ati bo'lib, bu davr jahon san'ati rivojiga o'zining ulkan xissa qo'shgan. Bu davr san'atining serqirraligi shundaki, "Ko'pgina xalqlar o'rtaida shakllangan tasviriy san'at maktablari markazlashgan bir qiyofasini aynan Temuriylar davrida topadi. Turli an'analarga ega bo'lgan tasviriy san'at maktablarining yaqinlashuvi uyg'unlashgan ilg'or Samarqand maktabining shakllanishiga sabab bo'ladi"<sup>68</sup>.

Darhaqiqat, har bir xalqning o'ziga xos tor doiradagi ijodi uning rivojiga qaysidir ma'noda monelik qiladi. Qolaversa, tasviriy san'at namunalarini turli o'lkalarga tarqalib ketishi, uning mohiyatini, xarakterini, ishslash uslubini yoritish imkoniyatini bermaydi.

<sup>68</sup> Norsaid Oydinov. Tasviriy san'at tarixi. T., 2007. 32-b

Temuriylar davriga kelib esa boshqa xalqlar bilan o'zaro mawdu'-matliq va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yilishi natijasida san'at va madaniyating rivojlaniganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, me'morlik va amaliiy san'atning burcha turlari jadallik bilan rivojlandi, kitobat san'ati ham juda yuksak chernigalda o'sdi. Qo'lyozma kitoblarni qayta ko'chirilishi natijasida ko'plab tasviriy san'atning nodir namunalari yuzaga keladi. Ular kitobat san'atning rivojlanishiga ulkan xissa qo'shdii va yanada boyitdi.

Bu davrda yaratilgan minatyuralarning katta bir qismi al'bomlarga ishlangan tasvirlar bo'lib, ularda asosan shox saroylaridagi hayotiy voqeъ va hoidisalar haqqoniy tasvirlangan. Bu muraqqa-al'bomlarga ishlangan minatyuralarning muhim tomoni shundaki, ularning har biri o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega bo'lgan mustaqil asarlar hisoblanadi.

Sohibqiron Amir Temur Samarcandni ulkan madaniyat va ma'rifat markaziga aylantiradi. Temuriy shahzodalar ham Sohibqironning ishini davom ettilg'unlari holda Samarcandni yuksak madaniyat markazi sifatida mavqeini yandu oshirudi. Bu davrda yaratilgan milliy san'atimizning noyob durdonalari bo'lgan minutyura asarlari dunyoning juda ko'plab muzeylarini bezab turibdi. Jumladan, ularning katta bir qismi Parij, Myunxen, London, Istanbul, Moskva, Sankt-Peterburg, Texron, Qoxira, Qobul, Kalkutta, Dexli, Ulan-Bator, Nью-York, Vashington va shu kabi dunyoning boshqa ko'plab markaziy shaharlari muzeylarida saqlanmoqda.

Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san'at ustalarning mashxur ustodi Gung Temuriylar davri san'ati asoschisi hisoblanadi. Ularning zamondoshlari Buxorolik usta Jahongir, Bog'dodlik ustalar Abdulkay va Shamsiddinlar, Tabrizlik Pir Said Axmad, Samarcandlik Axmad Bog'ishamoliy, Shox Muxammad Tamimiyy va shu kabi boshqalarni Samarcandda ijod qilishlari bilan Temuriylar davri san'atiga tamal toshi qo'yildi.

XV asrga kelib, Kamoliddin Behzod tufayli miniatyurada inson obrazи badiiy asarlardan mustaqil tarzda o'zining ifodasini topdi. Unga alohida o'rin beriladigan bo'ldi, oldinlari qo'llanilgan yuzakilik o'rnini mutannosiblik egalladi. Inson qiyofasida imo-ishoralar, mimika, harakatlarda esa dinamika yuzaga keldi. natijada, miniatyuralarda yangi syujet va yangi qahramonlar paydo bo'ldi, tasvirlarning ifodaviyligi ortdi.<sup>69</sup>

XVI asrda musavvir badiiy matndan uzoqlashib, borliq-olamga o'z munosabatini ifodalay boshladi. Shu boisdan ham adabiy matnda muallit nazarda tutmagan obrazlar musavvir tomonidan miniatyurada tasvirlana boshlandi, hayotiy voqelikni tasvirlashga qiziqish ortib bordi.

XVIII – XIX asrlarda adabiyotda ham, minatyura san'atida ham inson tasviri oddiyashdi, tasvirlar qo'pollashib, ranglar uyg'unligi yo'qoldi. Astasekin minatyura san'ati tanazzulga yuz tutdi. Chor Rossiysi va Sho'ro davrida esa minatyurachi rassomlar, hattotlar, amaliy san'at ustalari faoliyatiga e'tibor so'ndi.

<sup>69</sup> Jabbarov B. "Miniatyura san'atida inson obrazи." Kamoliddin Behzod ijodining ijobi madaniy attda tulgan o'rn: tarix va zamonaviylik. Ilmiy maqolalar to'plami. 125-bet

Yurtimiz istiqlolga erishganidan so'ng san'at va madaniyatning barcha sohalari qatori zamonaviy o'zbek tasviriy san'atini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida rivojlantirish masalasiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Tasviriy san'at galereyasi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Kamoliddin Behzod memorial bog'-muzeyi tashkil qilindi. Bularning barchasi tasviriy san'atning milliy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishiga va u asosida esa o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga zamin yaratdi.

## **Globallashuv sharoitida milliy ma'naviyat**

*Umarova Gulsanam*

*Jismoniy madaniyat fakulteti, jismoniy madaniyat 4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Hammamizga ma'lumki. XIX asrning oxiri XXI asrning boshlaridagi xalqaro vaziyat globallashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketganligi bilan xarakterlanadi. Masalaning muhim va dolzarb jihat shundan iboratki, hozirgi zamon globallashuv jarayonlari insoniyat uchun keltirib chiqarayotgan oqibatlar mohiyatini tezda tushunib anglash oson kechmayapti. Bugun globallashuv o'zining qamrovi, ta'sir kuchi, tobora ommaviy tus olishi bilan kam taraqqiy qilgan va endi taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlar xalqlarini milliy ma'naviyatiga tajovuz qilmoqda, ularning zaminlarini yemirmoqda va istiqbolda "ommaviy madaniyat" ta'sirida ularning barbos bo'lishiga zamin tayyorlamoqda.

Bu tajovuz nafaqat ommaviy axborot vositalari televidenie, internet yoki uyali telefonlar vositasida, shuningdek insonlarning hayot kechirishi va turmushi uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot vositasida ham amalga oshirilmoqda. Gohida globallashuvning ta'sirida sodir bo'layotgan integratsiyalashuv natijasida mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobjiy siljishlarning odamlarning moddiy sharoitida o'z ifodasini topayotganligi ko'rsatkichi ta'sirida milliy ma'naviyatning zaiflashuv jarayoni sezilmayapti. Globallashuvning milliy ma'naviyatni yemirish, urf-odat, an'ana, qadriyatlarning xiralashuviga o'tkazayotgan ta'sirida ayniqsa, yaqqol namoyon bo'immoqda.

Globallashuv davriga kelib esa taraqqiyot borasida o'zgacha qarash voqeа hodisalarini makon va zamondan ajratmagan xolda, sinxron tarzda talqin etish tamoyili ko'zga tashlana boshladi.

Globallashuvning vujudga kelishida savdo va ishlab chiqarish, iqtisodiy, moliyaviy aloqalarning dunyo miqyosida g'oyat kuchayishi, tezlashishi zamin bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana bir sabab – dunyo miqyosida urbanizatsiyaning kuchayishi ham globallashuv jarayonini tezlashtiirdi. Jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda shahar aholisining iqtisoiy faol qismi ertalab ishga, yoshlar o'qishga borib, kechqurun xonardonlariga qaytadi, bo'sh vaqtini ham qariyib bir xil – televizor oldida o'tkazadi. Hatto ishda va ko'chada kiyadigan kiyimlarining turi va bichimi, ro'zg'orda ishlataidan buyumlar ham

**aytarli** bir xil. Bularning barchasi turli xalqlarning psixologiyasida, tafakkur tarzida, hordiq va maishatga, iste'molga, hayotga munosabatida mushtarak qurashlar paydo bo'lishiga olib keldi, "ommaviy madaniyat"ning tarqalishiga zamin yaratdi. Natijada dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida hordiq va ko'ngilochar "mahsulot"lar ishlab chiqaradigan industriya shakllandi.

XX asrning 70 yillarigacha dunyo mamlakatlarining iqtisodiy – ijtimoiy humda siyosiy taraqqiyoti har bir davlatning o'z hududi doirasidagi rivojlangan sur'atlari yoxud ularning o'zaro munosabatlari darajasidan iborat jarayon nifutida talqin etilar edi.

Bugungi kunda hayotimizda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarda keng qo'llanilayotgan globallashuv tushunchasi ko'plab siyosatchi, fuylasuf olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti bevosita ana shu jarayonni to'g'ri anglash bilan bog'liq ekanligi kundan-kunga ravshan bo'lib bormoqda. Globallashuv tushunchasini bilmasdan turib, bu jarayonda ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashning mazmuni haqida fikr bildirish mantiqqa ziddir.

"Globallashuv tushunchasi (lot. Globus — shar, Yer sayyorasi ma'nosini anglatadi) yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'tasida o'zaro aloqalarining kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etadigan global jarayon. Ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog'lanmoqda.

"Globalashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T. Levittning 1983 yili "Garvard biznes revyu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi (u yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini shunday deb atagan edi). 1985 yilda esa tanqli amerikalik olim R.Robertson "Globalization" iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushuncha "odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi"ni aks ettirib, "dunyoning birlashuvi va kishilar o'tasidagi o'zaro aloqalarining kuchayishini" ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

So'nggi paytlarda televizor ekranlarida, kinoteatrлarda, internet tarmog'ida turli disk yozuvlarida ochiqchasiga zo'ravonlik, shafqatsizlik, axloqsizlik, ma'naviy qashshoqlik, behayolik, fahsh, ochko'zlik, boylikka hirs qo'yishlik, turli zararli odatlar, giyohvandlik, ichkilikbozlik, kashandalikni oshkora targ'ib qiluvchi badiiy fil'mlar, multfilmlarni namoyish etish ko'paymoqda. Shuningdek, bugungi yoshlar axborot globalashuvi zamonda "Internet" tarmog'idan turli ma'lumot va tasvirlarni ko'rish, o'qish imkoniyatiga ega. Bu bir tomondan ijobiy holat bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlar ongiga salbiy ta'sh o'tkazishi, ularni axloqiy jihaddan tubanlashuviga, zararli g'oyalar ta'sitiga tushib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. G'arbdagi turli markazlar "ommaviy madaniyat" niqobi ostida har xil g'oyaviy zararli saviyasi past, ma'naviy

tubanlikka yetaklovchi, animatsion va badiiy fil'mlar, rok-n – roll, pop-metallist yo'nalishlaridagi qulqoni qomatga keltiruvchi, sharqona axloq-dobga xilof bo'lgan musiqa mahsulotlarini yoshlarimiz e'tiboriga havola etishmoqda.

Bugungi kunda internet tarmog'ida to'qqiz mingdan ortiq o'z joniga qasd qilishni targ'ib etuvchi, to'rt mingdan ortiq erotik mazmundagi saytlar ishlab turibdi. Global tarmoqdag'i mavjud resurslarning o'n ikkki foizi pornografik mazmundadir. Ularga yoshlarni qiziqishi juda katta.

Dunyoda globallashuv jarayoni davom etayotgan, ta'lim-tarbiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish masalasi nihoyatda dolzarb masala bo'llib turgan sharoitda yoshlarga bu imkoniyatlardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yishni iloji yo'q. Biroq, bir vaqtning o'zida "ommaviy madaniyat" va turli yot g'oyalarga qarshi kurash olib borish, bu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish talab qilinmoqda.

Xullas, biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo'lmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz lozim.

## **Применение ролевой игры в обучении иностранным языкам**

**Абдукодиров Умиджон,  
Преподаватель Ферганского  
политехнического института**

Ролевая игра относится к третьему этапу развития речевого умения и способствует расширению сфер иноязычного общения. А это предполагает в свою очередь предварительное усвоение языкового материала в тренировочных упражнениях и развитие соответствующих навыков, которые позволяют учащимся сосредоточиться на содержательной стороне высказывания. В процессе ролевой игры одно временно происходит совершенствование и развитие навыков в использовании языкового материала, но на данном этапе подобная деятельность выступает нереферийной задачей, поскольку главное-это общение, мотивированное ситуацией и ролью. Поэтому ролевой игре обычно отводится место на завершающем этапе работы над темой. Таким образом, ролевая игра, имеющая основную практическую задачу развитие умений монологической и диалогической речи, полностью соответствует специфике работы на третьем этапе, где речевой материал по пройденным темам используется в совершенно новых ситуациях, для решения новых коммуникативно-познавательных задач более сложных и с психологической и с лингвистической точки зрения.

Во временном плане ролевая игра представляет собой относительно целостный цикл управляемого взаимодействия преподавателя и студентов, который состоит из трёх этапов. Подготовительный этап предполагается разделить на два под этапа. Первый подготовительный под этап выходит за рамки одного урока и включает в себя формирование и совершенствование

лексических и грамматических навыков по теме, лингвистическую и социокультурную подготовку студентов. Второй подготовительный под этап проходит не посредственно на уроке. В начале занятия преподаватель создаёт общую ситуацию общения, затем раздаются ролевые карточки и объясняются правила работы с ними, после этого проходит речевая подготовка студентов в группах, которая призвана создать атмосферу иноязычного общения на уроке и активизировать речемыслительную деятельность студентов перед ролевой игрой. Таким образом, второй подготовительный под этап выполняет задачу организационной, ситуативной и речевой подготовки студентов и служит хорошей базой для второго основного этапа ролевой игры. На основной этап ролевой игры должно отводиться достаточное количество времени, чтобы студенты выполнили все коммуникативные задачи, обозначенные в ролевых карточках.

На уроке - ролевой игре педагогическое общение является его органической частью т.к. любая ролевая игра предполагает коммуникативную направленность, ситуативность обучения, а значит и демократический стиль общения, когда учитель и студент являются речевыми партнерами. Во время основного этапа ролевой игры, организующую и ориентационную роль учителя выполняли ролевые карточки, в то время как преподаватель во многом способствовал созданию психологической атмосферы благоприятной для общения во время подготовительного этапа. Во время заключительного этапа, когда участники обсуждали ролевую игру студентам предлагают высказать свое мнение, и не отвечать на вопросы – это привлекает к ответу и студента и других учащихся.

Это очень важно воспитывает и сплачивает речевой коллектив, учит студентов быть речевыми партнерами.

### Xalq dardiga darmon bo'laylik

*Feruza Yaqubova*

*Nam DU Pedagogika fakulteti, TSMG yo'nalishi*

*412-guruh talabasi*

Bugungi kunda hayotimizda barcha soha va yo'nalishlarda, jumladan davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyoti tarmoqlari, fermerlik, tadbirdorlik, tibbiyot, ta'lif-tarbiya fan san'at va madaniyat sohalarining rivojlanishida, yurtimizda hech kimdan kam bo'lmaydigan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etishda davlatimizning xalqaro maydonda yuksaltirishdaq ong-u tafakkurimiz kuch-qudratimiz bevosita ilg'orlikka undaydi. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, Vatanimizning kelajagi xalqimizning ertangi kuni mamlakatimizning jahon hamjamiatidagi obro'-e'tibori avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqidir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. Barchamizga ayonki, inson qalibiga yo'l avvalo ta'lif-tarbiyadan

boshlanadi. Yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga qadam tashlayotgan yoshlarimizning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimiz yaxshi his etamiz. O'zbekistonimizda shaxs, millat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy huquqiy va ma'naviy jihatdan yuksalishi jarayonida peshqadam bo'lib kelmoqdamiz. Mamlakatimizda inson manfaatlarini tobora to'laroq qondirib borishga jiddiy e'tabor qaratilmoqda. Hayotimiz kundan-kun o'zgarib, yanada farovonlashib bormoqda. Inson manfaatlarini ro'yobga chiqishida, ijtimoiy siyosiy munosabatlar shart-sharoitlar jiddiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

Mamlakatimizda hamma narsa inson uchun, uning kelajagi uchun degan ezgu tamoyilni to'liq amalga oshirish ustuvor maqsad bo'lib bormoqda. Bejizga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, ularning hayoti, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qiladi." Bizga shu narsa ma'lumki, O'zbekiston - yoshlar mamlakatidir. Aholining 70 foizini yoshlар tashkil qiladi.

Kelajagimiz bizdek yoshlар qo'lida. Ertangi hayotimiz qanday bo'lishi bugungi kunda tarbiyalanayotgan bizdek yoshlар hal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oly Majlisning Qonunchilik Palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni istiqlol yillarida amalga oshirilgan yoshlarning huquqiy erkinligini kafolatlashning yana bir yangi bosqichga tamal toshi qo'ydi. Yoshlarimizning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rniغا jiddiy e'tibor qaratmog'imiz joizdir. Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlari namoyon bo'lishi tabiiyidir.

Shu bilan bir qatorda Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalarning nizomi va dasturlarida yoshlarga bo'lgan e'tibor o'z aksini topishini ko'rishimiz mumkin. Inson manfaatlarini ta'minlab borishda siyosiy partiyalarimizning roli ham ahamiyati ham beqiyos darejada kattadir.

Shunday ekan ijtimoiy taraqqiyot natijasida aholi turmush darajasini faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni davom etishi quvonarli holatdir. Biz yoshlarga qaratilayotgan e'tabor va imkoniyatlardan unumli, foydali, samarali ishlarni amalga oshirmog'imizni yaxshi anglab yetishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasining keljak taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy omillarga, balki madaniy-ma'naviy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga ham bog'liqdir. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "iqtisodiy o'sish, taraqqiyot- jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligini rivojlantirishda uning ruhi, aqli

**va Jonildir.**" Hozirgi kunda yangicha tafakkurli, ijodli tukrlovchil, yukunak madanlyatl yoshlarni tayyorlash jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifadır.

Ma'lumki, ma'naviyat bo'limgan joyda baxt-saodat ham, iyman-e'tiqod ham, Vatan va erk tuyg'usi ham, adolat ham bo'lmaydi. Ma'navlyutimizni yuksaltirish, madaniyatimizni boyitib rivojlantirishda badiiy ijod, san'at, russomchilik, musiqa, xullas, madaniyatimizning boshqa sohalarida qizg'in ijod etish imkoniyatini yaratishimiz muhimdir. Shu bilan birga O'zbekistondagi istiqomat qiluvchi turli millat vakillariga nisbatan hurmatni kuchaytirish ularning milliy madaniyatiga urf-odat va an'analariga diqqat-e'tiborli bo'lishni talaba yoshlarga uqtirib borishimiz darkor.

### **Maktabgacha ta'limga muassasalari tarbiyalanuvchilari ongiga Vatan tuyg'usini shakllantirish**

*Z. Rasulova,  
Namangan VXTXQTMOI katta  
o'qituvchisi*

Kelajakgimiz egalari bo'lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'limga muassasalarining o'rni kattadir. "Ta'limga to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida shakllangan uzluksiz ta'limga tizimi ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydi.

Bolalarni yoshiga mos ravishda Vatanga, xalqqa muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik, milliy istiqlol soyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maktabgacha ta'limga muassalaridagi ishlarini asosini tashkil qiladi.

"Bolajon" tayanch dasturi asosida muntazam tarzda olib berilayotgan, mashg'ulotlar davomida bolalarda buyuk mutafakkirlar, shoirlar haqida ilk tushunchalarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Buyuk ajdodlarimizning hayoti, ijodi, Vatanimiz taraqqiyotida tutgan o'rni bilan tanishtirish davomida ular misolida bolalarga buyuk siymolar timsolini singdirib boramiz.

Yosh avlodni ona-Vatanga, ota-bobolar merosi va pand-nasihatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida milliy g'urur, fidoiylik tuyg'usini shakllantirish, ular ongiga milliy mafkurasini singdirish kichik maktabgacha yoshdan boshlanadi. Maktabgacha ta'limga muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha pedagoglar bolalar ongida va qalbida Vatan hissi, Vatan tuyg'usini shakllantirishning ilk saboqlarini jazzi bolalarga xos tushuncha-tasavvurlarini hisobga olgan holda qiziqarli misollar, hayotiy mulohazalar, sahnalashtirilgan lavhalar, hikoyalar, rivoyatlar, she'rlar, turli mavzulardagi suratlar, diopazitivlar vositasida yoritib borishga harakat qiladilar. Kichkintoylarga ona-Vatanimiz haqida so'zlab, uni sevish, ardoqlash, unga munosib farzand bo'lishlik haqida suhbatlashib, ular qalbida Vatan tuyg'usini shakllantirib boradilar. Demak, milliy g'oyani singdirish kun davomida maktabgacha ta'limga muassasasidagi barcha ta'limga tarbiya jarayonini (suhbatlar, mashg'ulotlar, sayrlar, sayohatlar, o'yinlar, sahnalashtirilgan lavhalar, bayram tadbirlar) qamrab olishi kerak.

Murg'ak qalblarda Vatan tuyg'usi nimadan boshlanadi o'zi?

Vatan tuyg'usi- bu onalar allasi, bobolar o'giti, oila tarbiyasidan boshlanadi.

Vatan tuyg'usi- bu milliy qadriyatlar, urf odatlarni qadrlash, sevish va undan faxrlanish degani.

Vatan tuyg'usi – buyuk siymolarimizdan ibrat olish degani. Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ota-bobolarimizni tanish, ulardan faxrlanish, ularni doimo eslamoq degani.

Vatan tuyg'usi – bu Vatanga munosib farzand bo'lishni anglash degani.

Vatan tuyg'usi- bu Vatani, xalqi uchun kurashgan millatimiz fidoiyalaridan ibrat olish degani. Ular kabi vatanparvar bo'lishni niyat qilib qolish degani. Bolalarga millatimiz fidoiyilar, askar akalarimizning qahramonliklari haqida so'zlab berish bilan Vatan tuyg'usi singdiriladi. Bayram tadbirlarida askarlar formasida, harbiy musiqaga, harbiycha harakatlarni bajarish ularda faxrlanish va havas tuyg'usini uyg'otadi. Vatanimizni asrash katta-yu-kichik barchaning burchi ekanligini anglash hissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarda tarbiyachilar bolalarga Vatanni qalbdan chuqur his qilishlari uchun Vatan nima? Nima uchun biz uni sevamiz? degan savollarga javob topishiga yordam berishimiz lozim. "Biz tug'ilib o'sgan joy-bu Vatan. Shuning uchun "Ona Vatan" deymiz. Vatan- muqaddas. Chunki unda bizning buva- buvilarimiz yashab o'tishgan. Biz ham ota-onalarimiz bilan unda yashayapmiz. Shuning uchun uni sevamiz. Biz Vatanda baxtiyor yashayapmiz. O'zbekiston shunday diyorki xalqi mehnatkash, tuprog'i zahmatkash, tabiatи dilkash."

Shuningdek maktabgacha ta'lif muassasalarda bolalarga o'z Vatanini ko'z qorachig'iday asragan bobolarimiz, buyuk sarkardalarimiz, ozodlik yo'lida jon fido etgan bobolarimiz haqida, ularning buyuk ishlari haqida so'zlab beriladi.

- Davlatimiz tili, davlatimiz ramzlari- bayrog'i, gerbi, madhiyasi haqida tushunchalar beriladi. Bunda bolalarga davlat ramzlari O'zbekiston xalqining shon-sharafi, g'ururi ekanligini, davlat ramzlarini e'zozlash, qadrlash, sevish-o'z qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash degani ekani tushuntiriladi. Davlat ramzlari bo'l mish bayroq va gerbdagi ifodalarning ma'nosi tushuntirilib, ramzlarga nisbatan hurmat, faxr tuyg'usi uyg'otiladi. Shu maqsadda bolalarga bayroq va gerbdagi ifodalarni har bir tasviri (bashoq, paxta, quyosh, xumo qushi, oy, yulduzlar, ranglar) izohlab berilib, ma'nosi tushuntiriladi. Ramzlar haqida she'r, hikoya, rivoyatlar aytib beriladi. Ta'limiyo o'yinlar o'yнатiladi. Ramzlarni rasmlarda aks etirishadi.

Maktabgacha ta'lif muassasasida Davlat madhiyasi tiksiz turib, o'ng qo'l ko'krakka qo'yilib tinglash va aytilish tarbiyalanadi. Bu eng yaxshi sharqona milliy an'analarimizning yaqqol nomoyonidir. Bu ehtirom Davlat madhiyasiiga bo'lgan hurmatimizdir. Madhiya katta yig'ilishlarda, uchrashuvlarda tantanali yangrashi haqida qisqacha so'zlab beriladi. Davlat ramzlarini hurmat qilish, Vatanimizni qanchalik sevishimizni bildirishi bolalarga anglatiladi.

Ona Vatan haqida she'rlar, rivoyatlar o'qib berilib Vatanimizning tabiat, insonlari, tinchlik, do'stlik haqida rasmlar chizdiriladi.

**Biz** quyida katta, tayyorlov guruhlari uchun “Mening mahallam”  
**mavzuusida mushg’ulot ishlansmasini tavsiya etamiz.**

### **Mavzu: “Mening mahallam” sayr**

**Maqsad:** Oila, ko’cha, mahalla haqida tushunchalarini kengaytirish va mustahkamlash. Bolalarni tug’ilib o’sgan joylariga, qo’ni-qo’shni, mahalla, katta-kichiklar, va tengdoshlari bilan ijobiy muloqatda bo’lishga, ulardagi mavjud an’analarga rioya qilishga va ularni hurmatlashga o’rgatish.

#### **Vazifalar:**

«Mahalla», «Oila» mavzularida lug’atni faollashtirish.

- Katta- kichiklarga, tengqurlariga diqqat e’tiborli bo’lish, ularga yordam berishga, ko’chada ibratli bo’lish, tartib – ozodalikni saqlashni o’rgatish.

#### **Mashg’ulotning borishi:**

Tarbiyachi: Bolalar, hozir biz mahallamizni ko’chalarini aylanib sayr qilib kelamiz. Nima uchun mahallamiz deyapman? Chunki hammani o’z mahallasi bo’ladi. Mahalla degani bu - biz yashaydigan joy. Oila bilan mahalla har tamonlama bir - biriga bog’liq. Mahalla oilalardan tashkil topadi. Siz oilangiz bag’rida o’sasiz. Oila mahalla ichida ravnoq topadi, yaxshi yashashga intiladi. Demak mahalla bu- siz tug’ilib o’sgan joy. Mahallada qo’ni- qo’shni, katta-kichiklar, o’rtoqlaringiz bo’ladi.

Mahallada ko’chalar, xonodonlar, do’konlar, maktab, bog’chalar joylashgan bo’ladi. Biz hozir mahallamizning bog’chamizga yaqin ko’chalarida sayr qilamiz.

Tarbiyachi bolalarni muassasaga yaqin ko’chalarini sayr qildiradi. Sayr vaqtida tarbiyachi istagan xonodon oldida to’xtaydi va bolalar diqqatini ko’chaning nomi yozilgan yorliqqa qaratadi. “Bolalar qarang, bu yorliqda ko’chaning nomi yozilgan. Har bir xonadonning o’z raqami bor. Demak , har bir ko’chaning nomi, har bir xonadonning o’z raqami bo’lar ekan. Bu ko’chaning nomi “Olmazor” ekan. Xonadon raqami 6 ekan. Kim o’zi yashayotgan ko’chasining nomini biladi? (Bolalar javoblari)

Mahallamizda ko’chalar ko’p. Ko’rib turibsizki. ko’chalarda xonadonlar joylashgan. Bu xonadonlarda oilalar yashaydi. Oila –bu biz otamiz. onamiz. aka-ukalarimiz bilan yashaydigan joy. Mahallamiz ko’chalariga qarang. toza, daraxtlar, gullar ekilgan. Bu gullarni, daraxtlarni parvarish qilishda sizga o’xshash bolalar yordam beradilar. Bu maktab. Maktabda o’quvchilar o’qiydilar. Maktabning atrofida daraxtlar ekilgan. Bu daraxtlarni parvarish qilishda o’quvchilar yordam beradilar.

Mahallamiz ko’chalaridan mashinalar yuradi. (Ko’chadan o’tayotgan mashinalar kuzatish). Ko’chalarda yurishni o’z qoidasi bor. Ko’chalarga e’tibor bering. Ko’chada mashinalar yuradigan joylari bor. Piyodalar yuradigan tor yo’laklar bor. Biz doimo mana bu tor yo’laklardan yurishimiz kerak. Hech qachan ko’chaning o’rtasida o’ynamang. Ko’chaning o’rtasida o’ynash hayotingiz uchun xavfli.

Bu mahallamizdagи oziq-ovqat do’konи. Mahallamizda bunday do’konlar ko’p. Odamlar o’zlari uchun zarur bo’lgan narsalarni bu yerdan sotib oladilar.

Mana shu bilan mahalla bo'ylab sayrimiz tugadi. Biz mahallamizni aylanib, unda joylashgan binolarini bilib oldik. Demak, mahallamizda bizning boqchamiz, mактаб, do'konlar bor ekan. Mahallamiz ko'chalari ozoda, daraxtlar, gullar ekilgan ekan. Mahallamizning ko'rкamligi, go'zalligidan dilimiz quvnadi, to'g'rimi? Biz o'zimizning mahallamiz bilan faxrlanamiz.

### **Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :**

1. Mahallangizni nomi nima? Siz qaysi mahallada yashaysiz?
2. Biz qaysi ko'chalarni sayr qilib chiqdik?
3. Mahallamizda qanday binolar bor ekan?
4. Mahallamiz ko'chalari qanday ekan?

Xulosa qilib aytganimizda Vatan – insонning avlod-ajdodlari, muayyan din-diyonatni butun vujudiga jo qilgan, odamning tug'ilib o'sgan va yashab o'tgan, yashayotgan, kindik qoni to'qilgan yer qurrasining bir bo'lagidir.

Shu muqaddas tuproq o'z egasi bo'l mish insonni yediradi, ichiradi, egnini, kam-ko'stini but qiladi. Bunday muborak zaminni sevish, unga nisbatan fidoiy bo'lish har bit insonning burchi bo'lib hisoblanadi.

Hayotimizning keyingi yillarda butun jahon miqyosida ayrim toifa yoshlarning miyasini zaharlashga, ularni ekstremizm va terrorchilik yo'liga chalg'ituvchi ayrim guruhlarning paydo bo'lishi, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga befarq qaramaslikka yo'llaydi.

Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish bolalarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasining eng muhim qismi bo'lib hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ruhiy rivojlanishlarida ulardagi turli xil his-tuyg'ularni o'stirish orqali bola shaxsini kamol toptirish muhim ahamiyatga ega.

Hissiyot bolalarda ularning ilk yoshlik paytlaridan rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda anchagina murakkab his-tuyg'ulardan burch, vijdon, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr, o'rtoqlik, jamochilik, his-tuyg'ularini shakllantirish uchun anchagina pedagogik-psixologik imkoniyatlar va shart-sharoitlar paydo bo'ladi.

Shuning uchun bu paytdan boshlab bolaning shaxs sifatida shakllantirish davri uning murg'ak qalbiga yuqorida keltirilgan tuyg'ular urug'i sochilsa, bolalik davri oxirlarida o'z maxsulotini beradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda his-tuyg'ularni ularning yosh bosqichlarini hisobga olib o'stirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolaning chaqaloqlik paytdan boshlab odamlarga singdiriladigan mehri ona suti bilan kirgiziladigan allasi orqali boshlanadi.

"Alla" orqali bola shaxsida ota-onha, Vatan, millatga muxabbat tuyg'usining kurtaklari shakllana boshlaydi.

Ilk yoshda bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini bola atrofini o'rab turuvchi insonlarga, tabiatga, o'simlik, hayvonot va nabobatga mehrli bo'lishni uyg'otish orqali shakllantirishi yaxshi natija beradi.

## **Ma'naviyat – insonning ruhiy va aqliy olamining majmuidir**

**Saydullayeva Muyassar**

**Nam DU 4-kurs talabasi**

Mustaqillik yillarda boy tariximiz, betakror merosimiz, muqaddas dinudiyonatimiz, ko'hna urf-odat va milliy an'analarimizning qayta tiklangani, bugungi kunda mehr-oqibat, hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un bo'lib yashash, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi hayotimizdan mustahkam o'rinni oldi.

Yigirma besh yil davomida mustaqillik biz uchun eng ulug', eng aziz qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz, or-nomusimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli, ezgu, orzu-intilishlarimiz, yutuq va yuksak marralarimizning hayotbaxsh manbai sifatida shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha vatandoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rinni egalladi.

Xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakat o'tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma'naviy qadriyatlar va an'analarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ma'naviyatni yuksaltirishning bosh yo'li endilikda ham "Bilim va tarbiya" ekanligi tobora yaqqol namoyon bo'immoqda.

Ma'naviyat falsafiy tushuncha sifatida O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimov faoliyatidan mustahkam o'rinni oldi. Xalq va ma'naviyatning dialektik munosabati I.A.Karimov asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadiki, ular haqiqatdan ham chambarchas bog'liq va o'zaro munosabatdadir. "Ma'naviyat yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki, yangi tarix ham buning ko'plab misollarini biladi".<sup>3</sup>

"Ma'naviyat" so'zi arab tilidan olingen bo'lib, unda insonning ruhiy, aqliy jihatlari, o'z xususiyati, mohiyati, g'amxo'rligi, qayg'urish, quvonish kabi jarayonlarni o'ziga mujassamlashtirган. Hozirgi davrda ma'naviyat tushunchasining falsafiy mazmuni to'g'risida juda ko'p ta'riflar berilgan. Ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- "Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuchqudratidir";
- "Ma'naviyat-insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli";
- "Ma'naviyat-jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha";
- "Ma'naviyat-inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir".
- "Ma'naviyat-insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallik, sevish,

<sup>3</sup> И.А.Каримов. Ўзбекистон миллий истиқдол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Т.: "Ўзбекистон", 1996, №1 бет

zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlar va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuasidir";

"Ma'naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oliy haqiqat nuridir. Shu sababli inson ko'nglini "haqiqat asrorining ganjinasi"-demishdir. Faqat inson qalbi o'zida haqiqat nurini aks etira olishi uchun unga sayqal bermoq zarur";

"Ma'naviyat insonni hayvondan farqlab turadigan oliy qadriyat";

Ma'naviyatga berilgan ta'riflar turlicha shaklda bo'lsa ham ularning barchasi inson faoliyatiga borib taqaladi. Inson faoliyatining turli tomonlarini baholaydi. Insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go'zalligi, his-tuyg'ulari, kechinmalarini aks ettiradi. Professor Tilab Mahmudovning fikricha: "Ma'naviyat – insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir"<sup>1</sup>. Yoki boshqa manbalarda shunday ta'riflar bor: "Inson barcha tirik mavjudotning gultoji, hayot guli deyilganda uning yuksak ma'naviyat egasi ekanligi nazarda tutiladi. Ma'naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarning yig'indisidir"<sup>2</sup>. "Ma'naviyat insonning bilimi, tajribasi va mehnat malakasi, odob-axloqi, iyomon va e'tiqodi, mafkuraviy qarashlarining yaxlit tizimidir"<sup>3</sup>. "Ma'naviy etuklik shunday bir xazinaki, uni egallagan odam insoniy qadr-qimmatni hamma narsadan ustun qo'ya oladi, o'z manfaatini o'zgalar manfaati bilan qo'sha oladi, hayot-mamot masalalari hal bo'layotgan damlarda aql-idrok doirasidan chiqmaydi"<sup>4</sup>.

Bizningcha, ma'naviyat insonlarda yuqori darajada takomil topgan insonparvarlik xislatlarining yig'indisidir. *Ma'naviyatga berilgan yuqoridagi ta'riflardan ko'rinish turibdiki, ma'naviyat keng qirrali sermazmun va insondagi nozik tomonlarni qamrab olgan falsafiy tushunchadir.* Ma'naviyat keng qamrovli bo'lganligi tufayli tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ishlataliganda, uning alohida holati inson ko'z oldida gavdalansa, keng ma'noda esa inson ma'naviyatining keng, umumiy qirralari, unga amal qilish jarayonlari tushuniladi.

### **"Tarixi Farg'ona" 100 yoshda!**

*I. Kuzikulov,*

*NamDU Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi*

O'zbek davlatchilik tarixida Qo'qon xonlagi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqillik yillirida Qo'qon xonligi tarixini o'rganish eng dolzarb masalalardan biri bo'ldi. Xonlik tarixini o'rganishda tabiiyki dastlab "Muntaxab at tavorix", "Tarixi Turkiston", "Tarixi jadidayi Toshkand", "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin", "Tarixi Shohruxiy" kabi mahalliy manbalarga

<sup>1</sup> Т.Махмудов. Мустақиллик ва маънавият. Т.: 2001. 9-бет.

<sup>2</sup> А.Эркаев. Эзгулик сари йўналтирилган иРОДА. "Тафаккур". 1997 йил, 3-сон 14-бет.

<sup>3</sup> З.Фоғуров, С.Тошев. Маънавият тарбияси. Қарши "Насаф", 1998, 11-бет.

<sup>4</sup> А.Эшонкулов. Маънавият тарбияси. "Мулокот", 1997 йил, 1-сони, 20-бет.

murojat qilishga to'g'ri keladi. Shu manbalar qatorida Qo'qon xonligi tarixi uchungina emas. O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim mahalliy manbalardan biri bo'lgan "Tarixi Farg'ona" asarining nashr etilganiga 100 yil to'ldi.

O'tgan asr boshlarida, 1916 yili Ishoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibrat qalamiga mansub "Tarixi Farg'ona" asari nashr etilgan edi. Nashr etilganiga 100 yil bo'lgan tarixiy manbaning ahamiyati faqat ortib bormoqda. Isoqxon Ibrat asarni yozish uchun Vatanimiz tarixiga oid ko'plab manbalarni o'rganib taxlil etganligi sezildi. Asarda "Shohnoma", "Ravzat us-safo", "Ajoyib ul-buldon", "Malhatot us-Suroh", "Taboqatu Tohiriy", "Qobus", "Tarixi Tabariy", "Tarixi Shoh Hurmiz" kabi manbalarga murojat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

"Tarixi Farg'ona" asaridagi voqealar bayoni milodiy VI asrdan boshlangan. Asarda arablar bosqini davriga oid aniq ma'lumotlar bor. Masalan, vodiy shaharlari haqida. Muhammad ibn Jarir boshchiligidagi arablarning Farg'ona vodisida islom dini uchun kurashi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Manbada Qo'qon xonligining tashkil topishi hamda Shohruhbek, Abdurahimbek, Abdurahmonbek, Erdonabek, Bobobek va Sulaymonbeklarning taxtga ketma-ket kelganliklari yozilgan bo'lsa. Norbo'tabekdan boshlab xar bir xon davriga alohida – alohida ta'rif berilgan. Ibrat, ayniqsa, Umarxon davrini alohida maqtov bilan yoritib, davlat ishlari ulamo va fuzalolarning maslahatlari bilan amalga oshirilganligi haqida ma'lumot bergen: "Bu jannatmakon asrinda hamsuhbat musohib ulamolardan, chunonchi, Zokirxo'ja eshon, Shayx-ul islomi Namangoni, Mavlaviy Namangoni, domla Mirzoyi Qozikalon, hazrati domla Mo'minjon, hazrati domla Abdurrahim, hazrati domla Maxdumzard, hazrati Mavlaviy Qobuliy, domla Piskatiy va umarolardan hamjuluslari Amir Shohmurodxon marxumning o'g'li va amir Haydar podshohi Buxoroning birodari Ishoqbek to'ra, Sultonxon to'ra, Mahmudxon to'ra Ahroriy, Ma'sumxon to'ra A'zimi, Eshonxon to'ra, To'raxon to'ra, Jahongirxon to'ra va Sayyid Ofoqiylar bo'lib, podshohlikg'a taalluq har ish hukm bo'lsa bularning fatvolari ilan amal qilur ekan"<sup>70</sup>.

Muhummad Alixon boshqaruvi davri haqida quyidagilarni yozgan: "Muhummad Alixon fuqarolardan beparvo bo'lib, musohiblari ulamo va fuzalolardan bo'lmay, pandu nasihat eshitmay, eshitsa ham qulog'a olmay...ulamoyu fuzalo va a'yonlardan pandu nasihat qisalar ba'zilarini o'ldirub va ba'zilarini Farg'onadan chiqarib, Buxoroga badarg'a qilib, nasihat olmay qolgan ekan"<sup>71</sup>. Muhummad Alixonning aysh-ishratga berilishi, davlat ishlariiga yetarli darajada e'tibor bermaganligi, halq noroziligi sababli og'ir axvolga olib keldi: Qo'qon Buxoroga qaram bo'lib qoldi, Madalixon va uning eng yaqin qarindoshlari qatl qilindi. Qo'qonliklarga Nasrulloxon zulmidan ozod bo'lishi uchun o'zbeklar, qipchoqlar, tojiklar, qirg'izlar kabi barcha millat va elatlar, ulamolardan tortib katta yer egalariyu oddiy xalqgacha barchasi bir yoqadan bosh chiqarib dushmanga qarshi kurashishlari kerak edi va shunday bo'ldi. Lekin taxtga chiqqan Sherelixon shu birdamlilikni saqlab qola olmadidi.

<sup>70</sup> Исҳоқхон Жунайдуллоҳожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. Мерос. Тошкент. 1991. – Б. 291.

<sup>71</sup> Исҳоқхон Жунайдуллоҳожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. Мерос. Тошкент. Камалак. 1991. – Б. 295 – 296.

Aholi orasida uning obro'si ham baland emasdi. Qo'qon Buxorodan ozod bo'lgach Sheralixon Toshkentni o'z ta'siriga qaytarmoqchi bo'lgan. Toshkent xokimi Muhammad Sharif otaliq: "Mani amirim Buxoroda, man Sheralixon odami emasman, har kim mandan shahar olsa quvvati shamshir va zo'ri bozu bilan olur", – deb javob bergan. Toshkent Qo'qon boshqaruviga qaytarilgan bo'lsada siyosiy vaziyat ijobjiy tomonga o'zgarmadi, hokimyatda bosh vazir – Musulmonqulning ta'siri kuchayib, taxt uchun kurashda turli guruhlar paydo bo'ldi. Bu kurashlar faqat Sheralixonning o'zinigina emas, Murodxonning ham boshini yedi.

"Tarixi Farg'ona"da Shohmurod, Sulton Sayyid, Po'latxon haqida, ayniqsa, Qo'qon xonligining oxirgi yillardagi tartibsizlik va boshboshoqlik haqida yetaricha ma'lumotlar berilgan. Ibrat shu boshboshoqlik haqida shunday yozgan: "Ul vaqtida Farg'onada to'liq va tamavvuj besaranjomlikda ediki, goh Xudoyorxon va goh Sayyid Sulton va goh Shohmurod biri ketib, biri kelib, biri chiqub Xo'qand o'r dasi arini uyasiga o'hshab kirdi-chiqdi zamoni falon yerdan xon chiqdi, falon xonzoda chiqdi, bosh ko'tardi, oq kigizga soldi, bo'lub betartib ovozalar quloqlarni kar va aqllarni tang qilur erdi. Xonlik saltanati go'yoki bola o'yinig'a o'xshab ketdi. Ul vaqtini bolalari mundan bir o'yin chiqarub, bir baland tepaga chiqib, ikki taraf ul tepani otini O'ratega qo'yib, taloshib, O'ratega senikimu meniki, degan o'yinlar anda chiqqan (edi)".

Ibratning ma'lumotlaridan bilish mumkinki, xonlik taxtiga nomzodlarga nisbatan mingboshi Olimqulning ta'siri kuchliroq bo'lgan. Xatto saroy ayonlari orasida Olimqulning xon bo'lishi uchun tarafdarlar ham oz bo'lмаган. "Adoyi ziyofatdan so'ng mulla Olimqul so'z ochib dediki: "Mamlakatimizda bul xil besaranjomlikdur, muni sababi bir kishiga inqiyodimiz yo'qligidur, – dedi. – Lozimdurki, baittifoq bir xon nasb qilib, anga mute, munqod bo'lsak, kimni xohlarsizlar?" deganda, Xo'qand ulomolarindan Ziyovuddin maxdum dedilarki: "Bu xizmatga o'zingizdan alyaq odam ko'rinxmaydur" – deganida Olimqulga ma'qul kelmay, eshitmagan bo'lib, yana dediki: "Bir odimni tayin qilmoq kerakdur!" – deganda mazkur maxdum yana avvalgi so'zlarini i'oda qildilar. Olimqul Ziyovuddin qoziga xitob qilib dediki: "Siz mani dersiz, maning niyatim xon bo'lmoq emas, man xizmatda bel bog'lagan kishi, xonzodalar iringizning birortasini nasb qilinglar!"<sup>72</sup>.

Mulla Olim Mahdum Hojining "Tarixi Turkiston"<sup>73</sup>. Mirzaolim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin"<sup>74</sup> asarlarida ham ma'lumotlar mavjud bo'lsada "Tarixi Farg'ona"da Xudoyorxon va uning so'ngi kunlari xaqida batafsil berilgan. Manbada Xudoyorxonning taxtdan tushganidan so'ng ahvoli juda ayanchli kechgani tasvirlangan. Poytaxtni tark etib Xo'jandga yetib kelganida shahar darvozasi oldida ikki rus xarbiysi libosidagi odamlar kutib olar ekan ulardan biri xonga shunday murojat qilgan: "Assalomu aleykum, xon xazrat, qalaysiz, omonmisiz, siz ham biz tushgan yo'lga tushdingiz, emdi, ahvolingiz shul ekanku! Biz bir vaqt sizdan panoh so'rab borganda bizni

<sup>72</sup> Ишхокхон тўра Ибрат. Фарғона тарихи. Таъланган асарлар. Тошкент. Майнавият. 2005. – Б. 117.

<sup>73</sup> Мулла Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Қарши. Насаф. 1992. – Б. 98.

<sup>74</sup> Мирзаолим Мушрифнинг "Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. Тошкент. 1995. – Б. 95 – 97.

yaqomizdan tutib, Rusiyaga berdingiz. o'lganimiz yo'q, alhamdilulloh, hukumatdamiz... Murtad sani ayurlar, yurtingni poymol qilib, musulmonlarni ayog' osti qilding!". Toshkentga yetib kelganidan so'ng general-gubernator ko'sratmasi bilan Orenburgga jo'natildi.

Xudoyorxon ruslar tutqunidan ozod bo'lgach Afg'oniston, undan Peshavor, Ahmadobod, Bombay, Jidda shaharlari orqali xaj safariga jo'nagan. Shaharlarda xonni taniydig'an shaxslarning unga munosabatlari ham turlicha bo'lgan. Qaysidir shaharlarda xonning kelishidan xabar topib uni yaxshi kutib olishgan bo'lsa, ayrim shaxslarning munosabatlari juda yomon bo'lgan. Manbada Jiddaga yetib kelganida xonni bir guruh qo'qonlik, andijonlik, mirg'ilonlik savdogarlar xursandchilik bilan kutib olganliklari yozilgan. Makkada esa ilgari xonlik fuqarosi bo'lgan yigit Xudoyorxonga tosh otganligi yozilgan. Undan sababi so'ralganda shunday javob bergan: "Man ul kishiga sarkor edim. Namangonni tanobini yig'ib berganimda hazinag'a zarar qilgansan deb, havli haramlarimdan judo qilgan edilar, hayotliqda bir qasos olmoq maqsad edi. Bul kishi hajga ketgan deb eshitib edim, kelib bul yerda topdim va urdim"<sup>75</sup>.

Makkadan Xudoyorxonni Normuhammad sharbatdor ortga qaytishga ko'ndirgan. Ibrat: "Nurmuhammadni targ'ibiga unab oxiri Hindiston va Afg'on ilan yurib, daryoyi Amuga yaqin Karrux degan yerda Eshoni shahid degan Islom shayxni katta muridlari xalifa dorulomon deganni xonaqohlariga kelib, anda xujra olib, istiqomat qilib turib, anda Nurmuxammad sharbatdor mamlakatga xabar olib ketmoqig'a kelganda xonni yan'rin yelkasiga o'sma yara chiqib. Afg'on hakimlari kesmoq bo'lganda, hakimlar doriyi behush bermoq bo'lganda, "Man umrimda behush bo'lgan emasman, hushyor turganimda kesinglar" degan ekan. Anda o'tkazib qo'yib, piyolani og'zidek joyni kesib olib dari qo'yib muolaja qilganda bir oyda tuzalib, ichindaandek joy qolganida xoni betobligi daraja qilib anxuylik Muhammadijon xoja axiyri 1299-inchi hijriyda Karruxda vafot bo'ldilar...", - deb yozib Xudoyorxonning vafot etganligi haqida ma'lumot bergan<sup>76</sup>.

Ishoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibrat tartibsizlak, boshboshdoqlik, taxt uchun kurash boshlangan davrda Qo'qon xonligiga qarashli To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. O'sha davrda bo'lib o'tgan voqealarga guvoh bo'lgan yoki guvoh zamondoshlar bilan hamsuhbat bo'lgan. Arab, fors, ingliz, hind tillarini bilgan, Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Qobul, Jadda, Bombay, Kal'kutta kabi ko'plab shaharlarda bo'lgan, o'qimishli, ma'rifatparvar inson uchun bu juda muhimdir. Shuningdek, o'lka tarixiga oid manbalarni chuqr o'rgangan. Shular kabi ilmiylik, xolislik tamoillari "Tarixi Farg'ona" asarining qimmatli manba bo'lib, asrlar o'tgan sayin ahamiyatining ortib borishini ta'minladi.

Mustaqillik yillarida Vatan tarixiga munosabat o'zgardi, tariximizni mahalliy manbalarga asoslanib chuqr o'rganish imkoniyatlari ochildi. 1991 yili Toshkentda "Kamalak" nashryotida Abu Tohirxo'janing "Samariya", Narshaxiyining "Buxoro tarixi", Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" asarlari

<sup>75</sup> Ишоқхон Жунайдуллохоза ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. Мерос. Тошкент. Камалак. 1991. – Б. 321 – 322.

<sup>76</sup> Ишоқхон Жунайдуллохоза ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. Мерос. Тошкент. Камалак. 1991. – Б. 322.

bilan birga Ishoqxon Ibratning “Farg’ona tarixi” asari “Meros” turkumida nashr etildi. 2005 yilda esa Toshkentda “Ma’naviyat” nashryotida “Istiqlol qahramonlari” turkimida “Ishoqxon to’ra Ibrat” nomli kitob chop etilib, “Tarixi Farg’ona” asari ham kiritilgan. Asarning qayta – qayta nashr etilishidan Vatan tarixini o’rganishda ahamiyati yuksak ekanligidan dalolat beradi.

### Axborot madaniyati

*Xurshid Mirzaxmedov – katta o’qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Toxirjon Xudayberdiev – talaba,*

*Namangan davlat universiteti.*

Jamiyat va inson hayotida madaniyat qanchalik muhim ahamiyatiga ega ekanligini qayd etishning hojati bo’lmasa kerak. Aynan madaniyat jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichini tavsiflaydi. Inson o’zining tabiiy nomukammalligini aynan madaniyat bilan to’ldiradi. Agar tabiat insonni shaxs qilib yaratsa, jamiyat insonda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirib, uni shaxs qilib tarbiyalasa, madaniyat insonda o’ziga xoslikni shakllantiradi. Madaniyatning rivojlanishi muammolari hamda bu rivojlanishga turli omillar – tabiat, texnika, siyosat va boshqalarning ta’siri falsafiy refleksiyaning azaliv muammolaridan biri hisoblanishi bejiz emas. Hozirda jadal rivojlanayotgan fan-texnika taraqqiyoti bilan madaniyatning o’zaro munosabati muammosi birinchi o’ringa chiqmoqda.

Sof falsafiy nuqtai nazardan olib qaraganda, madaniyat va texnikaning o’zaro munosabati butun va qism dialektikasining alohida holatlaridan biridir. Kishilik tarixinining barcha bosqichlarida texnika madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, uning moddiy negizi bo’lib xizmat qilgan. Qadimgi yunoncha «Techne» va lotincha «Cultura» bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo’lgan va mohiyat e’tibori bilan bir narsani – tabiiy mavjud narsalardan farqli o’laroq, sun’iy tarzda yaratiluvchi narsalar sohasini ifodalagan. Keyingi tarixiy bosqichlarning barchasiga, ayniqsa, hozirgi bosqichga madaniyat va texnikaning mushtarakligi xosdir.

Madaniyat va texnikaning mushtarakligini qayd etgan holda, ular o’rtasidagi murakkab munosabatlarni chetlab o’tish ham mumkin emas. Bu muammoni hamma har xil talqin qiladi. Madaniyat va texnika o’rtasidagi munosabatlarning murakkabligi hamda muammoni tushunishdagi har xillik, bir tomondan, shu bilan izohlanadiki, madaniyat ko’p qirrali ijtimoiy hodisadir. U turli-tuman tarkibiy qismlarni, chunonchi, moddiy ishlab chiqarishni, san’at, falsafani hamda ma’naviyatning boshqa sohalarini o’z ichiga oladi. Tabiiyki, madaniyatning bu har xil tarkibiy qismlari bilan texnika o’zaro munosabatining bir xil mexanizmi bo’lishi mumkin emas. Boshqa tomonidan, texnikaning o’zi ham juda murakkab hodisa, u bolg’adan komplyutergacha bo’lgan har xil sisatli artefaktlarni o’z ichiga oladi. Bu yerda ham madaniyat bilan har xil texnik qurilmalarning standart o’zaro munosabatiga o’rin yo’q. Nihoyat, shuni

e'tiborga olish kerakki, madaniyat bilan texnikaning o'zaro ta'siri jarayonida deyarli doim ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa holatlar uziyi bog'lanadi.

Bundan yarim asr muqaddam amerikalik sotsiolog U. Oghyorn madaniyatning rivojlanishi va faoliyatida texnika hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib. «moddiy» va «nomoddiy» madaniyatlarning rivojlanishidagi qaramaqarshilikni qayd etib o'tgan edi. Uning fikricha, texnik rivojlanish ma'naviy rivojlanishdan o'zib ketadi va ma'naviy rivojlanishni yangi sharoitga moslashishga majbur qiladi, nomoddiy madaniyatni yangi izlanishlarga va shu orqali rivojlanishga da'vat etadi. Uning «madaniy qoloqlik nazariyasi»ga asoslanib. Ch.Chou «ikki madaniyat»ning qat'iy chegaralanishi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi.

Axborot jamiyatni shakllanayotgan sharoitda, radio va telefonlar, televizorlar va magnitofonlar, printerlar va skanerlar, kal'kuylatorlar va kompyuterlar, Internet xalqaro axborot tizimi va ixtisoslashgan tarmoqlar nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasiga, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, balki uning ma'naviy hayotiga ham tobora kuchli va murakkab ta'sir ko'rsatayotgan paytda madaniyatga texnikaning ta'siri masalasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. D.Bell hozirgi jamiyatning uch sohasi - ijtimoiy tuzilmalar, siyosiy tashkilotlar va madaniy qadriyatlar sohalarini ajratib, texnokratik yo'l bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy tuzilmalar ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiyot bilan jamiyat madaniy sektorining o'zaro munosabatlari tobora keskinlashib borishini qayd etadi.

Xulosa qilib. Madaniyat o'z holicha mavjud ijtimoiy institutlar va amaldagi qonunlarga nisbatan dushmanona kayfiyatda bo'ladi. u yakkahokimlikka hamda ijtimoiy rivojlanishning siyosiy va texnik-iqtisodiy tendentsiyalari standartlashuviga qarshi harakat qiladi. Madaniyatga texnika salbiy ta'sir ko'rsatadi degan fikrni qo'llab-quvvatlab, X. Ortega-i-Gasset shunday deb qayd etadi: «Texnika, bir tomonidan, insonga muayyan, mohiyat e'tibori bilan, cheksiz qobiliyat ato etgani holda, boshqa tomonidan, inson hayotida juda katta bo'shilq hosil bo'lishiga olib keladi, har bir odamni faqat va faqat texnikaga ishonib yashashga majbur qiladi... Shu bois bizning o'ta texnikaviy hozirgi davrimiz o'ta mazmunsiz bo'lib qoldi»yu

### Jamiyatning axborot-psixologik himoyasining ta'minlanishi.

*Xurshid Mirzaxmedov*

*katta o'qituvchi*

*Nuriddin Qodirhanov*

*Namangan davlat universiteti talabusi*

Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi bugungi kunda favquloddha muhim ahamiyatga egadir. Axborot xavfsizligini samarali ta'minlash esa jamoatchilik fikri fenomenini chuqur anglashni taqozo etadi. Jamoatchilik fikrini o'rGANISH ehtiyoji esa bir tomondan, davlat va jumiyat

tuzilmalarining demokratiya tamoyillariga nechog'li asoslanishiga, ikkinchi tamondan esa mavjud empirik manbalarni ilmiy analitik mushohadalash, nazariy qayta ishslash, sintezlash holatlariiga bevosita bog'liq, holda shakllanadi. Ana shu ikki jihatlardan biror biri bo'lmasa jamoatchilik fikrini o'rganish ham uni demokratik uslublarda shakllantirish ham samarali kechmaydi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongdan ham davlat yohud tuzumning direktiv qarashlaridan ham, yoki alohida shaxs fikr-qarashlaridan ham farq qiladi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning hosilasi, jamiyat turli tabaqalarining fikr-qarashlari, munosabatlarining real va umumlashma ifodasidir. Jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy-siyosiy holat, turmush tarzi, iqtisodiy o'zgarishlar xususida umumiylar yoki bir necha xil munosabatlarga, mavjud holatlarning kelib chiqish sabablari, harakatlantiruvchi kuchlari, muammoning echimiga xi洛 bo'layotgan omillar borasida esa mutlaqo qarama-qarshi hamda o'zgaruvchan qarashlarga ega bo'ladi. Jamoatchilik fikrining tez o'zgaruvchan tabiatini ham uni ijtimoiy ongning faol qismi sifatida xarakterlaydi. Ayni chog'da, jamoatchilik fikrining o'zgaruvchanlik tabiatiga ta'sir o'tkazish uni muayyan me'yordalarda ushlab tura olish hamda maqsadli shakllantirish davlat, jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash kafolati ham sanaladi. Mamlakatda amalga oshiralayotgan barcha islohotlar, maqsadli ijtimoiy o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni jamoatchilik fikrida namoyon bo'ladi. Shu boisdan, jamoatchilik fikrini xaotik asoslarda, yohud inertsion tarzda shakllantirishiga yo'l qo'yish kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin. Tarixda sobiq sho'rolar hukumatining so'nggi liderlari tomonidan amalga oshirmoqchi bo'lgan qator loyihamarlar, ijtimoiy o'zgarishlar islohotining inqirozga yuz tutganligi fikrimizning dalili bo'la oladi. (masalan, qayta qurish dasturini amalga oshirish orqali sobiq siyosiy tuzum asoslarini mustahkamlashga urinish, Sibir daryolarini burish, anglangan extiyojlarini shakllantirish, alkogolizmga qarshi kurash harakatlari va x.k.)

Shu boisdan ham, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarini jamoatchilik fikrida qanday namoyon bo'layotganligi, uni qanday shakllantirish, ommani yangilanishlar ruhida tarbiyalash va eng muhim jihatlardan biri bo'lgan axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari yurtboshimizning diqqat-e'tiborida bo'lib kelayotganligi bejiz emas. Yaqin o'tmishimizdan ma'lumki, sho'rolar davrida jamoatchilik fikriga hukumatning hech qanday e'tirozlarga o'rinn qoldirmaydigan direktiv ko'rsatmalari, maxsus siyosiy-nazariy yo'nalishlar orqali uzluksiz ravishda ta'sir o'tkazilib kelinar edi. Buning uchun esa o'ziga xos ikki bosqichli ta'sir uslubi amalga oshirilar edi. Birinchi bosqichda vertikal ta'sir uslubi, ya'ni eng yuqorida eng quyi bo'g' inlargacha davlat tomonidan rejalashtirilgan hukmoni fikr tazyiqi tizimiylardan mukammal dasturlar asosida amalga oshirilsa, ikkinchi bosqichda gorizontal ta'sir uslublari ishga tushirilib, ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim tizimi muassasalari, jamoat tashkilotlarida «buyurtma» qilingan siyosiy fikr alohida ijtimoiy qatlamlar ongiga muntazam ravishda singdirilar edi. Ana shu mexanizmni harakatga keltirish uchun esa davlat tizimi markazlashgan partiya va turli xil tashabbus guruhlari niqobi ostida muntazam

ravishda faoliyat yuritib kelar edi. Bugungi kunda ana shu uslubda, ya'ni jamoatchilik fikriga rejaviy tarzda bevosita ta'sir o'tkazish amaliyoti Xitoy, Shimoliy Koreya, Kuba, Iroq singari mamlakatlarda saqlanib turibdi. Ammo, rivojlangan Fapb va Sharq mamlakatlarida jamoatchilik fikrining bilvosita uslublari keng qo'llanilib kelmoqda. Bu uslub demokratiya tamoyillariga asoslangan bo'lib, asosan ommaviy axborot vositalari, reklama, norasmiy liderlar ta'siri, shou dasturlar va boshqa omillar vositasida amalga oshiriladi. Axborot interventsiyasining bugungi mohiyati totalitar tuzum davridagi davlat va hukmron partianing direktiv ko'rsatmalarini aholi ongiga tazyiqiy singdirish uslubidan farq qiladi. Bugungi kunda axborot tayziqi asosan, bilvosita uslublar orqali, ya'ni, san'at va madaniyat, din, sanoat mahsulotlari, ta'lim tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Axborot hurujlariga qarshi kurash jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fanini rivojlanirishni taqozo etadi. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini yoyish orqali axborot xavfsizligini ta'minlash holatini umumiy baholaydigan bo'lsak, bu jarayon bugungi kunda o'zining faol shakllanish bosqichida ekanligiga amin bo'lamiz.

Birinchi, Prezidentimiz I.A.Karimov jamoatchilik fikri omiliga jiddiy e'tibor qaratib, mazkur sohaning fuqarolik jamiyatini barpo etish va jamiyatni erkinlashtirish borasida katta imkoniyatlari mayjudligini bir necha bor ta'kidlaganliklari bejiz emas. Hulosa o'rinda shuni aytish joizki jamoatchilik fikrini maqsadli shakllantirish, aholi turli tabaqalari ongini ezgulik g'oyalari ruhida tarbiyalash, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq tamoyillarini ustuvor mavqelarga ko'tarishda sotsiologiyaning ahamiyatiga bejiz urg'u berilmagan.

## **Milliy ideologiya maqomi va masfuraning jamiyat taraqqiyotidagi roli**

*Jo'rayev Jahongir Xoshimjonovich  
Transport va axborot texnologiyalar  
kasb-hunar kollej o'qituvchisi*

Ideologiya nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotidagi yangi paradigmalarning shakllanishi - turli ijtimoiy-gumanitar fanlarning tarixiy hodisalarini tadqiq qilish metodlari sintezi natijasi, lekin ular muayyan manfaatlar asosida muqobil yondoshuvlar bilan bog'liq. Chunki, har bir ideologiyaning muayyan metodini o'z tadqiqot predmeti xususiyatlariga «moslashtirib» qo'llashi, uning metodologiyasi konkretligini namoyon qiladi. Umumlashtirib aytganda, ideologiya paradigmalar: g'oyaviy-masfuraraviy munosabatlar immanentligi va transtsendentligi (immanent - ichki va transtsendent-tashqi) xususiyatlarining uzviy bog'liqligini; rivojlanish darajasi va mavjudlik printsiplarini; empirik, nazariy, umummantiqiy jihatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday g'oyanining konkret shakli, ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib, jamiyat va inson munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi omilga-masfuraga aylanishi uchun ob'ektiv shart-sharoitlarni taqozo qiladi.

Shuning uchun g'oyalarni jamiyat borlig'idan, uning tarixiy rivojlanish darajasidan ajratib tahlil qilish g'aliz xulosalarga olib keladi.

Ayniqsa, ayrim ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy g'oyalar determinantligini, dominantligini mutlaqlashtiruvchi qarashlar ijtimoiy—iqtisodiy taraqqiyot manfaatlaridan ajratilgan mavhum, utopik xarakterga ega bo'lган. Binobarin, butungi kunga kelib, jamiyatdagi muqobil g'oyalarning, umuman ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlarga, xususan milliy taraqqiyotga ta'sir kanallarini, harakatlantiruvchi mexanizmlarini tahlil etish-jiddiy ilmiy tadqiqotlarning ob'ektiga aylanishi, hamda Ideologiyaning mustaqil fan sifatidagi maqomini belgilashi lozim.

Ijtimoiy-siyosiy muhitning jamiyat g'oyasi, mafkurasi shakllanishiga yoki g'oya va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishda ob'ektiv va sub'ektiv omillar, tarixiy shart-sharoitlar, imkoniyatlar birligi asosida yondoshish - ideologiyaning fan sifatida kompleksligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bunday tahlil mafkuralarning vujudga kelishini, mavjudlik xususiyatlarini va rivojlanish istiqbollarini muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda ko'rsatish uchun zarur bo'lган ilmiy-metodologik tamoyil bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mafkuralarni konkret jamiyatlarning (jug'rofiy, etnografik, demografik va boshqa ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlardagi) rivojlanish xususiyatlari va darajalari hamda milliy mentalitet bilan bog'lab tahlil qilish zaruriyati milliy ideologiyani taqozo qiladi.

Milliy ideologiyaning maqomini belgilaydigan yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlari, uning asosiy vazifalari ko'lамини belgilab beradi. Ya'ni, milliy ideologiya har bir millatning, umuman ijtimoiy voqeligini, xususan g'oyaviy-mafkuraiyi munosabatlarini ilmiy bilishning maxsus, nisbatan yuqori nazariy darajasi sifatida, quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgandir: (Bunda gap, bir tomonidan, mafkura ustida emas, balki aynan milliy ideologiya haqida ketayotganligini, ya'ni milliy ideologiya sof epistemiologik, gnoseologik kategoriya bo'lib, g'oya va mafkurani bilish ob'ekti sifatida olib qarashini; ikkinchi tomonidan, milliy g'oya va milliy ideologiya vazifalarining bir-biridan funktsional jihatdan farqini aniqlash, metodologik nuqtai nazardan, muhim ahamiyatga egaligini e'tiborga olish ustida ketmoqda. Vaholanki, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida g'oyaning asosiy vazifalari ko'rsatilgan. Biz esa, fan sifatida «Milliy ideologiya»ning paradigmalarini namoyon qiladigan vazifalari ustida to'xtalmoqdamiz):

Ideologiyani, yuqorida ko'rsatilgandek, funktsional faoliyat xarakteriga, rivojlanish darajasiga ko'ra: nazariy ideologiya va amaliy ideologiya sifatida turkumlashtirish ilmiy-metodologik ahamiyatga ega. Lekin, ularning har biri, nisbatan mustaqil tarzda, ijtimoiy munosabatlarining barcha sohalarini hamda turli rivojlanish darajalarini o'z predmeti doirasida qamrab olishi, amaliy jihatdan, mumkin emas. Chunki, bir tomonidan, ideologiyada nazariya va amaliyot o'rtaсидаги ziddiyatlar, ularning g'oyalar darajasi, mafkuralar munosabati sifatida namoyon bo'lishidan kelib chiqadi. Ikkinchi tomondan, ideologiya fani paradigmalarining rivojlanish xususiyatlari-ijtimoiy munosabatlarni nazariy yoki amaliy jihatlardan o'zgartirish faoliyati ko'lamiga, taraqqiyot darajasiga mos keladi.

## Эстетическая концепция мимезиса Аристотеля

к.ф.н. Ташибаева Д.Х.

У Аристотеля имеется достаточно четко выраженная концепция «мимезиса», но сам термин является у него весьма многозначным. Перевод «подражание» является наиболее частым и традиционным. В греческом языке и у самого Аристотеля этот термин употребляется в обыденном и в расплывчато-неопределенном смысле. Однако это обывательское понимание не годится для Аристотеля.

Когда мы говорим в своей обыденной речи о «подражании», то самый процесс «подражания» обычно сосредоточивается на предмете подражания. Чему же искусство, по Аристотелю, подражает? Естественнее всего ответить, что это есть подражание просто окружающему нас «реальному» миру. Допустимо ли это с точки зрения Аристотеля? В 9-й главе «Поэтики» Аристотель формулирует предмет художественного произведения как таковой, который в бытийном отношении нейтрален. Искусство есть подражание именно такой области и творческое воспроизведение того, что могло бы быть с точки зрения вероятности или необходимости. Свою нейтрально-бытийную область Аристотель все же относит к сфере теоретического разума, имея в виду составляющие его сущности, то есть общности, резко противостоящие всему единичному. Никакое искусство никогда не имеет своим предметом что-нибудь единичное - это принципиальное убеждение Аристотеля. Подражание есть:

1) человеческое творчество, 2) к которому человек склонен по своей природе, 3) которым он специфически отличается от прочих живых существ, 4) в силу которого он приобретает свои первые познания, 5) творчество, доставляющее ему удовольствие, 6) от мыслительно-комбинирующего, 7) обобщающего, 8) созерцания, 9) воспроизведенного предмета, 10) с точки зрения того или другого, 11) нейтрально-бытийного, 12) прообраза. Это та формула, с которой согласился бы и Платон. Однако Аристотель, при всем воем несомненном платонизме, весьма далек от основных конструкций Платона. И эта грань пролегает и в вопросе о «первообразах». И у Платона и у Аристотеля бытие есть подражание первообразам. Весь вопрос в том, каковы именно эти первообразы. Если, по словам Аристотеля, пифагорейцы говорили о подражании сущего числам, а Платон говорит об участии в числах, «меняя только слово», то разница между Аристотелем и Платоном залегает как раз не в сфере мимезиса, а именно в сфере предмета мимезиса, в сфере учения об эйдосах, или формах. Но художественные эйдосы, о которых говорит Аристотель, есть только «возможные эйдосы». Это не значит, что они никак не участвуют в бытии. Благодаря тому, что они трактуются как именно возможные, именно благодаря этому они и участвуют в бытии вполне непосредственно, хотя и не суть само бытие.

Бытие, которое является предметом подражания, по Аристотелю, нейтрально в смысле нашего обычновенного употребления «да» и «нет».

1. Yangi axborotni izlash madaniyati. Individ yangi axborot manbularini bopish, saqlash, analiz qilishning ijodiy-psixologik qiyinchiliklarini anglugan holda, axborot yetishmochiliginu bartaraf etadi. Eski qarashlar va andozalardan qutiladi, o'zining axborot pozitsiyasini egallaydi. rasmiy va norasmiy axborot kanallaridan foydalana oladi. Yangi axborot texnologiyasi imkoniyatlarini o'zlashtiradi va boshqalar. Bu bosqich axborot madaniyatini shakllanishida asosiy rol o'yaydi.

2. O'qish va axborotni qabul qilish madaniyati. Shaxs bu bosqichda zamonaviy tekst-matnlarida berilgan ma'lumotlarni o'ziga hos hususiyatlarini tushinishi va o'rganilayotgan yo'nalishga doir barcha "Xjjat turlarini" analiz qilishi. ulardan axborot madaniyatiga dahldor materiallarini ajrata olishi zarur bo'ladi.

3. Shaxs, avvalo, har bir o'qilayotgan kasbga doir ma'lumotlarni o'qish bilim olish vositasi ekanligini anglab olishi lozim, olinayotgan bilimlarni axborot madaniyattdagi yetishmovchilikni bartaraf etuvchi vaqtinchalik vazifa deb bilmaligi kerak.

4. Tushayotgan juda keng axborotlarni kompyuter texnologiyasi hamda intellektual me'yoriy usullar yordamida qayta ishslash qobiliyatini o'zida shakllantirishi zarur.

5. Har qanday shaxsiy faoliyatidagi yutuqda shaxslararo kasbiy aloqaning muhimligini tushunish.

6. O'zaro aloqalarning asosli, chuqur bilimga egaligini ta'minlash va uni oshirib borishga intilish.

7. Shaxs o'zida boshqalarning nuqtai nazariga va fikriga nisbatan e'tiborli sabrli va bo'lishi, nafaqat biliminioshirishi va balki bilim berish fazilatlarni tarbiyalashi zarur.

8. Telekomunikatsiya aloqa kanallaridan foydalangan holda birgalikdagi faoliyat uchun sheriklar topish qobiliyatiga ega bo'lish.

9. O'z faoliyatini yakunlarini aniq va dalillik bilan bayon qilishi, bunda auditorianing tayyorgarlik darajasi va kayfiyatini hisobga ola bilishi kerak.

10. Shaxs o'zini intellektual qobiliyati doirasida bilim va faoliyati reglamentlashtirishga erishishi lozim.

Axborot madaniyatini va ma'naviyatini shakllantirishga qo'yilgan talablar ana shulardan iborat bo'lib, ular masalaning nazariy-metodologik va amaliy tomonlarini to'ldirishga ko'maklashadi. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, axborot madaniyati kishilarni axborotlashgan hulq- atvorida nomoyon bo'ladi. Demak, shaxsning axborot ma'naviyati ya'ni deganda shaxsning yangi bilm olishi, uni o'zlashtirishi va hayotga tadbiq etish uchun qilgan xarakat shakli, tirishqoqligining yig'indisi nazarda tutiladi. Shaxs yangi bilmlar olish uchungina emas, ularning boshqalarga uzatish, jamiyatda targ'ib qilish, tarqatish uchun faoliyat ko'rsatadi. Axborot madaniyatining shaxs kamolotidagi xissai bunda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulq - atvor, bir tomondan bilimga intiluvechi shaxsning faolligini aks ettiradi, uni axborot makonida o'z o'rni va joyini topa olish qobiliyatini

bildiradi. Ikkinci tomondan, shaxsning axborot hulq-atvori jamiyatda yaratilgan shart-sharoitlardan yetuk ekasb egasi va madaniyatli, bilmlli individ bo'lishi uchun intilishlarini ifodalaydi, demakki ma'naviyat tarbiyalanganligini mezoni bo'ladi.

Fikrimizha, yaqin kelajakda har bir odamning taqdiri, uni yangi axborotni yoki bilimini o'z vaqtida axborot orqali olishi, topishi, aynan to'g'ri qabul qilishi va kundalik hayotida ularda samarali foydalanishi bilan bog'liq bo'lib qoladi. Keyingi yillarda shaxsni axborot madaniyati va ma'naviyat darajasini o'rGANISHI bo'yicha talablar va ziyoli xizmatchilar o'rtasida satsiologik so'rovlar o'tkazilmoqda. Unda quyidagi savollar qo'yilgan.

- Xorijiy tilni yoki tillarni bilishi va xorijiy adabiyotlarni o'qish;
- Kompyuter bilimdonlik darajasi;
- O'z xududidagi turli kutubxonalarining fondlaridan tezkorlik bilan foydalanishi:

- Elektron axborot xizmatidan (kompyuter, internet) foydalanishi. Quyilgan savollarga berilgan javoblarga qarab "elita" "o'rta" va "past" guruhlarga bo'lingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki "Elita" guruhdagi talablar o'quv jarayonini mehnat faoliyati bilan qo'shib olib borgan. Bu hol ular faoliyatiga erkinlik bag'ishlab, ayni bir vaqtida kasbiy bilimlarini ko'paytirish imkonini yaratgan. Bunday shaxslarda nafaqat kasbiy bilim va qobilyat rivojlangan, balki ularning duy oqarashida, vogelikni baholashida, axborot tizimini o'ztizimini o'zlashtirishida jiddiy olg'a siljishlar kuzatilgan.

Xulosa shundan iboratki, shaxsning axborot hulq atvorini o'rGANISHASOSIDA jamiyatning ijtimoiy differentsiyalashuvini aniqlash mumkin.

### **Yoshlar huquqiy ongini oshirishda oilaning o'rni**

**Xurshid Mirzahmedov – katta o'qituvchi**

Namangan davlat universiteti

Huquqiy davlatni barpo etishda oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Bu barcha fuqarolarimizga o'z oilasini mustahkamlash, uning har bir a'zosini, shuningdek yoshlarimiz yurti, Vataniga sodiq qilib terbiyalashni taqozo etadi.

Respublikamizda 1998 yil «Oila yili» va 2012 yilni "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinishi, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining oilaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga jaib etdi. Har bir jamiyatning negizini uning fuqarolari, oilasi tashkil etadi. Har bir fuqaroning jamiyatda tutgan o'rni bilan davlatning qudrati belgilanadi. O'sib kelayotgan avlodning yetakligi ham, inqirozi ham oiladan boshlanadi. Oilada olingen tarbiya va bilim o'rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Oilada shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish bolaning yoshligidan boshlanadi. Shaxs huquqiy madaniyatni shakllantirishda oiladagi tartib intizomga befarq bo'lmaslik lozim.

Oilada yoshlarga huquqiy tarbiya berish ta'lim tizimining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Oiladagi muhit farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllangan tarbiya tizimi bolalarda huquqqa bo'lgan dastlabki qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni avvalo

olla tarbiyalaydi. Oila muhit o'zaro hurmat, olижаноблик, halollik asosiga qurilgan bo'sa, oila boshliqlari o'z vazifalariga sidqidildan qarasalar Jumiyatning bunday yacheysidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi<sup>89</sup>.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri, qomusiy bilim sohibi Abu Ali ibn Sino o'zining «Risolatu tadbir manzil» asarida ota-onas zimmasiga o'ta murakkab va hayotiy vazifalarni qo'yadi. Agar oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda yomon natija kelib chiqishi mumkin. «oilada yomon tarbiya deb uqtiradi olim.- faqat shu oilaning o'zigina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin».

Tarbiyaning barcha yo'nalishlarida bo'lgani kabi huquqiy tarbiyada ham muntazamlilik, vorisilik bo'lishi darkor. Huquqiy tarbiyani yoshlikdan olib borish darkor, chunki yoshlik kishining dunyoqarashi, o'z-o'zini anglashi va qadriyatlarini tushunishi, ahloqiy siyosiy-huquqiy va boshqa ideallarga mustaqil baho berish qobiliyati tez shakllanib borishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham oilada o'quv yurtlarida, jamoat tashkilotlarida mehnat jamoalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga barchaning diqqat e'tibori qaratilmog'i kerak. Bolalar bog'cha yoshidan boshlab tartibni, turmush qoidalarini hurmat qiladigan bo'lishlariga erishish darkor.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy aytganidek, har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligini asrasin axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, hiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin va barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin<sup>90</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi 1997 yil 25 iyundagi PF-1791-sonli Farmoniga muvofiq, aholining huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, jamiyat a'zolarining huquqiy faolligini oshirish, islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligini inobatga olib «Huquqiy ma'rifat targ'iboti markazini tashkil qilish va huquqiy adabiyotlarni aholiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra Toshkent davlat yuridik instituti huzurida huquqiy ma'rifat targ'iboti markazi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya Vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari Adliya boshqarmalari huzurida uning mintaqaviy bo'limlari tashkil etildi va Nizomi tasdiqlandi.

Unga ko'ra huquqiy targ'ibot markazi oldiga ko'plab vazifalar yuklandi, shulardan biri aholining huquqiy madaniyati va saviyasini oshirishga qaratilgan tashkiliy-tashviqot ishlarda jamoat birlashmalari, huquqni muhofaza qiluvchi

<sup>89</sup> Исломов З. Давлат ва ҳукуқ: умумназарий масалалари. Тошкент. «Адолат» 2000 йил 19-бет

<sup>90</sup> Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент. «Ўқитувчи» 1993 йил 182-бет

idoralar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, Kasaba uyushmalari, xotin-qizlar qo'mitasi, «Mahalla» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa jamoat birlashmalariga aholining huquqiy bilimlarini oshirish yuzasidan aniq maqsadga yo'naltirilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilgan.

Fuqarolik jamiyat sharoitida yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish nafaqat davlat organlari zimmasiga balki oila va maxalla mas'uliyatiga vazifa sifatida yuklaydi. Yoshlarning nodavlat tuzilmalarida faol ishtirokini ta'minlash o'z navbatida ularning huquqiy madaniyati darajasini ham muttasil oshirib borishni zaruriyat qilib qo'yadi.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda kasaba uyushmalari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari muhim o'rinn tutadi. Ularning zimmasiga huquqiy ta'lif va huquqiy tarbiyaning turli shakkalaridan samarali foydalanish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishga vazifalari yuklangan. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy tarbiyaning umumiyligi va huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi printsipini ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, shu jumladan mahalla institutlarning mavqeい ham beqiyosdir. Shu sababli aholi istiqomat qilayotgan mahallalarda yoshlarning huquqiy madaniyatni oshirish yuzasidan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish kutilgan natija berishi shubhasiz. Mahallalarda yangi qabil qifinayotgan qonun hujjatlari yuzasidan keng ma'nodagi tushuntirishlarni olib borish, suhbat, ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga katta yordam beradi.

Mahalla har bir oiladagi ma'naviy axloqiy muhit, farzandlar tarbiyasiga sezilarli ta'sir o'tkazib kelgan mustaqillikka erishilgandan so'ng mahalla demokratik davlatning eng muhim bo'g'inlaridan biri sifatida rasmiy maqomga ega bo'ldi, hokimiyatni boshqaruvchi quy'i organiga aylandi. Insonning butun umri o'tadigan mahallaning xususiyati shundaki, unda yashovchi har bir oila, shaxs shu ahli jamoa ko'z o'ngida shakllanadi. Mahalla yoshlari tarbiyasi mahalla faoliyati yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir. Aholiga eng yaqin bo'lgan hokimiyat bo'g'ini bo'lgan mahalla yoshlar o'rtasida katta tarbiya o'chog'i, ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lmog'i lozim.

Huquqiy tarbiyaning unsurlari jumlasiga muayyan ta'sir ko'rsatish vositalari ham kiradi. Hozirdi davreda huquqiy madaniyatni shakllantirishda og'zaki, ko'rgazmali va ilg'or texnik vositalardan toydalanish ham samarali bo'lmoqda. Bunda radio, televidenie va ko'chalardagi turli tuman reklamalarning o'ziga xos o'rni bor. Bu borada ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli ham muhimdir. Uning imkoniyati juda katta. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalariga huquqiy bilimlarni yoshlarga tushunarli va ishonarli tarzda yetkazib berishdek muhim vazifa yuklangan. Hozirgi paytda qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoat nazoratini, o'rnatish davlat hamda mansabdar shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradigan mexanizm sifatida ommaviy-axborot vositalarining mavqeini oshirish lozim. Ommaviy-axborot vositalari jamiyatimizning

demokratik qadriyatlari va tushunchalarini himoya qilish odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib bormoqdalar.

Oilada, mактабда, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhoniylarning obro'-e'tibori hamma-hammasi odamlarimizda qonun buzilishi bilan bog'liq har qanday hatti-harakatlarga nisbatan barqaror qарshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim<sup>91</sup>.

Xulosa qilib, yoshlarda huquqiy madaniyatni oshirishda oilaning, mahallaning, ommaviy axborot vositalarining, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarining o'rni beqiyosdir.

## Fonetika

*Mahliyo Tursunova*

### *NamDU qoshidagi akademik litsey Til – adabiyot fani o'qituvchisi*

Til ichki tuzilishiga ega. Tilning ana shu ichki tuzilishidan qaysisini o'rganishiga ko'ra tilshunoslik fani bir necha bo'llimlarga ajratiladi. Ushbu tizimdan tilning tovush tomonini – nutq tovushlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'llimi fonetikadir. Fonetika so'zi yunoncha "phone" so'zidan olingan bo'llib, "tovush" degan ma'noni anglatadi. Tovush og'zaki nutqning eng kiechik boshqa mayda bo'laklarga bo'llinmaydigan qismidir. Fonetika uchun til va nutq tushunehalari ham muhim hisoblanadi. Hali voqealanmagan imkoniyat tarzidagi jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvechi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi til deb ataladi. Tilning muayyan shaxs nutqida bevosita namoyon bo'llishi nutqdir. Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashish, so'zlashni amalga oshirishda yaqqol ko'rindi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi tovush to'lqinlari yordamida axborot uzatish va axborot qabul qilish faoliyati nutqiy faoliyatning til va nutq asosida amalga oshishini ta'minlaydi va tilshunoslikda til va nutq tushunehalarini farqlaydi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi.

Til va nutqni quyidagicha zidlash mumkin:

TIL	NUTQ
umumiylilik	xususiylik
imkoniyat	voqealik
mohiyat	hodisa

Til – aloqa quroli, so'zlashish vositasi, u nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum vazifani bajaradi. Nutq til materiali va nutqiy

<sup>91</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсагасида: хавфспекка таҳсил, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент, «Ўзбекистон», 1997 йил, 94-бет.

faoliyat natijasida yuzaga keladi. Tilning umri uni yaratgan xalqdek uzoq bo'ladı. Nutqning umri esa qisqa bo'ladı. Til ham, fikr ham hayotning ongimizdag'i ko'rinishi va nutq yordamida boshqalarga ma'lum qilininish vositasidir. Til uzoq yillar davomida boyib borsa, nutq nutq a'zolari faoliyatiga qarab so'zning tovush tomonini o'zgartiradi. Nutq ikki yo'l bilan amalgam oshiriladi. Tovushlar zanjiri asosida bayon etilgan nutq og'zaki nutq. harflar ketma-ketligi asosida bayon etilgan nutq esa yozma nutqidir. Nutqiy faoliyat faqat og'zaki tarzda emas, balki yozma ravishda ham amalgam oshirilishi mumkin. Bunda yozuvchi shartli ravishda so'zlovchi, o'quvchi esa tinglovchi bo'ladı. Demak, nutqiy faoliyat ham o'g'zaki, ham yozma ravishda amalga oshar ekan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, nutqimizning eng oxirgi bo'linish nuqtasi tovushdir. Tovushlarni ham ikki guruhga bo'lish mumkin. Ular tabiiy va inson tovushlariga bo'linadi. Inson tovushlari nutq a'zolari yordamida biror maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadi. Tabiiy tovushlar esa tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo'lgan barcha tovushlardir. Masalan, suvning shildirashi, qushlar sayrashi va boshqalar. Tovushlarning uch tomoni mavjuddir.

1) Nutq tovushi insonning nutq a'zolari harakati natijasida yuzaga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni talaffuz (fiziologik) belgisidir va u fiziologiya fani bilan uzviy bog'liqdir.

2) Har qanday tovush havononing ma'lum tebranishi natijasida hosil bo'ladı. Ya'ni balandlik, kuch, tezlik, miqdor, uzunlik, tembr belgilari ega bo'ladı. Bu tomoni esa akustik tomoni deyiladi va fizika fani bilan aloqadorlikda o'r ganiladi.

3) Tovushlar ma'lum maqsadda katma-ket talaffuz etilishi natijasida axborot uzatiladi. Tovushlar ma'noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomonidan shakllantirish va farqlash vazifasini bajaradi. Tovushlarning bunday belgisi vazifaviy belgi sanaladi.

Xulosa qilish mumkinki, tovushlarning sanab o'tilgan uch tomonidan akustik va talaffuz (fiziologik) belgisi tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xosdir. Vazifaviy belgisi faqat inson tovushlariga xosdir. Tovushlar uch tomonidan vazifaviy belgisi muhim sanaladi. Shuning uchun ham vazifaviy belgi lingistik tilshunoslik belgi deyiladi. Masalan tovushlarning uch tomonini tavsif qilish uchun t tovushini olaylik:

1) Tilning tanglayga tegishi va o'pkadan chiqayotgan havoning bu to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'ladı. Bu tomoni talaffuz tomonidir.

2) T tovushining sof shovqindan iborat ekanligi va jarangsizligi akustik tomonidir.

3) T tovushining d tovushidan va boshqa tovushlardan farqlanishi vazifaviy belgisidir.

Nutq tovushlarining bir qancha akustik va talaffuz belgilari egaligi va ega emasligi bilan tovushlarning farqli va birlashtiruvchi belgilarini bilib olishimiz mumkin. Bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda

ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilargina fonologiya uchun ahamiyatli bo'ladi. Masalan, z va s tovushlarini farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarini topsak:

- 1) z- til oldi, sirg'aluvehi} birlashtiruvchi
- s- til oldi, sirg'aluvehi} tomoni
- 2) z- jarangli } farqlovchi
- s- jarangsiz} tomoni

Tilshunoslik fanida tovush va fonema bir-biridan farqlanadi.

Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayday bo'laklarga bo'linmaydigan nutq parchasi tovush sanaladi.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvechi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan. ketma-ketlik jihatidan boshqa mayday bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi fonemadir. Masalan, yur va dur so'zlarida y va d farqlanayapti. Shuning uchun, ular mustaqil fonemalardir. Demak, fonemalar ma'noni farqlash vazifasini bajaradi. Fonemalar ikki va undan ortiq ma'noli birliklarni bir-biriga zidlash orqali amalga oshadi. Fonemalar ikkita katta guruhga bo'linadi. Unli fonemalar va undosh fonemalar.

Faqat un(ovozi)dan iborat bo'lgan va bo'g'in hosil qiladigan fonemalarga unli fonemalar deyiladi.

Talaffuz qilinayotganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ma'lum to'siqqa uchraydigan, shovqin ishtirot etadigan va bo'g'in hosil qilolmaydigan fonemalarga undosh fonemalar deyiladi.

Unli va undosh fonemalarni quyidagicha zidlash mumkin:

Unlilar tasnifi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovush mavjud: a, e, i, o, u, o'.

Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

I. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra:

a) old qator: a, e, i

b) orqa qator: u, o, o'

II. Tilning vertikal harakatiga ko'ra (og'izning ochilish darajasiga ko'ra):

a) tor unlilar ( til o'rtasining tanglayga tomon yuqori ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun yuqori ko'tarilish yoki yuqori tor ham deyiladi): i, u

b) o'rta tor yoki o'rta keng unlilar : e, o'

d) keng unlilar( quyi ko'tariish yoki quyi tor): a, o

III. Lablarning ishtirotiga ko'ra:

a) lablangan unlilar: u, o, o (oraliq holatda joylashgan)

b) lablanmagan unlilar: a, i, e.

Undoshlar tasnifi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: b, d, f, v, h, j (portlovchi), j (sirg'aluvehi), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan inson a'zolariga nutq a'zolari deyiladi. Nutq a'zolariga o'pka, bo'g'iz, tovush paychalari, og'iz bo'shlig'i, til, lablar, tishlar va burun bo'shlig'i kiradi. Qaysi nutq tovushi ishtirok etishiga ko'ra nutq tovushlari: lab tovushlari, til oldi, til o'rta, til orqa, chuqur til orqa tovushlari va bo'g'iz tovushi kabi guruhlarga ajratiladi.

Undosh tovushlar uch tomonlama tasnif qilinadi:

1.      hosil bo'lish o'rniغا ko'ra;
2.      hosil bo'lish usuliga ko'ra;
3.      ovoz va shovqin (un paychalari) ishtirokiga ko'ra.

Hosil bo'lish o'rniغا ko'ra tasnidida undosh tovushning qaysi nutq a'zosida hosil bo'lishi nazarda tutiladi. Unga ko'ra lab undoshlari, til undoshlari va bo'g'iz undoshlari farqlanadi.

a) lab undoshlari: b. p. m. v. f. Shundan: b. p. m tovushlari lablarda hosil bo'lgani uchun lab-lab undoshlari va v. f lab va tishda hosil bo'lganligi uchun lab-tish undoshlar deyiladi.

Til undoshlari:

- b) til oldi undoshlari: d. t. l. z. s. j (portlovchi), j (sirg'aluvchi), sh. n. ch. r.
- d) til o'rta undoshi: y.
- e)      til orqa undoshlari: g, k, ng.
- f)      chuqur til orqa undoshlari: g', q', x.
- g)      bo'g'iz undoshi: h.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra tasnidida o'pkadan kelayotgan havo oqimining to'siqdan qay tarzda o'tishi nazarda tutiladi va uch turga ajraladi:

a) Portlovchilar. Bunda og'iz bo'shlig'idagi nutq a'zolarining juftlashishi asosida to'siq hosil bo'ladi va to'siq zikh yopiladi. Havo oqimi ushbu to'siqqa urilib portlashi natijasida tovush hosil bo'ladi. Ularga b. p. d. t. g. k. j. q. m. n. ng kiradi.

b) Sirg'aluvchilar. Bunda nutq a'zolari juftlashadi. lekin jipslashmaydi. to'siq zikh yopilmaydi. Havo oqimi tor oraliqdan sirg'alib chiqadi. Ularga v. f. z. s. y. r. l. sh. g', x, h kiradi.

d) Qorishiqlar. Bunday tovushlrning tarkibi bitta portlovchi va bitta sirg'aluvchi tovush qorishishidan iborat bo'ladi.

e) Portlovchi-sirg'aluvchilar (burun tovushlari). Bu tovushlar hosil bo'lishida og'iz bo'shlig'i a'zolarida to'siq zikh yopiladi va undosh og'izdan portlab, burundan sig'alib chiqadi. Bularga m. n. ng undoshlari kiradi.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra nutq tovushlarining jarangli va jarangsiz turlari farqlanadi.

- a)      jarangli- b. v. g. d. z. j. y. g', l. m. n. ng. r
- b)      jarangsiz- p. f. k. t. s. sh. ch. q. x. h

Undoshlar tarkibiga ko'ra ikki xil: sof va qorishiq. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra esa sonorlar va shovqinlar deb ham

tusnillanadi. Sonor tovushlari beshta bo'lib: l. m. n. ng. r. Bularning ichida l yon tovush. r titroq tovushi sanaladi.

## O'smirlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda huquqiy madaniyatini shakllantirish

Hurshid Mirzahmedov - katta o'qituvchi

Namangan davlat Universiteti

Tursinali Abduraxabov - talaba

Namangan davlat Universiteti.

Mustaqillik sharoitida huquqiy muammolarning hal etilishi fuqarolarning va ayniqsa yoshlarning huquqiy bilimi, ongi, madaniyatini zamonga mos ravishda rivojlantirish va shakllantirib borishni talab etadi.

I.A.Karimovning 1997 yil 25 iyunda qabul qilingan «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni taylorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash to'g'risida» gi farmoni katta ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Unda yurtboshimiz «axolining huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish - huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo'nalishdir», - deb ko'rsatgan fikrlari bevosita huquqiy ta'lif va tarbiya masalasiga ham tegishlidir.

O'z o'rniда tajribali pedagog va buyuk olimlarimizning ham tarbiya borasidagi fikrlari keng mushohada qilinadi. «Men... deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov - Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» - degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zлari asrimizning boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lif - tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lif-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi »<sup>2</sup>. - degan so'zлari hozirgi kundagi huquqiy madaniyat muammolarni hal etishga, hamda, huquqiy ta'lif va tarbiya masalalarining asosiy yo'nalishini belgilab beradi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlariga huquqiy tarbiya berishda avvalambor huquqiy savodxonlikni, keyin huquqiy tarbiya berilib, uning tarbiyaviy elementlarni birlashtirish va huquqiy madaniyatni rivojlantirish hamda mustahkamlash zarur.

<sup>1</sup>Каримов И. А. Жамиятимиз мафкураси ҳаркни-ҳаракт, миллатни миллат килишга хизмат. Ўзбекистон шурия - Ташкент, 1997 й. 26 июн.

<sup>2</sup>Каримов И.А. Биз ўз келажагимизни ўз - қўлимиз билан курамиз. 7-Т-Т. Узбекистон. 1999. 94 б.

Demak, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlariga ekologik-huquqiy tarbiya berish bilan birga, ularni tabiat va jamiyat qonunlari to'g'risidagi, ular o'rtaisdagi o'zaro munosabatlarning tarixi va kelgusida zarur nazariy huquqiy bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlariga beriladigan xuquqiy tarbiya izchil hamda uzlucksiz olib borilishi lozim. Bu maqsadni amalga oshirish uchun xuquqiy ongni tarbiyaviy faoliyatning asosiy vazifalari va mazmunini quyidagicha belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Uzluksiz xuquqiy bilimlarni berib borish.
2. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlariga qonun va axloq turmush qoidalariga so'zsiz va og'ishmay amal qilish, boshqa fuqarolarning, turli millat vakillarining xuquqi, erkinligi va qadr-qimmatini xurmat qilishi ruxida tarbiyalash.
3. Tarbiyalanuvchilarining o'z xuquqi va erkinliklaridan to'la foydalanishi, jamiyat, davlat, ijtimoiy hayotdagi burchlariga sodiq bo'lishi uchun xuquqiy bilimlarni egallashdagi faoliyklarini oshirib borish.
4. Bo'lajak kasb va mutaxassisligiga oid mavjud qonunchilik bo'yicha xuquqlari, burchlarini o'rgatib borish.
5. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlarini xuquqiy-ma'naviy tafakkurini kengaytirib borish. ularda xaqiqiy Sharqona fazilatlarni kamol toptirish uchun xalqimizning xuquqiy me'rosini, qadriyatlarni o'rgatib borish. har qanday xuquqbazarlikka nisbatan murosasiz bo'lishga o'rgatish.
6. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvechi o'smirlar o'rtaida turli xuquqbazarliklar bo'lishini oldini olish.

Xulosa qilib shuni aytish joizki. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi o'smirlariga xuquqiy bilim va tarbiya berishni takomillashtirishdan asosiy ko'zlangan maqsad. ularga inson va fuqarolik xuquqlari, erkinliklari, burchlarini, xuquqiy an'anaviy axloqiy normalarni, respublikamiz xuquq tizimi va qonunchiligini o'rgatish, ularning xuquqini qo'llovchi va uni muxofaza qiluvchi organlar faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytira borib, xuquqiy kamol toptiish. ularni amalda xuquq ximoyachisi qilib tarbiyalash bo'lmog'i lozim. Biz Mehribonlik uyi tarbiyalanuvechi o'smirlariga xuquqiy bilimini, xuquqiy ongini, xuquqiy tarbiyani qanchalik chuqur bersak, ularning xuquqiy savodxonligi, ongi, madaniyati faol xayotiy o'rinni egallashlari uchun shuncha ko'p imkoniyatlar tug'diradi deb o'yaymiz.

### **Milliy madaniyat kushandasasi**

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Shavkat Akramov - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

So'nggi paytlarda televizor ekranlarida, kinoteatrлarda, internet tarmog'iда turli disk yozuvlarida ochiqchasiga turli zararli odatlar: zo'ravonlik,

shafqatsizlik, ahloqsizlik, ma'naviy qashshoqlik, fahsh, behayolik, oechko'zlik, boylikka hirs qo'yishlik, giyohvandlik, ichkililikbozlik, kashandalikni oshkora targ'ib qiluvechi badiiy fil'mlar, mul'tifilmarni namoyish etish ko'paymoqda.

Tabiiyki, "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning boshqa insonlar hisobidan boylik orttirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli taxdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Bugungi yoshlar axborot globallashuvi zamonida "Internet" tarmog'idan turli ma'lumot va tasvirlarni ko'rish, o'qish imkoniyatiga ega. Bu bir tomondan ijobjiy holat bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishi, ularni ahloqiy jihatdan tubanlashuviga, zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. G'arbdagi turli markazlar "ommaviy madaniyat" niqobi ostida har xil g'oyaviy zararli saviyasi past, ma'naviy tubanlikka yetaklovechi, animations va badiiy filmlar, rok-n-roll, pop, metallist yo'naliishlaridagi qulogni qomatga keltiruvechi, sharqona ahloq-odobga xilof bo'lgan musiqa mahsulotlarini yoshlarimiz e'tiboriga havola etisimoqda.

Bugungi kunda internet tarmog'ida to'qqiz mingdan ortiq o'z joniga qasd qilishni targ'ib etuvechi, to'rt mingdan ortiq erotik mazmundagi saytlar ishlab turibdi. Global tarmoqdagi mavjud resurslarning o'n ikkki foizi pornografik mazmundadir. Ularga yoshlarni qiziqishi juda katta.

Dunyoda globallashuv jarayoni davom etayotgan, ta'lim-tarbiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalasi nihoyatda dolzarb masala bo'lib turgan sharoitda yoshlarga bu imkoniyatlardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yishni iloji yo'q. Biroq, bir vaqtning o'zida "ommaviy madaniyat" va turli yot g'oyalarga qarshi kurash olib borish, bu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish talab qilinmoqda.

Bu borada Respublikamizning viloyatlarda tumanlar shaxar-shaharchalarda turli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmokda Oliy ta'lim muassasalarida kasb hunar kolleji akademik litseylarda va maktablarda ushbu mavzuga bag'ishlab alohida darslar ma'naviyat soatlari o'tkazib kelinmoqda. Respublikamizning chekka-chekka tumanlaridagi umumta'lim maktablarini ham zamonaviy kompyuter tehnikasi bilan ta'minlash darajasi bugungi kunda ancha oshib bormokda masalan: hozirda ularning soni 66,5 foizga to'g'ri kelyapti. Hammasi bo'lib 6509 ta maktabda zamonaviy kompyuter tehnikasi bilan jihozlangan sinflar mavjud. 2012 yilning o'zida byudjet mablag'lari hisobidan yana 806 ta maktabda kompyuter sinflari tashkil etildi.

Joriy yilda ham bu hayrli ish davom ettirilayotir. Shunga qaramasdan o'quvchi yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'sirlaridan muhofaza qilishga qaratilgan dastlabki katta amaliy ta'sir amalgalga oshirildi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari "ZiyoNET" tarmog'iga ulandi. "ZiyoNET" tarmog'i ta'lim tizimi uchun tashkil etilgan tarmoq bo'lib ushbu tarmoqdan Respublikamizning internet tarmog'iga ulangan bareha ta'lim muassasalari foydalanishlari mumkin bu tarmoqdan foydalanuvchilar o'zlariga

kerak bo'lgan turli fanlardan turli mazmundagi adabiy, ma'naviy-marifiy, ilmiy, siyosiy, ijtimoiy-iktisodiy va boshqa o'zlarini qiziqtirgan barcha adabiyotlarini elektron shakldagisini topishlari mumkin. Bu tarmoq "ZiyoNET" o'ziga xos fil'tr vazifasini xam ado etib, talaba yoshlarning zararli saytlarga kirishiga yo'l qo'ymaydi.

Shuningdek, talaba yoshlarning internet kafe, kompyuter klublaridan foydalanishni tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Birinchi galda bu muassasalarни o'quv yurtlari, mакtablar hududidan kamida besh yuz metr uzoqlikda joylashtirish taklif qilingan. Yoshlarning dars mashg'ulotlari paytda internet va kompyuter klublarida bo'lishi nazoratga olinayotir.

Bu borada o'quvchilar, ota-onalar uchun "Men komp'yuter va internetdan faqat bilim olish uchun foydalanaman" mavzusida davra suhbatlari o'tkazish. O'zbekiston televideniesida namoyish etilayotgan maxsus ko'rsatuvlar "Extiyot bo'ling, mul'tfil'm", "Allo, ogoh bo'ling", "Ekrandagi olabo'ji", "Suiqasd" kabi ko'rsatuv va fil'mlarni misol keltirish mumkin.

Talaba-yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatiini shakllantirish, huquqiy ma'naviyatni oshirish orqali huquqbazarlik va jinoyatchiilikni oldini olish, kitobhon madaniyatini yuksaltirish, "Kamolot" YolH boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini kuchaytirish, oila - mакtab - mahalla hamkorligini yaxshilash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini, ota-onalar mas'uliyatini oshirish yoshlar ongidagi bo'shliqlarni ahloqiy fazilatlar bilan to'ldirish bugungi kundagi yoshlar tarbiyasidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bundan xulosa kilib aytishimiz mumkinki xozirgi glaballahuv jarayonida ya'ni XXI asr axborot texnologiyasi asri deb atalayotgan butun dunyo buylab o'rgimchak to'ri deb ataluvchi "internet" dan o'sib kelayotgan yoshlarimizni to'g'ri foydalanishga va faqat foydali yullarda foydalanishlarini ularga tushuntirishimiz lozim va bunga ota onalarimiz, kattalar, alohida e'tibor qaratishlari lozim. Albatta shunday qilsak unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni ongini milliy ma'naviyat sharqona madaniyat bilan boyitgan bo'lamiz. Axir, I.Karimov aytganidek "Kelajak yoshlarimiz qo'lida" va biz yoshlar birinchi Prezidentimizning ushbu ishonchlarini oqlashimiz lozim!

### Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi

*Dilafruz Qodiraliyeva,  
Ingliz tili yo'naliishi 3-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: Dilrabo Abdurahmonova*

Yurtimizda islomiy madaniyatning qaror topib, ildiz otib borishi barobarida uning ulug'vor g'oyalari, asl maqsadlarini keng tashviq, targ'ib qilish, ayniqsa, hadis ilmini asosli tadqiq etish kuchayib bordiki, bu borda zamonamizdan chiqqan bir qator buyuk muhaddis olimlarning xizmati katta bo'ldi. Hazrati payg'ambarimiz Muhammad Alayxu Vassalom nomi va u zoti sharifning muborak so'zlari bilan bog'liq «Quroni Karim» oyatlari mazmuni moxiyatini

terun tushinish va anglab yetishga muhim kalit bo'lib xizmat qiladigan hadisshunoslik ilmi IX-asrda jiddiy rivoj topdi. Bugun musulmon olamida eng ishonchli manbalar tan olingen 6 ta ishonchli hadislar to'plami (as-saxih as-sitta) xuddi shu davrda yaratildi. Ular orasida «Hadis ilmida amir al-mo'miniyn» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Imom Ismoil al-Buxoriy (810-870) nomi yorqin ko'zga tashlanib turadi. Yuksak aql zakovat sohibi Al Buxoriy Sharqning yirik ilmiy va ma'rifiy markazlaridan biri-Buxoroi sharifda tug'ilib juda erta yoshligidan diniy bilimlarni chuqur egallaydi. 16 yoshlik davridan boshlab u musulmon dunyosining ko'plab shaharlarini kezib, hadis ilmining siri asrorlarini bilish, ularni toplash va tadqiq qilish uchun tinimsiz sa'y harakatlarda bo'ladi. Bu xaqda uning o'zi: «Misr, Shom, Mesopatamiyaga ikki martadan. Basriyaga to'rt marta borganman. Xijozda 6 yil yashaganman. Bag'dod va Kufa shaharlariga necha bor borganim hisobini bilmayman», degan ekan.

Imom Buxoriy o'z safarlari davomida turli shaharlardagi 90 yaqin ustozlardan ta'lif olgan. Ayni chog'da uning o'zi ham son-sanoqsiz shogirdlarga ustozlik qilgan. Imom Buxoriy shogirdlari orasida Isxoq ibn-Muhammad ar-Ramodiy, Muhammad al-Masnadiy, Xalaf ibn Qutayba, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marg'oziy, Imom Ahmad ibn Xambal singari zukko olimlar nomi alohida ajralib turadi.

Imom Buxoriy go'zal insoniylik sifatlariga ega bo'lishi bilan birga uning Quvai hofizasi, xotirasi nihoyatda o'tkir bo'lgan. Manbaiarda uning 600 mingga yaqin hadisni yod bilganligi qayd etilgan.

Al Buxoriy keyingi nasllar uchun o'zidan katta, boy ilmiy meros qoldirgan. Uning qalamiga mansub noyob asarlar ruyxati 20 dan oshadi. Bu asarlar orasida "Al-Jome' as-Sahih" asari («Sahih Al Buxoriy» nomi bilan ham yuritiladi). O'zining mukammalligi, ahamiyatining benihoyaligi bilan ajralib turadi. Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275ta, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Eng muhimi shundaki, bu sharafli ishni birinchi bo'lib al-Buxoriy boshlab bergan bo'lsa. keyinchalik boshqa olimlar unga ergashib, hadisiar to'plamini yaratganlar.

Allomaning «Al-jome' as-sahih» asari asrlar davomida butun musulmon dunyosida yuksak qadrlanib, necha bor nashr etilib, yer yuzi musulmonlari uchun dasturilamal qo'llanma bo'lib kelmoqda. Uning 1325 yilda ko'chirilgan 8 jilddan iborat mukammal nusxasi hozirda Istanbul (Turkiya)da saqlanmoqda. Uning asarida ifodalangan mehr-muhabbat, sahiylik, ochiq ko'ngillik, kattalarga hurmat, yetim yesirlarga muruvvat, beva-bechoralarga himmat. Vatanga muhabbat, haloilik, pokizalikka da'vat etuvchi yuksak insoniy fazilatlar, olijanob tuyg'ular, hamisha insonlarga ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlab kelgan.

Mustaqillik yillarda ulug' bobomizning boy ilmiy merosi xalqimizga yangidan to'la nasb eta boshladi. Uning asarlari shu jumladan, «Al-jome' as sahih» asari (4 jildda) ona tilimizda ilk bor nashr etildi<sup>\*\*</sup>. 1998 yil oktabrida esa alloma tavalludining 1225 yilligi keng nishonlandi. Al-Buxoriy hoki-poyi dafni

<sup>\*\*</sup> «Al-jome' as-sahih». Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.-B.3.

etilgan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida esa unga bag'ishlab yodgorlik majmua barpo etildi. Imom Buxoriy yubileyi marosimidagi nutqida Prezidentimiz I.A.Karimov alloma siyimosini ta'riflab shunday degandi: «Buyuk vatandoshimiz bashariyatga tengsiz ma'nnaviy meros qoldirib ketdi. Bu merosning gultoji-eng ishonchli hadislar to'plami-«Al-Jome' as-sahix» islom dinida Quroni Karimdan keyin e'zozlanadigan ikkinchi manbadir. Butun dunyo musulmonlarining e'tiqodiga ko'ra. u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'idi.

## **Mustaqillik yillarda O'zbekiston tasviri sanati rivojida Namanganlik rassomlar ijodining ahamiyati**

*Azizbek Soliyev,*

*NamDU "Tasviri san'at va amaliy-bezak san'ati"*

*mutaxassisligi II-bosqich magistranti*

Hozirgi kunda Namangan rangtasvir san'ati yurtimizda eng etakchi o'rinda turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki. Namanganda tug'ilib. voyaga etgan o'ndan ortiq rangtasvir san'ati ustalari O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Markaziy qo'mitasida faoliyat ko'rsatib. o'zlarining ijodiy asarlari bilan san'at ixlosmandlariga manzur bo'lib kelmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan san'atkorlarda ijodiy erkinlik vujudga keldi. o'zligini namoyish qilish imkoniyati tug'iladi. Respublikada viloyatlarda ijod qilayotgan rassomlarning birinchi ko'rgazmasini ham Namanganlik rassomlar boshlab berishgan. 1994 yili Toshkentda "Namangan tasviri san'ati kunlari" bo'lib o'tdi. Unda san'at ixlosmandlari. yurtimiz mehmonlari qatnashib Namangan o'zining gullagan davriga kirib kelganligini ta'kidlashgan edilar. Undan buyon yanada yangi-yangi ijodkorlar etishib chiqib namangan rangtasvir san'atini gullab -yashnashiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda. Shu o'rinda Namanganda rangtasvir san'atini paydo bo'lishi va uni rivojlanishiga oid bir necha ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz lozim.

XIX –asrning 70-yillardan boshlab O'rta Osiyo erlari Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida Namangan shahri ham mustamlaka bo'lib qoldi.

1918 yildan boshlab esa Namangan shahri ham Sovetlar qo'liga o'tdi. Buning natijasida san'at va madaniyat qat'iy ko'rsatmalar va yo'l -yo'riqlar asosida yaratiladigan bo'ldi. Milliy san'atimiz na'munalari olib ketildi va qolganlarini esa yo'q qilindi. 1931 yili Namanganda viloyat drama teatri tashkil etildi. Bu erda Gofrman. Zinger. Usta Mo'min (Nikolaev) kabi rassomlar chetdan kelib ishladilar.<sup>93</sup> Shu tariqa Namangan rangtasvir san'atiga asos solindi.

1940 yilga kelib Tursunboy Abdullaev Respublika badiiy bilim yurtini tugatib. birinchi mahalliy rassom sifatida teatrga bezovchi rassom bo'lib ishga

<sup>93</sup> Б.Б.Орнпов. Наманганд тасвирий санъати. Н. 2000й. 11-бет

kelganligi Namangan san'atida muhim sana bo'lib qoldi. U teatr sahnasida qo'yilgan o'nlab asarlarga bosh rassom sifatida o'zining ijodiy asarlarini va sahna bezaklarini yaratdi. Teatr bilan hamohang boshlangan rangtasvir san'atida Tursunboy Abdullaevning o'rni beqiyosdir. Rassom rangtasvir san'atining portret, manzara, natyurmort va maishiy janrlarida ham asarlar yaratdi. U Namangan tabiat muzeyi uchun qator ijodiy ishlar qildi. Tursunboy Abdullaevdan keyin etishib chiqqan mahalliy rassomlardan yana biri Mutallib Abbasovdir. Bu rassom ham Respublika badiiy bilim yurtini va Teatr rassomehilik institutini tugatib. Namangan musiqali –drama teatrining bosh rassomi bo'lib ishladi. U ham yuzlab sahna asarlariga dekorativ-bezak ishlarini yaratdi.

Mutallib Abbasov rangtasvir san'atining portret, manzara, natyurmort va maishiy janrlarida ijod qildi. Viloyat va respublika miqyosidagi ko'rgazmalarda faol qatnashdi. Rassom Namangan shahridagi II –jahon urushi qurbanlariga bag'ishlangan xotira yodgorligi loyihasining muallifidir. Mutallib Abbasov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, ijodkor rassom, teatr dekoratsiyasi ustasi sifatida mashhur bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan O'zbekistonning aksariyati viloyatlarida bo'lgani singari Namanganda ham rangtasvir san'ati teatr san'ati bilan hamohang tarzda paydo bo'lgan va shakllangan deb xulosa qilishimiz mumkin.

XX asrning 60 – 70 yillariga kelib Namanganda dastgohli rangtasvir san'atiga umidli ijodkor rassomlar Po'latxon Jalilov, erkin Azizovlar ham qo'shilishdilar. Endilikda rassomlar o'rtasida o'zaro ijodiy muhit shakllangan edi. Buning natijasida esa tarixiy voqeа sodir bo'ldi, ya'ni Namanganlik rassomlar ijodiy asarlarini ko'pchilik hukmiga havola qilib, ko'rgazma tashkil qilishi.

Bu birinchi, katta ko'rgazma 1971 yilning oktyabr oyida Namangan O'lkani o'rganish muzeyida tashkil qilindi. Ko'rgazmada san'at arbobi Mutallib Abbasov, ustoz rassom Tursunboy Abdullaev, Po'latxon Jalilov, erkin Azizov, Semyavkin hamda Leningrad Badiiy institutining umidli yosh talaba ijodkorlar ishtiroy etganlar.

Ko'rgazmada eng ko'p tuxfasi bilan, ya'ni 30 ga yaqin asarlari bilan qatnashgan rassom Po'latxon Jalilov bo'ldi. Uning Namanganning go'zal tabiatini, mehnatkash odamlariga, bog'u –rog'lari-yu sahovatli zaminiga bag'ishlangan manzara, portret, natyurmort janridagi dastgohli rangtasvir asarlari bilan birga teatr afishalari, kitob grafikasiga bag'ishlangan asarlari ham hech bir tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romaniga ishlagan kitob muqovasi, yilning to'rt fasli tasviri hammaga manzur bo'ldi.

Mutallib Abbasov asarlaridan uning teatr sahma ko'rinishlarining mohir ustasi ekanligi ko'zga tashlanib, uning asarlari teatrda sahnasiiga olib chiqilayotgan asarlarni yanada qiziqarli bo'lishiga ulkan hissa qo'shishi ko'rinib turar edi.

V.Selyavkinning "Kuz payti bog'da" asari. Tursunboy Abdullaevning "Bizning ko'cha", "Aygiron qishlog'i" kabi shahar va qishloq manzaralari va "Raxima" portreti. erkin Azizovning zamondoshlar turmush tarzini aks ettirgan asarları. Qambar Sodiqovning zamonaviy hayotni ifodalovchi tasvirlari, qishloq odamlari. mehnatkash odamlarning kundalik turmush tarzi, g'o'za chopig'i mavzularidagi asarları. Muxammadjon Nuriddinovning "O'lcam", "Zamondosh", "Kulol" singari odamlar portretlari tamoshabinlar hukmiga havola qilingan.

T.Oqilovning jonajon, go'zal shahar Namanganning qiyofasini ifodalagan asarları yig'ilganlarni hayratga solgan. Ayniqsa, rassomning "Kosmos" deb nomlangan zamonaviy choyxona loyihasi tomoshabinlarga juda ham manzur bo'ldi.

Farg'ona badiiy ishlab chiqarish ustaxonasi tasarrufida bo'lgan Namangan badiiy ustaxonasi 1972 yildan mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Namangan badiiy ishlab chiqarish korxonasining asoschilari T.Abdullaev. M.Xusainov. P.Jalilov. T.Ortiqboev. K.Sodiqov. e.Azizov o'zlarining jonbozliklari bilan namangan san'atida o'chmas iz qoldirdilar. Bu rassomlar rangtasvirning portret, manzara, natyurmort, maishiy va shu kabi ko'plab janrlarida keng ko'lama ijod qilishdi.

XX asrning 80-yillari Namangan rangtasvir san'atining salmoqli taraqqiyot yillari bo'ldi. Bu paytga kelib ustoz -rassomlar safiga T.Ashurov. R.Yo'ldoshev. J.Raxmonov. A.Nuriddinov. O.Qozoqov kabi ko'plab umidli yosh rassomlar kelib qo'shilishdi. Bu vaqtida Namangan rassomlari ko'plab ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, nafaqat viloyatimizda, balki respublikamizning ko'plab shaharlarida, qator xorijiy mamlakatlarda o'zlarining muxlislariga ega bo'ldilar. Shu o'rinda erkin Azizovning Rossianing Tinda shaxrida 1980 yili shaxsiy ko'rgazmasining ochilganligini eslatib o'tish ham fikrimizning dalili ekanligidir.

Biroq, bu paytlarda Sobiq Ittifoqning mafkurasi, kommunistik partiyasi g'oyalarini targ'ib qilish rangtasvir san'atining ham zimmasiga tushganligini aytib o'tish joiz. Paxta yakka hukmonligi, ayollarni og'ir dala sharoitida mehnati ulug'lab, ko'klarga ko'tarish majburiy bo'lgan. "Sotsialistik realizm" qolipiga tushmagan asar ham uning muallifi ham qattiq tazyiq ostiga olingen. Sotsialistik mehnat qaxramonini, ilg'or pillakorni, ularning qo'shtirnoq ostidagi baxtli hayotini aks ettirish bosh mavzu qilib olingen edi.

1987 yilda Namangan pedagogika institutida Badriddin Oripov say'i - harakatlari bilan tasviriy san'at yo'nalishini ochilishi ham Namangan rangtasvir san'atining keyingi rivojiga katta hissa qo'shdi. Endilikda rassomlar korxonasining o'rniga universitet rassomlar, yosh ijodkorlarning markaziga aylandi. Keyinchalik bu erdan ko'plab fan nomzodlari, san'atshunos olimlar, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Ijodkorlari uyushmasi a'zolari, rassomlar etishib chiqdi. Bu esa hali o'rganilishi lozim bo'lgan alohida mavzudir.

San'atning tengsiz go'zalliklarini o'zida mujassam etuvchi rangtasvir asarları insonning diliga yaqinligi, maftunkorligi, betakrorligi bilan ulug'vordir. Shu bois rassomlarimizning ichki kechinmalari, dunyoqarashi, his -tuyg'ulari mukammal asarlar yaratish ishtiyoyqi bilan yashaydi. izlanishda da'vat etadi.

90-yillar esa tom ma'noda yuksak taraqqiyot yillarini boshlab berdi. Namangan rangtasvir san'ati ijodkorlari istiqlol sharofati bilan yanada zavq – shavq bilan erkin ijod yo'liga kirdilar. 1993 yili rassom Ibrohim Valixo'jaev hamda san'atshunos Nasima Jo'raevalarning sa'yiy –harakatlari bilan vodiyya birinchi va yagona bo'lgan "Tumor" xususiy badiiy galereyasi tashkil qilindi. Ushbu galereya viloyat tasviriy san'atining yutuqlari maskaniga aylandi. Galereya faoliyatini viloyatdag'i etuk rassomlarning shaxsiy ko'rgazmasini tashkil qilish bilan boshladi. Jumladan. 1995 yili galereya asoschisi. rangtasvirchi rassom Ibroxim Valixo'jaevning ko'rgazmasi. 1996 yili ustoz – rassom Po'latxon Jalilovning ko'rgazmasi tashkil qilindi.

Namangan tasviriy san'ati o'ziga xos jozibasini 1994 yili Toshkent shahrida tashkil qilingan Namangan san'ati kunlarida. O'zbekiston Rassomlar uyushmasining ko'rgazmalar zalida ko'rsatgan edi. Mustaqimlikning ilk yillaridan viloyatlarning ko'rgazmasini poytaxtda tashkil qilish boshlanganida birinchilardan bo'lib viloyatimiz rassomlari boshlab bergan edilar. Bu ko'rgazmada viloyatning ustoz –otaxon rassomlaridan boshlab yosh iste'dod sohiblarigacha qatnashishdi. Ko'rgazmada yurtimizning barcha etuk rassomlari. san'atshunos olimlari-yu xorijlik mehmonlar qatnashid. Ko'rgazmada barchada ulkan taassurotlar qoldirdi. Jumladan. San'atshunoslilik ilmiy –tadqiqot institutining "Zamonaviy tasviriy va amaliy san'at" bo'limi boshlig'i. san'atshunos Abdulxay Rashidovich Umarov so'zga chiqib. Namangan san'ati juda ham o'ziga xos va mos. yuqori darajaga ko'tarilganligini hayojon bilan gapirar ekan u o'z so'zini "Namanganlik rassomlarga tasanno! Qoyil" –degan jumlalar bilan ifodalagan edi.

1996 yilning iyun oyida galereyada "Olamni go'zallik qutqaradi" degan mashhur iboraning davomi sisfatida "Bu olam qanday go'zal" mavzuida katta ko'rgazm tashkil qilindi. Uning xarakterli tomoni shunda ediki. bu ko'rgazmada viloyatimizning taniqli rassomlari erkin Azizov. Haydarali Usmonov va Xamid Orzimovlardan tashqari xorijlik rassomlar. amerika fuqarosi Bernes Yanker. Gruziyalik musavvirlar Z.Zinzova. I.Petrakovskaya. taniqli san'at arbobi Raxim Axmedov. yosh iste'dod sohiblari Jur'at Raxmonov. Akmal Nur va boshqalarning sara asarlari namoyish etildi.<sup>64</sup>

San'at turli xalqlar. millatlar va elatlar o'rtaсини bog'lovechi ma'naviy rishta hisoblanadi. Xorijlik va mahalliy rassomlar ijodini tamosha qilgan san'at ixlosmandlari olamni naqadar go'zalligini. odamlar ruhan bir –birlariga chambarchas bog'liqligini. dunyoning go'zalligi ham mana shu odamlarning mehr –muhabbat bilan barqaror ekanligini his qildilar. Ko'rgazmada oliyjanob maqsadni ko'zlab. ya'ni xalqlarni yaqinlashtirish. hamkorlik qilish. ular o'rtaсidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilishni o'z oldiga qo'ydi. O'ylaymizki niyat amalda ham ijobatini topdi. Shuningdek. O'zbekistonlik ko'plab rassomlarning ustoz. san'at arbobi Raxim Axmedovning asarlarining aslini ko'risheek ulkan omad ham yosh ijodkorlarni qalbida o'chmas iz qoldirdi.

<sup>64</sup> Б.Мамажонов. Наманган рангтасвир санъати. Дип.хиз. издаҳ. доц. Б.Орилов. Н. 1998 и. 25 сең.

1997 yilning 17 mart kuni Navro'z ayomi munosabati bilan galereyada "Orzular parvozi" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi. Bu ko'rgazmaning o'ziga xosligi shunda ediki. bu ko'rgazmada O'zbekistonning Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Angren va Namangan kabi shaharlarining xalq ustalari va rassomlarining rangtasvir asarlari bilan birqalikda haykaltoreshlik, grafika, kulolchilik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik, misgarlik, kandakorlik, zargarlik, gobelen va shu kabi ko'plab tur va janrlaridagi ishlar ham qo'yildi. Bu ko'rgazmada qatnashgan rassomlarning nomidan ham bu qanaqangi betakror va go'zal ko'rgazma bo'lganligini bilish mumkin. Jumladan, Torshkentlik O'zbekiston xalq rassomi, professor Raxim Axmedov, Jur'at Raxmonov, Akmal Nur, Fayzulla Axmadaliev, Namanganlik rassomlar –Erkin Azizov, Ibrohim Valixo'jaev, Haydarali Usmonov, Andijonlik –Obidjon Bakirov, Ulug'bek Boltaboev, erkin Vorob'ev, Veniamin Ganin, Farg'onalik – erkin Quvondiqulov, Anatoliy Utegenov, Sergey Shumilinlarning qatnashganligining o'zi ham Namangan rangtasvir san'tiga e'tiborni yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Tasviriy san'at bo'limida san'atni turli –tuman tur va janrlari na'munalari: akvarelga oid ishlardan tashqari grafik –akvarel, ofort, tosh, gips, shamot kabi turli materiallardan ishlangan haykallar. Portretlar, manzaralar, natyurmortlar, turli uslub va yo'naliishdagi mavzuli asarlari, akademik –realistik uslubdan boshlab to avangard va mavhum, hayolot ruhida yo'g'rilgan kompozitsiyalar qo'yilgan edi.

1998 yilning mart oyida "Tumor" badiiy galereyasida viloyatimiz rassomlarining "Eng ulug'", eng aziz", -deb nomlangan ijodiy ishlar ko'rgazmasi tashkil qilindi.

Ko'rgazmada taniqli rassom Po'latxon Jalilovning "Navro'zi olam", "G'ova musiqasi", "Segoh", "Qishloq hovlisi", "Sumalak" kabi asarlari o'zining kompozitsion echimi, milliyligi, ranglarning uyg'unligi, o'ziga xos ulug'vorligi, tantanavorligi bilan muxlislarni o'ziga maftun etdi. Erkin Azizovning "Laylaklar", "Oqibat", "Yomg'irdan so'ng" kabi asarlari falsafiy talqini bilan tamoshabinni hayojonlantirdi, ularni mushohadaga undadi. Yosh, iqtidorli rassom Haydarali Usmonovning yurtimiz go'zalligini o'zida aks ettirgan yorqin manzaralari, maishiy janrdagi asarlari kishiga lirik kayfiyat bag'ishlab, uni go'zallik olamiga etakladi. Uning natyurmortlari juda ham jozibali, ta'sirchan bo'ldi. Jumladan, "Qirm'izi olmalar", "Gulli natyurmort", "Non", "Qovun" kabi asarlari hech kimni befarq qoldirmaydi.

Namangan rangtasvir san'atida yangi uslub yaratib, o'ziga xos original tasviriy vositalar asosida mo'yqalam tebratayotgan Ibroxim Valixo'jaevning "Do'ppi bozori", "Ayollar", "Suhbat", "Osiyolik ayol", "Ona", "Hovli" singari asarlari san'at ixlosmandlarini munozaraga baxsga, muloqotga chorladi. Boshqa barcha rassomlar realizm uslubida ishlagan bo'lsalar, Valixo'jaev avangardizm vakili bo'ldi.

Respublikamizda yosh ijodkorlarni qo'llab –quvvatish juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. "Kelajak ovozi" mega tanlovi ham shu maqsadda amalga oshirilib qilinmoqda. Viloyatimizdan ham juda ko'plab yosh ijodkorlar ushbu tanlovning sovrindorlari bo'lishgan.

Viloyatimizda, universitetimizda muntazam ravishd mustaqillik munosabati bilan, Navro'zi olamga bag'ishlb. 8-mart Xotin -qizlar kuniga bag'ishlab ko'rgazmalar, ko'rik – tanlovlari o'tkazilib kelinadi. Bu esa o'z navbatida Namangan rangtasvir san'atining rivojlanishiga hissa qo'shib keladi. Ayniqsa, an'anaviy tarzda 21-apreldan boshlab respublikada tasviriy san'at haftaligini o'tkazilishi juda ham tasviriy san'atning rivojiga ulkan hissa qo'shishi hech kimga sir emas.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Namangan viloyat bo'llishiga akademik Asqarbek Akparovning raislida olib borilayotgan ishlari ham tahsinga loyiq. U viloyat o'lkani o'rghanish muzeyida, universitetda, kollej, litseylarda tashkil qilinayotgan ko'rgazmalarda qatnashib ijodkor yoshlarni qo'llab –quvvatlashda faoliy ko'rsatadi. Shu o'rind kafedramiz professor –o'qituvchilari dotsent B.Oripov, dotsent B.Jabbarov, dotsent O'.Abdullayevlar va katta o'qituvchi H.Rizayevlarning ham Namangan rangtasvir san'atining rivojiga qo'shayotgan hissalarini ham beqiyosligini ta'kidlab o'tish joiz.

## **Mustaqillik yillarda ma'naviy qadriyatlar va ularni inson va jamiyat hayotidagi o'rni**

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Nodira Tojiboyeva -*

*talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Birinchi, prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek, «Mustaqilimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaxo manaviy va ma'daniy merosning tiklash davlat siyosati darajasiga kutarilgani nixoyatda muxim vazifa bo'lib qoldi». Natijada xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z taqdirining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning soxibiga aylandi. Istiqlol diyorimizning ulug' farzandlari, buyuk siymolarining nomlarini faxru iftixon bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ularning asarlarini ona tilimizda chop etib, xalqimiz ma'naviy kamolotini ta'minlashga qulay imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Shuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum xukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga, biryoqlama yondoshishidek ijtimoiy illatdan ongimizni xoli etdi. Mustaqillik bizning milliy ma'naviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquvvat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi. Aslar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazillatlari sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan, endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada taraqqiy ettirib o'z xalqimiz tafakkuriga mos, tushunarli va yaqin bo'lgan sharq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamiko'st foydalishimiz lozim.

Mustaqillik bizga ma`naviy mulkimizni, tariximizni, ulug' bobolarimiz ruhini shod etishni imkoniyatini qaytarib berdi. Istiqlol tufayli tariximizga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Bugungi kunda ulug' bobolarimiz Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziyy, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Baxouddin Naqshbandiy, Najmuddin Kubroning insonni ma`naviy etuklikka chorlovchi diniy, ahloqiy va huquqiy xikmatlari qaytadan jaranglay boshladi. Avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning kechmishi, tarixi va xayotini aks ettirgan asarlarning o'z ona tilimizda nashr etilayotganligi quvonchlarimizga quvonch qo'shamoqda. Endilikda o'tmishimizning ko'pgina saxifalari xujjalalar, qo'lyozma materiallari birinchi manbaalar asosida yoritilmogda. Tarixiy xaqiqatlar asl manbaalarga tayanib tiklanyapti. Bularning hammasi tarixiy adolatning buyuk g'alabasi, tantanasidir. Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qaddini rostlayotgan, to'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish. insonni ma`naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o'rni benihoyat kattadir. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma`naviy yuksalish, insonning ahloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir. Insonning ma`naviy-ahloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun mohiyati jihatidan chuqur bo'lib, o'z ichiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. Shularning ichida markaziy o'rni dunyoqarash masalasi egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan insonning dunyoqarashini shakllanitirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dunyoqarash bu kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi xaqidagi, ilmiy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, diniy va xokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olam xaqidagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak atrofdagi narsa va xodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga bilimga ega bo'lsalar ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi. Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning tevarak atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Shundan ko'rinish turibdiki, dunyoqarash insonning voqelikdagiligi o'z o'rni va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'plangan, izoxlangan va baholangan bilimlar majmuasidir. Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilishi va baholashiga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzumidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlар ham kiradi. Kishilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyat, insonning kelib chiqishi, rivojlanishi xaqida tasavvurlar xosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy, falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasi xisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanishni xozirgi vaqtida mustaqil jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifasidir. Falsafiy dunyoqarash narsa va xodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan

bir qatorda u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi, ularni ma'naviy kamol toptirishga yordam beradi.

Falsafiy dunyoqarash kishilarga xos bo'lgan rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi olijanob fazilatlarni. ahloqiy normalar va qoidalarni mujassamlashtiradi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi, turli-tuman xalqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi xaqida ishonech xosil qiladi. Siyosiy madaniyat o'zida xalollik va poklikni, ishechanlik va uzoqni ko'zlab ish tuta bilish fazilatlarini mujassam etgan odamlarning g'oyaviy-siyosiy etukligi, nazariy bilimlarni istiqbirlni yorqin tasavvur etgan xolda amalda qo'llay bilish, kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va maskuraviy muammolarini keng miqyosda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat, aytiglanlardan tashqari, insondagi faollig va tashabbuskorlikni, yuksak ahloqiylik, qat'iy irodalik, xushmuomulalik, ziyraklik. uzoqni ko'ra bilishni o'z ichiga oladi. Mustaqilligimiz olidida turgan muammolarni, milliy istiqlolimizning nazariy masalalarini yuzaki bilishni, ularning tub mohiyatiga tushmaslik va so'zda shunchaki qayd etishni siyosiy ongllilikham, siyosiy madaniyat ham deb bo'lmaydi. Nazariy bilimlar mustaqillikning amaliy masalalari bilan bog'langan, har bir insonning iyomon-e'tiqodiga aylangandagina faoliyatning asosi yuzaga chiqadi. Yuksak siyosiy bilim va madaniyatga, iyomon-e'tiqodga ega bo'lgan inson jamiyatimiz, davlatimiz, xalqimiz va millatimizning eng katta boyligi hisoblanadi. Ajdodlarimizning ma'naviy merosi asosida xalqimiz ma'naviy barkamolligini shakillantirish xususida gap ketganda bu borada olimlarimiz oldida turgan masalalarni ham chetlab o'tib bo'lmaydi.

## Ma'naviyat va tarix

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Elmurod Xoshimov - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Yer yuzidagi oily mayjudot inson o'z aqlini taniganidan boshlab, boshqa jonzotlardan farqli ravishda dastlab jamoa, keyinchalik jamiyat va davlatchilik asosida taraqqiy etib bordi. Insonlar o'zaro va tabiatga nisbatan bo'lgan munosabatlarida turli fikrlar, nazariyalar va nixoyat fanlar vujudga kelib, rivojlanib bordi. Albatta bu rivojlanish turli davrlarda turlicha tarzda yuz berdi. Tanazzul holatlari ham u yoki bu ko'rinishda davom etaverdi. Ammo barcha davrlarda ham insonni insoniyligini saqlab qoladigan, inqirozli va ziddiyatlil vaziyatlarda xam o'zligini unutmay muvaffaqiyat sari mustahkam iroda bilan kurasha oladigan hamda yuksak taraqqiyotga asos bo'ladigan birlamchi omil bu inson manaviyatidir. Inson ma'naviyat orqali tarixni, bugungi kuni va kelajagini tasavvur qilishi, baxolashi va shu asosda o'z xatti-xarakatlarini amalga oshira borib, o'z kelajagi va qolaversa mamlakat kelajagini ma'lum ma'noda belgilab boradi. Ma'naviyatni chuqurroq anglash uchun esa inson tarixni ya'ni o'z ajdodlari tarixi, butun mamlakat tarixi va nihoyat jahon tarixidan ham xabardor

bo'lishi kerak. Zero I. Karimov takidlaganidek: O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi''. O'rganish jarayonida esa bilim bilan fikrlarni farqlash zarus. Qandaydir narsani biladigan kishi bilan qandaydir bir narsani bilaman deb ishonadigan kishi o'rtasidagi farq shundan iboratki, ularning birinchisi haqiqiy va to'gri bilim sifatidagi ayrim bilimni tasdiqlash uchun yetarli asoslarga ega bo'ladi, ikkinchisi esa bunday asoslarga ega bo'lmaydi95.

Eng muhim o'tmishdagi voqe va hodisalarni qiziqish bilan o'rganish va bu jarayonlarga mustaqil, ilmiy asoslangan holda munosabat bildira olish. Qolaversa chiqarilgan xulosalar natijasida bugungi davr voqeligiga ham to'g'ri baho bera olish eng muhim jarayon hisoblanadi. Masalan mamlakat tarixini yaxshi o'rgangan va allomalar hayotiga qiziqish bilan qaragan har qanday yosh avlod vakilini turli xil vayronkor xususiyatga ega bo'lgan ekstremistik g'oyalari ta'siriga tortish amrimahol. Chunki bu shahs o'z vatanida Al-Buxoriy, Att-Termiziyy va Moturidiy kabi buyuk zotlar o'tganini va ular qoldirgan ilmiy meros naqadar buyuk va qadrli ekanini biladi. qolaversa sobiq ittifoq davridagi qataq'onlar va ateitistik tuzum asoratlari hamda mustaqillik yillardagi islohotlar mohiyatini chuqur anglash orqali jahondagi voqealarga ham mustaqil munosabatini bildira oladi. Allomalar merosini o'rganish jarayonida nafaqat ilmiy bilimlarni balki, bir qator ijobjiy fazilatlar jumladan: Amir Temurdan shijoat va bunyodkorlik. Jaloliddin Manguberdidan qahramonlik. Shayh Najmuddin Kubrodan vatanparvarlik. Bahouddin Naqshbanddan so'z va ish birligini o'rgansa. Jadid mutafakkirlaridan esa ilg'or taraqqiy parvar fikrlar va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni mashaqqatli ammo sharafli burch ekanini anglab oладilar. Ajdodlar ma'naviyati yangi avlod ma'naviyati bilan payvand bo'lgandagina taraqqiyot bo'ladi. yuksak ma'naviyat qaror topadi.

XXI asrdagi axborotlar oqimi va globallashuv jarayonlari natijasida ijtimoiy ong o'zgarmoda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar ham yangilanib bormoqda. Bu esa albatta ma'naviy hayotga ta'sir etmoqda. Inson tegishli ravishda tarbiya topganda va chiniqtirilgandagina o'z insoniyligini anglab yetadi. qonunlarga rioya etish va o'zgalarni hurmat qilish hamda barcha zarur ne'matlarga xalol mehnat evaziga erishish lozimligini tushunadi. Natijada mustaqil o'z fikriga ega. insoniy qadriyatlarni va o'z davlatini himoya qiladigan shaxs tarbiyalanadi. Aks holda ma'naviyati sayoz, moddiy boylik oldida har qanday insoniy qadriyatlarni mensimaydigan, uzoqni ko'ra olmaydigan xudbin shahs voyaga etadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim. Bunda esa tarix fanining ahamiyati beqiyos. Qadimgi Rim siyosiy arbobi mashhur Sitseron "Tarix zamonaning haqiqiy guvohi, haqiqatning nuri, xotiraning hayoti, hayot murabbiysi" deganida haq edi. Haqiqatan ushbu fan o'zida qudratli tarbiyaviy ta'sirni mujassamlashtirgan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki tarix fani kishilik jamiyatining rivojlanishi jarayonlarida ro'y bergen voqe. hodisalarni aniq va batatsil davrma-davr, bosqichma-bosqich o'rganadi. Ularning mohiyatini ilmiy ravishda ohib beradi. Bu fanni o'qitish jarayonida tarixiy shahslar, sanalar va raqamlarni o'quvchini qiziqtirish orqali „jonlantirish“ lozim, ya'ni nima uchun

shu voqeal shu yil yoki sanada yuz bermanligini falsafaning sabab va oqibat kategoriyasi yordamida tushuntirib bera olishi zarur. Buning uchun bilim va so'z boyligi zarur albatta. Qolaversa tarixda bunyodkor va vayronkor g'oyalar kurushi va urushlarning dahshatl oqibatlari, turli ixtiro kashfiyotlar hamda ulurning abhamiyati, barcha tarixiy davrlardagi insonlarning bunyodkorlik kuchiga alohida e'tibor berib, adolatli hukmdorlar va ma'rifatparvar allomalar hayotini chiqurroq yoritish zarur. Masalan buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy ijodini yoritishda Amerikalik tarixchi olim J. Sarton uning merosiga eng oily baho berish bilan birga, uning o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholasa, mashhur sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy Beruniy merosiga yuqori baho berib, uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir deb". allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tadi. Beruniy bunday buyuklikka qanday erishgan degan savolga javobni ushbu allomaning quyidagi fikrlaridan topish mumkin: „insonning qadr qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishadi". Yuqoridagi allomaning hayotidan keltirilgan misol yoshlarni mehnatsevarlik va mashaqqatlarga bardosh berish orqali o'z maqsadiga erishish lozimligini uqtiradi. Milliy davlatchilik tarixi va jahon davlatlari tarixini o'rganish natijasida shuni anglash lozimki, xaqiqiy ma'naviy yuksalish, madaniy taraqqiyot uchun xalq mustaqil davlatga ega bo'lishi, qaramlik siquvidan ozod bo'lishi zarurdir. Qaram bo'lib yashagan xalq ma'naviy erkinlikka, taraqqiyotga erisha olmaydi. U o'zligidan, o'z ruhiy qudratidan mahrum bo'ladi. Shunday ekan mustaqillikni qadrlash va o'z milliyligimizni saqlab qolgan holda jahon mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanish darkor. Xalqaro terrorizm va diniy aqidaparastlik kabi illatlarga zarba berishda shuni ta'kidlash kerakki din asrlar mobaynida xalqimizning asriy qadriyati sifatida mustaqillik yillarda vijdon erkinligi e'lon qilindi. Juda ko'p ijobjiy islohotlar amalga oshirildi. Ammo bu imkoniyatlardan boshqa g'arazli maqsaddagi kimsalar foydalanib qolmasligi uchun tarixdagি diniy mutaasiblarning qilmishlari va uning oqibatlari va bu jarayon jaxonda xamon u yoki bu ko'rinishda davom etayotganligini hamda buning uchun qaysidir bir diniy ta'limot emas, balki mutaasiblarning xudbin maqsadlari aybdor ekanligini ko'rsatish zarur. Fan va din esa sobiq ittifoq davridagidek bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmay aksineha, inson madaniyatining turli sohalari sifatida bir-birini to'ldirib, mamlakatni rivojlantirish kabi yagona maqsad yo'lida xizmat qilishi zarur. Xuddi shu ma'noda tarix fani ham bundan mustasno emas. Yuqoridagi ko'rib o'tilganidek ushbu fan keng qamrovli bo'lib, kishilik jamiyatining o'tmish va bugungi kundagi barcha sohalarini qamrab oladi. Faqat ushbu bilimlarga ob'ektivlik asosida yondashib, maxorat bilan yoritib berilsa, yosh avlod dunyoqarashini yanada boyitilishi va o'z navbatida inson ma'naviyatini yuksaltirishda ulkan hissa qo'shadi. Shu o'rinda ma'naviyat qonunlarini bilish o'ta muhim ekanligini eslatib o'tish zarur. Prezident Islom Karimov tomonidan „Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida har tomonlama asoslab berilgan mazkur qonunlar ilma-hil tarzda, turli shakkarda namoyon bo'lsa-da, jamiyatdagи talablar, yashashning qonun qoidalari, inson

umrining mazmuni va hayot mezoni sifatidagi ahamiyatini saqlab qolaveradi. Bu borada ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi, ma'naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi. ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi qonunlari muhim ahamiyatga ega.

Hulosa qilib, Yuksak ma'naviyatni shakllantirish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan hozirgi davrda dolzarb ahamiyatga ega. Ma'naviyat va tarixni o'zaro dialektik aloqadorlik nuqtai-nazaridan ob'ektiv o'rganish va uni turli ijtimoiy guruh vakillarining hamda yosh avlodning dunyoqarashi, manfaatlari va qadriy atlarini o'ziga xos xususiy atlarini xisobga olgan xolda yetkazib bera olish asosiy vazifa hisoblanadi.

## O'zbekistonda dinka bo'lgan munosabat

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Akramjon Boymatov - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dinka bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Axir yaqindagina emasmidi, kommunist, ayniqsa, u yuqoriq lavozimda bo'lsa, o'z yaqin kishilar bilan oxirgi marta vidolashish uchun qabristonga ham borolmasdi. Dafm marosimida ishtirok etish uchun eng katta ayb sanalib, bunday odamni partiyadan o'chirib, ishdan bo'shashishardi. Vijdon azobidan sal bo'lsada qutulish, ayni paytda yillard davomida mehnat qilib erishgan imtiyozlardan mahrum bo'lmaslik uchun odamlar qarindosh urug'lari, hatto ota - onasi vafod etganda kasalxonaga yotib olishar yoki shoshilinch kamandirotkaga ketib qolishar edi. Dinga nisbatan ikkiyuzlamachilik yomon tus oldi. Mustaqillik tufayli O'zbekistonda diniy tashkilotlarning soni va nufuzi tobora o'sib bormoqda. Agar 1990 yilda Respublikamizda 119 ta diniy tashkilot, 2 ta diniy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda 2186 ta diniy tashkilot erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan eng yiriklari O'zbekiston musulmonlar idorasi, Rus provaslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi. To'liq Injil xristianlari cherkovi. O'zbekiston Bibliya jamiyatasi. Shuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yaxudiy ibodatxonasida turli millat va dinlarga mansub fuqarolarning emin-erkin ibodat kilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston diniy bag'rikenglik va murosa borasida nafaqat MDH davlatlari, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Siyosiy mustaqillikka erishgan O'zbekiston davlatida ijtimoiy xayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ta'lim yo'naliشining mazmun-mohiyati ham o'zgardi, davlat tili, an'analar, milliy madaniyatga e'tibor ortdi, bularning xammasi, diniy omil ahamiyatiga davlatning munosabatini o'zgarganligi sabablidir. Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglayotgan, ma'naviy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi sharoitda ota-bobolarimiz dini, imoni, vijdoni bo'lib kelgan bizning mintaqaviy islom dinimiz o'ziga xos

**o'zbekona** tusga ega, ya'ni, o'zbek urf-odatlari, an'analari bilan uyg'unlashib ketg'an. Madaniyatimiz, tariximiz, ahloqimiz, tarbiyamiz qarib ib XIII asrdan beri **islom** dini bilan birlashib ketgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishguch, ko'pgina demokratik davlatlardagi kabi dinning davlat ishlariga aralushmasligi asosidagi dunyoviy rivojlanish yo'li saqlab qolindi. Konstitutsiyamizda har bir fuqaro uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi: har bir inson hohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.-deb tu'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasida 14 konfessiya vakillari yashaydilar. Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi. Asosiy qonunimiz O'zbekiston fuqarosini millati, irqi va dinidan kat'iy nazar teng huquqli deb biladi, shuningdek, ularning vijdon erkinligini, urf-odatlari, milliy an analarini hurmat qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qomusiy qoida 1998 yil 1 may kuni qabul qilingan yangi taxrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi qonunda ham o'z ifodasini topgan. Qonunning 23-moddasida belgilanganidek, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi qonun xujjalarni buzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatidagilar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonun xujjalarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Bu modda qonun oldida barcha bir xil javobgar bo'lishini ta'minlaydi.

Mustaqillik tufayli Ramazon va Qurbon xayiti kunlari bayram va dam olish kunlari deb e'lon qilindi. Sho'ro yillarda har yili bor- yo'g'i 15-20 kishiga xaj safariga borishga ruhsat berilgan bo'lsa. 1991 yildan boshlab har yili 3-3.5 ming O'zbekistonlik fuqarolar ana shu muqaddas safarga bormoqdalar. Sho'ro davridagi 84 o'rniqa, hozirgi davrda 3600 dan ortiq ro'yxatga olingan masjidlar faoliyat ko'rsatmoqda. «Qur'oni Karim» o'zbek tiliga tarjima qilinib 100 ming nusxada nashr etildi. O'nlab, yuzlab diniy mazmundagi kitoblar chop etildi, ro'znama va oy nomalarda, radio va televидение orgali islam tarixi, madaniyati, ahloqi, buyuk muxaddislar, mufassirlar, faqixlar, mutasavvuflarga bag'ishlangan ma'lumotlar e'lon qilinmoqda. islam tarixiga oid ko'p qismli filmlar namoyish qilinmoqda.

Hozirgi paytda mamlakatimiz poytaxtida 1995 yilda tashkil qilingan Xalqaro Islom tadqiqod Markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Islom Oliy mavxadi, madrasalar yoshlarga islomiy va dunyoviy ta'lif bermoqda.

### **Milliy va umuminsoniy qadriyatlar**

*Hurshid Mirzahmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat Universiteti*

*Bekzod Ergashev - talaba*

*Namangan davlat Universiteti*

Kishilar ongida qadriyat turli narsa va hodisalarini taqqoslash orqali shakllanadi. Inson dunyoni anglab olgandagina, dunyoda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisalar, voqealar, o'zgarishlarni tushinib yetgandagina, o'zinинг

hayoti uchun nimalar muhim yoki muhim emasligini, nimalarsiz yashash mumkin yoki mumkin emasligini ajrata oladi. Tabiiyki, har bir inson o'z qadriyatlar dunyosini o'zicha aniqlaydi. Demak, qadriyatlar bu narsalar emas, balki narsalarga, hodisalar va boshqalarga munosabatdir. Qadriyatlar-borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Ko'pgina hollarda kishilar qimmatbaho buyumlarni qadriyat deyishadi. Aslida esa qadriyat so'zining ma'nosi boshqacharoq. Masalan: ming yillar ilgarigi buyumning bahosi arzimas bo'lishi mumkin, negaki, uni hozir ishlatiq bo'lmaydi. Ammo meros sifatida u buyum nihoyatda qadrli, ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan bareha moddiy va ma'naviy madaniyat unsurlari tushuniladi. Qadriyat insoniyat yaratgan va yaratayotgan moddiy va ma'naviy boyliklarning gultojidir. Qadriyatlarning ahamiyati shundaki, ular kishilarning xulq-atvorinin tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Qadriyatlarni madaniyat singari moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ajratish mumkin. Moddiy qadriyatlarga insonlar uchun jismoniy qulayliklar yaratuvchi xo'jalik, texnik, sog'liq, jinsiy juftlik, boylik, qulay maishiy shart-sharoitlar, toza suv, sifatli oziq-ovqat va boshqalarni kiritish mumkin. Ma'naviy qadriyatlarga ilmiy, axloqiy, estetik, diniy, badiiy va boshqa qadriyatlar kiradi. Ayrim qadriyatlar tarixiy, davriy xususiyat kasb etib, davr o'zgarishi bilan o'zgarib borishi mumkin. Shu bilan birga doimiy, universal ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar ham mavjud. Masalan, odamni qahramonlikka, Vatanga sodiqlikka undovechi qadriyatlar, Badiiy, ahloqiy qadriyatlar ham universal qadriyatlar hisoblanadi. Eng yuksak qadriyatlar ezgulik, mehr va muruvvat, mehnat, hayot, muhabbat, adolat, haqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalanadi. Bu ne'matlar shuning uchun qadriyatlar deyiladiki, ularni kishilar o'zлari uchun ahamiyatli bo'lganligi uchun qadriyatlar. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning asrlar davomidagi amaliy faoliyatida shakllanadi va rivojlanadi. Qadriyatlar orasida eng oliysi inson, uning hayotidir. Jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida erkinlik, ozodlik, tenglik barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlardir.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga ham bo'linadi. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning genofondi, tili, turmush tarzi, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari, milliy ongi, moddiy va ma'naviy boyliklari iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha hihatlarida namoyon bo'ladi. O'z milliy qadriyatiga ega bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlarning sohibi muayyan millatdir. Millatning tanazzuli ayni holda milliy qadriyatlarning tanazzuli hamdir. Har bir millat o'z qadriyatlarini yaratuvchisi, asrab-avaylovchisi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Millat siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bo'lib qolganda ham o'z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg'usi yo'qolib ketmaydi, milliy qadriyatları ma'lum darajada saqlanib qoladi. O'zbek xalqining boy, o'ziga xos betakror milliy qadriyatları bor, ular bir necha ming yillar davomida shakllangan. Qadriyatlar dastlab mahalliy mazmunda, ya'ni

**Xorazm**, Surxondaryo, Buxoro, samarqand, Toshkent, Farg'ona va hakazo hujudlarda yashovchi aholiga xos urf-odatlar, rasm-rususmlar, marosimlar va hukuzo tarzda shakllanadi. So'ingra ularning eng muhimlari asrlar davomida surulaniib umummilliy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Mustamlakachilik davrida toptalgan milliy qadriyatlarimiz tiklandi, yangi ma'no-mazmun bilan boyib bormoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar – odamizod uchun, kishilik jamiyatni uchun eng qadrlar bo'lgan narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalarning umumijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalash maqsadida qo'llani-ladigan tushunchadir. Umuminsoniy qadriyatlar kategoriyasining mazmunini to'liq anglab yetish uchun, avvalo, umuminsoniylik tushunchasining ma'nosini bilmox zarur. Umuminsoniylik deganda odamlar uchun umumiyligini bo'lgan mezonlar, ob'ektiv va sub'ektiv holatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar va boshqalar tushuniladi.

Umuminsoniy qadriyatlar deganda umumjamiyat, butun insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'naliishlari, qonun-qoidalari, talab va tartibotlarini, odamlarning eng azaliy orzu umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlar nazarda tutiladi. Butun insoniyat uchun umumiyligini foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil etish, kosmonavtika, kibernetika, axborot texnologiyalari umuminsoniy qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Xulosa qilib, Umuminsoniy qadriyatlarga madaniyat, ma'naviyat, fan, din, san'at, huquq, siyosat, ijtimoiy ong shakkilar bilan bog'liq yatuqlar, kashfiyotlar, yaratilgan boyliklar, ma'naviy kamolotning yo'naliishlari, vositalari kiradi. Inson, uning hayoti, yaxshilik, go'zallik, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik, do'stlik, muhabbat, baxt-saodat, vatanparvarlik va hakazolar umuminsoniy qadriyatlarning eng oliysi, ideal qadriyatlar bo'lib hisoblanadi.

### Jamiyatning ma'naviy hayoti

*Nurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Jahongir Ergashev - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Insoniyat yaratilibdiki u mukammallikka intilib keladi. Bunda ma'naviyatning, bilim va tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki inson bolasi bilim va tarbiya vositasida ulg'ayadi. Agar u bilim olmasa, yaxshi tarbiya topmasa hayotda o'z o'rnini topishi dargumon. Demak, olingan bilim va tarbiyaning inson ongida uy g'unlashib, uning turmush tarziga aylanishi inson ma'naviyatini yuzaga keltiradi. "Ma'naviyat deganda, avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir deb ta'kidlagan edi I. A. Karimov. Shunday qilib, ma'naviyat (arabcha, ma'nolar majmuyi) kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy,

ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuyini tashkil etadi. Ma'naviyat deganda har qanday tabiiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy bilimlarning inson tafakkurida mujassamlashuvi va bu bilimlarning ko'nikma, malaka va hayot tarzlariga aylanib ketishi tushuniladi. Yoki bo'lmasa, ma'naviyat — insonning ruhiyatini, o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyati, aql-zakovati, maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir. Ma'naviyat insonning ongi, tuyg'usi, hissiyoti, bilimi va e'tiqodida mujassamlashgan ruhiy sifat bo'lib, u shaxs kamoloti va barkamolligini belgilab beravehi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Zero fuqarolari ma'naviy barkamol jamiyatgina ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksak cho'qqilarga ko'tariladi. Ma'naviyati yuksak bo'lgan jamiyatda taraqqiyotning o'ziga xosligi yaqqol ko'rindi. Yuksak ma'naviyatning belgisi shuki, unda bilim va ko'nikmalar insoniy qadriyatlar va insoniy axloq bilan uyg'unlashib ketadi. Afsuski, jamiyatda ma'naviy qashshoqlik ham mavjud. Hozirgi kunda oila munosabtni oladigan bo'lasak har xil ajrashishlar oz emas albatta ma'naviy Agar jamiyatda ma'naviy qashshoqlik ustun tursa bunday jamiyat halokatga mahkumdir. Shu munosabat bilan I. A. Karimovning quyidagi so'zlariga e'tiboringizni qaratamiz: "Hozirgi zamondagi eng katta xavf — insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzuksiz davom etayotgan maskuraviy kurashdir. Endilikda yadro may donlarida emas, maskura may donlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim" Ma'naviyatga mazmun jihatdan yaqin keladigan ma'rifat, madaniyat, axloq, tamaddun (sivilizatsiya) tushunchalari mavjud. Ma'naviyat ular orasida umumiyoq mazmun-mohiyatga ega. Garchi bu tushunchalarning har biri ma'naviyat iborasidan ozmi-ko'pmi farq qiladigan muayyan ma'noni anglatsa ham, kengroq nuqtayi nazardan qaraganda, ular ma'naviyat tushunchasi doirasiga kiradi. Inson va jamiyat ma'naviy hayotining rivojlanishida ijtimoiy va individual ongning roli kattadir. Chunki tabiat va jamiyatda yuz berayotgan turli-tuman o'zgarishlar ongda o'z aksini topadi. Kishilar o'z onglariga ta'sir etgan voqealarni nisbatan o'z qarashlarini, fikrlarini ifodalaydilar. Ana shu ifodalash ijtimoiy va individual ong mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Individual ong — muayyan guruh, elat va millatga mansub bo'lgan ayrim kishining ongi bo'lib, jamiyatdagi voqelik va real borliqning alohida olingan shaxsnинг ongida aks etishidir. ijtimoiy ong esa ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, millatlar, davlat yoki, umuman, jamiyatning ijtimoiy yoki tabiiy voqelik haqidagi umumiyligi qarashlarini ifodalaydi. Voqelikni aks ettirish darajasiga ko'ra, ijtimoiy ong kundalik-odatiy va nazariy ongga bo'linadi. Kundalik-odatiy ong hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuyidan iborat bo'lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqealarini aks ettiradi. Nazariy ong deganda nazariyotchilar, olimlar, mutafakkirlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Nazariy ong voqealar mohiyati va rivojlanish qonuniyatlarni aks ettirib, jamiyat taraqqiyotini bilan baravar bo'lishi ham, undan ilgarilab ketishi ham yoki ortda qolishi ham mumkin. Ijtimoiy ong sohalar

(*shurajular*) va turlar (shakllar) bo'yicha tasniflanishi mumkin. Ijtimoiy ong shuklluriga siyosiy ong, huquqiy ong, axloqiy ong, estetik ong, diniy ong, ilmiy ong va shu kabilar kiradi. Sohalar (darajalar) bo'yicha ijtimoiy ong mafkura va ijtimoly psixologiyaga ajratiladi. Ijtimoiy psixologiya muayyan ijtimoiy guruh, xalq yoki millatning odatlari, urflari, an'analari, yashash tarzidan kelib chiqqan psixologik o'ziga xoslklarni, ular hayotining emotsiyonal xususiyatlarini aks ettradi. Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy muhit, kundalik turmush sharoitlari ta'siri ostida vujudga keladi va rivojlanadi. Ijtimoiy psixologiyaning yana bir xususiyati shuki, unda muayyan bir hududdagi sharoitlarda yashayotgan va bir-biriga bevosita ta'sir qiluvchi bir necha elat, millatlarga mansub kishilarning ongidagi o'xhash xususiyatlar ham aks etadi. Bunda ba'zi millat vakillarining yashab turgan joylaridan ko'chib ketishgani, ammo yangi joyda ular ko'pincha o'z millatdoshlari tomonidan tushunilmagani, u yerda chiqishtirilmagani va, nihoyat, ularning yana ilgarigi hududga, mamlakatga qaytib kelganligiga oid ko'plab misollarni kelurish mumkim. Bunga ko'p hollarda ijtimoiy psixologiya xususiyatlari sabab bo'ladi. Ijtimoiy psixologiyadan farqli ravishda mafkura muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istik va maqsad-muddaolarini ifodalovchi g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimini anglatadi. Unda manfaatlari ifodalananayotgan ijtimoiy guruh va qatlamlarning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi o'z ifodasini topadi. Ana shu munosabat bilan Karimov I. quyidagi fikrni aytgan edi: "Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xhash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor." Mafkurada ham ijtimoiy borliq, hayot aks etadi. U ayni holda jamoaviy ishonch shaklini olgan dunyoqarashning bir shaklidir. Mafkura inson hayotining barcha sohalariga ta'sir qiladi hamda unda maqsadga yo'naltirish va tashkiliylik xususiyatlari kuchli darajada yuzaga chiqadi. Taniqli siyosatshunos R. Jumayev o'zining "O'zbekiston Respublikasining siyosiy tizimi: qaror topishi va rivojlanishi" asarida ta'kidlaganidek: "Yangi mafkurani ishlab chiqish va islohotlarni yanada kengaytirish — o'z yo'nalishlariga ko'ra yagona jarayondir... Agar mafkura biror partiya yoki sinfga bog'lanib qolmagan, balki umummilliylar xarakterda bo'lsa, uning manfaatlarni aks ettirish spektri katta bo'ladi, ta'sir qilish diapazoni keng boiadi... insoniy muhitga kirib borish va moslashuv nuqtayi nazaridan u moslashuvchan va harakatchan bo'ladi. Ana shu xususiyatlarni o'ziga jo qilgan mafkurani haqiqiy xalqehil deb hisoblash mumkin." XXI asr bo'sag'asiga kelib jahon taraqqiyotining barcha jabhalarida globallashuv jarayonlari tezlashdi. Shu sababli dunyo taraqqiyoti va ma'naviy omillar uyg'unligi muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda. Ilg'or sikrli ziylolar o'z mamlakatlari tarixini qaytadan nazardan o'tkazib, teran ma'naviy meroslarini tiklash va ko'paytirish, boyitish hamda odamlar qalbiga singdirib, ularni ezzulikka va adolatga yetaklashga harakat qilmoqdalar. Ana shunduy mamlakatlar qatoriga bizning mamlakatimiz ham kiradi

## Axborot tahdidi – davrning dolzarb masalasi

*Qurbanova Shohsanam*

*Filologiya fakulteti O'zbek tili yo'naliши 3-kurs*

*Ilmiy rahbar: A.Qambarov*

Bugungi kunda Davlat va jamiyat hayotiga xavf soluvchi har qanday kuchni bartaraf etish eng ilg'or dolzarb masalalardan biri. Shunday xavflardan biri bu axboriy tahdidlardir. Tahdidlar aslida turliche bo'llishi mumkin: shaxs, jamiyat va davlatga, ichki va tashqi, uzoq va yaqin, katta va kichik, siyosiy va harbiy, iqtisodiy – madaniy, milliy va boshqa tahdidlar. Bular orasida shaxs, jamiyat va davlatga xavf soluvechi axboriy tahdidlar e'tiborlilik va ehtiyojkorlikni talab etadigan jarayondir.

Axborot tahdidi shunday bir universal harakterga egaki, uning bareha boshqa sohalariga jiddiy salbiy ta'sir qilish imkoniyati bor.

Shaxs dunyo qarashiga, jamiyat barqarorligiga, davlat tinchligiga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga va oxir oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, madaniy yuksalishiga ham tasir etadi. Chunki axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi ko'zga ko'rinnmas jarayondir.

Axboriy tahidlarning eng xavfisi – davlat siyosatini ta'minlashga xalaqt berayotganlaridir. Shaxsga salbiy ta'sir tor doiradagi odamlarni qamrab olsa, davlat va jamiyatga tahdid butun bir mamlakat, xalq tinchligini xavf ostiga qo'yadi.

Axborot psixologik xavfsizlikka tahnidning bir manbasi bu insonning o'zidir. Chunki, inson axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi sub'ektdir. Shu bilan birga inson o'ziga berilayotgan axborotni to'liq qaytara olish imkoniyatiga ega emas.

Buning uchun mafkuraviy, axboriy immunitetni shakillantira olinsagina tahdid ta'siridan yiroq bo'lish mumkin.

Hindistonning taniqli, siyosiy arbobi Mahatma Gandhi shunday yozgan edi: "Men o'zimning deraza va eshiklarimni mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki, unga toza havo kirib turishi kerak. Shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bolib, xonadonimni ag'dar –tontar qilib, o'zimni yiqitib tashlashni ham xohlasmayman".

Bu so'zlarni bugungi informatsion hurjlar va turli xil ma'lumotlarning turli yo'llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlari, urf – odatlar, etiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobjiy ta'siri jarayonlari ma'nosida ham qo'llash mumkin.

Zero, dunyoga yuz ochgan, yoshlari dunyo tillarini bermalol egallab, internetdan bermalol foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan O'zbekiston ham yaxshi, ham yomon ta'sirlar, hurujlar mayjudligi sharoitida shaxsning o'zini o'zi psixologik jihatdan salbiy ta'sirlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Durhaqiqat immunitet tushunchasi qarshi tura olish. kurashish ma'nosida axborot so'zi bilan birikib ko'chma ma'noda lisoniy mohiyat kasb etadi.

Axborot tahdidi ta'sirida qolmaslik uchun "G'oyaga qarshi g'oya. fikrga qarshi fikr. jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyiliga asoslangan holda1 axborot immunitetini yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirish darkor.

## Qonun ustivorligi va jamiyat taraqqiyoti

Bahriddin Talapov

t.f.n., dotsenti.

Namangan davlat universiteti  
Milliy g'oya. ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi kafedrasи mudiri

Elyor G'apparov - magistr

Namangan davlat universiteti

Qonunlar doimo jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayot tarzini belgilab beruvchi omil hisoblangan. Davlatning ichki va tashqi siyosatda bajarilishi lozim bo'lган funktsiyalarini o'zida aks ettirgan. Qonun tushunchasiga turlicha yondoshish mumkin. Yuridik adabiyotlarda qonunga shunday ta'rif beriladi: "Qonun mamlakat miqyosidagi olyi yuridik kuchga ega hujjat bo'lib.muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilinadi".<sup>66</sup> Demak, qonun. inson. jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash. rivojlantirish va tartibga solish vositasidir.

Qonunlar davlat huquq tizimining asosini tashkil qiladi. davlatning boshqa hamma organlarining normativ aktlariga nisbatan eng katta yuridik kuchga ega bo'ladi. Qonun uchun uni qabul qilishning alohida tartibi. bir necha bosqichdan iborat maxsus qonun chiqarish jarayoni xosdir. Bu bosqichlar qonunchilik tashabbusi. qonun loyihasining muhokama qilinishi. qabul qilinishi hamda uning e'lon qilinishidan iborat.

"Qonunlar o'zida mujassamlashgan normalarning mohiyati bo'yicha konstitutsiyaviy. to'g'ridan-to'g'ri konstitutsiya talablari asosila qabul qilinadigan (organik) va oddiy qonunlarga bo'linadi. Oddiy qonunlar. o'z navbatida. kodifikatsiya qilingan va joriy qonunlarga bo'linadi. Federativ davlatlarda qonunlar federal va federatsiya sub'ektlari qonunlariga ajratiladi. Ullarning alohida toifasini favqulodda qonunlarlar tashkil etadi".<sup>67</sup> Normativlik qonunning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi. Huquqiy hujjatlarning boshqa shakllari ham normativ bo'lishi mumkin. lekin ular qonunchalik qat'iy kuchga ega bo'lmay. qisqa muddat amal qiladigan yoki huquqni muhofaza etuvchi bo'lishi mumkin. Qonunning normativligi uning bir xildagi qoidani barcha uchun norma. me'yor. mezon darajasiga ko'tarilishidadir. Qonunda

<sup>66</sup> Konstitutsiyaviy huquq(izohli lug'at) Toshkent. "Akademika" 2001

<sup>67</sup> Рузинев Зафар Райимович. Фуқаролар ўзини ўзи башкарни орнагарини тақсиладиги (конституциявий- ўкукий таҳлили). Т. 2016

mustahkamlangan qoida hamma o'xshash hollarda bir xildagi talab sifatida takror-takror amal qiladi. Qonunning normativligi unda ifodalangan davlat irodasining qatl'iyligi, ustunligi va oliylici bilan chambarchas bog'liqligidadir. Aynan shu iordaning imperativ (bo'yundiruvchi) mazmuni Qonun vositasi bilan umumiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydi.

Shu o'rinda qonunga falsafiy jihatdan ham yondoshuv mavjud: "Qonun — narsa va hodisalar o'rtasidagi muhim, zaruriy, barqaror, takrorlanuvchi munosabat. Mazkur munosabat ob'ektiv vogelikka mansub bo'lsa, u vogelik qonunlar deb yuritiladi".<sup>68</sup> Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki qonun mamlakat hayotidagi tartibga soluvechi, boshqaruvechi, jamiyat tarqqiyotini ta'minlab beruvchi muhim kuchdir. Haqli savol tug'iladi. Qonun qanday hollarda o'zining funktsiyalarini mukammal bajara oladi, o'zining tartibga soluvechi, boshqaruvechiliq qudratini namoyon etib mamlakat farovonligini ta'minlashda etakehi kuehga aylanadi? Bu muammo yuzasidan adabiyotlarda juda ko'p fikrlar, yondoshuvlar, nazariyalar mavjud. Biroq fikrlar qanchalik hilma-hil bo'lmasin barehasi bir xulosa atrofida to'htaladi. Ya'ni, qonunlarning kundalik hayotdagi ta'sirini oshirish uchun ularning ustivorligini ta'minlash zarur. Jumladan, buyuk bobokalonimiz A Temuring "Temur tuzuklarida" shunday deyiladi: "Davlatni boshqarish sohasidagi muvaffaqiyatga zarur darajadagi tartib va qonunlarga amal qilish asos bo'lib hizmat qiladi".<sup>69</sup> Bundan ko'rinish turibdiki, qonun ustivorligi barcha davrlarda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan.

Mamalakatimiz istiqloqliga erishgan dastlabki yillardayoq birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qonuniylik va qonun ustivorligi masalasiga kunning muhim mavzusi sifatida e'tibor berildi. Xususan, "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli" asarlarida ilk bora taraqqiyotning "o'zbek modeli" haqida to'htalib o'tiladi. Qonun ustivorligi masalasi mavjud modelning asosini tashkil etuvchi besh tamoyildan bira sifatida amaliy va nazariy jihatdan asoslab berilar ekan, birinchi Prezidentimiz tomonidan shunday fikr bildirildi: "Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustivor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi".<sup>70</sup> Darxaqiqat, huquqqiy demokratik davlat qurishni niyat qilgan xar qanday davlatda birinchi navbatda qonunlar ustivorligi ta'minlanishi lozim. "Qonun ustivorligi demokratiyanı rivojlantirish va mustahkamlashning muxim sharti hisoblanadi".<sup>71</sup>

Qonunlar ustivorligi va ularning ijrosi haqida fikr yuritar ekanmiz, qonunga bo'yinsh muammosiga ham alohida to'htalib o'tish lozim. Chunki huquqiy davlat faqat qonun yaratmaydi, balki uning o'zi ham shu qonunga bo'ysunadi va qonunga muvofiq ishlaydi. Bu borada buyuk yunon olimi Platon shunday deydi: "Qonun hech qanday kuchga ega bo'lмаган давлат тез ваqt ichida halok

<sup>68</sup> Mamiatov N. Hojiboyeva A. Falsafa. T. 2006

<sup>69</sup> Temur tuzuklari. Toshkent. 1995.

<sup>70</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak san. Toshkent. O'zbekiston. 1999.

<sup>71</sup> O.Karimova, Z. G'afforov. Davlet va huquq asoslari. O'qituvchi. 1995.

bo'lishini ko'rib turibman".<sup>102</sup> Shu mavzu yuzasidan birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tamiz: "Biz har kim va har bir narsa qonunga bo'y sunishi lozim bo'lgan huquqiy davlat qurmoqchimiz. Bizning jumiyatda qonun boshqaruvining asosiy va ko'p qirrali vositasiga aylanishi zarur".<sup>103</sup> Mamlakatimizdagi qonunchilik va uning real hayotdagi ijrosi haqida fikr bildirar ekan mashhur siyosatchi olim L.Levetin shunday deydi: "Qonunlarning hayot bilan hamnafas bo'lishi bu juda muhim jihatdir. O'zbekistonda bu borada juda ko'p ishlar amalga oshirildi va buning samarasini bugungi kunda butun dunyo ko'rib turibdi. Buning asosiy sababi Konstitutsiyaning tegishli qoidalari va ular asosida qabul qilingan qonunlar bilan real hayot o'rtasida tafovutning yo'qligidir".<sup>104</sup>

Darxaqiqat. mustaqilligimizning taraqqiyot yillarda Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat. kuchli fuqarolik jamiyat. erkin bozor munosabatlari va hususiy mulk ustivorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish. xalqimiz uchun tinch. obod va farovon hayot barpo etish. yurtimizning xalqaro maydonda o'zining munosib o'rniqa ega bo'lismida mustahkam poydevor bo'lib hizmat qilmoqda. Asosiy qonunimiz fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi bo'lgan nodavlat – notijorat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning shakllanishi. ularning erkin faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Saylov tizimining asosiy tamoyil va qoidalarini mustahkamladi. Xalqaro hujjalalar talablariga mos holda. inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari. siyosiy. iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab. insonning ma'nnaviy kamol topishi va har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart- sharoitlarni yaratdi.

O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijasiga qarab xulosa qilib aytadigan bo'sak. bosh Qomusimiz to'liq adolatlilik va insonparvarlik g'oyalariiga uyg'un ekanligiga ishonch xosil qilamiz.

Biroq. Konstitutsiyamiz asosida qabul qilingan qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri etarlicha sezilmayotgani. ularning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligini ham e'tirof etmoq zarur. Bu narsa qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun mohiyati xalqimiz ongiga etarlicha etib bormayotgani. oqibatda qonun buzilish xolatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoida. Fuqarolik jamiyat qurish sari odimlar ekanmiz bu yo'ldagi eng muhim jihat qonun ustivorligi. ya'ni. qonunni hurmat qilish va uning ijrosi hisoblanadi. "Nima uchun biz qonun ustivorligiga katta e'tibor bermoqdamiz? Buning sababi shundaki, qonunchilik davlatning kuch-qudratini. uning xalq xohish irodasiga tayanib ish olib borishini ko'rsatadi".<sup>105</sup> Shu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning yana bir fikrlarini keltirib o'tamiz: "Qonun, yana bir bor qonun- katta-yu kichik. jinsidan. millatidan. e'tiqodidan va mansabidan qat'iy nazar. - barchamiz uchun

<sup>102</sup> N.Mamatov A.Hojiboyeva Falsafa Toshkent 2006.

<sup>103</sup> Karimov.I.A.Toshkent. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolming asosov tamoyillari Toshkent. "O'zbekiston" 1995-yil

<sup>104</sup> L.Levetin. O'zbekiston tub burilish pallasida. Toshkent O'zbekiston 2001

<sup>105</sup> Karimov.I.A. Bizning bosh maqasadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash. mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent "O'zbekiston" 2005

ustivor bo'lmoq'i darkor! <sup>167</sup> ». Darxaqiqat, qonunlar ijrosining sustligi yoki jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarga bo'lgan ta'sirining pastligi mamlakatda fuqarolarning ishonechsizligini keltirib chiqarishi mumkin.

Shu o'rinda xaqli bir savol tug'iladi. Qonunlar ijrosi darajasini yaxshilash, ularni mamlakat hayotida ro'y berayotgan vogeliklarga nisbatan ta'sirini kuehaytirish uchun qanday yo'l tutmoq kerak? Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovardir: "Asosiy masala – qonunlarning mazmun- mohiyatini xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida etkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iborat" <sup>168</sup>.

Qonunlarning mazmun – mohiyatini xalqimiz ongiga etkazishda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi. Milliy axborot agentligi va ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Qabul qilingan qonunlar televidiniy a orqali bevosita jonli muloqatda muhokama qilish, tahliliy jarayonlarning xulosalarini matbuotda chop etib borish lozim. Va shu bilan birga yangi qabul qilingan qonunlar yuzasidan fuqarolarning ham fikr-mulohazalarini tinglash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, joriy etilgan qonun doirasida faoliyat olib borayotgan fuqarolarning takliflari shu qonunning islohotlar samarasiga uyg'unligi va ta'sirini oshiradi.

Qonunlar ijrosini to'g'ri tashkil etish va qonun talablariga amal qilishni ta'minlash masalasi bu boradagi faoliyat olib borayotgan mas'ul shaxslarga va shu bilan bir qatorda mamlakatimiz fuqarolariga ham birdek tegishli vazifadir. Asosiy maqsadimiz bo'lgan fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi muhim shartlardan biri qonun ustivorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu xolat fuqarolar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatning qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Shu masala yuzasidan yuridika fanlari nomzodi Sh. Niyozova o'z tadqiqotlaridan kelib chiqqan xolda quyidagi fikri bildiradi: "Xar bir inson o'z ixtisosligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan bir qatorda huquqiy bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Chunki qanday ishga qo'l urmaylik, qaerga bormaylik, ma'lum qonun-qoidalarga, huquq normalariga duch kelamiz va huquqiy bilimga ehtiyoj sezamiz" <sup>169</sup>. Albatta, istiqlolga erishilgan dastlabki kunlardanoq O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirish masalasi eng ustivor vazifalardan biri ekanligi ta'kidlangan edi. Va bu yo'lida samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda fuqarolarning huquqiy savodxonligi sezilarli ravishda o'sgan. Endilikda bu islohotlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu bois qabul qilingan qonunlarning ijrosi yuzasidan davlat organlari va mas'ul shaxslar islohotlarni amalga oshirayotgan bir paytda biz fuqarolar ham bu jarayonga loqayd bo'lmasligimiz, xar bir vaziyatga, jixatga o'z fikr va mulohazalarimizni bildirish orqali hissamizni qo'shishimiz shart.

Karimov I. A. Biz kelajagimiz o'z qo'llimiz bilan quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 1998

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag ishlangan ma'reza. - 7.12.2016-y.

Niyozova Sh.G.Xuquqshunoslik. Toshkent: Adolat. 2005

Respublikamizda qonunlar ijrosini ta'minlashda fuqarolarning rolini oshirish va ularning huquqiy madaniyatini rioxjlanтирish maqsadida bugunga kelib bir qator yangi qadamlar qo'yildi. Fuqarolar murojaatlari uchun Bosh vazir virtual qabulxonasining ochilishi, tuman, shaxar, viloyat markazlarida fuqarolar uchun qabulxonalarining tashkil etilishi shu jumladandir. Xulosa qilib aytganda, qonunlar ijrosining ta'minlanishi birinchi navbatda qonunbuzarlik xolatlarining keskin kamayishi uchun xizmat qiladi. Bu xolat turli norozilik va nizolar, siyosiy bo'xronlar hamda iqtisodiy talofatlarning yuzaga kelmasligining kafolati hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, qonunlar ijrosining ta'minlanishi mam'lakatimiz taraqqiyotining va ertangi kunimiz farovonligining garovidir.

### Madaniy taraqqiyotda qadriyatlarning o'rni

*Ibragimova Xanifa*

#### *Farg'onan birinchi tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Tarixdan ma'lumki yurtimiz bir necha bor bosqinchilar zulmi ostida qolgan. Biroq, ona Vatanga muhabbat, ma'naviy va madaniy ildizlari barkamol tamaddun, asrlar osha yashab kelgan milliy qadriyatlarimiz. Vatanimizni hurlikka ozodlik va obodlikka olib chiqishda asosiy mezon bo'lgan.

Sababi, bosqinchilar eng avvalo xalqni ming yillar davomida oziq olib kelgan millatni millat sifatida shakllantirgan o'z qadriyatlaridan, o'z tarixidan mosuvo qilmoqni istagandilar. Chunki, o'tmishini, o'zligini unutgan xalq bugunini ham unutishini ular juda yaxshi bilardilar. Shu o'rinda atoqli adib Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanidagi manqurt obrazini eslash kifoya. Zo'rlik bilan o'tmish xotirasni yo'qotilgan yigit, zolimlar nima desa qosh qoqmaydigan, hattoki onasiga o'q uzishga qodir manqurt odamga aylanadi. Garchi, bu rivoyat tarzida keltirilgan bo'lsada, bunda hayot haqiqati mujassamdir.

Shu bois, mustaqilligimizning ilk yillaridanoq asriy merosimiz – xalqimiz ma'naviyati va ma'rifiy an'analarini tiklashga jiddiy e'tibor qaratildi.

Avvalambor, ma'naviyat tushunchasi juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni har kim o'z dunyoqarashi, bilim va tajribasidan kelib chiqqan holda turlicha talqin qilishi mumkinligini, inkor eta olmaymiz. Biroq, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Ma'naviyat» tushunchasining mazmuni faqat «ma'ni», «ma'no» so'zleri bilan cheklanib qolmaydi. Nega deganda insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha shaxs, u yashayotgan jamiyat hayotida muhim o'rin tutishini unutmasligimiz kerak.

Milliy va ma'naviy tarbiyani shakllantirish bugungi kunda mustaqil davlat qurib, uning rivojlanishi uchun kamarbasta bo'layotgan shaxslarning, butun jamiyatimizning ko'zlagan oliy maqsadlaridan kelib chiqadi. Buning uchun biz avvalambor, milliy g'oya haqida tushunchaga ega bo'lishimiz kerak.

Bugungi istiqlol farzandlari maktabgacha bo'lgan muassasalarda O'zbekiston madhiyasini, bayrog'ini, gerbini bilishlari, ularni e'zozlash ruhidagi tarbiyalanayotganlari, ulug' xalqimizning vakillari ekanidan faxr-iftixon

tuyg'ularini tuyayotganlari quvonarlidir, albatta. Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzyviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson. ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarni bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat, deganlarida Yurtboshimiz ming bora haqdirlar.

Milliy ma'naviyat, avvalo, **tarixiy hodisadir**. O'rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ular bosib o'tgan necha ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir. Biz bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz nazariyasini yaratish uchun avvalo uning tarixiy takomilini batafsil ko'zdan keehirib chiqishimiz kerak bo'ladi. Ayni shu masala bilan shug'ullanuvechi fan "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi" bo'lib, uning asosiy mavzu doirasi - mustaqil O'zbekiston uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan milliy ma'naviyatimizning takomil tarixi, asosiy qadriyatlar, shakllanish yo'llari xususidagi milliy ma'naviy merosimiz an'analariga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar tizimidan iborat.

Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, "progressiv-reaktsion" atalmish zo'raki qoliplarga tifqishtirilmasdan tikelana boshladi. Qur'oni karim, hadisi shariflar birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa "sovet davrida" hatto nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo'liga yetib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari - Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileyлari millatimizning ruhida poklanish tuyg'ularini uyg'otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temuring ulug' vor mujassamasi o'rnatilishi o'zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o'chmas yog'du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma'rifat, adolat, hurriyat sari yetaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o'tin ola boshladi. "Bosmachi" deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o'z qadrlariga loyiq baholandilar.

Mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy ma'naviyat hayotda asli mayjud emas, jahon madaniyati turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlar majmuidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo'lmasin, baribir, uni muayyan insonlar tashkil etadi. Insonlarning har biri o'z qiyofasi, o'z fe'l-atvori, fikr-andishalari, o'z hayot yo'li va orzu-niyatlari ega. Ammo ularning barchasi Alloh yaratgan mahluqotning bir toifasi - bani odamga mansub bo'lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muayyan qadriyatlar majmui ham mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ko'r-ko'rona inkor etilishi, tan-

**o'llinmasligi** butun bashariyat uchun halokatli bo'lishi mumkinligini jahon tarixi **tajribasi** ko'p marta isbotlagan.

## **Millatlararo munosabatlarning etnik va ijtimoiy omillari**

**Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi**

*Namangan davlat universiteti*

**Janoshidbek Yunusov - talaba**

*Namangan davlat universiteti*

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarni yangi bosqichiga chiqdi. Jamiyat a'zolari ong tafakkurida kechayotgan o'zgarishlar hum millatlararo bag'rikenglik muhitida shakllanib. o'zbek diyorida yashayotgan har qaysi millat vakilini shu yagona vatan mansaati uchun birlashishga chorlamoqda.

Ma'lumki, ko'p millatli mamlakatda millatlararo munosabatlardan do'stona ruhda kechmas ekan. u mamlakatda hech qachon tinchlik kafoletlanmagan bo'ladi. Ayniqa. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishilgandan so'ng milliy o'zlikni anglash masalasi va uni shakllantirish milliy ma'naviyatni hal qiluvchi masalalaridan biriga aylandi. Milliy o'zlikni anglash esa o'zga millatlarga o'ziga xos xurmat ko'rsatish bilan bir maromda shakllanmoqda. Negaki, o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishdan-da muhimroq masalalardan biri bu yurtimizdag'i o'zga xalqlarning etnik shakllanishi jarayoni va uning yurtimizdag'i millatlararo munosabatlarning ijtimoiy va etnik omillarini aniqlashdagi o'rnidir.

Qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruqlar, el-elatlar o'z ulushini qo'shgan. Bu – tabiiy hol. Chunki, hech qachon, hech qaerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo'lmaydi. Xar qanday tsivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining maxsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmarchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixinining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz"<sup>109</sup>. Darhaqiqat, yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy soha olimlarining oldidagi eng muhim masalalardan biri bu mamlakatimizda millatlararo munosabatlarning etnik omillarini aniqlash va yurtimizda millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilashning ilmiy-amaliy yechimlarini topishdan iboratdir.

Hozirgi vaqtida Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni saqlab turish jarayonida etnik va millatlararo omillarning ahamiyati ortib borayotganligi bir qancha g'oyat muhim jihatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Bu omillar quyidagilar bilan izohlanadi:

<sup>109</sup> Каримов И. Биз келажагимизни ўз кўдимиз билан курахиз - Ташкент: Узбекистон, 1999. 7 том. № 111

Birinechidan, tarkib topgan davlat chegaralarini, ularning daxlsiziigini tan olish har bir davlat tashqi siyosatining konstitutsiyaviy qoidasi, suverenitetni ta'minlashning hamda siyosiy va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashning asosiy sharti bo'lmog'i lozim.

Ikkinchidan, mintaqadagi xalqlar milliy o'zligini anglashining rivojlanishi 1991-yildan keyin orqaga qaytmaydigan progressiv jarayon tusini oldi. Ularning ko'plari millat sifatida uzil-kesil shakllandi. Bu millatlararo munosabatlar jarayonida juda muhimdir.

Uchinchidan, mintaqada yashayotgan xalqlarning jo'g'rosiy, etnomadaniy va ijtimoiy-diniy yaqinligi millatlararo muloqot va davlatlararo tashqi-siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarning ijobjiy jihatni sifatida maydonga chiqmoqda.

To'rtinchidan, xususan O'zbekistonda "Turkiston-umumiyligi" harakati doirasida amalga oshirilayotgan etnik siyosat o'zining yo'naliishi va mazmuniga ke'ra insonparvar, konstruktiv jarayondir. Chunki u mintaqada millatlararo totuvlikka erishish maqsadini ko'zlaydi. Shubhasiz, bu siyosat Markaziy Osiyodagi barcha davatlarning asosiy davlat strategik va milliy manfaatlariga to'la-to'kis mos tushadi. Zotan, "Turkiston" deganda azaldan faqat kelib chiqishi turkiy bo'lgan xalqlargina emas, balki o'lkaning hamma aholisi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, mintaqadagi integratsiya jarayonlari ham barcha xalqlar va butun ko'p millatli aholining davlat va milliy manfaatlarini eng maqbul darajada uyg'unlashtirishga asoslangan holda rivojlanishi darkor.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning bir xalqini boshqasiga qarama-qarshi qo'yish, milliy ustunlik mavjudligi to'g'risidagi afsonalarni tarqatish yo'llidagi har qanday urinishlarning oldini olish lozim.

Markaziy Osiyo davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islehotlarning mazmuni va sur'atlaridagi ayrim farqlar ham millatlar va elatlar o'rtaсидаги о'заро муносабатларга салбиј та'sir ko'rsatishi mumkinligi o'z-o'zidan ayon. Bu hol etnik siyosatni yetarli darajada puxta o'ylab amalga oshirishni talab qiladi. Shunisi quvonarlik, mintaqadagi hamma davlatlar millatidan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlarini ta'minlash hamda bu mamlakatlarda yashayotgan xalqlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan o'zaro majburiyatlar olgan.

Zero, O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni xisoblangan Konstitutsiyaning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va ellatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'mintaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"<sup>110</sup>-deb belgilab qo'yilishining o'zi O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash istiqbollarining kafolatidir.

<sup>110</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси - Тошкент: Узбекистон, 2015.-Б.5.

## **Ta'llim muassasalarida madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning ayrim masalalari**

**Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi**

*Namangan davlat universiteti*

**Nilufar Ziyamova - talaba**

*Namangan davlat universiteti*

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi o'rni, mavqeい, ahamiyatini belgilovchi ijtimoiy omillardan biri bu ma'naviyatdir. Bu o'zbek davlatchiligining uch ming yillik tarixidagi taraqqiyot tajribasida tasdiqlangan va shu sababli milliy mustaqillikning ilk yillardayoq ma'naviy qadriyatlari masalasi, ularni tiklash istiqlol davrinining dolzarb ehtiyojiga aylandi.

Keng ijtimoiy ma'nodagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni alohida xususiyatlarga ega. Tafakkuri, e'tiqodi, qarash va munosabatlarni boyitish, yangilash, eski tuzumdan qolgan zararli ma'skura asoratlaridan poklash kabi vazifalarga yo'naltiriladi.

Ta'llim muassasalarida esa tarbiya ob'ekti alohida xususiyatlarga ega. Ular-ijtimoiy munosabatlarga endi kirishayotgan, tabiat, jamiatga, Vatanga, tarixa, o'z-o'ziga munosabatlari to'liq anglanmagan bolalardir. Shu sababli ta'llim muassasalarida «ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimi» ni jamiy atdag'i tarbiyaviy ishlarni tizimining g'oy aviy mutanosib holda tushunish mumkin.

1996-yilning oxirlariga kelib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida» Farmoni e'lon qilindi. Buning sababi – «... hanuz joylarda ma'naviyatning mohiyatini uning olg'a siljishimiz farovon jamiatga tezroq yetishimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik hollari mayjud»ligi. Ayrim katta-kichik rahbarlar eski mustabidlik, zo'ravonlik ma'skurasining sarqitlardan haligacha qutula olmay, bu borada kechirib bo'lmaydigan oqsoqlik tufayli ma'naviyatning asl mohiyatini tushunib yetmasdan unga ikkinchi darajali ish sifatida qaramoqdalar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bo'lgan bunday e'tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro'yobi uchun mutlago zid ekanligi Farmonda maxsus qayd etilgan. Farmonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo'nalishi deb hisoblanishi ta'kidlandi va ma'naviy – ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirishning yo'nalishi belgilab berildi.

Pedagogika fanlari doktori S. Nishonova ma'naviy – axloqiy tarbiya jarayoniga: insонparvarlik, adolatlilik, vatanparvarlik, e'tiqodlilik, vijdoniylilik, sabrlilik, andishalik, do'stlik, hurmat, samimiylik, milliy g'urur, nazokatlilik, xushmuomalalik, rostgo'ylik, tavoze'. muammolarni mustaqil hal qila olish va boshqalarni kiritadi. Bu fazilatlarni shakllantirishda pand-nasihatlar, o'git, e'tiqodni shakllantirish, qiyoslash, suhbat, bahs, maslahat, ma'ruza, tajriba-tadqiqot, namuna ko'rsatish, tushuntirish, majbur qilish, rag'batlantirish, jazolash va boshqa uslublar turkumini taklif qiladi.<sup>111</sup>

Pedagogika fanlari doktori M.Quronov tomonidan ishlarni chiqilgan, o'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari, ko'rsatgichlari, darajalari va

<sup>111</sup> Нишонова С. Воспитание совершенного человека развитии педагогической мысли в Азии и Центральной Азии. Восток: - Автореф. дисс.. доктора пед. наук. - Т.: 1998. - С. 38.

fazilatlarini o'lchashning uch qatlamlı o'lchov tizimi qiziqish uyg'otadi. Chunki. olim tadqiqotida shaxsnинг tabiiy milliy tuyg'usiga bevosita va bilvosita bog'lanuvchi fazilatlar: O'zbekiston vatanparvarligi, milliy g'ururlik, millatlararo muloqot madaniyatni, vijdoniylilik, milliy odob va milliy mafkurariviy onglilikni uyg'un shakllantirishda ilmiy va halq pedagogikasining amaliy birligidan kelib chiqib yondashadi.<sup>112</sup>

Ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliy-pedagogik maqsadi – bu ta'lim yoshidagi bolalarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar natijasi bolaning ma'naviy madaniyatni va uning tarkibiy qismlariga pedagogik ta'sirining samarali yetib borishiga bog'liq. Ushbu pedagogik shart-sharoitni ta'minlash maqsadida muammoni o'rganish va tahlil qilishda biz pedagogika fanlari doktori O.Musurmonova tomonidan ishlab chiqilgan o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning yangi metodologik yondashuvidan kelib chiqadi. Unga ko'ra, shaxsnинг ichki ma'naviy dunyosi ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy qiziqish, ma'naviy faoliyat va ma'naviy qadriyat kabi asosiy tarkibiy qismlar tizimidan iborat.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning pirovard natijasi bolalarda ma'naviy madaniyat asoslarini shakllantirishdir. Bu esa maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan tarbiyaviy, psixologik shart-sharoitning ta'minlanishiga bog'liqdir.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda Mamlakatimizda bo'layotgan bunyodkorlik ishlarida Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbuskori sifatida barkamol avlod tarbiyasi jarayonida o'z shaxsini namunasi va faoliyati bilan har bir inson uchun ibrat ko'rsatdi. Shu sababdan davlatimiz inson omiliga muntazam e'tibor bermoqda. Chunki yoshlar buyuk va bunyodkor halqning bugungi avlodidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'zning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, - "...zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati bemisil ilmiy ijodiy kashfiyotlari bugun ham johon ahlini hayratga solayotganin g'urur bilan ta'kidlash lozim"<sup>113</sup> Shu ma'noda o'z haq-huquqini taniyidigan, kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda tasavvur etadigan erkin shaxsni shakllantirish uehun bareha zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ta'lim tizimida bu ish dialektik uyg'unlikda olib boriladi. Ya'ni o'quvchi yoshlarni ahloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiyalash, ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Ayni paytda bu bolaning yoshi, qabul qilish darajasi, dunyoqarashi va hatto ruhiy holatini hisobga olgan holda olib boriladi.

<sup>112</sup> Куровов М. Научно-педагогические основы национального воспитания в общеобразовательных школах Узбекистана: - Автореф дисс. доктора пед. наук. - Т.: 1998 - С. 40.

<sup>113</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat. 2008. -B. 89.

Xulosa qilib aytganda, komil inson tarbiyasini bugun ma'naviy-ma'rifiy ishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini yuksaltarish mana ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bosh maqsadidir. Mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimida amalgam oshirilayotgan ulkan islohotlar esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning yangicha usullariga ehtiyojni yuzaga keltiradi.

### Ma'naviyat tushunchasining talqini

*Abdurahimova Nodiraxon Maribovna  
Farg'ona birinchi tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Mamlakatimizda mustaqillik tufayli ma'naviyat, ma'naviy meros va qadriyatlar masalasiga yangicha yondashuv shakklandi.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, xalqimizning ma'naviy ruhini, davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, rivojlantirish, jamiyatimizni yanada ravnaq topishiga erishishda ma'naviyatning va qadriyatlarimizning ahamiyati beqiyos ekanligi namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonning mustaqillik yillardagi rivojlanishi davrida ma'naviyat va qadriatlarni tiklash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizning iqtisodiy ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi kabi ma'naviy sohasida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'lli" nomli asarida shunday fikr bildiradi: "Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish-O'zbekistonda davlat va jamiyatning muxim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan yetilgan".

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimiz uchun o'z xaqqoniylarini, tilini va ma'naviyatini chuqur o'rganishga hamda yanada rivojlantirishga shu bilan birga qadriyatlarni tiklashga va yanada tarkib toptirishga keng imkoniyatlar yaratildi. Jamiyatning mustaqillik yillardagi taraqqiyoti jarayonida juda ko'p tub o'zgarishlarni, ijtimoiy hodisalarini boshidan kechirmoqda. Ana shu o'zgarishlar va hodisalarining mohiyatini anglash, tahlil qilish, ulardan to'g'ri xulosa chiqarish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Ayniqsa jamiyatimizning ma'naviy sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar uning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy sohalaridagi kabi muhim ahamiyatiga ega. Shuning uchun jamiyatimizning rivojlanishi jarayoni va undagi amalga oshirilayotgan tub islohatlarning yo'nalishlarini, ahamiyatini to'g'ri va to'liq izohlashda "ma'naviyat" tushunchasining mohiyatiga alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi.

Mavjud ilmiy-falsafiy, siyosiy, badiiy adabiyotlarda "ma'naviyat" tushunchasi turli yondashuvlar asosida ta'riflanadi. Bu bejis emas albatta

<sup>1</sup> Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'lli" // T: "O'zbekiston", 1991, № 5-6.

Chunki "ma'naviyat" ko'p qirrali keng ma'noni anglatuvchi va u turli shakllarda namoyon bo'lish xususiyatiga ega.

Ma'naviyat tushunchasining mazmuni va mohiyati haqidagi tikrlarni "ma'naviyat" atamasining izohlanishidan boshlash maqsadga muvofiqdir. "Ma'naviyat" so'zining o'zagini "ma'no" tashkil etadi, bu so'z o'rniida "ma'ni" ham ishlatalidi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ma'naviyat insonni inson, millatni millat qilib turgan fazilatlarning majmui deb ta'riflaydi.

Ma'naviyat tushunchasi juda murakkab, serqirrali va keng ma'noni anglatadigan tushuncha bo'lganligi uchun unga berilgan ta'riflar va izohlar ham juda turlicha, rang-barangdir.

Masalan, "ma'naviyat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif mavjud: "Ma'naviyat" arabcha so'z bo'lib, "ma'no" se'lidan olingan ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g'amxo'rlik, qayg'urish, did kabi bir qancha ma'nolarni anglatadi<sup>1</sup>.

Ushbu ta'rifga ko'ra "ma'naviyat" umumiy tushuncha bo'lishi bilan birga u aniq hayotiy shart-sharoitlarda "faoliyat ko'rsatuvchi" va aniq shaxslarning xatti-harakatlarini ifodalovchi tushunchadir deb aytish mumkin.

Ma'naviyat milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati mavzusi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalarining tahlili asosida quyidagi xulosalarni tavsiya etamiz:

1. Ma'naviyat va qadriyatlar inson va jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan o'tmishida va hozirgi davrda hamda kelajakda ijtimoiy taraqqiyotga ijtimoiy ta'sir etadigan kishilar ongiga singib, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy ne'matlardir. Tarixiy tajriba an'analarining ma'naviy meros bo'lib o'tishi yangi avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

2. Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari o'z milliy qadriyatlarini e'zozlash, avaylab-asrash va yanada rivojlantirishga e'tiborni yanada kuchaytirishlari zarur.

3. Ma'naviyat va qadriyatlar o'tmishi bilan bugungi kunni va kelajakni bog'lab turuvechi muxim vositadir. Faqat bilimli, har tomonlama kamol topgan yoshlar xalq ma'naviyatini, milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

4. Ma'naviyat va milliy qadriyatlar yoshlarni ma'naviy yetuk, barkamol avlod qilib tarbiyalashda qudratli kuch hisoblanadi.

5. Ma'naviyat va qadriyatlar masalalari insoniyat tarixida eng qadimiy masalalardan bo'lishi bilan birga, hozirgi davrda dolzarbliji, ijtimoiy ahamiyati o'ta yuksakligi har tomonlama namoyon bo'lmoqda.

Yana shu narsani alohida ta'kidlash joizki, ma'naviyat va milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgandagina jamiyatning rivojlanishida hamda yangi demokratik jamiyat barpo etishda katta ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> «Milliy tiklash» gazetası, 1996 yil 12 noyabr.

# Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari

*Manzura Abdullayeva,  
NamDU filologiya fakulteti  
o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs  
talabasi*

*Ilmiy rahbar: Abdullaev  
Shuhrat,*

*NamDU o'qituvchisi*

Badiiy ijod olami qanchalar go'zal, sehrli va mastunkor bo'lsa, shu qadar mashaqatlidir. Axir uning uchun nima kerak? Pokizalik, nekbinlik, chuqur idroku donishmandlik zarralari bo'limg'i lozim. Kishi mana shularni o'zida mujassamlashtira olsa, hatto ruhiyat ranglarinida tasavvur eta oladi. Umrasfollarini hech bir qiyinchiliksiz ajratadi, o'zgalarga ma'lum bo'limgan teran nuktalarni ilg'aydi. So'ngra yurak qo'rida toblangan siyoh bilan go'yo oq harir matolarni turfa ranglarda olovlanТИrib yuboradi. Zero:

Ijod - boldek iztirobler tug'ilgan ilohiy dam, subhidam yer bag'ini yuvgan shabnamdek pokiza tuyg'ular tomehilaridir.

Ijod - umidvor ko'ngillar, tug'yonli tuyg'ular, yomg'irlanish orzusidagi bulutlardir. U tabiat muvozanatini ko'ksida tutib turguvchi go'zallik. Insoniyat kechmishlaridan olingan ibratona lavha. U orqali go'yo baxtlilar baxtsizlikni, baxtsizlar esa baxtni ko'ra oladi, g'amginlar quvonchni tuyadi, oromsizlar oromlanadi, yolg'izlar o'z yo'l dildoshini, dildoshini topadi. Ijod - janatning jannatlik sirlarini yetkazadi odamlarga.

Ijod - bu qalb tug'yonida tug'ilib, tafakkur olamida yo'rgaklanadi. Insoniy kamolot uchun, ma'naviy yuksalish uchun, harakatlar faoliigi uchun xizmat qiladi. U garchi, yakka qalbu ongning yaratig'i bo'lsa-da, butun jamiyat a'zolari mulkiga aylanadi. Ibtidosi individuallika xos esada, intihosi ommaviylik kasb etadi. Hayot falsafasi, yashash falsafasi sifatida namoyonlanadi. Chunki, unda donishmandlik bilan bashoratgo'ylik aksariyat hollarda uyg'unlashib ketadi. Bugunning bag'ida turib, ertaning hayotiy hayollari olamiga o'qiganni beixtiyor yetaklaydi. Mushohadalar ummoniga sho'ng'itib, uning tubidan fikr javohirlarini terdirtiradi. Uzoqni ko'ra bilishdek tafakkur olamining ma'no cho'qillarini zabt etishga undaydi.

Menimcha, milliy g'oya ezgu maqsadlarga yetkazuvchi eng to'g'ri, eng ravon, eng nurli yo'l bo'lsa, falsafa ana shu yo'lni go'yo yelkasida ko'tarib turuvchi zamindir. Mustahkam zamin ustiga qo'yilgan yo'l esa, hech qachon buzilmaydi. Uzoq yillar insoniyatga, uning istiqboliga yaroqlilik darajasini saqlab turaveradi.

O'zbek xalqining buyuk shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy (1441- 1501) g'oyat boy va serqirra ilmiy-nazariy merosida uning ijtimoiy-siyosiy hayoti, davrning barcha muammolari, falsafiy qarashlari o'zining to'liq ifodasini topgan. Ulug' shoir ham barcha mutafakkirlar kabi "Inson qanday bo'lishi kerak?", "Yashashning ma'nosi nima?" - degan savollarga javob izlagan. Nazmda ham, nasrda ham tengsiz usurlar yaratda olgan. Ularda temuriylar davrining dolzarb falsafasi o'z aksini topgan.

Avvalo, Navoiy iymonning kishini hayvondan inson darajasiga ko'taruvchi bosh omilligini izoh qilar ekan, insoniylikning to'kis bo'lishi uchun hayo, sabr va shukrning zarurligini alohida ta'kidlaydi. Bu o'sha davr va zamonamiz uchun ham jahonshumul ahamiyatga ega. Chunki, sabr va shukr fazilatlaridan mahrumlik dunyo bo'ylab kishilarni o'z joniga, hatto o'zlari bilan birga o'z farzandlarining ham joniga qasd qilishgacha olib kelmoqda.

Xalq hayoti haqida o'ylash. u haqda g'amxo'rlik qilish shoir va mutafakkirning doimiy diqqat markazida kechdi. Uning fikricha, **inson hamisha yashash va baxtli bo'lishga haqlidir**. Navoiy insonlar haqida g'amxo'rlik qilishni eng olivjanob insoniy fazilat, haqiqiy odamiylikning mezoni deb bildi.

*Odami ersang demagil odami<sup>114</sup>.*

*Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.*

"Navoiy qit'alarida hiradmand, ulug' hikmatnavisdir. U qit'alarini:

*Majmuni o'yla kishvarki, anglaki sathini,*

*Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog<sup>115</sup>,*

deb bejiz ta'riflamagan edi. Bu tafakkur "kishvari"da o'quvchining fikri o'sadi. ko'ngli nurlanadi, aqli faollashadi. Chunki Alisher Navoiy qit'alarida tabiatdagи oddiy qurg' oqchilikdan koinot sir-asrorigacha, chumoliday inson qismati va uning davr, jamiyat, borliq bilan munosabatigacha - barcha-barchasi haqida fikr yuritilib munosabat bildirilgan". - deya yozadi adabiy otshunos olim Ibrohim Haqqul.

Chindanda, u so'z orqali ma'no "gavhar"larini, yuksak tushuncha va g'oyalarni yuzaga keltirgan daho ijodkor edi. Misol uchun "Farhod va

"Shirin" dostonida Armanistonniadolat bilan idora qiluvchi, xalqqa tinch va osoyishta yashash imkoniyatini tug'diruvchi va mamlakatni obod qilish bilan mashg'ul bo'lgan Mehinbonu obrazini yaratdi. Bu orqali u **xotin-qizlarga yangicha munosabatda bo'lish** g'oyasini ilgari surdi. Xotin-qizlar har ishda aqlu farosatda, dunyoni anglash va mamlakatni boshqarishda erkaklar bilan teng ekanligini ta'kidlab. Mehinbonu orqali adolatli malika obrazini kashf etdi.

Yana bir dalil sisatida Navoiyning suyukli qahramoni Farhodga nazar tashlasak. ulug' shoirning ta'riffashicha. Farhod o'zida aqliy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan. Illohiy emas, balki, dunyoviy ishqqa ega bo'lgan mard, jasur va insonparvar qahramondir. Olamni tushunmoq uchun Farhod Suqrotdan saboq oladi, jamiyatning razil va yaramas kuchlariga qarshi kurashadi, odamlar mushkulini yengillashtiradi. Farhod o'zining ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra aslzodalarga mansubdir. Navoiy zamonasida aslzodalarining jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi ayb va nomunosib ish hisoblangan. Buyuk shoir esa kishilar ongida o'rnashib qolgan bunday tasavvurdan mutlaqo boshqacha obrazni ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalantiradi. **Mehnatning yaratuvchilik kuch-qudratini ulug'ladi**. Farhod shahzoda bo'lisinga qaramay, oddiy mehnatkashlar bilan yonma-yon turib ter to'kadi, o'z bilimi, hunari va aqliy qobilyatlari bilan kishilarga xizmat qilishni katta sharaf deb biladi.

*Hunarni asrabon netgumdir oxir<sup>116</sup>.*

<sup>114</sup> Алишер Навоий. Муқаммал асрлар тўплами. 7 жилд. Тошкент. "Фан", 1991, 240 –бет.

<sup>115</sup> Иброҳим Ҳакқул. Абадият фарзанди. Тошкент. "Ёш гвардия" 1990, 4-бет.

## *Oltib tufroqqamu ketgumidir oxir?..*

Bundan tashqari u dono faylasuf sifatida barcha boylik, rohat-farog' atning masalini insonning halol mehnati tashkil etadi deb ko'rsatdi. Mehnat masalasi doirasida muhim ijtimoiy-falsafiy fikrlarni asoslab berdi. Davlatning yahlitligi, shoxlarning adolatlari, fuqarolarning tinch va osoyishta bo'lislari mehnat bilan bog'liqidir. Uning qator asarlarida ko'plab saroy va qasrlar kurgan Xitoy me'morlarining mehnati ulug'langan.

Navoiy mehnat mavzusi orqali **tengliq g'oyasini** ilgari surdi, o'z davrida ijtimoiy tabaqalarni ko'zdan kechirar ekan, jamiyatdagi eng sog'lom ijtimoiy kuch mehnatkash dehqonlar ekanligini, hokim sinfi vaqillari ichida saxovat, huyo, himmat va muruvvat kamayganidan qattiq iztirob chekdi.

A. Navoiyning fikricha, mansab va ulug'lik insonga hos hususiyatdir. Inson ongi hamisha yuksak martaba, mansabga intilish bilan band bo'ladi. **Mansab g'aflatni kuchaytiradi**: mansabdorni o'rabi olgan kishilarning iltifot va mulozamatlaridan u mast bo'ladi, amalni o'tkinchi va bevafo ekanligini unutib qo'yadi. Shuning uchun ham deydi Navoiy, kishi mansab va martabaga erishgach, xudbinlik va hudpisandlikka berilmasligi, mazlumlar dardiga malham bo'lishi, podsho manfaati, xohish-irodasini amalga oshirishga intilishi, agar bordiyu podshohning hatti-harakatlari va siyosati shariat ahkomlari va iymone'tiqod talablariga zid bo'lsa, u holda podshoga muloyimlik bilan arz qilib, uning xizmatidan ketishi kerak deb hisoblaydi. Demak:

*Har kishikim, topsa davron ichra johu e'tibor<sup>116</sup>.*

*Kim aning zotida bedodu sitam bo'lg'ay qilig'.*

Navoiy urushga qarshi bo'lib, adolatlari va adolatsiz urushlarni bir-biridan farqladi. Podsholarni va odamlarni adolatga chorladi. Do'stlik va ahil-inoqlik eng ezgu hislatligini uqtirdi. "Saddi Iskandariy" dostonida bu g'oya yorqin ifodalananadi. Shoir odamlarga qarata shunday deydi:

*Olam ahli bilingizkim ish emas dushmanlig<sup>117</sup>.*

*Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.*

Navoiy vatan haqida buyuk gumanist sifatida fikrلaydi. Ma'lum bir jug'rofiy doiradan chiqib. **Vatanga muhabbat g'oyasini** keng mehnatkashlarning hayoti, ularning orzu va umidlari bilan bog'laydi. Buyuk jahon davlati vujudga kelgandagina adolat talablari yuzaga chiqadi, davlatlar, xalqlar o'rtaida urushlarga chek qo'yiladi, barcha odamlar anil qarindosh-urug' bo'lib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab yashaydilar degan falsafani olg'a suradi.

*Davron elining jismida ham jon bo'lg'il<sup>118</sup>.*

*Ham jonlariga moyai darmon bo'lg'il.*

Xullas, buyuk bobomizning ijodi bebahoh ma'naviy xazinamizdir. Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida alohida ta'kidlaganidek: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, shoirlarning sultonidir. Inson

<sup>116</sup> Алишер Навоий. Муқаммал асрлар тўплами. 8 жилд. Тошкент. 1991. 230-бет

<sup>117</sup> Иброҳим Ҳаккул. Абдият фарзанди. Тошкент, "Еш гвардия" 1990. 7-бет

<sup>118</sup> Машрикзамин хикмат бўстони. "Шарқ". 2008. 94-бет.

<sup>119</sup> Машрикзамин хикмат бўстони. "Шарқ". 2008. 123-бет.

qalbining quvencini qayg'usini, ezzulik va hayot mazmunini Naveiydeck teran ifoda etgan shoir jahon adabiyeti tarixida kamdan-kam topiladi<sup>120</sup>.

## Madaniyat - ijtimoiy nodisa sifatida

*Xursid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Jahongir Hamidov - talaba*

*Namangan davlat universitet*

Madeniyating ijtimoiy nodisa sifatidagi hususiyatlari o'chishga kirishishdan avval «madaniyat» atamasi to'g'risida to'xtab o'tish lozim, chunki bu etama asrlar davomida turli tushuncha va hodisalarini izohlashda qo'llanib kelingan. «Madaniyat» iborasi hozirgi zamendilik adabiyotlarida o'z mazmuni va ko'lamiga ko'ra juda rang-barang ma'nolarni ifoda etishini qayd qilishi kerak. Madaniyat lotincha «kultura» ma'nosini ifodalab, dastavval yerga ishlod berish, yerni parvarishlash, dehqonehilik mehnati degan fikrni ifodalagan. Keyinchalik bu so'z ma'rifatli bo'lish, tarbiya ko'rganlik, bilimli bo'lish mazmunida qo'llanilgan. Madaniyatni rang-barang talqin etishda quyidagi nizanzalarlarga duch kelamiz: madaniyat bu-inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlari yig'indisi; sun'iy, ya'ni ikkinchi tabiat faoliyat vositalari yig'indisi, ijodiy faoliyat, ijodiy faoliyat mahsuli, umuman jamiyat, jamiyatning ma'naviy holati, jamiyatning ma'naviy hayoti, jamiyatning sifati va boshqalar.

Madaniyat individual shakldanni yoki hamkorlik tariqasidami, bundan qat'iy nazar, hamina vaqt ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Keng ma'noda madaniyat – bu mehnat qurollaridan tortib, uy-ro'zg'or predmetlarigacha, kishilarning urfodatlari, an'analari, hayot tarzidan tortib, fan va san'at, din va hurfikrlilikkacha, axloq va folsafagacha insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan narsahodisalardir. Har qanday madaniyat predmeti eng avvalo mehnat, aniqroq aytganda, moddiy va ma'naviy faoliyat mahsulidir. Madaniyat predmeti tabiat tomonidan emas, balki mehnat baxsh etgan hususiyatlar tufayli tarkib topadi. Madaniyatning bosh vazifasi – faoliyatning sub'ekti, ya'ni insonni har tomonlama taraqqiy etdirishdan iborat. Tabiat va jamiyat inson faoliyatining ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Shunga muvosiq madaniyatning yahlit strukturasida ikki katta soha ajralib chiqadi: insonning tabiatni o'zgartirish jarayonidagi yangilanishi bilan bog'langan meodiyl madaniyat, insonning ma'naviy madaniyat. Moddiy va ma'naviy madaniyat inson faoliyatining moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan, ular o'rtasidagi tafovutlar ham ana shu negizida qaralib chiqilishi kerak.

Madaniyatning har ikkala asosiy sohasi murakkab tuzilishga ega. Moddiy madaniyatga mehnat madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, turmush madaniyati, tabiiy muhitga madaniy munosabatda bo'lish madaniyati kabilar kirdi. Ishlab chiqarish vositalari, avvalo mehnat qurolliari moddiy

<sup>120</sup> Каримов И. А. Юқсак мавзуларниң енгизмас күн. "Маънавият", 2008, 47- бет

Madaniyatning eng muhim vositasi bo'lib, ulardan kishilar ishlab chiqarish holliyatlarida keng foydalanadilar. Jamiyatning moddiy-texnikaviy kamoli moddiy madaniyat sohasidagi taraqqiyotiga asoslanishi tabiiy qo'l mehnatidan mushinalarga, so'ngra avtomatika va kompyuterlarga o'tishi nafaqat texnikaviy progress, balki jamiyat moddiy madaniyatni taraqqiyotining ham sifat ko'rsatkichidir. Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda, jamiyatda mayjud bo'lgan narsa va buyumlarni o'z ichiga oladi. Bularga mehnat qurollari, o't yoqish asboblari, jang qurollari, uy-joylar, boshqa qurilish ob'ektlari, oziq-ovqat, kiyim kechak, ichimlik, idish-tovoq, mebel, poyafzal va boshqalar kiradi. Boshqacha aytganda moddiy madaniyat moddiy ishlab chiqarish faoliyatining bareha sohalari va ularning natijalarini o'z ichiga oladi. Kishilar ijtimoiy amaliyot jarayonida zaruriy moddiy shart-sharoit va hayot vositalarini yaratilishining o'zi bilan cheklanib qolmaydi, ayni vaqtida ongni ham ishlab chiqaradilar.

Ijtimoiy ongning shakllari sifatida dunyoqarash, ahloq, huquq, estetik ong, siyosiy ong, badiiy ongni vujudga keltiradilar yoki ma'naviy madaniyat sohasini tashkil etadi.

Xulosa qilib, Ma'naviy madaniyat kishilar ma'naviy ishlab chiqarishlik faoliyati natijalarini turli-tuman tasavvurlar, g'oyalalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san'at hodisalarini, ahloqiy va huquqiy normalarni vujudga keltirishdan hosil bo'ladi. Ma'naviy madaniyat – bu ma'naviy faoliyatning shunchaki mahsulotlari bo'lib qolmasdan, shu bilan birga ana shu jarayonni amalga oshiradigan kishilar o'rtaqidagi munosabatni ham bildiradi. Shunday qilib ma'naviy madaniyat madaniyatning murakkab qatlami bo'lib, ta'lim va fan sohasi bilan bog'langan ilmiy faoliyat va bilim omili bilan bog'langan bilish madaniyati, ahloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi.

### **Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish**

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Nafosat Jo'nashaliyeva - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Ayonki, texnik taraqqiyotni to'xtatish mumkin emas: biz buni xohlaymizmi-yo'qmi, kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'rning ega, kompyuter savod-xonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beruvchi omilga aylanib bormoqda. Bugun kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin. Agar o'tgan asr-ning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lgan bo'lsa, ayni kunda kompyuter va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Hozirgi zamon yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbathlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi.

«Nielsen/Net Ratings» kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy tekshiruvlar natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ularayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda: birgina 2007 yili yevropada o'sib kelayotgan yosh avlod vakilining uchdan bir qismi onlayn tizimida bo'lishi kuzatildi. O'tgan yili dunyo tarmog'ida 10 million yoshlar «sayr qilgan» bo'lsa, hozirda ularning soni allaqachon 13 millionga yetdi. Mutaxassislarining fikricha, bu tabiiy holat. Negaki kundan-kunga internetdan foydalanayotgan oilalar, demak, undan foydalanayotgan farzandlar soni ko'paymoqda. Shaxsda axborot madaniyatini shakllanish evolyusiyasini falsafiy tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Axborot tushunchasi yuqorida aytilganidek, o'zining tuzilishi va mohiyati bilan falsafiy kategoriyalarga yaqin turadi yoki falsafa predmetini tashkil etuvchi muammolarni yechishga yordamlashuvchi falsafiy kategoriylar tizmiga kiradi. Falsafa dunyoqarash sisatida shaxsnинг axborot madaniyatining shakllanishi va evolyusiyasining mezoni hisoblanadi.

Zero, axborot falsafa kategoriylarining barcha ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, uning muammolariga tayangan falsafa tabiiy va ijtimoiy hayotining umumi y muhim tomonlarida ro'y bergan voqeя va hodisalar, ularning rivojlanish tamoyillari, aloqasi va bog'lanishlari to'g'risida nazariy-metodologik xulosalar beradi. Axborot voqyelikni aniq, dalil asosida aks ettirib bersa, falsafiy xulosa bilim, dunyoqarash shunchalik asosli bo'ladi. Shaxsnинг axborot madaniyatini falsafa va falsafiy bilimlarsiz tasavvur etish qiyin. Axborot madaniyati chuqur falsafiy bilim va dunyoqarashg asoslanishi lozim, zero falsafaning predmeti va uslubi bu murakkab vazifani bajarish uchun g'oyaviy va metodologik asos bo'ladi. Akademik Said Shermuhammedov ta'kidlaganidek: "Falsafa xazinasidagi umumolam ko'lamida, universal fikrlash metodi – uslubi barcha xususiy fanlarning bilish metodalarini uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi". Turli ilmiy bilimlarni sintez qilish xususiyatiga ega bo'lgan falsafa fani boshqa fanlar yutuqlari va ma'lumotlarini umumlashtirish, o'zini ham, butun madaniyat tizmini ham yangi bilimlar, muhim xulosalar bilan boyitadi hamda ularning barchasini olamni tushunish tizmiga kiritadi. Bularning barchasi – hissiy, moddiy va ma'naviy olamlarni mujassamlashtiruvchi madaniyatni, ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun bitmas tiganmas hayotbaxsh buloqdir. Falsafa, umuman hayot va madaniyat hayotining eng muhim, asosiy qadriyatlar haqida yagona, umumbashariy tasavvurlarni hosil qilish bilan birga, ana shu taraqqiyot-sivilizatsiya uchun abadiy, mangu, sira o'lmas qadr-qimmatga ega ekanligini asoslab, isbotlab beradi. Shaxs axborot madaniyatini shakllanishi bir jihatdan shiddat bilan borayotgan globallashuv jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan dunyo miqyosida Markuraviy kurash va tahdidlarni g'oyat avj olgan sharoitda yuz bermoqda. Shu boisdan falsafa va madaniyatshunoslik bo'yicha mutaxassislar shaxs axborot madaniyatini shakllantirish va uni jamiyatni faol ishtirokehisiga aylantirish vujudga kelgan muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Shaxsda axborot madaniyatining evolyusiyasi bevosita insonning hayoti faoliyati, ya'n turmush tarzi majmuasi bilan bog'liq holda ro'y beradi. Hozirgi tadqiqotehilar bu jarayonni ishlab chiqarish talablari va shaxs ehtiyojlariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Unga ko'ra axborotlashgan

Jamiyat kompyuterlashtirish jarayoni iste'molchilarga ishonchli axborot mabnalaridan foydalanish imkoniyatlarini beradigan, ularni eskirgan va xumarasiz ishlardan xalos etadigan, ishlab chiqarishni yuqori darajada avtomatlashtirishni ta'minlaydigan jamiyat sifatida talqin etiladi. Jamiyat hayotida axborotlashuvning o'rni va ahamiyati ortib borishi obektiv jarayon. Aynan shu o'rinda shaxsning axborot madaniyatini uzlusiz bergan vaqtarda nisbatan tezroq yuz beradi. Shaxs axborot madaniyatini shakllanishi va evolyusiyasi jamiyatning ma'rifiy va maskuraviy jarayonlari bilan bog'liqligini etiborga olish zarur. Ammo, taddiqotchilar maskuraviy omilni yoki nazardan qoldiradilar yoki umuman inobatga olmaydilar. Shaxsning axborot madaniyatining evolyusiyasida ma'rifiy muhit, ma'rifatchilik muhim rol o'yinaydi. Ma'rifatchilar falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy tafakkurni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, shaxsning axborot madaniyati evolyusiyasi uchun zarur bo'lgan ilmiy-ma'rifiy g'oyaviy muammolarni, ularning yechimlarini tushuntirib, odamlarni ilmiy-ma'rifiy fikrlashga o'rgatadi va shu bilan shaxsni axborot madaniyatini shakllanishi va evolyusion rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Shu jihatdan ma'rifatchilik – kommunikativ (muloqat, aloqlar o'rnatuvchi) funksiyani bajaradi, turli mutafakkirlar, faylasuflar, din vakillari, turli mintaqalar va xalqlar o'rtasida madaniy va do'stona aloqlarni kuchay tiradi. Axborot vositalari yordamida odamlarga yetkazilgan ma'rifatchilik g'oyalari, ularning oqilroq, oliyjanobroq, madaniy, ma'naviy olamlar boy roq va go'zalroq bo'lishiga yordamlashadi. Shaxsning axborot madaniyatining evolyusiyasidan kutilgan maqsad ham ana shundan iboratdir. Axborot madaniyatining kommunikativ funksiyasi bog'cha, maktab sinflaridan tortib, mehnat jamoalari, talaba auditoriyalari, ilmiy amaliy anjumanlar va ilmiy kengashlargacha bo'lgan juda katta bo'lgan makonda yaqqol ko'rindi.

Hulosa qilib, shaxsni shaxs sifatida shakllanishi ham, uni bilim va tafakkuriga ham ega bo'lishi ham, hozirgi zamон sivilizatsiyasi o'zining butun borligi shakllanishi ham insonning axborot saqlash, axborot ishlab chiqarish va ulardan foydalanishi qobiliyati orqali takomillashib, rivojlanib kelgan. Shaxsning axborot madaniyati va ma'naviy tarbiyasi ana shu inson va jamiyat rivojlanishining obektiv zaruriyati tarzida shakllanib kelgan.

## **Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat**

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Doston Olimov - talaha*

*Namangan davlat universiteti*

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni sari qadam qo'yarkanmiz mamlakatimizning har bir fuqarosi ushbu tushunchalarni mazmun-mohiyatini bilib va unga erishish uchun hissasini qo'shmoq'i darkor.

Demokratiya grekcha so'z bo'lib, Demos – xalq, kratos-xokimiyat, yani xalq xokimiyatchiligi. Bu xalqning davlat boshqaruvidagi nazorati boshqacha

qilib aytsak. xalq davlat boshqaruvida bevosita va bilvosita ishtirokiddir. Demokratiya juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, bu shaxslarnning so'z erkinligi, vijdon erkinligi va shunga o'xshash juda keng erkinliklarni qamrab oladi. Bularning hammasi asosiy qomusimiz bo'lgan konstitutsiyamizdan joy olgandir.

Demokratik davlat deganda demokratiyani davlat miqqiyosida amalga oshirilishi tushuniladi. 1991 yilning 31 – avgustida O'zbek xalqining ajralmas xuquqi – o'z taqdirlini o'zi belgilash xuquqi ro'yobga chiqdi. Muqaddas orzu ushaldi. O'zbekiston tinch. parlament yo'li bilan o'zning xuquqiy davlatchiligiga erishdi va shu paytdan boshlab O'zbekiston xuquqiy demokratik davlat, ochiqfuqorolik jamiyat qurishga kirishdi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ham alohida takidlaganidek:

“O'zbekiston tanlagan yo'l inson manfaatlari to'la ximoya qilingan, uning xaq huquqlari har tomonlama kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidir”<sup>121</sup>.

Insonni ulug'lash, uni huquqlarini muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish konstitusiyamizning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Konstitusiyamiz inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy me'yorlar asosida ishlab chiqilgan va aytish mumkinki uni yanada to'dirilgan. Konstitusiyamizning aynan 13-moddasi fikrimiz dalilidir. Unda shunday deyiladi “Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari oly qadriyat hisoblanadi”<sup>122</sup>. Ushbu moddada inson huquqlari umumjahon deklarasiyasida e'lon qilingan umuminsoniy huquqlar oly qadriyat darajasiga ko'tarilganini ham ko'rishimiz mumkin. Inson huquqlari umumjahon deklarasiysi insonlarning ajralmas va dahlsiz huquqlarini e'lon qilib quy idagilarni belgilaydi.

“Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarida teng bo'lib tug'ilganlar” (1-modda); “Har bir inson yashash, erkinlik va shahsiy dahlsizlik huquqiga ega” (3-modda); “Hech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emas, qulchilik va qul savdosining barcha turlari taqiqlanadi” (4-modda).

Demokratik davlatda insonparvar qoidalarga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy axvoldidan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ta'minlab beriladi.

O'zbekiston o'zi uchun demokratik rivojlanish va fuqarolik jamiyatini qurishi yo'lini aniq va ravshan belgilab olgan. Bu yo'l demokratiya va erkinlikning umume'tirof etgan va asosiy prinsiplariga tayandi. Ayni paytda mamlakatimizning tarixiy va diniy xususiyatlari va xalqimizning dunyoqarashiga tayanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Bu demokritik jamiyatni barpo etish maqsadidi sari qadamlarimiznikimgadir yaxshi ko'rinish, kimgadir xisobot berish va soxta obro' toplash uchun emas avvalo xalqimizning xoxish irodasi bilan tanlab olgan milliy manfaatlarimizga javob beradigan manzilga bosqichma

<sup>121</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. “Adolat” 2012 12 b.

<sup>122</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T., 2015 y.

bosqich rivojlanish yo'li bilan etib borish uchun qo'ymoqdamiz va anashu yo'limizdan aslo qaytmaymiz<sup>122</sup> degan ajoyib fikrlari gaplarimizni isbotidir.

Demokratik davlatning eng oly cho'qqisi fuqarolik jamiyatidir. Fuqarolik jamiyat bu-jamiyat a'zolarining xuquqiy ongi, muomila layoqati va madaniyati yuksakligidir. Bu degani xar bir inson o'z xuquqi va erkinligini to'la to'kis bilib uning qollay olishidir. Yurtboshimiz bu xaqida gapirar ekanlar "Bularning markazida ma'naviyat, axloq odob, ma'rifat turmog'i kerak"<sup>123</sup> degan fikrni aloxida takidlab o'tganlar.

Mana shunday chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lshga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molechisi emas, balki ularning faol yaratuvchisiga aylanadi va demokratiya, fuqarolik jamiyatini asoslarini amalga barpo etish inson xaq-xuquqlarini va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi. Shundagina inson o'z mamlakatining tom ma'noda fuqarosi xisoblanib fuqarolik jamiyati qurilishida o'z xissasini qo'shadi.

"Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonuniy ustivor bo'lib u insonning o'z-o'zini kamol topishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs mafaatlari uning xuquqi va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishida ko'maklashadi"<sup>124</sup>. Birinchi Prezidentimizning, "Demokratiya va fuqarolik jamiyati atamasi qanday sharxlanishi emas balki uning qanchalik realligi, xaqiqiyligi, yashashga qobilligi muhimdir".-degan fikrlari fuqarolik jamiyatini qanday ahamiyatli ekanligini yana bir bor isbotlab turibdi.

Shundan kelib chiqib davlatimiz qomusini ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy xuquqlari, erkinliklari, burchlari" deb atalishi. 1998 yili "Vijdon erkinligi to'g'risida" gi qonun. 1997 yil 26 apreldagi "Inson xuquqlari bo'yicha vakil (Ombutsmen) to'g'risida" gi qonun. "Fuqarolarning xuquqiy madaniyati yuksaltirish" to'g'risidagi milliy dastur va shunga o'xshash bir qator qonun va qarorlar qabul qilindiki. insonlar o'z xuquq va erkinliklarini bilsin va kelgusida O'zbekistonda demokratik davlat fuqarolik jamiyat qurilishida o'z xissasini qo'shsin.

Huquqiy demokratik davlat fuqarolik jamiyati qurishda eng avvalo fuqarolarni huquqiy savodxonligini oshirilishi kerak.

Shuning uchun davlatni eng kichik bo'g'ini hisoblangan oila va ularni xududiy boshqarmasi bo'lgan o'z-o'zini boshqaruvchi organlar qoshida davlat tomonidan moliyaviy bazasini yaratilgan va bu bo'g'inda malakali huquqshunoslar bo'limi ochilishi maqsadga muvofiq. Shunda ular o'z hududi doirasida barcha fuqaroviy ishlarni oila va nikoh, mulk, meros va shunga o'xshash huquqiy munosabatlarda fuqarolarga huquqiy yordam beradi va fuqarolarning huquqiy savodxonligi yuksalishiga va kelgusida barcha fuqaro mustaqil ravishda har qanday huquqiy munosabatlarga bemalol kirishib fuqarolik jamiyatini qurishda sharoit yaratilgan bo'lar edi.

<sup>122</sup> Inson uning huquqi va erkinliklari oly qacriyat. 14-t.

<sup>123</sup> Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 14-t.

<sup>124</sup> Karimov I.A. Mamlakatimzni yanada obod etish va modernizatsiya qilishini qo'shat. Tuman shaxsiyotlari yo'ida. J. 21 - Toshkent: O'zbekiston, 2013. - 416 b.

# **Yoshlar siyosiy faolligini oshirishda jamoat tashkilotlarining o'rni.**

**Inamov Q.T.**

**O'zbekistonda  
demokratik jamiyat  
qurish nazariyasi va  
amaliyoti kafedrasi katta  
o'qituvchisi**

Mamlakatimizning ertangi kuni bevosita yoshlarga ularning har tomonidan rivojlanib, barkamol avlod bo'lib yetishishlariga o'z bilim va intilishlarini hayotda ro'yobga chiqarishlariga bog'liq.

Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'nnaviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga farzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'llishiga qanday oliv maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak.<sup>125</sup> deb ta'kidlagan edi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Mamlakatimizning o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri, biri bu-aholi aksariyat qismini yoshlar tashkil etishidir. Hozirda O'zbekiston aholisining 64 % ini 30 yoshgacha bolgan yoshlar tashkil qiladi.<sup>126</sup> Shu boiz davlatimiz tomonidan yoshlar huquq va manfaatlarining himoya qilishga qaratilgan barkamol avlod kamolati uchun xizmat qiluvchi huquqiy asoslarni yaratish borasida ham salmoqli natijalar qo'lga kiritildi. Xususan, mamlakatimizda o'tgan yillarda davomida yoshlarga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi 22 ta qonun, 30 dan ortiq Prezident Farmonlari va qarorlari, 50 ga yaqin Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

"Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi", "Ta'llim to'g'risidagi" Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Yoshlar yili" davlat dasturlari shular jumlasidandir va bu qonunlar dasturlar yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, yoshlar siyosati-davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yoshlarni tarbiyalash va voyaga yetkazishdek davlat ahamiyatiga molik va mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda 5 mingdan ortiq turli jamoat birlashmalari va 9 mingdan ortiq o'zini o'zi boshqaruv organlari faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonun mamlakat tarixida birinchi marta jamoat birlashmalarining mustaqilligi, ularni davlat va hukumatdan alohida faoliyat yurituvchi huquqiy sub'ekt ekanligini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56- moddasida "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ruyxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatları, xotin-qizlar, fahriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar ommaviy harakatlar va fuqarolarning

<sup>125</sup> Каримов И.А. Узбекистон XXI асрга шитилмокда. Тошкент. Узбекистон. 1999 й.Б.23.  
<sup>126</sup> Узбекистон ёшлиари-ижтимоий киёфа-2008.-Б.8.

boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi<sup>127</sup> deb ko'rsatilgan. Erkin fikrlovchi yoshlarning hayotdagi pozitsiyasini shakllantirishda ayniqsa, ularda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, ma'naviyatga muhabbatni, xalq oldidagi mas'uliyat, fidoiylik kabi fazilatlarni rivojlantirishda ya'ni, yoshlar tarbiyasi samaradorligini oshirishda yoshlar tashkilotlarining roli oshib bormoqda.

Umuman mustaqillik yillarda vujudga kelgan va amal qilayotgan demokratik institutlar yoshlар hayoti va tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kashf etmoqda. Chunonchi, davlat yoshlар tashkilotlari, nodavlat notijorat yoshlар tashkilotlari, siyosiy partiylar tarkibidagi yoshlар tashkilotlari, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar tashkilotlari, jamg'armalar, mahalla kabi demokratik institutlardir.

Bu demokratik institutlarning har biri yoshlarga o'ziga xos yondashib, imkon berib, ularning siyosiy faolligini oshirish orqali davlatni boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlaydi. Lekin siyosiy partiyalarning ishtirokisiz yoshlarning siyosiy manfaatlarini yuzaga chiqarish qiyin. So'nggi yillarda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jaryonida yoshlар qatlaming ishtirokini ta'minlashda siyosiy partiyalarning ta'siri ham kuchayib bormoqda. Siyosiy partiylar safida yoshlар salmog'i yildan-yilga ortib borayapti. Hozirda O'zbekiston siyosiy partiylari umumiy a'zolarining tarkibida yoshlар o'rtacha 40 foizni tashkil etmoqda.

Siyosiy partiylar, ayni vaqtida, yoshlarga oid siyosatini o'zlarining "Yoshlar qanoti", "Yoshlar kengashi" kabi tuzilmalari vositasida amalga oshirib kelmoqda. "Yoshlar qanoti atamasi" ilk bor Fidokorlar milliy-demokratik partiysi tamonidan 1998 yilda ilgari surilgan.<sup>128</sup>

Respublikamizda faoliyat ko'rsayotgan jamoat tashkilotlaridan eng ko'p yoshlarni o'z atrofiga birlashtirgan "Kamolat" yoshlar ijtimoiy harakatidir. Avvalo ushbu harakatning tashkil etilishi xaqida ma'lumki aftoritar-totalitar tuzumning ideologik qurollaridan biri sanalgan O'zbekiston VLKSM tashkiloti barham topgandan so'ng 1996 yilning aprel oyida respublika yoshlarining yangi uyushmasi nodavlat, nosiyosiy jamg'arma tashkil etilgan edi. Ushbu jamg'arma rahbariyati yoshlar o'rtasida tarbiyaviy-tashkiliy ommaviy ishlarni yangi daraja bosqichiga ko'tarishda tijorat sohasiga e'tiborni ko'proq qaratdi. Shu sababli 2001 yilning yanvar oyida bo'lib o'tgan respublika rahbar xodimlarining yoshlar masalasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishida mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov jamg'armani "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirish to'g'risidagi taklifni kiritdi<sup>129</sup> va shu asosda yoshlarni kelajagi buyuk davlatni barpo etishdek maqsad atrofida uyuştiradigan uni amalga oshirishga safarbar etadigan yangi ijtimoiy institut vujudga keldi.

<sup>127</sup> Узбекистон Республикасининг "Узбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари түргисида"ни Конуни Т.-1991.

<sup>128</sup> Файзинев Ш.Х. Сиёсий партиялар мамлакатни модернизациялаш жараёнида - Тошкент: Гоффур Ўзум 2009.-Б.49

<sup>129</sup> Каримов И. А. Ватан равнаки учун хар биримиз масъулмиз. 9 жилд - Тошкент: Узбекистон 2001 Б.197.

O'tgan davr ichida "Kamolat" yoshlari harakati yoshlarning huquqiy ongi, madaniyati, ijtimoiy -siyosiy faolligi, tashabbuskorligini oshirish, ularning tadbirdorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash borasida jiddiy natijalarga erishildi.

Qurilajak fuqarolik jamiyatining tom ma'nodagi egalari hisoblanmish yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta'minlash ular siyosiy madaniyatini shakllantrishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan mahallaning o'rni va roli ham muhimdir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat -engilmas kuch" nomli risolasida o'rni ta'kidlagani dek davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "mahalla tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning o'rni va maqomi belgilab qo'yildi. Mahalla boshqaruviga bunday e'tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchilligidan dalolat beradi"<sup>130</sup>.

Bugungi kunda yoshlarimizning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati, siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqe'a-hodisalarga nisbatan dahidorlik hissi, fuqarolik ma'suliysi oshib bormoqda.

Demak, jamiyatimiz sifat jihatidan farq qiluvchi yangi taraqqiyot bosqichiga o'tish arafasida turgan bir paytda fuqarolik jamiyati shakllanishi sharoitida yoshlarni shaxs sifatida siyosiy ijtimoiylashuvi muhim ahamiyat kasb etar ekan, yoshlarimiz jamoat tashkilotlari timsolida o'zlarining manfaatlarini doimiy va izchil himoya qiladigan o'ziga xos g'oyalarni ilgari so'radigan faol siyosiy kuchlarni ko'rishni istaydilar.

Hozirgi davr talabidan kelib chiqib jamoat tashkilotlari oldiga:

Birinchidan mamlakatimizning chekka hududlardagi qishloq yoshlari orasiga kirib borishni.

Ikkinchidan siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar faoliyati orqali yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishni.

Uchinchidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalangan holda, yoshlar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishni vazifa qilib qo'yamoqda.

Kamolat yoshlari ijtimoiy harakati, siyosiy partiyalari hamda O'zbekiston Ekologik harakatining "Mamlakatimizda demokratik islohotlarning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" talabidan kelib chiqib yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yoshlari yo'nalishidagi rivojlanishiga yordam berish maqsadida, ularda tadbirdorlik va kichik biznesga bo'lgan qiziqishlarini yanada ko'chaytirish, yosh tadbirdorlarning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish, yoshlari tomonidan yaratilayotgan innovatsion loyihalalarini xususiy sektor faoliyatiga keng jalb qilish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish; mahalla, tuman, shaharlarda yoshlarning tadbirdorlik sohasidagi bilim va

<sup>130</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч.- Тошкент. Маънавият. 2008.-59-6.

ко'никмаларини оширish борасида уларга бизнес рејалари тузиш, истиқболли ташкилий лойиҳалар исхлаб чиқиш учун о'кув семинарлар ташкил этиш, юшлар орасига ҷуғурроқ кириб бориш, уларни дунyoqarashi, келажакка бо'лган ишонч ва լитилишлари, умуман уларнинг истиқболига қаратилган партиявиy vazifalarning амалга оширishda noananaviy yangicha uslublardan foydalanish va уларнинг har tamonlama barkamol inson bo'lib yetishishlariga ko'maklashish. аyniqsa, юшларни ijtimoiy loqaydlik, giyohvandlik, zo'ravonlik, ekstremizm kabi tahdid va xurujlardan asrash hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iboratdir.

## К проблеме перевода пословиц в книге «Диван лугат ат-турк»

**И.Тожибоев, НамГУ**

Неповторимое энциклопедическое произведение учёного «Диван лугат ат-турк» находится в центре внимания многих учёных мира и отличается глубоким лингвистическим содержанием и несомненными художественными особенностями.

Существующие узбекский, турецкий и русские переводы тюркских паремий и афоризмов, по нашим наблюдениям, были сделаны во многом как художественные. Английский же перевод является по преимуществу собственно лингвистическим, т.е. не выдвигающим требования художественности.

Как видно из анализа следующих пословиц, узбекский перевод С.Муталибова отличаются своей научностью, стремлением к конкретности и адекватности подлиннику. Так, в узбекском переводе не сохраняются рифма и размер, характерные для большинства пословиц, но предельно адекватны, ср.:

1. древнетюркское:

ўд

бл кёчар кіші тојмас, јайну қоғӣ мэнү қалмас.<sup>131</sup>

современный узбекский перевод: ЗАМОН, ЗАМОНА, ДАВР

Замон ўтар, киши тўймас, инсон боласп мангум колмас.

русский перевод: ВРЕМЯ

“Время идёт, и человек его не замечает. Но потомки Адама не живут вечно.”<sup>132</sup>

английский перевод: TIME (ZAMANA).

Time (zamana) passes and a man does not perceive it, the sons of Adam do not live forever.<sup>133</sup>

<sup>131</sup> Махмуд Кашгарий. Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк) С.Муталибов - Ташкент. 1960 1963. Т. I-II. 1т-796.

<sup>132</sup> Махмуд ал-Кашгири. Диван Лугат ат-Турк Пер., предисл. и коммент. З.-А. М. Ауззовой - Узмактук Даик-Пресс. 2005. - 1288 с. 1т-84с.

<sup>133</sup> Mahmud al-Kashgari. Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly - Cambridge Mass [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin] Part I: 1982 (Pp. XI + 416) Part II: 1984 (Pp. III + 381) Part III: 1985 (Pp. 337 + microfiche) 1-34p.

В английском переводе арабские варианты слов подлинника даются в скобках. Это в очередной раз доказывает, что «Диван» написан на арабском.

С.Муталибов переводит с подлинника **jalīnūk offglī** на узбекский язык как **инсон боласи** немного обобщая перевод. Но в английском переводе **the sons of Adam** даётся как **сын Адама** (Одам ато ўғли), здесь перевод несколько ближе к подлиннику.

В подлинном произведении **кіші тојмас**, *человек его не замечает* (одам боласи тўймас), на узбекский переводится как **киши боласи тўймас** слово в слово, а на английский язык - несколько по-иному: *a man does not perceive it*. *человек его не замечает* (инсон уни англамай қолади). Это перевод не слово в слово, но раскрывающий подлинное содержание паремии.

— “тојмас”

Выражение “*кіші тојмас*”, переводимое с оригинала на узбекский буквально **киши тўймас** (*человек им не насыщается*) на английский переводится несколько иначе, а именно: *a man does not perceive it* (*человек его не осознает*), на русский же - как *человек его не замечает*. Английское слово *perceive* соответствует узбекским словам *пайқамоқ*, *сезмоқ*, *хис этимоқ*; *тушуммоқ*, *англамоқ*, русское *замечать* - соответствует узбекским *кўрмоқ*, *кўриб қолмоқ*; *сезмоқ*, *фаҳмимоқ*, *пайқамоқ*, *пайқаб қолмоқ*, *англамоқ* ...<sup>134</sup>

По нашему мнению, переданное в оригиналe арабской графикой **—“тојмас”** допускает двоякое прочтение: 1) **“тўймоқ”** (*насытиться*, удовлетворить потребность в еде и воде, наестся, напиться, утолить жажду<sup>135</sup>; 2) **“тўймоқ”** (*чувствовать, ощущать, замечать*<sup>136</sup>). Главная причина этого в том, что в арабском алфавите не отражены различия между звуками [ў] и [у]. Тем не менее, сама логика пословицы в оригинале делает предпочтительным понимание **“тўймоқ”** (*насытиться*), тем более что, согласно исламу и христианству, в этом мире все скоропреходяще, в том числе, и сам человек. Соответственно нелогичными выглядят русский и английский переводы тюркского **“кіші тојмас”** (*человек его не замечает*) (*man does not perceive*). Исходя из этого, нам представляется более адекватным и целесообразным перевод на русский **“человек им не насытится”** и на английский **“man never satiates with it”**<sup>137</sup>.

При сравнении паремий «Диван Лугат ат-Турк» в узбекском, английском и русском переводах, можно увидеть некоторые различия в деталях. Так, авторы английских переводов, желая передать основной смысл оригинала, стремятся к тому, чтобы:

- переводить пословицы оригинала слово в слово (точь-в-точь);

<sup>134</sup> Абдурахимов М.М. Узбекча-руса ва русча-узбекча лугати: “Академнашр”-Тошкент-2010: 389 бет.

<sup>135</sup> Узбек тилининг изоҳи лугати “Москва”, 1981й. II том 221б

<sup>136</sup> Узбек тилининг изоҳи лугати “Москва”, 1981й. II том 244б

<sup>137</sup> Butayev Sh. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary: “O’qituvchi”-Taskent-2013: P.462.

- при буквальном переводе пословиц оригинала давать специальные списки и примечания к некоторым древним тюркским словам, которые трудно понять;

- использовать подходящие варианты переводимого языка.

Очевидно можно сделать вывод, что для процесса перевода паремий и афоризмов характерна своя специфика, допускающая применение синонимов, развернутых пояснений и т.д. Анализ паремий в тексте «Диван Лугат ат-Турк» с точки зрения теории перевода и на основе сравнительной типологии нескольких языков очень важен при научном и эстетическом оценивании перевода книги на разные языки.

В настоящий момент, несмотря на существующий опыт решения проблемы перевода тюркских паремий на английский язык, теория и практика перевода по-прежнему ставит перед собой эту интересную и важную проблему.

### Milliy o'zlikni anglash

*Xurshid Mirzaxmedov katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Ergashali Zoirov - talaba.*

*Namangan davlat universiteti.*

Milliy o'zlikni anglash har bir inson uchun ma'nnaviy barkamollikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Chunki u avvalo, o'zining kimligini bilib olsa, qaysi millatga mansubligini tushunib yetsa, avlod-ajdodlari, ular qoldirgan modiy va ma'nnaviy merosni o'zlashtirsagina to'laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shaxslar millatning aksariyat ko'pchilik qismini tashkil qilsagina bunday illatning istiqboli buyuk bo'ladi. Shuning bilan birga o'zini-o'zi chuqur anglab yetgan, ko'zi ochilgan, aqli raso, g'oyaviy siyosiy jihatdan uyg'ongan va jipslashgan xalq va millatni, o'tmishda bo'lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas. O'z o'zini anglash bu xalqning, millatning o'tmish tarixiy taraqqiyot yo'llini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini bilib olishdir.

Milliy o'zlikni anglash – millat yashayotgan Vatanning poroq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch g'ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'nnaviyat asosi shart bo'lgani kabi milliy o'zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi. O'zlikni anglash o'z mohiyatiga ko'ra millat va elatlar uchun xos bo'lgan ma'nnaviyat xususiyatlarini ifoda etib, o'z funksiyasiga ko'ra milliy mansatlarni himoya qiladi.

Shunday qilib, har bir millat va elatning o'zini real mavjud sub'ekt. muayyan moddiy va ma'nnaviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf odattlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlari ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o'zlikni anglash, deb ataladi. Milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlaringin, shaxs, mahalliychilik manfaatlardan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'liqdir. Milliy o'zlikni anglash real hayotdagi millat sha'ni, qadr-qimati, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millatning manfaatlariiga nisbatan ikkinchi bir tomonidan zo'ravonlik harakatlari boshlanib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, qaysi darajada boy yoki kambag' al bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarni himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash millatning til, urf-odattlar, an'analar, qadriyatlar, hudud yagonaligi, ma'nnaviyatdagi o'ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash millatning mustaqil belgisi ekanligi – milliy manfaatlari, ehtiyojlarini umumiyligini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish va uning jahon taraqqiyotidagi o'rnni mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromini, hurmatini joy iga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-onal farzandlarning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boy ligidir.

Ota-onal o'z farzandidan hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyuklari ham ana shunda o'zbek xalqi odob-axloqi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunoh hisoblanadi. Ota-onani qadrlash, ularning beo'lechov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo'lish, duolarini olish - bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

Buyuk bobomiz xazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani hurmat qilish «...farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoning obod bo'lishni istasang, shu ikki odamning roziligidini ol! Tunu kuningga nur berib turgan - birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdandan tashqariga bir qadam ham bosma, hamma xizmatni sen odob bilan bajar. «adab» so'zidagi «dol» kabi qomatining ham qil».

Xulosa shuki, bola tarbiyasini dono xalqimiz aytganidek, u hali tug'ilmasdan ota-onal va butun oila a'zolari hamjihatligida boshlashimiz lozim buladi.

## **Globallashuv jarayonlarida jamiyatda axborot iste'moli masalalari**

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Sodiqjon Olimjonov - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Ijtimoiy hayotga tadbiq etilganda axborot -kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma'lumotni anglatadi. Jamiyat hayotida shunday jarayonlar kechadiki, bunda axborotni qidirish, yig'ish, qayta ishslash, toplash, saqlash va targatish ka vazifalar amalga oshiriladi. Bu jarayon informatsion jarayon hisoblanib, unda kutubxona tizimining ham o'zga hos o'rni mavjud. Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruuhlar vakkilarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruuhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtasidagi farqda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televidenie, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin, eng asosiysi shaxsda istalgan axborotni egallash bilan bir qatorda shaxsiy xislatlarni shakllantiradigan, masalan, mehnatsevarlik, o'z maqsadiga erishish yo'lida intilish, insonlar bilan o'zaro samimiy munosabat, ijtimoiy jarayonlarda ishtiroychilik. Bu kutubxona ishi orqali o'z axborot ehtiyojlarni qondirishga xos xususiyatdir.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo'l topish sohasida keskin bo'linish, tabaqalashuv sodir bo'lmoida. Yoshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvechiligi hamda bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatishadi. Boshqa guruuhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruuh uchun tobora faollahay otgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfining mayjudligida, ikkinchi guruuhnning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi. Axborot iste'moli ijtimoiy, aniqrog'i, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir.

Axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste'mol qilinadi-ki, mazkur darajalarda iste'mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biron shaxs uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyasiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamон xususiyatlariga ham ega. Chunonchi, G'arbdan o'ta ommabop bo'lgan axborotlar, Sharq xalqlari tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma'lumotlar, vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in'ikos etmasligi mumkin. Ayni bu xususiyat axborot iste'molini kutubxona orqali amalga oshirilishi jarayonida milliy mentalitetga xos tarzda, uning azaliy tamoyillariga tayangan holda amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda tarbiya vositasi sifatida ham o'zining amaliy natijalarini beradi. Axborot iste'moli, kim tomonidan iste'mol qilinishidan qaf'i nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda-ki. madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Shuning uchun, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqori-ki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qimmatini yo'qotishi aniq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Axborot iste'moli jarayonida ham kutubxona shaxs axborot iste'molining manbasi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, una kutubxonachi shaxs axborot ehtiyojiga qarab adabiyotni tavsija eta olishi, unda oldindan ehtiyojini qondiruvchi ana shu axborot manbasi haqidagi tasavurni shakllantirish uchun u adabiyot haqida ma'lumot bera olishi yohud kerakli ma'lumot, axborot mayjud internet tarmog'idan sayt yoki elektron pochtani tavsija eta olishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa avval kutubxonachi xodimning o'zi o'z kasbiga oid bilim, malaka va ko'nikma bilan bir qatorda zamonaviy axborotni ham o'zlashtirishi talab etiladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda jamiyatning kichik yoshdag'i a'zolari kutubxona orqali, kitob o'qish orqali axborot iste'molini qondirishga emas, aksincha ko'p xollarda zamonaviy axborot texnologiyalari jumladan internet foydalanishlarini kuzatish mumkin. Ayni vaqtida, internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvechi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, «biz ba'zan G'arb madaniyati to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, Internetga o'zimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat»<sup>38</sup>. Kutubxona ishida ham yangi zamonaviy ilm fan texnika yutug'i sifatida Komp'yuter va internet tizimidan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, xususiy internetkafedagi xizmatdan farqli o'laroq foydalanuvchining undan foydalanishi maqsadli tashkil etiladi. Internetga ijobiy yoki salbiy baho berish jarayonida dastlab mazkur muhim axborot resursidan kim va qanday maqsadlarda foydalanayotganini inobatga olish zarur.

## Jamiyatda oilaning roli va oilaviy munosabatlarni tartibga solishda oila huquqining o'rni

*J.Umarov*

*Nam DU katta o'qituvchisi*

Haqiqiy adolatli, insonparvar, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurishda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki insoniyat bunday javobgar qurar ekan, avvalambor, insonning

<sup>38</sup> Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild.-T., O'zbekiston. 2005. – B. 304.

o'zi bunday qobiliyat va xususiyatga ega bo'lishi lozimdir. Insonning bunday xususiyatlarga, fazilatga ega bo'lishi uchun esa, uning oilasi, yaoni har bir bolaning ota-onasi va qavmu qarindoshlari katta o'rinn tutadi.

Oila barkamol, sog'lom sikrli, ochiq ko'ngilli oilaning bolasi fozil insonlarning har doim huddi ana shu fazilatlarga erishishi uchun hech bir narsa bilan baholab bo'lmaydigan katta ijobiy hissa qo'shishga yordam beradi. Oila jamiyatning bir bo'g'inidir. Shuning uchun oilaning ijobiy fazilatga ega bo'lishi birgina bolaga taosir qilibgina qolmay, balki jamiyatga va boshqa oilalarga ham taosiri kuchlidir. Jamiyat esa ko'proq bolaga taosirchan bo'ladi. Chunki bu yaqqol «Oila jamiyatning bir bo'g'inidir» degan mazmundan kelib chiqib, jamiyat oilalardan, oila esa kishilardan tashkil topadi. Shunday ekan, boshqa oilaning ijobiy xarakterga ega bo'lishi uchun qo'shni oilaning taosiri ham katta bo'ladi. Chunki har bir narsaning rivoji uchun yoki uning qulashi uchun albatta bir narsa unga sabab bo'ladi, ya'ni taosir ostida bo'ladi.

Barcha narsa oiladan boshlanadi deganlaridek, jamiyatda oilaning qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularning har tomonlama fozil va yetuk insonlar bo'lib yetishishida roli nihoyatda beqiyosdir.

Hayotning o'zi ham qarama-qarshiliklardan iboratdir, ziddiyat, qarama-qarshilik, raqobatsiz hatto rivojlanish ham bo'lmaydi.

Oilaviy munosabatlар, ona va bola muhofazali, ularning ehtiyojlarini qondirish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'ninchisessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni bunday degan edilar: «Eng muhim vazifa xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga bu jamiyat poydevorini, eng avvalo boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, maonaviy sog'lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi».

Oilaning jamiyatda asosiy bo'g'in sisfatida tan olinishi hatto O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ham mustahkamlab qo'yilgandir. Bu modda jamiyatimizda oilaning tutgan o'rnini, uning mavqeini oshirishga qaratilgan bo'lib, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqlilik asosida amalga oshirishini mustahkamlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining qaroriga binoan 1994 yil Xalqaro oila yili va 1999 yili O'zbekistonda «Ayollar yili» va 2001 yilning esa «Ona va bola». 2002 yilni esa «Qariyalarni qadrlash» yili deb atalishi ham xalqaro asosida hamda O'zbekistonda oilaga umuman insonlarga bo'lgan mehrmuruvvatdan, ularni hurmatlashdan kelib chiqishligidan, barcha fuqarolarimizga, nuroniy ota-onaga, buva va yuuvilarmizga hamda xotin-qizlarimizga davlat va jamiyat g'amxo'rligining yanada kuchay tirilishi, ularning oilaviy, mehnat va turmush sharoitlari yaxshilanishiga, ayollar huquqlariga har tomonlama rioya etilishi hamda kafolatlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO) tomonidan Pekinda xalqaro oila yiliga bag'ishlab o'tkazilgan tayyorlov majlisida qirqqa yaqin

<sup>1</sup> Каримов И.А. Узбекистон: миллий истиклол, сиёсат, мағфура. Т., Узбекистон 1993. 14-б

mamlakat va shu jumladan O'zbekistonning vakillari oilani mustahkamlash va uni rivojlantirish muammolarini muhokama qilib. Osyo. Tinch okeani mintaqasi uchun oila to'g'risidagi Deklaratsiyani qabul qildilar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach va uning dastlabki kunlaridanoq oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. Respublikada 24 milliondan ortiq aholi yashaydi. Shulardan 52 foizini xotin-qizlar tashkil qildilar.

O'zbekistonda 3.5 milliondan ortiq oilar mayjud. Har yili 234 ming yosh oila vujudga kelib, 710 mingdan ko'proq bolalar tug'ilmoqda. Respublikada har bir oila tarkibi o'rtacha 5.6 kishidan iborat.

Ayniqsa, mustaqil O'zbekistonimizda oilaga bo'lgan munosabat eng yuqori davlat siyosati bilan belgilanib, uning rivojlanishi uchun katta eotibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 18 fevralda «Oilada, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rollini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va maonaviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan 1999 yil uchun chora-tadbirlar Davlat dasturi» ishlab chiqilib, unda ayollarning ijtimoiy hamda moddiy ahvolini yanada yaxshilash, ularning oila va jamiyatdagi rollini kuchaytirish hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida faolroq ishtiroy etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy himoyalanishning asosiy yo'nalishlari belgilan qo'yildi.

O'zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini, baxtili hayotini taominlash faqarolar totuvligini mustahkemlashga qaratilgan ana shu dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmogda.

Oila bu jamiyatning bir bo'g'ini ekan, jamiyat bu bo'g'insiz yashay olmaydi u tez tarqalib ketadi, yaoni nafaqat jamiyatning, balki hayotning asos bo'lgan oilani himoyalash va uni mustahkamlash jamiyat hayotining eng dolzarb masalasidir.

Oilaga ko'proq eotiborimizni jalb qilib, uni yanada mustahkamlash uchun yangi dasturlar ishlab chiqish lozim. Uni har taraflama ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa taraflama himoya qilishimiz lozim.

Inson, hayotdagi, bu dunyodagi eng aziz va mo'otabar jonzot bo'lgani kabi, uning huquq va erkinligi birinehi o'rinda turgani kabi, biz eng avvalo bozor mexanizmlarini qo'llash bilan bирgalikda, oilani ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini amalga oshirmog'imiz lozimdir.

### **Mustaqillik davri O'zbekiston haykaltaroshligida yangi ijodiy yo'nalishlarning rivojlanishi**

*Dilmurod Po'latov  
NamDU dotsenti, san'atshunoslik  
fanlari nomzodi*

XX asrning 1990-yillariga qadar ko'pmillatli xalqlar san'ati doirasida shakllangan O'zbekiston haykaltaroshligi yangi tarixiy davrda, ijodiy

o'zgarishlarga yuz tutdi. Sohada milliy masuraviy yangilanish davri zuhur etib, yangi sifat bosqichiga yo'l ochildi.

Ma'lumki, yurtimiz haykaltaroshligi o'tgan asrda sobiq tuzumning g'oyaviy ehtiyojlari ozig'ida shakllangan edi. Yaratilgan asarlarda kasbiy mahorat va ijodiy tajriba nechog'lik puxta bo'lsa ham milliy makonimizga begona bo'lgan, tarixiy o'tmishimizga dahlsiz "qahramonlar" qiyofasini ifodalash yetakchilik qilardi. Monumentlar orasida milliy mavzudagi obrazlar mavjud bo'lsa hamki, ularning plastik yechimida tipik harakterni tasvirlashga chuqur talqin yetishmas edi. Shu bois, o'sha kezlar mamlakatimizda ko'plab haykallar o'rnatilganiga qaramay, milliy maktab mezoni bilan baholashga loyig'ini uehratish qiyin edi. "O'rni kelganda aytish lozimki, sobiq tuzum davrida bu soha san'atning eng matkuralashgan turiga aylanib qolgan edi" [1, 148-B]. Boz ustiga eng nufuzli yodgorliklarda milliy hayotimizga yod bo'lgan, xatto "xalqimizning hayoti va qadriyatlariga mutlaqo dahli bo'lмаган, umri bino bo'lib O'zbekistonga qadam bosmagan zotlarning qiyofasi aks ettirilar edi" [1, 148 B]. 1991-yildan O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, barcha sohalarni erkin tasarruf' eta boshlaganidan keyingina, ommaviy-markaziy maydonlarga o'rnatilgan bunday sohta viqorli haykallarga barham berildi.

Ayni paytda haykaltaroshlik istiqboli uchun zarur ijodiy talab va ehtiyojlar yuz ochdi. Olis o'tmishdagi jahon ilmu-fani va ma'rifatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan buyuk ajodolarimiz siymosini milliy iftixorga to'la qiyofada tasvirlash davr talabiga aylandi va bu borada davlat buyurtmasi bo'yicha yirik haykallar bunyod etildi. O'zbek haykaltaroshligida mahobatli asarlarning g'oyaviy mazmuni va badiiy ifodasida yangi davr muhitini gavdalantirish, avvalgi tarixiy shaxslar ko'rinishdan farqli ravishda, barkamol shaxs qiyofasi, odil hukumdar va mutasakkir timsolini yanada "jonli" tasvirlash bosh maqsad kash etdi. Ulug'vor suratda barpo etilgan bobokalonlarimiz haykallariga milliy g'urur, hurmat-ehtirom tuyg'ulari singdirildi [qarang 3. 2-B].

Mustaqillik davri O'zbekiston haykaltaroshligida eski yondoshuv aqidalarini barham topib, halqchil talqinka asoslangan yangi bosqichga ko'tarilish boshlandi. Ijoddagi yangi talablar, uslubiy yondoshuvlar va ayniqsa zamонавијиmezong'a muvofiq faoliyat yurituvchi yangi iste'dod egalari yuzaga chiqdi. Ular o'z asarlarida davr ruhini mohirona ifodalagani holda, yangi ijodiy sahnaga ko'tarildilar. Xususan, Ilhom Jabborov, Kamol Jabborov, Jaloliddin Mirtojiev, Anvar Raxmatullaevlarni shu o'rinda ta'kidlash mumkin.

Istiqlol yillarda tarixiy shaxslar xotirasini sharallovechi ulug'vor haykallar yaratish keng o'rin egalladi. Mamlakatning diqqatga sazovor joylarida qator – Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Amir Temur, Mirzo Ulubg'ek, Mirzo Bobur, Al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Alpomish va boshqa muhtasham haykallar qad rostladi. Bu turdag'i san'at asarlarining dastlabki namunasi 1991-yilda Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomli O'zbekiston milliy bog'iga o'rnatilgan "Alisher Navoiy" (ijodkorlar: Eynula Aliev, Nodar Bandzeladze, Vasiliy Degtyarev) haykalidir. Monumentda allomaning ohista xatti-harakati va qo'l ishoralari, shuningdek ruhiy olamiga uyg'un qiyofasida komil shaxs siymosi oshib berilgan. Bog'ning eng so'lim-sokin joyiga tabiat bilan uyg'un

holda o'rnatilgan mazkur yodgorlik, tantanali umumxalq bayramlari sohnasiga monand bajarilgan. Haykalning badiiy yechimida yangi davr muhitini gavdalantiruvchi va oldingi ijodiy yondoshuvlardan ajralib turuvchi ilk izlanishlar kuzatiladi.

Mustaqillik davrida sarkardalar qiyofasida adolatparvar va ja'sur ajdodlarimiz obrazini tasvirlash ayniqsa ustivor ahamiyat kasb etdi. Mazkur haykallar tasvirida kuech-qudrat, shon-shavkat ifodasi aks etgan. Shu xususda Ilhom Jabborovning Amir Temur obraziga atalgan haykallari o'ziga xos ijodiy yondoshuvi bilan e'tibor tortadi. 1993-yili Toshkentda, 1996-yili esa Samarcand va Shahrizabzda qad ko'targan Amir Temur monumentlari yangi davr o'zbek haykaltaroshligining yorqin namunasiga aylandi. Ayniqsa, Sohibqironning Toshkent shahrida o'rnatilgan haykali muhtashamligi bilan yaqqol ajralib turadi. Haykal servigor va salobatli qiyofada tasvirlangan bo'lib, unda vatanparvar va odil hukumdar siymosi talqin etilgan. Haykalning badiiy ifodasi te'ran ma'nolarga boydir. Jumladan, sarkarda ot ustida bir qo'llini hikmatli cho'zib, ikkinchisida jilovni tutib turarishida ramziy ma'no mujassamdir. Jumladan, Sarkarda otning jilovini tutib turishi: "Bu mustahkam davlat tizimini qo'lda mahkam tutib turishni anglatadi" [1, 148-B]. Amir Temur ikkinchi qo'llini baland ko'tarib, nasihat qilish bilan birga, dunyo axliga tinchlik-omonlik, baxtu saodat tilay otgani ifodalangan.

Mustaqillik yillarida bunyod etilgan mahobatli haykallar orasida 1999-yili Xorazmnning Urganch shahrida o'rnatilgan Jaloliddin Manguberdi haykali ham e'tiborga loy iq. "Jaloliddin Manguberdining tabarruk siyemosini toshga tushirish, haykal o'rnatish uchun ko'pgina ishlar amalga oshirildi. O'nlab mualliflar loyihamalar yaratib, hay'at a'zolariga ko'rsatishdi" [5, 4-B]. Haykaltaroshlar Ilhom Jabborov hamda Kamol Jabborovlar tomonidan bajarilgan loyiha tasdiqlandi va shu asosda yaratildi. Uning qiyofasi buyurtma talabiga ko'ra burgutday uchqur ko'rinishda, tog' cho'qqisida tasvirlangan. Haykalning bosh g'oyasida – yurt himoyasi uchun martlik va jasorat timsoli oshib berilgan. Sarkardaning muzaffar<sup>18</sup> qiyofasi mamlakat muhofazasi yo'lidagi vatan himoyachilar uchun ramziy tayanch deyish ham mumkin.

O'rta asrlarda yashab o'tgan vatandoshimiz, alloma Al-Farg'oniyiga atab Farg'ona va Quva shaharlarida 1998-yili ikkita muhtasham haykal (I.Jabborov) o'rnatilgan [qarang 4, 33-B]. Yodgorlik me'moriy unsurlar bilan hamoxang bunyod etilgan. Haykalda mutafakkir o'z ilmiy merosini jamiyat istiqboliga ramziy tuxfa tarzida talqin etilgan. Obrazda aqliy kamolatga erishgan mutafakkir shaxs siymosi aks etgan. Quvadagi haykalda esa allomaning ilmiy faoliyat jarayoni tasvirlangan. Mutafakkirni hayol ummoniga cho'mgan qiyofada ifoda etuvehi ushbu tasvirda vatandoshimiz o'z umrini ilmiy izlanishga baxshida etganligi sezilib turadi.

Jaloliddin Mirtojiev ham qisqa davr ichida yaxshi natijalarga erishdi. Ijodida shakl va g'oyaning badiiy ifodasi ravonlashdi, shaklan dinamik xarakterga boy kompozitsiyalar bajardi. Shuningdek, Rossiya (Alisher Navoiy).

<sup>18</sup>Зафар козонишига ишони билан характерланадиган мағрур киёфа.

Yaponiya (Alisher Navoiy), Xitoy (Kamoliddin Behzod) kabi horijiy davlatlar buyurtmasi bo'yicha ham ulug' ajdodlarimiz haykalini ishladi. O'tgan asrning mustabiq tuzumi davrida vatan istiqboli, ma'naviy madaniyati uchun qayg'urgan va bu yo'lda shahid etilgan adiblarimiz – Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Elbek, Abdurauf Fitrat singari qatag'on qurbanlari xotirasiga atalgan yodgorliklarni davlat buyurtmasi asosida ijod qildi. Mazkur haykallar ichki hissiyotga boyligi bilan yaqqol ajralib turadi. Masalan, Abdulla Qodiriy (toshkent, 1994 y) haykalida adibning ma'rifat yo'lidagi ayananchli qismati va hayotidagi mudxish manzara tasvirlangan. Asar kompozitsion yechimiga ko'ra, qahramon shahid etilgan bino harobasining tasvirlari bilan uyg'unlashgan, yuz tuzilishiga mungli nigoh va so'niq kayfiyat ifodasi singdirilgan. Yodgorlikning badiiy talqinida ona-yurtining istiqbolliga umid hissi sezilib turadi.

Jaloliddin Mirtojievning "Cho'lpon" (Andijon 1997 y) yodgorligi ham shu kabi ifodali asarlardan biridir. Muallif e'tirofsiga ko'ra "Cho'lpon ramziy ma'noni anglatuvchi kesilgan ulkan chinor ustiga o'tirgan ko'rinishda tasvirlanishi – qatag'on yillari toptalgan xalqimizning milliy madaniyati, ma'naviy me'rosi va g'ururi timsolini anglatadi" [6]. Shoiring o'ychan nigohida ta'qib etilgan mahzun chehrali shaxs siyosini oshib berilgan.

Yuqoridagi fikrlar O'zbekiston mahobatlari haykaltaroshligida uchta ustuvor yo'nalish mayjud ekanligidan dalolat beradi: birinchisi – buyuk siymolar shaxsini ulug'lovechi, ikkinchisi – shahidlar xotirasini sharaflovchi; uchinchisi – ramziy kompozitsiyali. Ularning har birida o'ziga xos ijodiy xarakter va g'oyaviy-ifodaviy xususiyatlari mavjud.

Birinchi yo'nalish: yuqorida qayd etilgan tarixiy shaxslar – buyuk sarkarda va allomalar obrazini o'z ichiga oladi. Bunday yodgorliklar orasida milliy me'morligimizga xos badiiy vositalar bilan hamohang o'rnatilgan allomalar siyosini alohida ajralib turadi. Ular uslubiy yo'nalishiga ko'ra uch turkumga bo'linadi: birinchisi gumbazli; ikkinchisi yarim aylanasimon vositali; uchinchisi ravoq unsirli haykallardir.

Shu xususda Toshkentdag'i "Alisher Navoiy", Quvadagi "Al-Farg'oniy", Marg'ilondagi "Al-Marg'iloni" hamda Nukusdag'i "Ona va bola" kabi yodgorliklar gumbazi obrazning milliy qiyofasini boyitadi. Yarim aylanasimon yodgorliklar turkumiga Farg'onadagi "Al-Farg'oniy". Nukusdag'i "Motamsaro ona", Urganehdagi "Ogahiy" haykallarini, ravoqli unsurlar bilan bajarilganlari jumlasiga esa Farg'onadagi "Ona va bola". Andijon va Jizzaxdag'i "Motamsaro ona" haykallari mansubdir. Bular orasida gumbazosti yodgorliklarning xarakterli jihatni Temuriylar davri me'morligiga xos qovurg'asimon moviy gumbaz vositasida milliy muhitning ta'sirechan ko'rinishini gavdalantirish, haykalga mumtozlik va salobat baxsh etishda kuzatiladi. Ular misolida haykal, me'moriy vosita va xalq amaliy bezak san'ati kombinatsiyalarini bir g'oya asosiga birlashtiruvechi yangi yo'nalish seziladi. Sirasini aytganda, mazkur me'moriy vositali asarlar zamirida mustaqillik davri O'zbekiston mahobatlari haykaltaroshligining yangi uslubiy tamoyili ko'zga tashlanadi.

Aksariyat haykallarning me'moriy unsurlar birligida yaratilishi haykaltarosh bilan me'morlarning ijodiy munosabat o'mata olyanligi

mahsulidir. Chunki, me'moriy unsurlar haykallarga yordamchi vosita yanglig' qo'llanilsa-da. Shuningdek, me'moriy vosita hamoxangligida buniyod etilgan haykallar o'zining umumiy tuzilishiga ko'ra yangi davr shahar muhiti bilan uyg'un barpo etilgan. Ularni odamlar bilan gavjum hiyobonlarda barpo etilib, atrofida dam olish joylarini tashkil qilinishi esa haykal bilan tomoshabin "muloqat"ini ta'minlaydi. Bunday asarlar milliy qiyofani boyitibgina qolmay, balki badiiy ifodaning ta'sir kuchini ham oshiradi.

Ikkinehi yo'naliш: shahidlар nomini xotirlashga xizmat qiluvechi yodgorliklar ijodiy yo'naliшiga ko'ra yodhoma tuyg'usini uyg'otuvchi vazmin plastik ifodaviyligi, obraz ruhiy olamini ham dardli kechinmalarga moyilligi bilan diqqatni jalb etadi. Bu o'rinda Jaloliddin Mirtojievnинг Toshkentdagи "Abdulla Qodiriy", "Elbek", Andijondagi "Cho'lpon" yodgorlik haykallarini namuna sifatida ta'kidlash mumkin. Ijodkor mazkur obrazlarga yondoshar ekan, avvalo ularning ruhiy azobda kechgan og'ir qismatini chuqur his qilish, qolaversa, bir umrlik orzu-istiklari bugungi kundagi millat farovonligiga qaratilganligini ham haykal ifodasiga singdirishga intiladi. Bu turdagи haykallar tarixiy shaxslardan farqli ravishda ruhiy istirobli, g'am-g'ussaga cho'mgan va jabr o'tida qiyalgan shaxslar obrazini yoritadi.

Uchinchi yo'naliш: ramziy kompozitsiyali yodgorliklar ham o'ziga xos badiiy yechimga ega. Unda ham birinchi tamoyilda bo'lganidek, milliy mustaqillik g'oyalarini ifodalash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday yodgorliklar ma'lum bir timsolga tayanib fikr bildirilgan kompozitsion asarlardan tashkil topgan. Masalan, Mustaqillik maydonidagi "Mustaqillik va eзgulik arki", Davlat va jamiyat qurilishi Prezident akademiyasi binosining hovlisiga o'rnatilgan "Ozodlik" hamda Respublikaning ayrim viloyat va tuman (Toshkent, Samarqand, Namangan, Qo'qon va b) lariga o'rnatilgan "Xumo qushi" monumentlarini misol keltirish mumkin. Bular orasida Mustaqillik maydonidagi haykaltaroshlik va me'morlik majmuasining badiiy-g'oyaviyligi hamda monumentalligi alohida ajralib turadi. Yodgorlikda istiqlol ramzi sifatida O'zbekiston haritasini yer sharidan ajratib ko'rsatilgan. Unda davlatimiz tarixidagi katta voqeа aks ettirilgan. Xususan, 1991-yildan O'zbekiston davlati o'zining mustaqil-ozod hududi chegarasiga, moddiy va ma'naviy boyliklariga, erkiga erishganligi kurrai-zaminning mahobatli tasvirida o'z ifodasini topgan. Ushbu majmua maydon tevaragidagi davlat boshqarma binolari va ularning zamonaviy me'moriy yechimini bir yaxlitlikda mujassamlashtiradi. Majmuaning birinchi planida g'oyat salobatli va zamonaviy yo'naliшda qurilgan eзgulik darvozasi o'rн olgan. Mazkur yodgorlik o'z qarshisidagi me'moriy binolar bilan o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Ikkinci planda tasvirlangan Kurrai zamin va O'zbekiston haritasi hamda mehir-muhabbat timsoli bo'l mish ona va bola haykali ham majmuuning badiiy yaxlitligini to'ldiruvchi asosiy vositadir.

Ajdodlarimiz shaxsidan so'zlovechi haykallarni ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalanishi ota-bobolarimiz haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi. ularning tabarruk siyomisini xotiramizga mustahkamlaydi. Ijodiy yangilanish davri mahobatli haykaltaroshlikda milliy yo'naliшni rivojlantirish, umumjahon badiiy tajribalarini mahalliy kesimda o'zlashtirish va yanada faollashtirish, zamonaviy

noan'anaviy shaklu-shamoyillar yuzasidan ham bundanda chuqurroq izlanish kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

## Axloq - ijtimoiy munosabatlarning asosi

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat*

*universiteti*

*Abdurasul Suyarov - talaba*

*Namangan davlat*

*universiteti*

Axloq ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq, elat yoki uyushmaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, xatti-harakatlar, xis tuyg'u va kishilar o'rtaсидаги о'заро реал муносабатлар тизимини ifoda etadi. Axloq muayyan xalqning atrof muhitga, kishilarga va o'z o'ziga bo'lgan munosabatlari sifatida, bir jihatdan, mahalliy-milliy hususiyatga ega bo'lsa, ikkinchi jihatdan, millatning umumjamiyat talablariga uyg'un muvosiqligini ta'minlovechi umuminsoniy hususiyatga ham egadir.

Axloq va ijtimeiy munosabatlar uchun mushtarak manbalardan biri, tabiiyki til hisoblanib, u ijtimoiy axborotni saqlovechi, ifodalovchi va etkazuvchi muhim vosita bo'lib, kishilar hatti-harakati, se'l-atvorlarini axloqiy ta'sir-tazyiq, ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish, jazolash va h.k. boshqarish omilidir. Til muloqot kaliti-ijtimoiy munosabatlarga tarixiy tabiiy mahsulidir. Axloq va jamoatchilik fikri hodisalarining bog'liqligi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichevi va undan keyingi davrlarida namoyon bo'la boshlagan bo'lib, u qabila hamda elatlar maishiy va ijtimoiy ongida o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan. Maishiy hayot doirasida axloq asosan quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lgan:  
a) munosabatlar v) faoliyat. Axloqiy sifatlar insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'lib, uning gnoseologik, iqtisodiy va ijtimoiy kelib chiqishi, hozirgi mavqeい va axloqiy qarashlariga ishora va guvohlik berib turgan axloqiy sifatlar yoki xatti-harakatlar ilk kishilik tarixi, ya'ni insoniyatning zaminga dastlabki qadamlar qo'yishishidan shakllanish bosqichiga kirgan va shu boisdan har bir xalq, elatlarda u o'ziga xos va betakrordir. Xuddi shuningdek millat va elatlar ijtimoiy ongining muayyan holati hisoblanmish jamoatchilik fikri ham o'zining shakllanish manbalarining salmog'i, real kuchga aylanish sur'ati, uyushqoqlik darajasi, hissiy-emotsional potentsiali hamda mantiqiy-intellektual asoslariga ko'ra milliy, iqlimiy mahalliy hamda regional o'ziga xosliklarga egadir. Axloq asrlar davomida odamlarni jamoatga, uyushuvga, boshqalar manfaatini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo'yib, yondashuvga undab kelgan. Bu xususida ulug'donishmandlar ibratli fikr-qarashlarni ilgari surganlar.

Hazrat Bahovuddin Naqshbandiy aytar edilar : «Har kim o'zgalarni xohlasa, o'zini xohlabdi, kimki o'zgani xohlamabdi, bilsinki, o'zini xohlamabdi». Movaraunnahr xalqlari axloq tizimi jamoatchilik fikrinining salmog'ini, uning haq va islam qoidalariga nechog'li muvoziq bog'liq ekanligini

alohida qayd etadi. Shu jamoa a'zolarining to'g'ri va halolligi gunoh ishlardan qanchalik o'zlarini forig' tuta bilishlari bilan ham o'lehanishiga e'tibor qaratadi. Ayni chog'da jamoa a'zolari gunoh yo'lga kirgudek bo'lsalar, ularni tarbiyalash ishidan bo'yin tovlamaslik zarurligi ham uqtiriladi. «Bu toifa ahlidan har kim bir gunoh qilsa, unga chora-tadbir bor, biroq undan yuz o'girish ravo emas». Jamiyat jamoatchilik fikri shaxs zimmasiga ijtimoiy tuzum, shakllangan axloqiy qarashlar, an'ana va urf-odatlar mantig'idan kelib chiqaruvchi ko'pgina talablar, sa'y-harakatlar, ish yuritish, turmush tutishda qator majburiyatlarini hisobga olish mas'uliyatini ham yuklaydi. Axloqiy qarashlarning jamoatchilik fikri hosil etish imkoniyatlari qanchalik katta bo'lsa, uning ommaga ta'sir doirasi shunchalik teran va ta'sirehan bo'ladi. Shu boisdan ham har bir axloqiy talab va qoida jamiyat tomonidan to'la ma'qullagan va o'zlashtirilgan bo'lishi zarur. Shaxsning jamiyat hayotiga bo'lgan ishtiropi qanchalik yuqori bo'lsa, uning axloq tizimida ijtimoiy mas'uliyat va vazifalari salmog'i ham shunchalik katta bo'ladi. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni esa mehnat, faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, har qanday axloqiy qoida va talablar jamiyat tomonidan e'tirof etilib, jamoatchilik fikrida mustahkamlangan holdagina umrboqiylik kasb etadi. Shu boisdan ham axloq jamoatchilik fikrining asosi va unga bevosita bog'liq ijtimoiy ong ko'rinishidir. Har qanday siyosiy tizim birinchi galda axloq asoslarini o'zgartirishga intiladi. Hozirgi kundagi ijtimoiy munosabatlар mazmuniga bozor iqtisodiyoti unsurlari bolaning tezkor kirib kelishi ahloqiy qarashlar va bu qarashlarni ifodasi bo'lgan jamoatchilik fikri mazmunida ham katta o'zgarishlar bo'lishiha olib kelishi shubhasizdir. Qadimgi ajodolarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuini, zamonaviy tilda aystsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopolikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, vatanini, xalqi uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydi. Bunday hayot tarzini jamiyat axloqi va jamoatchilik fikrigina boshqarib turiladi.

Abu Nasr Farobi yutganlaridek, «Mamiyat aholisi xushxulqqa ega bo'limgan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi». Jamoatchilik fikri jamiyat axloqining ifodasi tarzida namoyon bo'lganligi sababli, u axloqning o'zi bo'lib ham tuyuladi. Frantsuz olimi Berj bu xususida qiziqarli mulohazani o'rtaga tashlaydi: «Jamoatchilik fikri axloqqa juda o'xshab ketadi, chunki har ikkalasi ham jamoani hukm o'tkazib boshqaradi». Jamoatchilik fikrining jamoani katta ishonch bilan boshqarishini asosiy sababi shundan iboratki, u kishilar orasida axloqiy tizimiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy qarashlar esa kishilarning turmush tarzi orqali ularning orzu-o'yлari, maqsadlariga erishish yo'lidagi kurash va baxslarda tug'iladi va xatti-harakatlar mazmunining jamoatchilik fikri tomonidan baholana borishi jarayonida shakllanadi.

Xulosa qilib. Axloqiy tushunchalar kishilarning oddiy-odatiy turmush tarzida kundalik hayot jarayonida tarkib topib, uning amaliy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umumjahon axloqi asoslarini yuratish g'oyasi garchi bugungi kunda hech kimda shubha uyg'otmasada ko'p yillar mobaynida mazkur ijtimoiy

Intilishga bir yoqlama yondashish yaxshidan illat, savobdan qusur izlash tendensiyasi hukm surib keldi.

## **Globallashuv sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o'rni**

**Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi**

*Namangan davlat universiteti*

**Mohira Turopova - talaba**

*Namangan davlat universiteti*

Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyat o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi.

Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus – yer kurrasi) deb nomlandi. *Globallashuv jamiyat hayotining turli jubhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir*. Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin. XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi. XVII asr boshlariga kelib sharq va g'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. Shu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar. Shunday qilib, XV-XVI asrlarda yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Evropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Ayni shu davrda axborot-tehnologiya inqilobining rivojlanishi jadallahshdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bu

qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi. 1991 yilda Internet paydo bo'lganidan so'ng dunyo informatsion jihatdan ham uzilkesil tutashdi. Kompyuter inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan yangi axborot maydonini vujudga keltirdi. Globallashuvning serqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. *Mutlago yangi hodisa jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi.* Globallashuv sharoitida barqaror rivojlanishimizning muhim sharti bo'lgan milliy qadriyatlarimiz va yoshlар masalasining dolzarbligi tabiiy. Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston yoshiar mamlakati sanaladi. Respublikamizda 30 yoshgacha bo'lganlar 64 %ni tashkil etadi. Qolaversa, yoshlар ming yillar davomida shakllangan, sayqal topgan milliy qadriyatlarimiz, merosimizni kelajak avlodga yetkazuvchi qatlam sanaladi. Aynan shuning uchun ham yoshlар tafakkuri va ma'naviyatini globallashuvning zararli ta'siridan asrash, milliyligimizga yot mafkuraviy oqimlardan himoyalash eng muhim vazifamiz bo'lib qolmoqda. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov iborasi bilan aytganda "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega". Bunday sharoitda barkamol avlod, yoshlар omili ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni yaratishda muhim omil sifatida namoyon bo'limoqda.

Yoshlarni "huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash, jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlар hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash" borasida davlatimiz tomonidan ko'rileyotgan chora-tadbirlarni e'tirof qilgan holda, mafkuraviy ishlарimiz samaradorligini yanada oshirishga doir quyidagilarga alohida e'tibor bermog'imiz shart: Birinchedan, yoshlarga oid targ'ibot-tashviqot ishlарida turli ixtisos va yo'nalishlardagi mutaxassislar ma'ruzalaridan unumli foydalanishni inkor qilmagan holda, uehrashuvlarda jonli muloqot va amaliy ishlarga ko'proq e'tibor qaratishimiz, mavjud muammo va kamchiliklarni ochiqroq muhokama qilishimiz lozim; Ikkinechidan, targ'ibot-tashviqot ishlарida turli vositalarni mukammal darajada ishga solinishiga erishmog'imiz lozim. Masalan, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda yoshlар ongi va tafakurida milliy qadriyatlарimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, o'zligimizga hurmat ruhini kuchli darajada shakllantirishimiz shart: Uchinchedan, yoshlarni milliyligimiz, o'zligimizga sadoqat, hurmat ruhida tarbiyalashda kino va musiqa san'ati imkoniyatlарidan unumli foydalanishimiz kerak. Lekin shuni tan olish kerakki "yoshlар tarbiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan zamonaliv qahramon obrazi haligacha yaratilgani yo'q. Suratga olinayotgan aksariyat filmlarda kinochilarimizning bugungi kunning haqiqiy manzarasi, uning o'tkir muammolarini chuqur his eta olmasligi, oddiy odamlar hayotidan uzoqlashib qolgani sezilib turadi". Albatta, keyingi yillarda yurtimizda milliy seriallar, tarixiy filmlar yaratilishi kuzatilmoqda. Ammo hali qoniqarli deb bo'lmaydi. "Bu ahvolni tubdan o'zgartirish uchun yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda.

milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan istedodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim". Musiqa san'atining buguni va ertasi haqida o'ylar ekanmiz "bizning milliy an'analarimizga, odob-ahloq qoidalariga mutloqo to'g'ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so'zlarni qorishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni" o'ziga yangi uslub qilib olgan "san'atkor"larni o'ta xavili ekanligini anglashimiz surur.

Bu o'rinda Prezidentimizning "sir emas, ba'zan beozorgina bo'lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi"—degan, fikrlarini eslash kifoya.

To'rtinchidan: yashayotgan asrimiz axborot asri deb ta'riflanar ekan, bunda yoshlarni yetarli darajada axborot bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Milliy internet portallari, matbuot nashrlari faoliyatini yanada kengaytirishimiz va jonlantirishimiz lozim. "Bugungi xalqaro atamashunoslikda "axborot hokimiysi" ni anglatuvchi "mediokratiya" so'zi ham qo'llanmoqda. Inson bilgan narsalaridan emas, balki bilmagan narsalaridan qo'rqib yashaydi. Shuning uchun ham u o'sha mavhumlikka chek qo'yish maqsadida axborot izlaydi. Kimda-kim insonga ana shu mazmundagi axborotni yetkazib berish orqali ishonchga kira olsa, u o'sha inson ongi ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatiga ham ega bo'ldi. Axborot urushi, mafkuraviy xurujlar ham aynan mana shu asos ustiga qurilgan". Beshinchidan: targ'ibot-tashviqot ishlarida yoshlarni imkoniyatlaridan ham unumli foydalana olishimiz kerak. Iqtidori yoshiarni ham targ'ibot-tashviqot ishlariga jalb etilishi mafkuraviy ishlarimiz samaradorligini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib, qanday ta'rif berilishidan qatiy nazar, globallashuv jarayonlari dunyo qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda: geosiyosiy ta'sir doiralar qayta taqsimlanmoqda, g'arb madaniyati namuna sifatida talqin qilinib, zimdan g'arblashtirish siyosati olib borilmoqda. kishilar ongini egallah uchun harakat qilinmoqda. Bu haqida fikr yuritganda, avvalo, madaniyat va uning o'zagi bo'lgan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash lozim. Chunki, bugungi kunda ular har qanday mamlakat, jumladan. O'zbekiston uchun ham taraqqiyotning sharti, jamiyat ma'naviy-ahloqiy sog'lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallahda mustahkam tayanch bo'lib hizmat qiladi.

## Globallashuv va milliy ma'naviyat

*Po'latova Feruza*

*BT VA STI yo'nalishi 404-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Tillayev B.*

XXI-asrning muxim xusuiyatlaridan biri-insonning ongi va qalbini egallah uchun kurashning kuchayganlidir. Qonli urushlar, harbiy yurushlar, iqtisodiy iskanjaga olishlar o'rniiga endi globallashgan mafkuraviy vositalar va ma'naviy

qurollar ishlatalmoqda. Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan. insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz.

Ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday voqeja yuz bermasin. odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Globallashuv jarayoni hayotimizga

tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak- bugungi kunda xar qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqni nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar. balki jahon miqiyosida boshqa mintaq'a va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki. biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobjiy natijalarga olib kelmasligini tushunish. anglash qiyin emas.

Globallashuv- bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga hos jihatni shundan iboratki. hozirgi sharoitda u masifikuraviy ta'sir o'tkazishning nixoyatda o'tkir quroliga aylanib. har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariiga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam. albatta. kuzatishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov milliy mustaqillikni mustaxkamlash ma'naviyatni yuksaltirish bilan uzvyi bog'liq ekanligini necha bor ta'kidlab o'tdilar. Istiqlol yillarda esa "Yuksak ma'naviyat" kontsepsiyasini yaratdilar. Ma'naviyatning roli . o'rni va ahamiyati yangicha baholandi.

Milliy an'ana. urf-odatlar-milliy dunyoqarash manbai hamdir. Azaldan xar bir avlod o'z ota-onalaridan dunyoqarashni o'zlashtirib. o'z dunyoqarashiga aylantirgan va shu asosda farzandlari dunyoqarashini shakllantirib. meros tarzida uzatib kelgan. An'analarning milliyligi tufayli avlodlar orasida xamfikrnlilik. o'zaro ishonch. izzat. maqsad birligi. samimiylilik tantana qilgan.

Taraqqiyotning yangi manzillari belgilab olingenida yangi an'analalar ham paydo bo'la boradi. Bugungi ilmiy - texnologik taraqqiyot bizga o'z talablari. jumladan. vaqt va mablag'ni bekorga sovurmaslikni. turmushimizni bugun-kechagidan. ertaga-bugungidan. yaxshiroq tomonga o'zgartirishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A Karimovning Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan.

"Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga. halqimizning hamjixatligi va bukilmas irodasiga bog'liq" deb nomlagan ma'rurasida "Mamlakatimizni demokratik tamoyillari. ilm-fan yutuqlari. yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga. muqaddas dinimizni. milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz. Bu ezgu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun yurtimizda mayjud bo'lgan salohiyat va boyliklarni ishga solish. ulardan oqilona foydalanish. avvalo. o'z kuch va imkoniyatimizga. ota-bobolarimizdan qolgan bebafo meros. milliy urf-odat va an'analarga suyanish. qadryatlarimizni tiklash. bir-birimizga

yelkadosh bo'lish ehtiyojini xalqimiz bugun har tamonlama tushunib yetdi. Ayni vaqtida umumbashariy yutuqlarni o'zlashtirish. yosh avlodni shu asosda turbiyalash, do'stni g'animdan ajratish. bizga qo'l uzatayotgan xayrixon sheriklar bilan hamkorlikda ertangi kuminizni ko'rish. jahon xamjamiyatida munosib o'rin egallahsga qaratilgan oliy maqsadlarimiz haqida bugun ortiqcha targ'ibot olb borishga xojat yo'q. deb o'yayman". - deya ta'kidlab o'tgan edi. Shu bilan birga ma'naviyat va ma'rifat axli. yoshlar zimmasiga qator vazifalar yuklandi. Milliy ma'naviyatimiz shakllangan mana shundek dorulomon kunlarda xar bir yoshning, o'qib izlanishi. milliy ma'naviyatini to'la anglab yetishi ko'zlagan maqsad sari olib boradi.

### Vatanparvarlik - olivjanob fazilat

*Nurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Obidxon Tursunxonov - talaba*

*Namangan davlat universiteti*

Vatan - sermazmun. juda ham keng tushuncha. U yashab to'rgan uyimizdan boshlanadi. Xalqimiz uy qurgan odamni «vatanli bo'lib qoldi». deyishi bejiz emas. «Vatanostonadan boshlanadi» degan ibora barena xalqlarda borligi ham shundan dalolat beradi.

Bizning xalqimiz o'zi tug'ilgan joyga juda katta muxabbat bog'laydi. Shuning uchun ham ular boshqa joyga ko'chishni xoxlashmaydi. Boshqa joylarga ketganda ham doimo o'zi tug'ilgan el-yurtidan aloqasini uzmay. uni ziyyorat qilib turadi. Bu ham Vatanga sadoqatli bo'lismning ko'rinishidir. Vatan — insoning ota-onasi, qarindosh urug'lari. tug'ilib o'sgan joygina emas. balki yoshlik davrlarni boshidan kechirgan, yugurib elib o'ynagan, sayr qilgan dalalar, cho'milib yurgan soylar, daryolar, oromgox bog'lar, tog'lar, tabiat muhitdir. Demak Vatanni sevmoq — kindik qoni tug'ilgan joy tabiatini sevmoq uning uchun qayg'urish ham demakdir.

Ona-yurt. Vatan — inson uchun oltin beshik. Inson ana shu oltin beshikda dunyoga keladi. ilk bor qadam tashlaydi. unib o'sadi. voyaga etadi. el yurt xizmatiga bel bog'laydi. Shuning uchun ham vatan har qanday inson uchun onasi kabi aziz va mukarramdir. Vatanni insonga baxt iqbol beradigan muqaddas maskan bo'lib hisoblanadi.

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida yozganidek «Vatan har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani devilar. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar. Xatto bu vatan xis-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar ayrilsa o'zlaridagi kabi roxatda yashamas... Vatan bu halqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan deganda hamisha o'zimiz tug'ilib o'sgan, ta'lim olgan, voyaga etgan necha-necha avlodu ajdodlarimiz yashab o'tgan, ularning aqti idrokleri, mehnatlari sarf etilgen muqaddas yurt ko'z oldimizga keladi. Vatan bu ota yurt. ajdodlar maskani. el-yurt. xalq voyaga etgan. uning tili, tarisi

madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, chuqur ildiz otib, o'sib kamol topib boradigan zamindir.

Haqiqiy barkamol inson Vatanning ravnaqi va istiqboli, el-yurtning ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, xatto, shirin jonini ham ayamaydi.

Bu haqda Maylono Fuzuliyning «mening bitta hayottim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lar edim», deb aytgan so'zlari har bir aqli raso fuqaro uchun bebaxo o'gitudir. Inson uchun Vatan yagonadir. Vatanning katta kichigi, ham, boy kambag'ali ham bo'lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi. Vatan in'om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir.

Muqaddas Hadisi Sharifda «Vatanni sevmoq ijmonandur» deyilgan. Bu so'zda chuqur xikmat bor. Vatanni sevish, ardoqlash kishiga kuch quvvat beradi, aql-idrok ato etadi, yuzini yorug' qiladi, jasoratlarga chorlaydi, mardliklarga undaydi, odamlar, millatlar, halqlarni birlashtiradi. Hamid Olimjon «Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman» degan maqolasida bu haqda shunday degan edi: «Mening halqim o'z kindigining qoni to'kilgan tuproqni o'z onasiday aziz ko'radi. Mening halqim o'z bobolari ko'milgan tuproqni o'padi, shu tuproqni harom, noplak qilgan odamni o'ldiradi. Qadim o'zbek botirlarn uzoq safarga ketganda, bir xovuch vatan tuprog'ini doim o'z yonlarida olib yurganlar. Chunki bu tuproq ularga o'z tug'ilgan erlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Bu bir xovuch tuproq unga o'z ota-onasini, qarindoshlarini, xalqini eslatgan, uzoq bo'lsa ham uni o'z vatanida, xis qiladigan va qasrda bo'lmasin o'z xalqi sha'niga isnod keltirmaslikka, o'z xalqining nomusi va sodiq o'g'li bo'lishga chaqirgan. U Vatanini qancha sevsan, ota-onadan, sevimli yordan, qondosh vatanidan nishona bo'lgan shu bir xovuch tuproqni ham shuncha sevgan. Shu bir hovuch tuproqning kuchi shuncha zo'r bo'lganki, u suvsiz saxrolardan, qorli tog'lardan, vaxshiy daryolardan, yovvoyi o'rnolardan ko'z oehib yumguncha o'ta olgan. Shu bir hovuch tuproq uni o'tdan omon saqlagan. O'q uning ko'kragini tesholmagan, qilich tanasini tesholmagan, olov kuydirmagan, zindon chiritolmagan».

O'zbeklardek vatanini sevadigan, yurtiga boglangan halq jaxonda kamdan-kam topiladi. O'zbek halqi qo'liga qurol ushlab Vatan himoyasi uchun dushmanga qarshi jang qilishni juda yaxshi biladi. Vatan deb o'zini ham o'tga, suvg'a mardona otadi, aziz yurtning har bir qarich eri uchun jon olib jon beradi.

Hulosha qilib, haqiqiy vatanparvarlik millat. Vatan manfaati deb yashash, uning istiqboli, baxti va saodati yo'lida mehnat qilish uchun kurashishdir. Vatan erki va yurt ozodligi uchun hayotini tikkani kishini xalq ham, tarix ham aslo unutmaydi. Bundaylarni bemalol haqiqiy vatanparvar deb aytса bo'ladi. Vatanimiz O'zbekiston uchun qo'limizdan keladigan har bir foydali ishni qilish, gullab-yashnashi uchun xissa qo'shish bizlarga ajdodlarimizdan qolgan buyuk fazilatdir.

## **Mutafakkirlar merosining milliy ma'naviyatdagi o'rni**

**O'rolova O'lmaxxon,  
BTI VA STI 404-guruh talabasi  
Ilmiy rahbar: B.Tillayev**

Axloq insonning mehnatda, turmushda, siyosat va fanda, oilaviy munosabatlarida, shaxsiy hayotda, ijtimoiy guruhlarda amal qiladigan xulq - atvori va ongini tartibga solib turuvchi murakkab ijtimoiy xodisadir. Axloq tamoyillari umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lib, barcha kishilarga taalluqli, ayni bir vaqtda inson borlig'ining ehucur ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlarini aks ettiradi. Axloq ijtimoiy hayotga nisbatan qarashlarning bir butun tizimini aks ettiradi va o'zida jamiyat, inson, tarix va ularning mohiyati haqidagi tushunchalarni qamrab oladi. Shu ma'noda, axloqning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ilmiy tahlil etish diqqatga sazovor mavzu bo'la oladi.

Axloq va ijtimoiy ravnaq hamda ularning o'zaro dialektik aloqadorligi masalasi jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida falsafaning muhim mavzularidan biri bo'lib kelgan. U jamiyat taraqqiyoti bilan uzyiy rivojlanadi va muayyan jamiyat a'zolariga baho beradi.

Axloq ijtimoiy ravnaqning tarkibiy qismidir. Agar jamiyatda iqtisod, siyosat va ma'naviyatda o'zgarishlar ro'y bersa, kishilarning axloqiy qarashlarida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bu xol, ayniqsa, bir tuzumning ikkinchi tuzum bilan almashinuvi davrlarida sodir bo'ladi. Ijtimoiy tarqqiyot axloqiy taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy qoidalar fandan, inson bilimlaridan ajralgan holda jamiyat hayotining maqsad va ma'nosini izohlay olmaydi. Ular shaxs va jamiyat rivojlanishining haqiqiy manfaatlariiga to'liq xizmat qila olmaydi. Bu yerda shu narsani ta'kidlash kerakki, fan faqat ob'ektiv borliqdagi faktlarni tahiil qilishi yoki izohlashi, olamning taraqqiyot qonunlarini ochishi bilan cheklanmaydi, balki u moddiy dunyoni tadqiq etib, haqiqatni aks ettiradi. Qo'lga kiritilgan qonun va haqiqatlarga tayanib, ma'lum bir amaliy vazifalarni aniqlab, odamga ularni amalga oshirish vositalarini ko'rsatadi. Bular faqat bilim orqali bo'ladi. Bilim bo'lmasa, chin insoniy fazilatlar bo'lishi mumkin emas. Bular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ijtimoiy ravnaqqa ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan madaniy, ma'naviy, axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy va boshqa turlarga bo'linadi. Ular insonning aqli, kamoloti, dunyoni bilish maqsadi, bilimlarning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezoni yoki biror ideal tarzida namoyon bo'ladi. Tarixiy-ma'naviy qadriyatlarning yana bir muhim jihat shuki, ularning ba'zilari insoniyat tarixi davomida asta-sekin shakllanadi va takomillashib boradi. Ularning miqdori va sifatining ortishi jamiyat a'zolarining tafakkur darajasining yuksalishi hamda insoniyat taraqqiyoti qanchalik ilgarilab ketganining ko'rsatkichi ham bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ma'naviy qadriyat va qadriyat mezonlari millat ma'naviyati va unga mansub kishilarning xalq-atvorni, axloqini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishda alohida o'ringa ema bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, buguni, kelajani, urf odati

va an'analari, uni tashkil etgan avlodlar tafakkuri, ijtimoiy qatlamiar, milliy ong, til hamda milliy madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli ma'naviy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi.

Ma'naviy merosni yanada chuqur o'rganish va uni shaxs ma'naviy tarbiyasidagi rolini oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suramiz: mutafakkirlar merosiimizni falsafiy-tarixiy jihatdan tadqiq etishni shaxsni jamiyat ravnaqida tutgan o'rni va roli bilan bog'liq holda yoritish:

- boy mutafakkirlar merosiimizni milliy istiqlol g'oyasi ruhida har tomonlama tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolarini printsiplar jihatdan ishlab chiqish va boyitish;

- mutafakkirlar merosiimizning falsafiy, ilmiy nazariy, badiiy, estetik, diniy, tasavvufiy asoslarining xususiy va umumiyligi jihatlarini asoslash;

- keng ko'lamma yuz berayotgan globallashuv jarayonida mutafakkirlar merosini asrab-avaylash va uni kengaytirish;

- mutafakkirlar merosini amaliy jihatdan o'zlashtirish maqsadida;

- mutafakkirlar merosi, mutafakkirlarning axloqqa oid qarashlari ruknida ilmiy asarlar, risolalar, xrestomatiyalar, to'plamlar chop etish;

- "Globallashuv va mutafakkirlar merosi" mavzuida ilmiy anjumanlar, seminarlar, uchrashuvlar, davra suxbatlari tashkil etish;

- O'zbekiston televideniesi "Otalar so'zi-aqlning ko'zi", "Oddiy haqiqatlar", "50-50" ko'rsatuvlari asosida maktab o'quvchilari va Oliy o'quv yurti talabalari uchun ma'naviy soatlarida foydalanadigan dastur va qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratish va ulardan doimiy ravishda foydalanish;

- mutafakkirlar merosini o'rganish inson tafakkuri va ongini yangilash va tozalash uchun xizmat qilishligini, o'zlikni anglash insonning o'z o'tmishi va ajodollariga qiziqishidan boshlanishini falsafiy-tarixiy tahlilda tushuntirish;

- mutafakkirlar merosi muammolari bilan bog'liq san'at asarlarini ko'rgazmalari, badiiy asarlar muhokamasini uyuştirish;

- mutafakkirlar merosi, ma'naviyat taraqqiyoti muammolariga bag'ishlangan asarlarining "Oila kutubxonasi"ni tashkil etish va boshqalar.

## **Yoshlarga e'tibor – kelajakga e'tibor**

*Xo'jayeva Shahnozaxon,  
BTI va STI 402-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: B.Tillayev*

O'zbekiston jahoning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olishi uchun birinchi navbatda fuqarolarning shu qatorda yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ular orasida qonunlarni targ'ibot qilishni kuchaytirish lozim. Prezidentimiz I.A.Karimov "Har bir fuqaro, har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarning huquqiy bilimlar bilan qurollantirish shart. Toki, jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va o'z mas'uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohotlar, yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz.

sa'y-harakatlarimiz besamara ketaveradi"- deb aytib o'tgan edi. Demak, har bir kishining huquqiy madaniyatli bo'lmoq'i jamiyat va farovon hayotimizning taqdiri bilan bog'liq masaladir. Bu esa joylarda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Jinoyatchilikning oldini olish uchun aholi ijtimoiy tafakkuri va huquqiy saviyasi yuqori bo'lishi muhim o'rIN tutadi. Buning uchun joylarda jamoatchilikning faolligini oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish muhim o'rIN tutadi. Har bir ongli kishi bu ishga o'z hissasini qo'shmas ekan, olib borilayotgan harakatlar o'z natijasini bermaydi.

Voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzarliklarning oldini olishda ta'llim maskanlarida yoshlar huquqiy bilimini oshirish va ular orasida qonunlar targ'ibotini kuchaytirish lozim. Chunki, huquqiy tarbiya ularning ongi, histuyg'ulari va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish demakdir. Shuning uchun ham keyingi yillarda milliy mafturamizning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan aholining huquqiy madaniyatini oshirishga jiddiy e'tibor berilmоqda.

Tarixda ulkan ijtimoiy -siyosiy o'zgarishlar va misilsiz kashfiyotlar davri bo'lsin XX asr nihoyasiga yetib, mana 17 yildirki XXI – asrda yashamoqdamiz. Bu misilsiz o'znarishlar ichida biz uchun eng mo'tabari O'zbekiston xalqini o'z o'z mustaqilligini qo'lga kiritish bo'ldi. O'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanib bormoqda. Bolajonli xalqimiz ozod va erkin rivojlanishning markaziga Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek kuchli, bilimli, dono va baxtli avlod tarbiyasini maqsad qilib qo'ygan. Bu ulug'vor maqsadni amalga oshirishda maktab o'quvchilari orasida milliy g'oya, uning asosiy tushuncha va tamoyillarini keng targ'ib etish.ularni yoshlar ongi va qalbiga singdirish alohida muhim ahamiyatga ega.

"Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" o'quv fani ana shu yo'nalishdagi vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Erishilgan tajriba ya'ni bu sohadagi amaliyotni o'rganish mazkur fanni o'quvechi yoshlarga o'qitishning samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi asosiy talablarga rioya qilish zarurligini ko'rsatmoqda:

- yoshlar ongida g'oyalalar haqida to'liq tasavvurlarni shakllantirish, o'zma-no-mohiyatiga ko'ra g'oyalarning bunyodkor va vayronkor bo'lishi haqida to'g'ri bilimlar hosil qilish. Buning uchun tarixiy voqealaridan ko'plab misollar keltirish, asosiy maqsadi vayronkor bo'lgan jahon urushlarning millionlab odamlarni yostig'ini quritganligini, ko'plab shaharlarni, madaniy va moddiy boyliklarni yo'q qilganini, ming-minglab bolalarni yetim-esir qilganligini aniq tarixiy materiallar asosida ko'rsatib berish o'rинli boladi.

Milliy istiqlol g'oyasini insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida mustaqillikning muqaddas qadriyatligi, uni har bir keksayu-yosh avlod astabavaylash muqaqdas burch ekanligini o'quvechi va talabalarning qalbi ongiga singdirish. Bu o'rinda Prezidentimizning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarida keltirilgan "mustaqillik osonlikecha" o'z-o'zidan qo'lga kiritildi" degan xomaki va asossiz tasavvurlarni uloqtirib tashlash, istiqlol o'zbek xalqining asriy orzusi bo'lib kelganligini va buning uchun xalqimiz tarixlar osha muntazam kurashib kelganligini tushuntirish lozim. Bu kurashda

Prezidentimizning o'zoqni ko'ra oluvchi siyosati, teran ilmiy-nazariy tafkkuri, qat'iyati va jasorati, xalqimizga qilgan rahbarligi va rahnomaligi, shaxsiy ma'nnaviy jasorati hal qiluvchi rolb o'ynaganligini aniq faktlar asosida ko'rsatib berishi zarur. Millat o'z kuchini, taraqqiyoti zaminlarini avvalo yosh avlod orqali topadi va rivojlanadi. Jamiyatning eng o'zgaruvchan va harakatchan qatlamini jamoaga va jamiyatga xos qilib tarbiyalash, intelektual salohiyatini oshirish, milliy ana'analarimiz, qadriyatlarimizni asrab-avaylashning asosiy tashuvchilari yoshlar hisoblanadi. O'zbekistonda ular aholining 64% (17 mln.) ni tashkil qilib, juda katta strategik kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy g'oyani aynan shu qatlam orasida targ'ib qilish, ularning ongiga singdirib, ishonch va e'tiqodga aylanib borishining bir qancha o'ziga xos jihatlari mavjud. Bu jihatlar davlatimizning kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy manbalaridan biridir. Birinchidan, milliy g'oya bir tomonidan yoshlarni o'zini ob'ekti sifatida qarasa, ikkinchi tomonidan yoshlar milliy g'oyani asosiy tashuvchilari va bir paytning o'zida keyingi avlodga yetkazib beruvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan, yoshlar qanchalik darajada milliy g'oya bilan qurollangan va uning mazmun mohiyatini anglagan bo'lsalar, bugungi kunda avj olgan "mafkuraviy ta'sirlar"ning oldi olingen bo'ladi.

## **Globalashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrashning uslub va vositalari**

*B. Kenjayev*

*Ijtimoiy-iktisodiy fakulteti «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlар demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustuvordir. Shu bilan birga mafkuraviy vositalar orkali uz ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va xarakatlar xam yuk emas. Aslida axborot soxasidagi globalashuv insoniyat uchun, insonlarni uzaro mulokoti uchun, ilm fan va madaniy boyliklarni uzashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratiladigan jarayon. Lekin zararli okimlar bundan uz garazli maksadlari yulida foydalanib yoshlarni irodasidan, ong shuuridan maxrum kilib uz ta'sirlarini kursatmokdalar. Davlatimizda mustakillikdan sung tarixiy xotira, milliy an'ana va kadriyatlар tiklandi. Xozirgi sharoitda millatimizning asriy an'ana va urf-odatlarini, uzligimizning asosiy xususiyatlarini mujassamlashtirib, jamiyatimiz, mamlakatimiz uz oldiga kuygan vazifalarini anik bajarmogimiz lozim. Xalkimizning asriy an'analariga, mukaddas dinimizning insonparvarlik moxiyatiga, milliy qadriyatlarni asosiga xos, o'zligimizga mos rivojlanish yulidan yurmogimiz lozim. Bunda:

-Axolini siyosiy faolligini oshirish

-Milliy va umumbashariy kadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish;

-Karama-karshi kuchlar va xarakatlar urtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish;

-Maxalliy xokimiyat va fukarolarni uz-uzini boshkarish organlarining faoliyat darajasini yanada kengaytirish;

-Iste'dodli, izlanuvchan, chukur bilimli, yuksak malakali, sadokatli yosh kadrlar tanlash va joy-joyiga kuyish;

-O'zligimizni chuqurroq anglash, milliy urf-odat, an'ana, kadriyatlarni asrash, avaylash va avlodlar ongiga singdirish kabi uslublarni amalga oshirish, bajarish kerak.

I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uni ustidan xukmrolik kilish, uning boyliklaridan uz manfaati yulida foydalanishga karatilgan doimiy xavf sifatida saklanib kolishi mukarrar. Shu ma'noda bunday xavf-xatarlarga kurshi asosiy kurol sifatida yurtimizda yashayotgan xar bir inson, unib usib kelayotgan yangi avlodning xar tomonlama barkamol, irodasi bakuvvat, iymoni butun bulib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va axolimiz urtasida ma'naviy- ma'rifiy faoliyaimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».

## **Ma'naviy va axloqiy barkamollik qirralari**

*Erkinova Shahnoza,  
BTI va STI yo'nalishi 404-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar:  
B.Tillayev*

O'zbekistonda bolalarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ularning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minotiga oid huquqlarni ro'yobga chiqarish huquqiy dastaklarning samaradorligini oshirish, bu muhitda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilayotganini xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof qilinmoqda.

Jumladan, YuNISEF tomonidan 410 million nafardan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Markaziy va G'arbiy Yevropa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stiigi va Boltiqbo'yining jami 27ta mamlakatining rivojlanishini o'z qamroviga olgan huquqiy monitoring hujjatlarida inson taraqqiyotining tanlab olingan 20ta ko'rsatkichidan 9tasi O'zbekistonda sezilarli ijobjiy o'zgarishlar kuzatilayotganligi qayd etilgan.

Mazkur hujjatda mamlakatimizning barqaror rivojlanishi bolalar va onalar o'limi, o'smirlar orasida tug'ish holatlari, onalar hayotining uzayishi, nikohning bekor bo'lishi, o'smirlar orasida jinoyatchilik, ijtimoiy muhofaza va bandlik masalalarida ijobjiy siljishlar yaqqol namoyon bo'layotganligi bayon qilingan.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllangandan so'ng, burchut navbatda yoshlар masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, ularni

muhofazasini huquqiy jihatdan mustahkamlash ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Bunga misol qilib. Respublikamiz hukumati tomonidan “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi”ni. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabr 360 sonli «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida”gi qarori. ushbu qaror voyaga yetmaganlar ta’limtarbiyasiga mas’ul vazirliklar va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda bu boradagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirilishiga asos sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xalqimiz tinch va farovon hayot yo’li tomon shaxdam qadamlar bilan odimlamoqda. Mustaqillikka erishganimizga ko’p bo’lmasada, yurtimiz jahon hamjamayatlari orasida o’z obro’si, qadr – qimmati, o’z o’rniga ega bo’ldi. Mustaqillik biz uchun o’zligimizni anglash, buyuk ajdodlarimiz, tariximizni bilishni o’rgatadi.

Yurtimizning osuda farovon hayotida, dunyoning yetakechi davlatlari bilan bellasha olishda biz yoshlarning hissasi katta. Mustaqil fikrlay oladigan zamonaviy ilm – fan, kasb – hunarni puxta egallagan, o’z yurtini seva oladigan, g’ururi baland yoshlarni hech kim yenga olmaydi. Biz oldimizga qo’ygan yuksak maqsadlarga yetishishda ana shunday yoshlarimizning o’rni beqiyos. Yurtimizda yoshlarimizning erkin ijod qilishi, ilm – fan cho’qqilarini mukammal egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunga javoban yoshlarimiz sport soxasi deysizmi, ilm – fan, adabiyot, tadbirkorlik faoliyati, san’at sohasidami o’zlariga bildirilgan yuksak ishonech xissini tuyib Vatanimiz bayrog’ini yuksaklarga ko’tarishmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining katta qismini qamrab olgan soha o’rta maxsus, kasb-hunar, va oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni oqilonra va maqsadga muvofiq tashkil etish umumdavlat siyosati miqdoridagi vazifadir.

Ma’naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan kuvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi, ba’zan uyushtirilgan tuhmatu-fitnalar uning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma’naviy barkamol inson ma’naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma’naviyatga ega inson - fidoyilik, jasorat, mardlik, o’z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi oljanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma’naviy-ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytiganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a’zolari, qo’ni-qo’shnilar, mahalla-ko’yi, qishloqdochlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg’urish; tevarak-atrof’dagi insonlar unga kerak bo’lganligi singari, o’zi ham ularga kerakli bo’lishga intilishi; odob-axloqi, fe’l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo’lib qolgan madaniy merosni qadrlash; milliy qadriyatlarni e’zozlash va ularga sodiq bo’lib qolish; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg’ularining

barqaror bo'lishi: o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik, birovning og'irini yengil qilishni odad qilish: umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatish: Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash: diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezzulikni himoya qilish; va'daga vafoli bo'lish va boshqalar kiradi.

## "Yangi yil" bayrami tarixi

*Mavlonov A.A.*

*NamDU*

*Arxivshunoslik*

*kafedrasi o'qituvchisi*

Insoniyat tomonidan bugungi kunda juda ko'p bayramlar nishonlanib kelinmoqda. Ammo ularning ko'pchligini milliy hususiyatga ega bo'lgan bayramlar tashkil etadi. Biroq shunday bayramlar ham borki ular birgina millat doirasi bilan chegaralanib qolmaydi. Ana shunday umumbashariy bayramlardan biri "Yangi yil" bayrami desak also mubolag'a bo'lmaydi. Quyida ushu bayram tarixi bilan tanishamiz.

"Yangi yil" bayrami insoniyatning eng qadimgi bayramlaridan biri bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi Misrda miloddan avvalgi III ming yillikdan boshlab nishonlanib kelingan. Garchi "Yangi yil" bayrami sanalari ma'lumi sivilizatsiyalar va madaniyatlarda turlicha nishonlangan bo'lishiga qaramasdan bayramning tub mohiyati bir hil bo'lgan, ya'ni "Yangi yil" bu yangilanish, yangi maqsadlar, yangi orzu-niyatlarni kelayotgan "Yangi yil"da ro'yobga chiqajagini umid qilishda o'z aksini topadi. Masalan, qadimgi Misrda "Yangi yil" bayrami Nil daryosining eng to'lib toshgan davriga, ya'ni sentabr oylariga to'g'ri keigan bo'lib, misrliklar uchun bu davr dehqonchilik uchun yangi davrni boshlanishi hisoblanib. Ra xudosi sharafiga bayram o'tkizilib qurbanliklar qilingan. Bizning qadimiy Vatanimizda esa "Yangi yil" bayrami Zardushtiylik dini an'analariga ko'ra bahorning dastlabki oylarida nishonlangan bo'lib barchaga ibodatxonalarda tayyorlangan muqaddas ichimliklar tarqatilgan. Bugungi kunda esa biz ajdodlarimizning "Yangi yil" bayramini "Navro'z" bayrami ko'rinishida nishonlamoqdamiz.

Rasmiy jihatdan "Yangi yil" bayramini nishonlash miloddan avvalgi 46-yilda Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan joriy qilingan. Aynan shu yildan boshlab o'sha paytdagi rimliklarning "eshiklar va barcha boshlanishlar" xudosi Yanus sharafiga 1-yanvar kuni "Yangi yil" bayrami sifatida e'lon qilingan. Shunday qilib, miloddan avvalgi 46-yilden 1-yanvar kuni qadimgi Rimda katta bayram tashkil etilgan.

Rim imperiyasining qulashi va xristianlikning keng tarqalishi bilan "Yangi yil" bayramini nishonlash har bir mamlakatda turlicha yo'nalish oladi. Masalan. Angliyada yangi yil aprel oyida nishonlansa. Fransiyada bu sana "Paxsa" bayrami haftasining birinchi kuniga to'g'ri keladi. Provalov cherkovidagi xalqlarda (jumladan Ruslarda) yangi yil 13-yanvar atrofida nishonlangan.<sup>141</sup>

Xullas bu bayramning nishonlanish kuni har bir xalqning iqlimi, hayot tarzi va jamiyatining rivojlanishiga qarab o'zgarib turgan. O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda bu bayram asosan bahorda nishonlangan bo'lib, keyinchalik Islomning kirib kelishi bilan ko'pehilik xalqlar bu bayramni nishonlashdan voz kechishgan. O'rta Osiyo, Eron va boshqa Navro'z bayramini nishonlovchi xalqlar bundan mustasno. Islomning jamiyatga kuchli ta'siriga qaramasdan ushbu hudud xalqlari o'zlarining an'analaridan butunlay voz kechmaganlar. uni o'niga o'zlarining qadriyatlarini Islom bilan moslashtirishga harakat qilishgan.

Shu o'rinda agar "Yangi yil" turli xalq va dinlarda turliche nishonlangan bo'lsa nima uchun aynan 1-yanvar kunini yangi yil sifatida nishonlaymiz degan savol tug'iladi. Bunga sabab 1582-yilda Papa Grigoriy XIII tomonidan, eski Yuliy kalendariagi xatoliklar bartaraf etilgan, matematik va vrach Aloiziy Luiji Lilio tomonidan tuzilgan yangi kalender joriy qilindi va unga ko'ra yil boshi 1-yanvarda boshlanadigan bo'ldi.<sup>142</sup> Lekin bu kunni bayram sifatida nishonlash haqida Papa Grigoriy XIII tomonidan hech qanday tavsiyalar bo'lmagan. Bu kalendar faqatgina Yuliy kalendariagi xatoliklarni tuzatish uchungina ishlab chiqilgan edi. Lekin xristianlik diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning eng asosiy bayrami 25-dekabrligicha qolgan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ayrim insonlar aytishyotganidek. "Yangi yil" bayrami hech qanday xristianlikning bayrami hisoblanmaydi va ushbu bayramga diniy tus berish mutlaqo xatodir. Ushbu anglashilmovchilikning kelib chiqishining asl sababi esa ayrim insonlar tomonidan xristianlik diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning eng asosiy bayrami Iso(a.s.)ni tug'ulgan kuni 25-dekabrda nishonlanuvechi "Rodjestvo" bayrami bilan chalkashtirilishidir. Vaholanki, "Rodjestvo" bayrami va "Yangi yil" bayramlari mutloqo boshqa-boshqa bayramlardir.

O'rta Osiyoda "Yangi yil" bayrami nishonlanishi masalasiga kelsak, yuqorida aytib o'tganimizdek O'rta Osiyoda sharqona "Yangi yil" bayrami "Navro'z" juda qadimdan nishonlanib kelgan. Bugungi zamонави "Yangi yil" bayramini esa O'rta Osiyoga kirib kelishi tarixi quyidagichadir. 1699-yil 15-dekabr kuni Rossiyada Pyotr I tomonidan yangi taqvim muomilaga kiritildi. 1700-yil 31-dekabrdan 1-yanvarga o'tar kechasi ilk bor Rossiyada birinchi "Yangi yil" bayrami nishonlandi. Lekin bu bayram dastlab ommaviy bayramlar safiga kirmagan. "Yangi yil" bayramini nishonlash keyinchalik, XIX asrдан boshlab ommaviy tus ola boshlaydi. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingaech. "Yangi yil" bayrami bizning yurtimizga ham kirib kelgan. Ammo ushbu bayram O'rta Osiyo mahalliy aholisi tomonidan deyarli nishonlanmagan. Zamонави "Yangi yil" bayramini O'rta Osiyoda ham nishonlana boshlanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu Sobiq

<sup>141</sup> [www.uz.wikipedia.org](http://www.uz.wikipedia.org)

<sup>142</sup> Rahmonqulova Z. Xronologiya. -T.: "Voris-nashriyot", 2013. -B.107.

Ittifoq davriga borib taqaladi. Ma'lumot o'rniда та'kidlash kerakki. 1917-1948-yillar davomida sobiq SSSRda "Yangi yil" bayramini nishonlash rasman ta'qilangan. Faqatgina 1941-1945-yillari II jahon urushida frontlardagi askarlarning kayfiyatini ko'tarish maqsadida janggohlarga "Qorbobo"lar tashrif buyurishgan va askarlarga turli sovg'alar ulashishgan. Shu tariqa urush tugaganidan so'ng, "Yangi yil" bayramini nishonlanishiga doir ta'qiq rasman olib tashlandi va 1948-yil 1-yanvardan boshlab. "Yangi yil" bayrami sobiq SSSRda ham keng miqiyosda nishonlana boshlandi.<sup>43</sup> Shu tarzda dunyoning ko'plab davlatlari qatori ezgu-umidlar bayrami—"Yangi yil" bizning Vatanimizda ham nishonlanib kelinmoqda.

### **Madaniy - ma'rifiy ishlarda muzeylarning o'rni va roli**

*Mirhakimova Feruza  
Nam DU O'zbekiston tarixi  
I-kurs magistranti*

Xalqimizning boy tarixi, madaniy merosi va yuksak qadriyatlarni mustaqil O'zbekistonning madaniy qiyofasini ko'rsatuvechi omil darajasiga ko'tarish va bu bilan xalqimizni, ajdodlarimiz merosi va ularning mislsiz bunyodkorlik xizmatlarini muzey vositalari bilan namoyish etish orqali fuqarolarimizda istiqolimizning qadrini yanada chuqur anglash tuyg'ularini shakkantirish muzeylar faoliyatining bugungi kundagi asosiy vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistondagi muhim tarixiy-madaniy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan muzeylarning to'laqoni ishlashi uchun qator chora tadbirlar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekabrda «Respublika muzeylarining faoliyatini yaxshilash choralar to'g'risida»gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. 1999 yil 5 dekabrda esa «Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi bu masalalarga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

Prezidentning 1998 yil 12 yanvardagi Farmoni esa muzeylar ishida tubdan burlish yasadi. Unga binoan barcha turdagи muzeylar faoliyatini muvoqiqlashtirish, qo'llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O'zbekmuzey» jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi.

Respublikamiz mustaqilligining 15 yilligiga Boysunning so'lim joylarining birida qad ko'targan hunarmandchilik markazi va xalq amaliy san'at muzeyi xalq an'anaviy me'morchiligi andozasida ochildi. Bunday muzeylarning ochilishi bir tomonidan davlatimizni an'anaviy qadriyatlarimizga, boy madaniy merosimizga katta e'tiboridan dalolat beradi, xalqning o'z tarixi, madaniyat,

<sup>43</sup> Google.ru History of New Year  
<sup>1</sup> «Guliston», 1998. №2, 5-bet.

san'atiga bo'lgan hurmatini oshiradi. Eng asosiysi o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Mo'jizalarga boy yurtimizning chekka tumanida barpo etilgan bu muzey ham o'ziga xos tarbiya o'chog'i, o'tmish bilan bugunni, bugun bilan kelajakni bog'lab turuvchi muhim madaniy vositadir.

Madaniy - ma'rifiy ishlarda **muzeylarning** rolini oshirishga katta ahamiyat berildi. Muzeylar asosan g'oyaviy-mafkuraviy vazifalarni bajaraq edilar.

Respublikamizdagi eng yosh **O'zbekiston kino san'ati muzeyi** 2005 yil 22 fevralida ochildi. Keyingi yillarda yig'ila boshlagan kino tarixiga oid ashyolar muzey eksponatlaridan joy oldi. O'zbekiston kino san'atida eksponatlar, fotosuratlar, stsenariylar, montaj varaqalari va boshqa hujjatlar to'planib, 30 mingdan ortiq saqlash birligidan iborat katta xazinaga aylandi. Hozirgi kunda muzey jamg'armasida O'zbekiston kino san'ati tarixini muhrlagan 5000 dan ortiq surat va negativ, o'tgan asming 20-50 yillarida suratga olingan 48 badiiy film saqlanmoqda. Shulardan 5 tasi YuNESKO «Oltin jamg'armasi» ro'yxatiga kiritilgan. Ular orasida «Tohir va Zuhra», «Alisher Navoiy» kabi mashhur tasmlar mayjud. O'zbekiston kino san'ati muzeyining tashkil etilishi xalqimiz madaniy taraqqiyoti yo'lida qilingan muhim ishlardan biri bo'lib koladi.

Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muzey larning o'rni beqiyosdir. Bu borada «Muzeyda bizning o'tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladidi», -degan edi Islom Karimov.<sup>144</sup>

Muzey (yunoncha - muzeion) «muzalarga bag'ishlangan joy» – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgoliklarni to'plash, saqlash, o'rghanish va tashkil qilish ishlarini bajaruvchi ilmiy-ma'rifiy muassasadir.

Muzeylar ijtimoiy vazifasiga ko'ra, ilmiy-tadqiqot, ma'rifiy (muzeylar ko'pehilikni tashkil etadi. Ba'zan ommaviy muzeylar deyiladi) ishlarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Ilmiy tadqiqot institutlari huzurida o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'taydi.

M.T.Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi Turkistonning mashxur olimlari va ommaviy arboblar xarakati bilan va bevosita raxbarligi va yordamida 1876 yilda tashkil etilgan.

O'zbekiston madaniyat va san'at tarixiy muzeyi 1896 yil 21 iyunda Samarkand shaxrida ochilgan. Muzey 1911 yilgacha Samarkand statistika muzeyi, 1918 yilgacha Samarkand shahar muzeyi, 1930 yilgacha Samarkand viloyat muzeyi, so'ngra O'zbekiston markaziy davlat muzeyi, 1930-37 yillargacha Samarkand viloyat tarixiy o'lakashunoslik muzeyi, 1937-1945 yillarda o'zbek xalqi madaniyati respublika muzeyi deb nom olgan.

Muzeylar dastlab qadimgi Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan. Bu mamlakatlarda ayrim san'at yodgorliklari ibodatxonalarda to'planib, turli ko'rgazmalar tashkil etilgan. Keyinchalik ellenizm davrida muzey kolleksiyalari vujudga keldi.

<sup>144</sup> Karimov I. Xalqimiz bor ekan. Amir Temur nomi barhayotdir. Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimida so'zlangan nutq. 1996 yil 18 oktyabr.-Asarlar. 5-tom.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-B 98.

Muzeylarda san'at, madaniyat va fan erishgan yutuqlaridan namunalaridan iborat kolleksiyalar to'plandi.

Hozir Respublikada 31 ta davlat va 150 ta xalq muzeyi bor. Keyingi yillarning o'zidagini O'zbekistonni 520 mingdan ziyod ajnabi va 840 ming turistlar kelib ko'rdilar. Shu vaqt ichida davlat muzeylarining o'zini 19 millionga yaqin kishi kelib tomosha kildi.

## Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi

*Niyozova Hilola,  
Namangan davlat  
universiteti Tarix yo'nalishi  
4-bosqich talabasi*

Qo'qon xonligi XIX asrda o'zbek xonliklari ichida hududi yirik, ushbu xonliklar ichida eng ko'p aholiga ega bo'lgan davlatga aylandi. Xonlik aholisining asosiy qismi va xonlikning asosiy shaharlarining aksariyat qismi Farg'on va Toshkent bekligi hududlariga to'g'ri kelardi. Qo'qon xonligida bu davrda ichki va tashqi savdo munosabatlari yaxshi rivojlangandi. Qo'qon xonligida 1780- yillarda bo'lgan F.S.Yefremov. Qo'qon xonligidagi savdo haqida qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Uning ma'lumotiga ko'ra. Qo'qon xonligi XVIII asrdayoq intensiv savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Turkiston xonliklaridagi ichki savdo asosan ko'chmanchi-chorvadorlar, o'troq dehqonlar va hunarmandlar o'rtaсидаги mehnat taqsimotiga tayanar edi. Ichki savdo, asosan, bozorlar yordamida amalga oshirilar edi. Bozorlar ichida eng yaxshisi Qo'qon bozori edi.

Qo'qon xonligida keyingi eng yirik savdo shahar Toshkent edi. Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Xo'jand, O'sh va boshqa shaharlarni rus tovarlari bilan ta'minlanar edi. Bu shaharlarga Toshkentdan 10 dan 15 minggacha qiymati 2375 ming so'mlik bo'lgan yuklar jo'natilgan. Qo'qon xonligi shaharlaridan Toshkentga qiymati – 4580 ming so'mga teng bo'lgan mahsulotlar jo'natilgan. M.I.Venyukovning ta'kidlashicha, uzun tor ko'chalarda rastalar cho'zilgan bo'lib, xudojo'y savdogarlar bu erda nafaqat savdo qilishgan, balki o'z mahsulotlarini ham ishlab chiqarishgan<sup>142</sup>.

1854-yili V.V.Velyaminov Zernov shunday yozgan. – "Har bir qishloqning o'z bozor kuni chor-atrofdan aholi savdo-sotiqqa oqib kelgan. Eng yaxshi bozorlar Qo'qon va Toshkent bozori bo'lib, bu erda haftaning ikki kunida yakshanba va chorshanba kunlari savdo bo'lardi. Shu kunlari qozoqlar podalarni haydab kelar, asosan ot va qo'y, qo'shni yashovchilar esa non, paxta matolari va turli uy jihozlari olib kelar edi. Ichki bozor, uning so'zlariga qaraganda, chakana bo'lib, ko'tarasi savdo deyarli yo'q edi. Qo'qon va Toshkentga non mahsulotlari asosan iyul va avgustda ko'p kelardi, chunki bu vaqtida harbiylarga bug'doy va jo'xori tarqatilar edi. Shunga qaramay, bir kishining don sotib olishi 700 – 1000 pudga to'g'ri kelardi."

<sup>142</sup> Жуомардиев А. XVI - XIX асрларда Фарғона ер - сув муносабатларига доир - I. Фан. 1965. - й. 89.

Qo'qon bozoriga xos xususiyatlardan biri mahsulotga tayinli narxning yo'qligi edi. Narx bozorga kiramidan mahsulotning soniga, sifatiga va mavsumiyligiga bog'liq edi. Narx-navoga hosilning mo'lligi, o'zaro urushlar, qo'zg'alonlar katta ta'sir ko'rsatar edi. Aholining misqloga teng daromadiga qaraganda qishloq xo'jaligi va boshqa mahsulotlarning narxi ancha qimmat edi. Masalan, hunarmandning bir kunlik daromadiga o'rtaча 3-5 kg bug'doy yo 1.5-2 kg sholi yoki 1 kg go'sht sotib olish mo'mkin edi.

Qo'qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro, Qoshg'ar va asosan, Rossiya va qisman Xiva, Hindiston, Afg'oniston, Eron kabi mamlakatlar bilan tashqi savdo katta o'r'in tutgan.

Qo'qon va Buxoro o'rtafigi savdo yil bo'yli davom etgan, lekin ikkita asosiy karvon Qo'qondan Buxoroga yoz boshida va kuz oxirida borar edi, deb yozadi Xanikov. Qo'qondan choyo, chinni buyumlar, ipak matolar, deyarli ko'proq rus tovarlari: temir, po'lat, cho'yan mahsulotlari olib borilar edi. Buxorodan olib ketiladigan asosiy mahsulotlar bo'yoq uchun o'simliklar va paxtadan tayyorlangan matolardan iborat edi.

Qo'qon xonligi Xiva bilan yaxshi diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan edi. Lekin V.V. Velyaminov-Zernovning yozishicha, «Savdo aloqalari bu davlat bilan juda past bo'lib, karvon juda kichik partiylar bilan borgan va u ham har yili emas. Olib kelinadigan narsalar Xiva choponlari, bo'z va ingliz chitidan iborat edi<sup>146</sup>». Bunga asosiy sabab, Xivaga bo'lgan karvon yo'li Buxoro xonligidan o'tar edi. Qo'qon xonligi bilan Buxoro xonligi o'rtafiga tez-tez urushlar bo'lib turar va bu hol nafaqat Xiva va Qo'qon o'rtafigi savdoni balki, Buxoro bilan ham savdoning rivojlanishiga xalal berar edi. Qo'qon – Xiva savdosiga Buxoroda ham. Qo'qonda ham tranzit mollarga soliq to'lashga to'g'ri kelar edi.

1831-yili Qo'qon xonligi Xitoy bilan Qoshg'arlik savdogarlardan soliq olish uchun shartnoma tuzadi. Bu shartnoma Qo'qon xoniga katta daromad keltirar edi. Shuning uchun Qo'qon xonligi ikki qo'shni davlat o'rtafiga savdo aloqalarini qo'llab-quvvatlar edi. Qo'qon xonligi bilan Qoshg'ar o'rtafigi savdo yiliga 30-40 ming tillani tashkil etgan. Qo'qondan Qashg'arga asosan ipak, bo'yoq va bo'z jo'natilgan. Qoshg'ardan gilam, nashatir, choy va bo'yra keltirilgan.

Qo'qon – rus savdo aloqalari xonlikning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutgan. Masalan, Orenburg bojxonasiga kelib tushgan soliqlar ko'rib chiqilganda shunday xulosaga kelish mumkin. 1758 – 1853-yillarda eksport 174000 dan 2177000 so'mga kumush bilan, import – 37000 dan 676000 so'mga ortgan. Demak, rus tovarlarining eksporti importdan 1495000 so'mga ko'p bo'lgan, ya'ni 3.2 marta o'sgan.

1865-yilning 23-apreliyagi ma'lumotga ko'ra, Toshkent, Qo'qon, Buxoro va Xivaga Rossiyadan temir, mis, po'lat, cho'yan va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, chit, past sifatli matolar, oz miqdorda baxmal, shakar, chinni idishlar, o'rtaча ko'zgular. Qozog'istondan oshlangan teri va hokazolar olib

<sup>146</sup> Бабадеков Х.И. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки. (XVIII-XIX). – Т. Физ. 1990 – С. 30-32.

ketilgan. Rossiyaga esa ipak va paxtadan tayyorlangan choponlar, bo'yralar, paxta, quritilgan mevalar, gurunch, gilamlar keltirilgan.

Qo'qon xonligidan olib ketiladigan mahsulotlardan asosiyi XIX asrning 60-70-yillarda paxta edi. Agar 1840 -1850-yillarda 18119 so'mlik mahsulot olib chiqilgan bo'sha, faqatgina 1867-yilning o'zidagina 274293 so'mlik mahsulot olib chiqilgan<sup>147</sup>.

Rus savdogarlari ham Qo'qon xonligi hududida. Qo'qonliklar Rossiyada ega bo'lgan huquqlariga ega bo'lishdi. Qo'qon Rossiyadan 600 ming so'mlik tovar olar, va yana Toshkentlik savdogarlarda 2 million so'mlik mahsulot kelar edi.

Faktlar shuni ko'rsatadiki, o'zaro savdo-sotiqliqdan Qo'qon xonligi ham, Rossiya ham manfaatdor edi, holbuki Rossiya bu davr ichida ko'proq foyda ko'rар edi. Chor Rossiyasi 1868-yil imzolangan shartnomadan so'ng o'zining savdo-sotiqliq uchun shartlarini talab qila boshlaydi. Shu bilan birgalikda, o'zaro savdoning rivojlanishini xonlikda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga va mahalliy aholi hayotiga rus madaniyatini elementlarining kirib kelishiga sabab bo'ldi. Xonlik chor Rossiyasining engil sanoat xom ashyo hududiga aylana bordi.

### **"Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasining o'ziga xos jihatlari**

*Arziqulova Husnida,  
BTI va STI 404-guruh talabasi  
Ilmiy rahbar: B.Tillayev*

Bugungi kunda dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda har bir insonning iqtidori va salohiyatini jamiyat taraqqiyoti sari yo'naltirishga undalmoqda.

O'zbekistonning davlat siyosatining tub mohiyatini odamlarga tushuntirish, ularning bu siyosatni qo'llab-quvvatlashlariga erishish, vujudga kelgan muammolarni hal qilishda jamoatchilikning sikriga tayanish, siyosiy qarorlar qabul qilishda aholining manfaat va istaklarini o'rganish, davlat organlari va davlat xizmatchilariga nisbatan jamoatchilikda ijobji munosabat uyg'otish, kishilarga yetkazilayotgan axborot oqimini milliy manfaatlarga mos o'zanga yo'naltirish, fuqarolarni yot mafkuralarning zararli ta'siridan himoyalash vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladigan yangi texnologiyalardan foydalanishga extiyoj tobora ortib bormoqda.

Ana shunday texnologiyalardan biri «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyasıdir.

«Public relations» (PR) «Jamoatchilik bilan aloqalar» targ'ibotning demokratik usullaridan biri sanaladi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari davlat bilan xalq o'rtasida muloqot o'rnatib, fuqarolarda davlat

<sup>147</sup> Бобебеков Н. Кўк он тарихи - Т. Фан. 1996. Б. 123.

siyosatiga moyillik uyg'otishga xizmat qiladi. Shu orqali davlatga hamfikr insonlarni ko'paytirib, ularni ishonchli hamkoriga aylantiradi.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» insonlar fikrlariga, kayfiyatiga, xissiyotiga va oxir oqibat xatti-harakatlari kuchli ta'sir ko'rsatuvchi «ishonch va istaklar strategiyasidir».

Etakehi davlatlarda bu texnologiyalardan foydalanish maskuraviy ta'sir ko'rsatish industriyasi darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda ham maskuraviy jarayonlarni tartibga solishda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish milliy g'oya targ'ibotining ta'sirchanligini, so'zsiz, oshiradi.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» u boshqaruvinning alohida usuli bulib, boshqaruuv tuzilmalarining jamiyat mansaftalariga xizmat qilishiga e'tiborni qaratish, amalga oshirilayotgan islohotlarga jamoatchilikni safarbar qilish, jamiyatda vujudga keladigan noxush holatlardan ogoh qilish orqali ularning oldini olishga xizmat qiladi. Jamoatchilik bilan aloqalar qonuniy, ochiq, samimi, ahloqiy me'yorlarga mos keladigan muloqotlar asosida amalga oshiriladi.

Qator mamlakatlarning davlat boshqaruvida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining qo'llanishi boshqaruuvning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan davlat va jamiyat o'rtasidagi ikki tomonloma hamkorlik usuliga o'tishga xizmat qiladi. Buning natijasida, davlat va jamoatchilik o'rtasida mavjud ko'zga ko'rinnas to'siq olib tashlanib, demokratik ruhdagi fuqarolar uchun ochiq, ularning talablariga javob beruvehi, o'zgarishlarga tez moslashuvchan yangicha, samarali ishlaydigan boshqaruuvchilar qatlami shakllandi. Shu bilan birga, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash fuqarolar ongiga demokratik qadriyatlarni samarali singdirishga, ularda vatandarvarlik tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Siyosiy fanga oid adabiyotlarda «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga quyidagicha umumiy ta'rif berilgan: «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari davlat organlari va boshqa turdag'i tashkilotlarning insonlar, ijtimoiy guruuhlar, korxonalar bilan o'zaro tushunish va ishonch muhitini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatidir. «Jamoatchilik bilan aloqalar»ning ilmiy asosda o'rganilishi ushbu texnologiyalarni qo'llayotgan sub'ektga olib borilayotgan siyosatni qo'llanish uslublarini o'zlashtirish imkonini beradi. Quvvatlovchilarni aniqlash, jamoatchilik fikrini o'rganish, sub'ekt uchun ahamiyatli bo'lgan axborot oqimlarini boshqarish uslublarini o'zlashtirish imkonini beradi.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalariga I.Solov'yov tomonidan berilgan ta'rif xam e'tiborga loyiq: «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari axborot texnologiyalarining bir turi bulib, biror siyosiy maqsadni amalga oshirishda retsipient ni hurmat qilgan holda axborot-tahviliy faoliyat yuritishni nazarda tutadi, deb yozadi u. – Ushbu texnologiyalar kommunikator va retsipient o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaratishga xizmat qiladi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining xaqiqatga asoslanishi mavjud muammolarni keng jamoatchilik o'rtasida erkin muhokama kilish imkoniyatini

beradi va fugarolarda siyosiy qarorlar qabul qiluvchi markaz hakida ijobjiy tasavvur uyg'otadi. Bu texnologiyalar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

- axborotning xolisligi va oshkoraliq;
- o'zaro munosabatlarda ham kommunikatorning, ham retsipientining manfaatlarini xisobga olish;
- jamoatchilik fikriga tayanib faoliyat yuritish, jamoatchilik fikrini xurmat qilish;

Axborot yetkazish faoliyatining bunday tashkil etilishida kommunikator retsipientga shunchaki axborot qabul qiluvchi deb emas. balki uz dunyoqarashiga ega shaxs sifatida murojaat qiladi. Shu sababli, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining ishtirokchilari jamoatchilik fikridan doimo boxabar bo'lib turadilar».

### **Oilaviy munosabat mezonlari**

*S.Xoldarova*

**BTI va STI 402–guruh talabasi**

*Ilmiy rahbar: B.Tillayev*

**Oilaviy munosabatlar** – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva – buvilar) hamda farzandlar o'rtaida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvechi munosabatlardir.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota – onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlarini doirasi kengayadi. o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real xayot moxiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini ko'rish xolati ro'y beradi.

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'llishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'llishida oila tarbiyasini asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy – ruhiy muxit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Sharqda azal – azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga xarakat qilindi.

Oilani tashkillash (ya'ni tuzish) jamiyat rivojining uzoq tarixiga borib taqaladi va u tarixiy jarayonda bir qancha bosqichlardan o'tib kelgan. Binobarin, hozirgi davrdagi oila va oila munosabatlari tamoman yangi tipdag'i oilalardir. Oila tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, u ijtimoiy hodisa sifatida juda ko'p vaqtidan buyon olimlarning diqqatini o'ziga jaib qilib kelmoqda.

Oila qurish va oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishga oid bo'lgan dunyoviy va diniy maqomdagi muammolar: allamolar, qonunshunoslar, faoliyatida, olimu fuzalolar, shoir va yozuvchilarning diqqatini o'ziga jaib etgan. Oila mohiyatining an'anaviyligi, milliy, diniy va umuminsoniy ahloqiy

qadriyatlar tizimida tutgan o'rni, oila muhitining barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni klassik va hozirgi zamon falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng o'zbek oilasi ma'naviy madaniyatini takomillashtirish, uning dunyoviy va diniy asoslarini chuqur o'rganish, ularni hayotga tatbiq etishga katta e'tibor berildi. Bu dolzarb muammoni tatqiq etishda Burxoniddin al-Marg'inoniyning "Hidoya", Imom Buxoriy to'plagan "Hadis"lar, Rizouddin Ibn Faxruddinning "Nasiyhat", Abdulvahob Xallosning "Usulul fiqh" kabi asarlari xalqimiz oila madaniyati shakllanishi jarayonlarining muhim tamoyillarini ilmiy asoslashga bag'ishlangandir.

Oilani shakllanishi uchun quyidagi omillar bo'lishi taqazo qilinadi:

- ijtimoiy omillar
- siyosiy-huquqiy omillar
- iqtisodiy omillar
- ma'naviy-ahloqiy omillar

Oiladagi tarbiya, uning ahamiyati xususida "Vatan tuyg'usi" nomli kitobning mualliflari shunday fikrini bildiradilar: "O'zbek oilasining fazilatlari ko'p shu bilan birga uning sirli tomonlari ham bor. Bu esa har bir oilaning o'z ichki ishi, ularni gapirish odobdan emas. Chunki, oila-daxlsiz muqaddas dargoh. Oila-millat parvozi uchun ilk uchish maydoni. O'zbek oilasi bolajonli oila".

Hayot davomida insonning ma'naviy kamolotiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Oilaning jamiyat uchun muhimligi uni inson ma'naviy kamolotida o'ziga xos məktab ekanligidadir. Olim T.Mahmudov bu muammo haqida shunday deydi: "Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib biz ko'zlagan oliy maqsadni ozod vaobod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi".

Shu sababli oilani mustahkamlash, uning moddiy, ma'naviy sharoitlarini yaxshilash, farzand tarbiyasi borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tizimida katta o'rinn olmoqda.

Farzandlar ota - onaga nisbatan mehr - muhabbat ko'rsatish asnosida farzandga nisbatan onaning haqi otaga qaraganda ikki barobar yuqori yoki ko'proq ekanligini unutmasliklari kerak. Ota dunyodan o'tgach, uning do'stlari, ulfatlari, sevgan kishilariga yaxshilik qilish otaga yaxshilik qilish bilan barobar bo'ladi.

Oilaning munosabatlari barqaror bo'lismida ayollarning ahloqi, odobi, eriga, farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbati ham katta ahmiyatga ega. Ona farzandining go'daklik chog'idan oq tarbiyalaydi, ota ta'siri esa, farzand qalbiga keyinroq singadi. Ona farzandini oyoqqa turg'azadi, ota esa uni hayotga yetaklaydi.

Oilaviy tarbiya — bola rivojlanishi uchun eng qulay shart — sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashga, har tamonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan oila faoliyatidir. Oila tarbiyasi

bolaning tug'ilgan kuniданоq boshланади va улarning то'ла mustaqil, individual va o'ziga xos bo'lgunicha uzlusiz davom etadi. Ota - onalar va oilaning yoshi katta a'zolari tomonidan amalgа oshiriladi. Oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo'lishi, уlarning oila tarbiyasida birdamlik va tenglikka erishishi, kuch - g'ayratlarini birlashtirishiga bog'liq. Oilaviy tarbiya emotsiонаl asosga quriladi, chunki tarbiyachilar bolaning eng yaqin kishilari hisobланади. Boshqa kishilarga ehtiyoj, o'zgalarni sevish extiyojiga asosланади. Oilaviy tarbiya asosiy yo'nalishlaridan biri — bolani xushxulq bo'lishga o'rgatish.

### **Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili leksikasini o'rgatishga doir**

*Abduvoxidova Xushnoza*

*NamDU talabasi*

Chet til o'qitish metodikasida *til materiali* mufassal tadqiq etilgan sohalardan biridir. Nutqda fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun til materialini qo'llay bilish talab etiladi. Zamонавиy o'qitish amaliyotida til materiali tushunchasi ikki ma'noda talqin etiladi: (1) leksik, grammatik, fonetik va boshqa lisoniy birliklar majmui; (2) o'qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, til sistemasidan tanlab olingan til minimumi deb atalgan. o'quvchilar uchun chet til materiali hisobланадиган birliklar yig'indisi.

Til materiali borasida so'z yuritganda, uch metodik tushunchani bit-biridan farqlashga to'g'ri keladi; (1) chet til o'qitish mazmuni, (2) uning tarkibidagi til materiali va (3) undan ajratib olinadigan til materialini o'qitish mazmuni. Bunda leksik minimumdan leksikanı o'rgatish mazmuni, grammatik minimumdan grammatikanı o'rgatish mazmuni, talaffuz materialidan talaffuzni o'rgatish mazmunini ajratib olish, va ularni o'rganishda maxsus mashqilar bajarish, binobarin, tegishli vaqt hamda kuch sarflash shart bo'lgan til hodisalarini tanlash masalasi turadi.

Til materialini, bir tomondan, sezgilar yordamida aytish, eshitish, ko'rish va yozish mumkin, ikkinchi tomondan esa, nutq faoliyati turlarida ularni qo'llash va idrok etib tushunish mumkin. Ma'lumki, o'qitish amaliyotida ingliz tili o'rganishda har qaysi bosqich va tashkiliy qism(o'quv yurt)lari uchun alohida-alohida leksik, grammatik, talaffuz, imlo, so'z yasash minimumlari tanlanadi. Tanlash mezonlari umumiyl bo'lsada, shakllantirilgan til minimumlari miqdoriy va sifat jihatidan bir-biridan farq qiladi. Jumladan, kollejlarda til materialini metodik tayyorlash (tanlash, taqsimlash, tasniflash va taqdimot) va o'rganish uchun taqdim etilishi ham o'ziga xos jarayondir.

Zamonавиy ehet til o'qitish metodikasida *leksikani o'rgatish* nutq faoliyati turlarini egallash vositasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tili o'qitish metodikasida leksikani o'rgatish ikki bosqichdan iborat jarayon deb qaraladi. Birinchisi, leksikani metodik tayyorlash (tanlash, taqsimot, tasrif, taqdimot) bosqichi bo'lib, ushbu jarayon mazkur soha metodistlari tomonidan amalgа oshiriladi. Ikkinchisi, leksik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichi bo'lib, ushbu jarayonda bevosita o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'qitish metodikasida o'quv sharoitiga qarab aktiv (reproduktiv) va passiv (retseptiv) leksika tanlanadi. O'quvechi o'z fikrini bayon etayotganida va o'zgalar nutqida tushuniladigan lug'at aktiv leksika deyiladi. Idrok etib tushunishga mo'ljallangan lug'at passiv leksik minimum hisoblanadi. Ingliz tilini o'rgatishda o'quvechi hali o'rganmagan, lekin ushbu lug'atga duch kelganda o'quvechi uni ona tili, ikkinehi til yoki chet tilning shakliy (formal), ma'noviy (semantik) tomonlarining o'xhashligi tufayli bilib olishning ichki imkonii bor leksik birliklar ham mayjud. Ular potentsial lug'at deb ataladi.

Potentsial lug'atni og'zaki (audiomatnda) yoki yozma (grafikmatnda) shaklda taqdim etilishi ehog'ida bilib olish mumkin. O'rta umumta lim mакtablarida potentsial lug'at boyligini o'rgatish masalasiga alohida to'xtalish zarur. Chunki, mazkur o'quv yurtida ixtisoslikka oid kasbiy atamalar bilan ishslashga to'g'ri keladi. Kasbiy terminologiyadagi juda ko'p leksik birliklarning ona tili, ikkinehi til va ingliz tilida shakliy-ma'noviy va talaffuz tomonlarida o'xhashlik mavjud bo'lishini kuzatish mumkin.

Potentsial leksikani o'rgatish bo'yicha metodik tadqiqotlar bajarilgan. Jumladan, tadqiqotchilar J. Jalolov va Q. Qiyyasova qurilish kollejlariда o'rganiladigan ingliz tili potentsial leksikasini quyidagicha tasniflashgan: 1)

shakli va ma'nosni ona tili, ikkinehi til hamda ingliz tilida o'xhash so'zlar (architect – arxitektor, cabel – kabel, cottage – kottej, engineer – injener, metal – metal); 2) shakli va ma'nosni ikkinchi til hamda ingliz tilida o'xhash, lekin ona tilida farq qiluvchi so'zlar (construction – konstruktsiya, instrument – instrument, style – stil); 3) shakli va ma'nosni ikkinchi til hamda ona tilida o'xhash so'zlar (beton, zal, mebel, mramor, pol, shaxta va h.k.). O'zbek maktablari uchun ingliz tilidan lug'at minimum yaratilgan bo'lib, 1645 ta birlikni o'z ichiga oladi. Ulardan 1111ta leksik birlik o'quvchilar real lug'at boyligini. 53-tasi potentsial lug'atni tashkil etadi.

Leksikani metodik tashkil qilishdagi navbatdagi tadbir uning taqsimotidir. Til materialini taqsimlash masalasi metodikada kam e'tibor berilgan sohalardandir. O'quv materialining taqsimoti fan asoslarini o'rganuvchi fanlarda osongan qiyinda, shuningdek, boshqa didaktik printsiplar asosida amalga oshiriladi. Ingliz tilida nutq faoliyat turlarining o'rganilishi bilan bog'liq holda taqsimlanadi. Leksikaning taqsimoti ikki bosqichda amalga oshiriladi: (1) aktiv va passiv leksik minimumlar ajratiladi; (2) reproduktiv va retseptiv tarzda egallanadigan leksika kurslar bo'yicha taqsimlab chiqiladi.

Ikkinchisi bosqich taqsimotida leksika yanada kichikroq miqdordagi guruhlarga ajratiladi: (1) leksika nutqiy mavzular bo'yicha darslikda taqsimlanadi; (2) bir soatlik dars uchun so'zlar miqdori belgilanadi; 3) mashqlar materiali sifatida leksik birliklar tarqatiladi.

Taqsimot jarayonida leksik birliklarning xususiyatlari, nutqning idrok etib tushunish (tinglab tushunish, o'qish) yoki fikr bayon etish (gapishtish, yozuv) turlari hisobga olinadi.

Xullas, leksikaning taqsimoti quyidagi metodik mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin: 1) leksikani nutq faoliyati shakli(reprodukтив va retseptiv)ga qarab ajratish, ya'ni nutq talabiga ko'ra taqsimlash yoki o'qitish maqsadlarini

nazarda tutish; 2) nutqiy mavzularni hisobga olish; 3) o'quvchilar til tajribasini hisobga olish; 4) til ichki interferentsiyasi(salbiy ta'sir)ni bartaraf etishni ko'zda tutish; 5) yangi grammatik hodisalarни tanish leksik birliklarda; yangi leksikani o'rganilayotgan grammatic vositada berish; 6) leksik qiyinchiliklarni bo'lib (chegaralab) o'rgatish. Uchinchi bosqich – leksikaning tasnifi ham chet til o'qitish metodikasida muhim tadbirdardan biri hisoblanadi. Metodistlar o'quvchilarning til tajribasini hisobga olgan holda o'rganiladigan leksik birliklarni oson/qiyin guruhlarga ajratadilar.

XX asrning oltmishinchi va etmishinchi yillarda bu boradagi ilmiy ma'lumotlar umumlashdirildi. yangi tasnif mezonlari o'rta ga tashlandi. Sobiq Ittifoqda I. V. Raxmanov, V. A. Buxbinder, S. V. Kalinina, L. Z. Yakushina, M. S. Latushkina, N. B. Nikolaev, A. A. Zalevskaya, M. A. Pedanova, Yu. V. Gnatkevichlar turli nuqtai nazardan turib. chet til leksikasini toifalarga ajratishgan bo'lsa. o'zbek milliy auditoriyasi uchun J. Jalolov, H. Saynazarov, M. Chorievlar ingliz tilli leksikasini tasnifi ustida tadqiqotlar olib borishgan. Yuqoridagi tadqiqotlarda chet til leksikasining xususiyatlari, tilning ichki va tillararo interferentsiyasiga bog'lab tasniflash. aktiv va passiv lug'atga xos qiyinchiliklar o'rganilgan.

### **Uyg'onish davrida ilm-fan taraqqiyoti**

*Xudayberdiyeva Muqaddam  
BTI VA STI 404-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: B.Tillayev*

Uyg'onish davrida Movarounnahr va Xurosonda nafaqat dunyoviy ilm-fan. balki diniy ilmlar ham rivoj topdi.

Ismoil Jurjoniy, Mahmud Chag'miniy, Burxoniddin al-Marg'inoniy kabi allomalarimiz yaratgan ilmiy-ma'naviy meros ham vatanimiz shuhratini olamga taratdi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo hududida yuz bergan uyg'onish davrida ko'plab favqulodda iste'dod sohiblari yetishib chiqdiki. ular jahon fanining turli yo'nalishlarida betakror kashfiyotlar, chinakam mo'jizalar yaratdilar. Bu bilan ular Vatanimiz shonu-sharafini yuksaklarga ko'tardilar. Hamda kelgusi minnatdor avlodlar uchun bitmas tunganmas boy meros qoldirdilar. Shu boisdan ham ulug' ajdodlarimizning ruhi munavvar siymosi hamisha har birimizning jismu-jonimizda, mehrimizda namoyon bo'lib turadi.

IX-XII asrlar davri nafaqat dunyoviy fanlarning yuksalib borishi bilan, shu bilan birga islomiy madaniyat va ma'naviyatining shakllanib, chuqur ildiz otib borishi, bu sohada talay yetuk olimu ulomolarining yetishib chiqib. Vatanimiz nomi va sha'nini olam aro ulug'langanligi bilan ham taysiflanadi.

Gap shundaki arablar istilosи va hukmronligi O'rta Osiyo xalklari uchun avvalda qanchalik haloqatli oqibatlar, mislsiz vayronagarchiliklar olib kelgan bo'lsa-da, biroq shu bilan birga bu yurtga islom dini ham kirib keldi. Yerli aholining asta-sekin islom diniga kirishi, odamzod ahli uchun yakkalari yagona Olloho ni tanishi, unga, uning rasuli (elchisi) janobu Muhammad Alaysu Namra lomga e'tiqod bog'lashi, itoat etishi, muqaddas kitob «Quron Kur'an»ni qidol-

qilishi, uning ilohiy so'zlarî, oyatlariga, tamoyillariga amal qilishi, bular pirovardida islom madaniyatining diyorimizda shakllanishiga asos bo'ldi. O'sha davrda Yevroosiyo, Afrikaning katta hududlariga yoyilgan islom va uning ta'llimoti tufayli O'rta Osiyo xalqlari o'zlarining tor, biqiq holatidan chiqib, keng musulmon dunyosi bilan tutashdilar. O'lka aholisi arab fani, madaniyat, ma'naviyati bilan yaqindan tanishish, ulardan bahrmand bo'lish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Bu hol, shubhasiz, o'lkaning jahonga yuz tutishiga imkoniyat yaratdi. Buning orqasida mahalliy xalq orasidan juda ko'p ilm-sanga ishtiyoqmand yoshlarning arab va ajam mamalakatlariga borib diniy va dunyoviy bilimlarni egallashi, zamonaning har tomonlama yetuk, bilimdon, ma'rifatli olimulamolari bo'lib yetishishlariga keng yo'llar ochildi. Xuddi mana shunday keng ufqlar, imkoniyatlar kashf etilgani bois ham ulug' ajodolarimiz Abu Nasr Farobi, Ahmad Al Farg'oniy, Muhammad Muso Al-Xorazmiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn-Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termizi, Mahmud az-Zamahshary singari allomalar jahon kezib, mashaqqatlar ila ilm o'rganganlar, yetuk komil insonlar bo'lib sharaf topganlar.

## Milliy o'zlik va ma'naviyat

*T.Xudoyberdiyev,  
Nam DU 3 kurs talabasi*

Xalq milliy ma'naviy merosidan ozuqa oladi, milliy o'ziga xosligini saqlab turishga, milliy mansaatlarni amalga oshirishga va milliy taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Bunyodkor g'oyalari madaniy meros va tarixiy xotiraga tayanadi.

Hozirgi zamonda milliy o'zlikni anglash O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim sharti millat, fuqarolarning chinakam ozodlikni totli mevasi ta'mini bilish, uning qadriga yetish, milliy tiklanish va o'zlikni anglashning ahamiyatini anglatadi. Millat mansaatlariiga, mustaqil davlat istiqbollariga loyqadlik bilan qarash, unga befarrq bo'lish siyosiy kaltabinlik va manqurtlikdir. Milliy o'zlikni anglash zaruratini anglamagan xalq o'z Vatanini taqdiriga ham befarrq bo'лади.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Mamlakatimiz erishgan yutuqlarning tub mohiyatiga yetib borish uchun bugungi hayotni kechagi hayot bilan solishtirib ko'rish kerak. Shundan keyin odam bugungi hayotining qadriga yetadi. Yurtimizdagи mislsiz o'zgarishlarni o'z hayoti, oilasi, qishlog'i, maktabi, ishxonasasi misolida ko'rgan kishiga o'tgan kunlar bilan bugungi kunning farqi hamda afzalliklari to'g'risida tashviqot yurgizishga hojat qolmaydi. O'ylaymanki, «Yashasin sovet davlati, yashasin komunistik partiya» degan gaplar quruq safsata bo'ganini ongli yashaydigan xalqimiz bugun yaxshi biladi. Sovet davrida bizga xuddiki ikkinchi sort odamlar sifatida qaragani bu zalda o'tirganlarning esidan chiqmagan bo'lsa kerek. Markazdan bir guruh «desantch»lar yuborilib, adolatsiz tuzum tufayli o'zi shundoq ham nochor

yashayotgan xalqimiz poraxo'rqa. «piripiskachi»ga chiqarilganini unutib ham, kechirib ham bo'lmaydi.<sup>48</sup>

Yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirishda milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his, milliy xarakter kabi tushunchalar ham muhim o'rincutadi.

O'z millatining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo'lgan kishilarda milliy o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilish mayli kuchli bo'ladi. Millatlar mavjud ekan milliy ong ham mavjud bo'laveradi. Milliy ongni yuksaltirishga e'tibor bermagan millatning o'zi yo'q. Milliy ong millat bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham u millat ravnaqi bilan barobar taraqqiy etib boraveradi.

Milliy o'zlikni tarbiyalash, qadrlash, saqlab qolish omili milliy g'oyani mustahkam hayotiy zaminga, xalqimizning chuqur tarixiy ildizlariga tayanishi "Kim edik?" degan savolga javobni tinimsiz izlashga da'vat etib, milliy o'zligimizni teran idrok etishga yordam beradi.

Shuning uchun ham, milliy-ma'naviy tiklanish zamirida fuqarolarimiz ongu-tafakkurini o'stirish zarur. Milliy o'zlik tuyg'usini, uni qadrlashni tarbiyalash lozim. Abdulla Avloniyning aytgan "tarbiya bizlar uchun yo xayot yo mamot, yo najot -yo falokat masalasidur", -degan so'zlari bugungi kunda yangi mazmun kash etib, o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Milliy o'zlikni anglashdagi tavofutlar, milliy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni milliy davlat, jamiyatdagi siyosiy partiyalari, ijtimoiy harakatlar, jamoat va nodavlat tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifa muassasalari, butun jamoatchilik kuchi bilan qadam-baqadam hal etib borish o'z-o'zini va milliy o'zlikni anglayotgan, uni chuqurlashtirayotgan individual va ijtimoiy ongning to'g'ri ijtimoiy yo'nalish olishi uchun kafolatdir.

Har bir mustaqil davlat o'z davlat tiliga ega bo'lishi kerak. Davlat tili shu mamlakat tub aholisi manfaatlari, tarixidan kelib chiqib belgilanadi. O'zbekistonda aholining 72% dan ortig'ini o'zbeklar tashkil etgani bois, bu xalq azaldan ana shu hududda istiqomat qilib kelganligi va boy madaniy, ma'naviy boyliklar egasi ekanligi uchun o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Mustaqillik tufayli sovetlar davrida "mayda xalq" deb yerga urilgan millat va uning ona tilining nufuzi oshdi.

Til to'g'risida qabul qilingan qonun milliy ma'naviy tiklanish yo'lida qo'yilgan qadamlardan biri bo'ldi. Katta tarixiy axamiyatga ega bo'lgan ushbu qonun yurtimizda istiqomat qilayotgan ko'plab millatlar va elatlarning tillarini rivojlantirish imkonlarini yaratib berdi, ko'plab millatlar o'z ona tilida muloqat qilish, bilim olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Mazkur qonun sovet tuzumi davrida boshqa millatlar ona tiliga bo'lgan tayziqlarga barham berish imkoniyatini yaratib berdi. 1992 yilda qabul qilingan amaldagi Konstitutsiyamiz esa davlat tili maqomini huquqiy jixatdan mustahkamladi.

<sup>48</sup> Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti u iqboli va buyuk kejagi yo'lida xizmat qilish – eng oly saodatdir. Toshkent "O'zbekiston" – 2015. 77 b

Ona tili ravnaqi milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida katta roľ o'yaganligi uchun ham, mustaqillik yillarda davlat tilining milliy-ma'naviy tiklanish jarayonidagi rolini oshirish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Milliy-ma'naviy tiklanish jarayoni iqtisodiy-moliyaviy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun xam, ushu sohalarda amalga oshirilayotgan islohatlar jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirishga o'zining katta hissasini qo'shmaqda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti doimo o'zaro uyg'unlikda bo'lib kelgan. Insonning kundalik hayotida, uning butun umri davomidagi faoliyatida ma'naviy yuksalishning asosiy omillaridan biri moddiy asos ekanligi tarixiy jarayonlarda o'zini isbotlab berdi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy-ma'naviy tiklanishga erishish maqsadida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligini kuchaytirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda, bu bog'liqlikni kuchaytirish tarixiy zaruriyatdir.

### Istiqlol va ma'naviy yangilanish

*To'xtaboyeva Oydina Muhammadjon qizi*

*BTI va STI 404-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: B.Tillayev*

Mustaqilikka erishish, ajdodlarimizning boy milliy-ma'naviy merosini tiklash, milliy-ma'naviyatimizni yuksaltirish doimo xalqimizning asriy orzularidan bo'lib kelgan.

Ma'lumki, qadimiy Turkistonning mislsiz tabiiy resurslari, moddiy va ma'naviy boyliklari bir necha yuz va ming yillar osha ajnabiylar mamlakatlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib, hasadu havasini kuchaytirib, bosqinchilik ishtahalarini avj oldirib kelgan. Bu yurtga, jannatmakon bu o'lkaga qanchadan-qancha dushmanlar, qilichidan qon tomib turgan bosqinchi galalar bostirib keldi va xalqini asoratga solib, moddiy va ma'naviy boyliklarini oyoq osti qildilar. Har safar bu yerning vatanparvar xalqi o'z vatani mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borib, yuzlab jasur, otashqalb farzandlaridan ayrildi.

Turkiston eng qadimiy davrlardan boshlab dushmanlarga qarshi kurashda buyuk jasorat maydoni bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy istilosi, Eron shohlari va Yunon-makedon, Eftalitlar, arablar va mug'ul – tatar bosqini, Chor Rossiyasi, Sovet davlatining istlochilik harakatlarini eslab o'tish kifoyadir.

Mustaqillik tushunchasi o'zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

Eng avvalo shuni aytish kerakki. Mustaqillik tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam. Chunki, tenglik bo'lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo'ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik, o'zgalar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo'ladi.

Natijada biz so'nggi bir yarim asr mobaynida boshimizdan o'tkazgan mustamlakachilik dunyoga keladi. «Tenglik» so'zining qudrati shundaki. u odamlarning o'zaro munosabatlardan tortib. davlatlararo munosabatlargacha hamma narsani me'yor-mezonga soladi. turli kamsitishlar yoki mantiqsiz ta'zim-tavozega chek qo'yadi.

Istiqlolga erishishimiz xalqimizning azaliy orziqib kutilgan orzu-umidlari ushalishiga. ozod va obod Vatanning hur fuqorolari bo'lib yashashdek asriy imkoniyatga yetishganligimizning naqadar ahamiyatli ekanligi dolzarb mavzu sifatida o'rganilishi ko'zda tutilgan.

